Polvoniyoz Hoji Yusupov «Xotiralar»i bu tarixiy davrni, Xivada jadidchilik harakati faoliyati to‘g‘risida juda muhim manbaa hisoblanadi. Bu «Xotiralar» da Muhammad Rahimxon II (Feruz) davridan to Turkistonda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilgunga qadar davr yoritilgan. Bu asardan biz XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi voqealar to‘g‘risida mukammal ma’lumot olsak bo‘ladi. Uning bu davr voqealarini, odamlarini tasvirlashidan shu narsani tushunsak bo‘ladiki, bu davr odamlari juda sodda, ishonuvchan bo‘lgan ekan. Shuning uchun ham ular, Yosh xivaliklarning sovetlar yordamida qurgan davlat uzoq yashamadi. Sovetlar Yosh xivaliklardan foydalanib, bu Xiva xonligi hududini ham o‘z ta’sirlariga tushirib bildilar.Polvoniyoz Hoji Yusupov (1861-1936) – Xorazmda Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, Yosh xivaliklar partiyasining asoschisi bo‘lgan. U 1861-yil Xiva shahrida savdogar oilasida tug‘ilgan. Eski maktabda tahsil olgach, savdo ishlari bilan shug‘ullangan. P.Yusupov 1877-yili amakisi bilan Moskvada bo‘ladi. U arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgan. 1904-yili Turkiya, Misr, Suriya mamlakatlarida va Makka shahrida bo‘lgan. 1914-yili u jadidlarning «so‘l oqimi» dan ajralib chiqqan Yosh xivaliklar partiyasini boshqaradi. P.Yusupov 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni Asfandiyorxonga taqdim etilgan davlat boshqaruvida islohotlar o‘tkazish to‘g‘risidagi manifest mualliflaridan biri edi. Manifestga binoan 1917-yil 8-aprelda Xiva xoni huzurida mamlakatni yangicha boshqarish uchun Majlis tuziladi. P.Yusupovga Rossiya hukumati va rus qo‘shinlari bilan munosabatlarni barqarorlashgirish vazifasi yuklatildi. Biroq Asfandiyorxonning jadidlarga qarshi siyosati natijasida, u 1917-yil oxiridan boshlab ikki yil Toshkentda muhojirlikda yashaydi. Turkkomissiya muhojirlikdagi Yosh xivaliklar pargiyasidan Xiva xonligini ag‘darib Xorazmda sovetlar andozasidagi yaigi hukumat tashkil qilishni rejalashtiradi.[5:10-13.] 1918-yil boshida Toshkentda muhojir Yosh xivaliklardan tashkil qilingan komitet bolsheviklar ta’sirida edi. P.Yusupov Yosh Xivaliklar Komitetining raisi qilib saylanadi. Shu tariqa, bolsheviklarga yaqinlashgan Yosh Xivaliklar partiyasi va uning raisi P.Yusupov Xiva xonligini ag‘darishda ulardan «yordam» so‘rashga majbur bo‘ladi. P.Yusupov Xorazm hukumatining raisi sifatida birinchi kundanoq o‘zining mustaqil siyosatini olib boradi. Biroq P.Yusupovga «o‘zboshimchalik» bilan ish yuritishga Turkkomisiya imkon bermaydi.

1921-yil 6-martda bolsheviklar tomonidan harbiy davlat to‘ntarishi qilinib, P.Yusupov hukumati ag‘dariladi. P.Yusupov yashirinishga urinadi. U faol siyosiy kurash olib borishdan voz kechganligi uchun bolsheviklar tomonidan avf qilinadi. Xivadagi Ichanqala muzeyida va sovet idoralarida oddiy xodim bo‘lib ishlaydi. P.Yusupov 1936-yil vafot etadi.

Xiva xonligida XIX asr oxirlaridan boshlab yangiliklar kirib kela boshlagandi. Bu davrda bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan juda ko‘p yangi inshootlar qurila boshlagan edi. Polvoniyoz Hoji Yusupov bu haqda bunday yozadi: «Mahfiy qolmasinkim, xon Peterburgga borganda podsho valiahdi bo‘lgan bolasini ko‘rganda 10 ming manot xayriya qilmoqchi bo‘ldi. Shul bayon bo‘lg‘on xayriyani Islomxo‘ja valiahd Aleksey Nikolayevich ismiga Xivada kasalxona ochmoq deb e’lon qildi. Alhosil Islomxo‘ja mamlakatni taraqqiy qilmoqqa g‘ayrat qildi. Bir necha usuli jadid maktablar ochildi. Mamlakatdin mavjud bo‘lg‘on oqchalarni mamlakat xalqining foydasiga sarf qilmoqqa kirishdi. Ham bayon bo‘lg‘on ishlarni ishlamakka boshladi. Ham Ovrupa usulinda mahbusxona soldirdi. Ushbu 1912-yil Xorazmda ekinlar yomon bo‘ldi. Darhol Rusiyadin bug‘doy keltirib fuqarolarga tarqota boshladi».[5:59.] Bundan ko‘rinib turibdiki, bu davrda (XIX asr oxirlarida) Xivadagi bu jadidlar harakati xon amaldorlari, ziyolilar, savdogarlar orasida shakllangan edi. Demakki, xon saroyidagi amaldorlar yangilik tarafdorlari bo‘lib, yangilik sari intilganlar, o‘z davlatlari rivoji, xalqning farovonligi yo‘lida ko‘pgina ijobiy ishlar qilganlar. Bu xayrli ishlarning xon saroy amaldorlari tomonidan qilinishi, jadidlar (yangilik tarafdorlari) faoliyatining xon siyosatidan ajrim holda emas, balkim xon siyosati bilan hamohang faoliyat yuritganligini anglashimiz mumkin. Shuning uchun ham bu harakatlar, Xiva jadidlar harakati Buxoro amirligi va Turkiston general gubernatorligi hududlaridagi harakatlardan har tomonlama farq qilgan. Bu davr, 1915-1930-yillar tarixchilari jadidlar harakatiga baho bera turib ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar, ya’ni asosan jadidlar harakati Turkiston va Buxoro amirligi hududlarida yorqin shakllangan deb ta’kidlaydilar.[2:15.; 3:26.]

Bobo Oxun Salimov (1874 - 1929) - yosh xivaliklar partiyasining rahbarlaridan biri, davlat va jamoat arbobi. Bobo Oxun (asl ismi Muhammad) 1874-yil Gurlan bekligida qozikalon Salim Oxun oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) ning piri bo‘lib, o‘z mablag‘idan Qozikalon madrasasini qurdirgan edi. Bobo Oxun Xivadagi Olloqulixon madrasasida tahsil olgan. U arab, fors va rus tillarini puxta o‘rganadi, she’rlar yozadi. 1910-1917-yillar Xiva xoni Asfandiyorxon saroyida otasi o‘rnini Shayxulislom (Qozikalon) lavozimini egallaydi.

1916-yil u Yosh xivaliklarning rahbarlaridan biri sifatida Asfandiyorxon zulmiga qarshi ko‘tarilgan dehqonlarning faoliyatini mahfiy boshqargan edi. Bobo Oxun Salimov xon huzurida mamlakatni boshqarish uchun yosh xivaliklardan tuzilgan parlament majlisining raisi (1917-yil 8-aprel – 23-may). 1918-1919-yillarda u To‘rtko‘lda yashab, xonlikka muxolifatda bo‘ldi va bolsheviklarga yaqinlashdi. Bobo Oxun Salimov XXSR tuzilgach, adliya noziri (1920-1921, 1924) lavozimida ishladi. Shuningdek, Oliy Inqilob sudi va Harbiy tribunal raisi bo‘ldi. RSFSR bilan shartnoma tuzish uchun Moskvaga yuborilgan delegatsiyaga rahbarlik qildi (1920-yil iyul - sentyabr). Xorazm respublikasining Afg‘onistondagi bosh konsuli (1921-yil noyabr – 1922-yil fevral). U Xorazm xalq maorifi maktablari uchun yozilgan «Alifbe» va «O‘kish kitobi»ning muallifidir. 1924-yil apreldagi Xorazm ulamolari I qurultoyining chaqirilishi va o‘tkazilishiga rahbarlik qildi. U XXSR ning birinchi hukumat raisi P.Yusupov bilan ayrim masalalarda kelishmagan bo‘lsa ham, Xorazm Respublikasining mustaqilligi uchun kurashdi. Sovet rejimiga qarshi dadil fikrlar ayta oldi. Shuning uchun 1925-yildan boshlab, u davlat ishlaridan chetlatildi. [3:41-46.]

Sobiq Sovet hukumati bu harakatlarini oqlash uchun quyidagicha ish yuritdi: Xiva kommunistlari gruppasi, RKP(b) Markaziy Komiteti Turkkomissiyasining rahbarligida, revolyusion o‘zgarishni tayyorlash va amalga oshirish davrida Junaidxon diktaturasiga qarshi chiqayotgan barcha kuchlardan foydalandi. Ular Junaidxonga dushman bulgan ayrim feodal yo‘lboshchilar bilangina emas, balki o‘zbek savdo burjuaziyasi va uning ideologlari bo‘lgan «Yosh xivaliklar» bilan ham

vaqtincha ittifoq tuzgan edilar. «Bu ittifoq shuning uchun ham zarur ediki, Xorazmda proletar kadrlari yo‘k hisobida edi», «Yosh Xivaliklar» ning ta’siri va turkmanlar xayotida feodal patriarxal ukladi saqlanib kelgani uchun kabila boshliqlarining obro‘ e’tibori hisobga olingan edi . Bu narsa shuni ko‘rsatadiki, o‘larining makkorona rejalarini amalga oshirish uchun mahalliy xalqni obru-e’tiboridan oqilona foydalangan ekanlar

Xulosa. Jadidchilik harakati Markaziy Osiyo xalqlari, xususan Xiva xonligi tarixida muhim burilish yasagan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu harakat milliy ongni uyg‘otish, xalqni jaholatdan chiqarish va zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Polvonniyoz Hoji Yusupov va Bobo Oxun Salimov kabi yetakchilar faoliyati orqali jadidlarning nafaqat ma’rifiy, balki siyosiy kurash olib borganliklari ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular davlat boshqaruvini isloh qilish, xalq manfaatlarini himoya qilish va mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilashga intildilar. Biroq, sovet hokimiyati bu harakatdan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalangan holda, keyinchalik uning vakillarini siyosiy maydondan siqib chiqardi. Natijada jadidlarning asl maqsadlari to‘liq ro‘yobga chiqmay qoldi. Shunga qaramay, jadidchilik harakati milliy ozodlik g‘oyalarining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Аббдулла Авлоний. Танланган асарлар. II жилдлик. 2-жилд, Т.: «Маънавият», 1998.
2.Алексеенков П. Хивинское востания 1916 г. Т.: 1930.
3.Божко Ф. Гражданская война в Средней Азии. Т.: 1930.
4.Гаспирали И. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симферополь. 1898.
5.Полвониёз Ҳожи Юсупов. Хотиралар. Urganch. 2000.
6.Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: 2002.

MUZEYSHUNOS OLIM ROBERT VALIYEVICH ALMEYEV TOMONIDAN YAHUDIYLAR TARIXINING O‘RGANILISHI

Boltayev Bobir Baxtiyorovich
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxorolik olim tarix fanlari doktori Robert Valiyevich Almeyevning hayot yo‘li faoliyati, ilmiy tadqiqotlari doirasida olib borgan izlanishlari uning asarlaridagi asosiy g’oya va ilgari surilgan fikr mulohazalari mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Shu bilan birgalikda uning yaratgan risola va ilmiy maqolalari orqali yaxudiylarining dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o‘rni va roli, kundalik hayotdagi ularning faoliyatini arxiv hujjatlari asosida o‘rganganligining tahlilini amalga oshirishga harakat qilib ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar: meros, viloyat ijroiya qo‘mitasi, bitiruvchi, muzeyshunos, etnologiya, folklor, ro’mol, tadqiqot markazi, san’at muzeylari, urug’, ekspozitsiya, muzey, hujjat,eksponat.

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЕВРЕЕВ МУЗЕОЛОГОМ РОБЕРТОМ ВАЛИЕВИЧЕМ АЛМЕЕВЫМ

Болтаев Бобир Бахтиёрович
Бухарский государственный университет доцент кафедры археологии и истории Бухары, доктор философии (PhD) по историческим наукам

Аннотация: В данной статье предпринята попытка раскрыть сущность жизни и творчества бухарского учёного, доктора исторических наук Роберта Вальевича Алмеева, его исследований в рамках научной деятельности, основные идеи и концепции, изложенные в его трудах. Одновременно предпринята попытка проанализировать место и роль ядиев в развитии мировой цивилизации, их деятельность в повседневной жизни, изучаемые на основе архивных документов, трактатов и научных статей.

Ключевые слова: наследие, региональный исполнительный комитет, выпускник, музеолог, этнология, фольклор, шарф, научно-исследовательский центр, художественные музеи, племя, экспозиция, музей, документ, экспонат.

A STUDY OF JEWISH HISTORY BY MUSEOLOGIST ROBERT VALIEVICH ALMEYEV

Boltaev Bobir Bakhtiyorovich
Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Archeology and History of Bukhara, Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

Abstract: This article attempts to uncover the essence of the life and work of the Bukharan scholar and Doctor of Historical Sciences Robert Valievich Almeyev, his research, and the main ideas and concepts outlined in his works. It also attempts to analyze the place and role of the Yadi people in the development of world civilization and their daily activities, studied using archival documents, treatises, and scholarly articles.

Keywords: heritage, regional executive committee, graduate, museologist, ethnology, folklore, scarf, research center, art museums, tribe, exhibit, museum, document, artifact.

Kirish: Robert Valievich Almeyev Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganish bo‘yicha taniqli olim va mutaxassis. Buxoro va jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan ko‘plab olimlarning tug’ilgan joyidir. Bizning zamondoshlarimizdan biri R.V. Almeyevdir. U o‘z

faoliyatini sobiq yoshlar va sovet partiya tashkilotlarida boshlagan, uzoq vaqt Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasi madaniyat boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari lavozimida ishlagan, keyin esa 28 yil davomida Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasini boshqargan. 2012-yildan 2013-yilgacha nafaqaga chiqqanidan so‘ng, Buxoro viloyati tadbirkorlik subyektlaridagi xususiy sayyohlik agentliklari assotsiatsiyasi raisining o‘rinbosari lavozimida ishlagan. 2014-yildan 2024-yilgacha, 10 yil davomida u “Buxoro merosi” ilmiy-tadqiqot markaziga rahbarlik qilgan. 1970-yillarda Buxoro pedagogika institutini bitirgan holda, u Buxoro davlat universitetining ilmiy hayotida ishtirok etishda davom etmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori bilan u hozirda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi va Davlat san’at muzeyi qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashi a’zosi hisoblanadi. Rossiya federatsiyasi Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati musulmonlari diniy boshqarmasi raisi imom-muxtasib Damir Muxeddinov o‘zining zamondoshini amalga oshirgan ishlariga yuqori baho berar ekan, quyidagicha ta’rifladi: “Muzeylarni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va Buxoroning ma’naviy qadriyatlari va madaniy merosini chorak asrdan ko‘proq vaqt davomida o‘rganish bo‘yicha qilgan ilmiy ishingiz jahonda va minglab oddiy fuqarolar tomonidan eng yuqori maqtov va e’tirofga sazovor bo‘ldi. So‘nggi yillarda siz Buxoroning bebaho madaniy xazinalarini dunyoga tanitishda ulkan hissa qo‘shdingiz.” Shunday qilib, uning ilmiy qiziqishlari muzeyshunoslik, tarix, siyosatshunoslik, madaniyat, millatlararo munosabatlar, etnografiya va arxeologiyani o‘z ichiga olgan. Almeyev Buxoro yahudiylari tarixi, etnologiyasi, madaniyati va folklori bo‘yicha juda ko’plab ilmiy tadqiqotlar muallifi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu insonning ismi sharifi “MDH va Boltiqbo‘yi mamlakatlarida yahudiylik” nomli ilmiy qo‘llanmadan ham o’rin olib ulgurganligi alohida tahsinga sazovor deb o’ylaymiz.

Adabiyotlar sharhi: Biz uning Buxoro yahudiylariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlariga batafsilroq to‘xtalmoqchimiz. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, buxoro-yahudiy (yahudiy-tojik) tilida so‘zlashuvchi va qadimgi yahudiy yahudiylik dinini saqlab qolgan Buxoro yahudiylari Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi VI-XV asrlarda paydo bo‘lgan, deb xabar beradi taniqli tadqiqotchilar M. Sand va David Ochildiyev. Buxoro yahudiylari tarixining boshqa tadqiqotchilari, masalan, B. Ya. Stavitskiy, E.V. Rtveladze va V.A. Livshits, ularning Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi I asr oxiri - milodiy I asrda paydo bo‘lgan deb hisoblashadi.

Buxoroda eng qadimgi aholi manzilgohlari arablar istilosidan 200-250 yil oldin, ehtimol Eronning Balx va Marv shaharlarida paydo bo‘lgan. Keyinchalik, Buxoro tarixining turli davrlarida yahudiylar diniy ta’qiblardan qochib, Buxoroga doimiy ravishda kelishgan. Ular savdogarlar, mohir hunarmandlar va asirlar sifatida, asosan Eron shaharlaridan kelishgan. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Yevropa va Rossiyadagi turli nashrlarda Tavrot va Injildagi ma’lumotlarga, shuningdek, Buxoro yahudiylarining o‘zlarining an’analariga asoslanib, guvohlarning hikoyalari paydo bo‘lgan. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro yahudiylari Isroilning o‘n qabilasining avlodlari hisoblanadi. 1940-yillarning boshlariga qadar Buxoro yahudiylari Isroilning o‘n qabilasining avlodlari hisoblangan. Har bir yahudiy uyining eshigidagi xonaning kirish qismida: “Agar seni unutsam, o‘ng qo‘lim qurib qolsin, Quddus”, degan yozuvli mezuza bor edi. Bu yozuvni erkaklar har safar uyga kirganlarida qo‘llarini yozuvga qo‘yib aytishardi.

XX-asr boshlarida Buxoroda uchta mahalla bo‘lib, ularda 3314 ta buxorolik yahudiylar ixcham aholi manzilgohlarida yashagan (1926-yilgi Butunittifoq aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra). Shuningdek, 8 dan 12 gacha ibodatxonalar mavjud edi. “Mahallai Ko‘hna” (“Qadimgi kvartal”) mahallasi 14 va 15-asrlarda tashkil etilgan. Unda 250 ta uy va ikkita ibodatxona mavjud bo‘lgan.

Mahallai Amirobod (Amir tomonidan takomillashtirilgan kvartal) mahallasi 18-asrda tashkil etilgan va 70-80 ta uydan iborat edi. Unda bitta ibodatxona bor edi. Mahallai Nav (Yangi kvartal) mahallasi 200 ta uydan iborat edi. Bu mahalla Ko‘hna (Qadimgi kvartal) mahallasi gavjum bo‘lib ketganidan keyin paydo bo‘lgan. Bu mahallalarda boy yahudiylarning turar-joy binolari saqlanib qolgan. Ular endi mehmonxonalar va bolalar bog‘chalariga aylantirilgan. Chakana savdo do‘konlari

va hunarmandchilik ustaxonalari ham saqlanib qolgan. Yahudiy kvartalini Penxasov bog‘i bezab turibdi. Mahalladan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda bugungi kunda ham foydalaniladigan Buxoro yahudiylarining qadimiy qabristoni joylashgan. Muhim tarixiy va madaniy yodgorlik Chashmai Ayyub (Bibliyadagi payg‘ambar Ayubning bulog‘i) maqbarasidir. Buxoro yahudiylari faol hayot tarzini olib borishgan.

Buxoro yahudiylari jamiyatning deyarli barcha sohalarida, islom diniy tashkilotlaridan tashqari, vakillik qilishgan. Ularning iqtisodiy sohasiga saroy shifokorlari, bankirlar, savdogarlar va hunarmandlar ipak va paxta matolarini indigo bilan bo‘yab, ulardan buyumlar yasagan to‘quvchilar kirgan. Buxoro yahudiylari qaynatilmagan grechkadan “qalag‘ay” deb nomlangan shaffof ipak mato ishlab chiqarishgan va ungan “qalg‘ay” deb nomlangan yupqa sharflar to‘qishgan. Bu sharflar ham Buxoro yahudiy ayollari orasida, ham butun O‘rta Osiyo va Kavkaz bo‘ylab katta talabga ega bo‘lgan. Buxoro yahudiylarining boshqa an’anaviy kasblari orasida ko‘nchilik va zargarlik buyumlari yasash bor edi. Ular ko‘pincha karvon yo‘lboshchisi, tikuvchi, sartarosh, poyabzalchi, novvoy, vinochi, musiqachi, rassom, shifokor va o‘qituvchi bo‘lib xizmat qilishgan. Buxoro amiri Nasrulloxon (1827-1860) hukmronligi davrida saroy shifokori Ibrohim mashhur bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Buxoro yahudiylariga nisbatan davlat siyosati Buxoro yahudiylari jamoasining omon qolishi uchun juda muhim edi. Shuning uchun barcha yirik saroy savdogarlari, bankirlari, madaniyat va san’at arboblari o‘z mavqelaridan foydalanib, jamoaning omon qolishiga ko‘maklashishga harakat qilishdi. Ular hukmdorlarga asosan ular bilan “yaxshi” munosabatlar orqali ta’sir ko‘rsatdilar: ular “kofir” solig‘ini o‘z vaqtida va to‘liq to‘ladilar va hukmdorlarning savdo va xayriya loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etdilar. Masalan, Buxoro amiri Muzafarxon (1860-1885) Rossiya imperiyasi tomonidan mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng, u Rossiyaga boy Buxoro yahudiylari hisobidan tovon puli to‘ladi. Buxoro yahudiylari musiqa madaniyatida alohida o‘rin tutgan. Hofiz (qo‘shiqchi) Boruxi Kalxok, Buxoro amiri Muzafarxonning saroy qo‘shiqchisi; Levi Boboxonov, Buxoro amiri Sayyid Olimxonning saroy qo‘shiqchisi; Gavriel Benyaminov; Gavriel va Mixoel Mulloqandovlar; Muhabbat Shamayeva; Berta Davidova; Shoista Mullojanova; Malika Qalandarova; Ilyos Mallayev, shoir va musiqachi; Sulaymon Yudakov. Iste’dodli saroy raqqoslari orasida Shishaxon va Malkoy Oshma ham bor. 1920-yillarda Kundal, Chervonxon, Kargigi, Gubur va Tillo kabi raqqoslar tomoshabinlar orasida katta muvaffaqiyatga erishdilar. Sovet Ittifoqi davrida Tolmas Benyaminov va Izro Malakov klassik Shashmaqom ijrochilari sifatida mashhur bo‘lishdi. Muhabbat Shamayeva o‘zbek xalq qo‘shiqlarini ijro etgan va o‘zbek sovet estradasi sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan.

Olimlar orasida quyidagilar bor edi: professor va qishloq xo‘jaligi fanlari doktori Isaak Arievich Kalantarov, etnograf Yakub Kalantarov, professor va iqtisodchi Yuno Izrailovich Ishxakov, tarix fanlari doktori David Ochildiyev, filolog professor Natan Murodovich Mallayev, professor va huquqshunos Azarya Natanelovich Mixaylov, professor va huquqshunos Boris Ilich Pinxasov, professor va biokimyogar Izrail Gavrilovich Priyev, tarix fanlari doktori Monashe Mixoelovich Abramov. Tadbirkorlar: Samarqandlik yirik ulgurji savdogar Moshe Kalontar va Buxoro amirining xazinachisi Moshe ben Moshe Kandin. Ular shuningdek, Samarqand va Buxorodagi Buxoro yahudiylari jamoalariga rahbarlik qilishgan. Lev Avnerovich Levaev - oligarx, milliarder, Boris Efraimovich Qandov - millioner, Vadyaev aka-uka - oilaviy urug’ - mashhur “Vadyaev aka-ukalari” savdo uyining asoschilari. Aka-uka Vladimir va Aleksey Ustayevlar.

Tahlil va natijalar: Buxoro yahudiylari an’analarida Buxoroda birinchi Buxoro yahudiylari kvartali va ibodatxonaning qurilishi Amir Temur bilan bog’liq. Uning buyrug‘i bilan ko‘plab yahudiylar Movarounnahrga mohir bo‘yoqchilar va to‘quvchilar, tajribali savdogarlar, moliyachilar va tadbirkorlar sifatida joylashtirilgan. Buxoro yahudiy savdogarlari temuriylar imperiyasining Sharqiy Turkistondan Sharqiy Xitoy dengizi qirg‘oqlarigacha va Hindistonning katta qismi bilan foydali savdosida yetakchi o‘rinni egallagan. Sayyid Amir Olimxon (1910-

1920) davrida Buxoro yahudiylarining mavqei ancha barqaror edi. Ularning huquqlari, mulki va aktivlari shariat sudlari tomonidan qonuniy himoya qilingan. Bu davrda Buxoro yahudiylari Moskva va Sankt-Peterburgdagi yirik kompaniyalar va firmalar bilan intensiv savdo, iqtisodiy va moliyaviy bitimlar tuzishgan. Buxoro yahudiylari amirlikdagi rus savdogarlari o‘rtasidagi moliyaviy nizolarda immunitetdan foydalanganlar. Bu Buxoro yahudiylari jamoasi uchun noyob farovonlik davri edi. Shu bilan birga, aliya (doimiy yashash uchun Falastinga ko‘chib o‘tish) davom etdi. 1914-yilgacha davom etgan birinchi aliya davrida Quddusda 1500 kishi qolgan, bu o‘sha paytdagi butun jamoaning 8 foizini tashkil etgan. Ba’zi Buxoro yahudiylari islohotni talab qilgan modernist musulmon “jadidlari” bilan birlashdilar. “Homlo” (Buxoro yahudiylari uchun konfessiyaviy maktab) boshlang‘ich maktabi an’anasi bilan bir qatorda, o‘quvchilarga ayrim dunyoviy fanlar bo‘yicha asosiy tushunchalarni beradigan maktablar ham paydo bo‘ldi.

Yahudiylar dastlab inqilobni va u bilan bog‘liq harbiy harakatlarni Rossiyaning musulmonlarga qarshi kurashidagi yana bir bosqich sifatida qabul qilishgan. Buxoro yahudiy burjuaziyasining bir qismi mustaqillik harakatini qo‘llab-quvvatladilar. 1917-yilda boy yahudiy sanoatchilari R. Potelyaxov va S. Vadyayev qisqa umr ko‘rgan Qo‘qon muxtor viloyatida vazir bo‘lishdi. Yangi hukumatning tashkil etilishidan so‘ng sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Jamoa an’analari bekor qilindi. 1920-yilda Buxoro jamoasining so‘nggi kalontari (rahbari) Rabbi Pinchas (1868-1920) xibsga olindi va qatl etildi. Sinagogalarni yopish va dinni bostirish jarayoni boshlandi. Gullab-yashnayotgan burjua sinfi - boy savdogarlar - tugatildi, uning a’zolari qatag‘on qilindi yoki “huquqsiz” holga keltirildi, bu taqdir kichik tadbirkorlarni ham qamrab oldi. Hunarmandlar kooperativlarda birlashdilar yoki davlat fabrikalarida ishlashga majbur bo‘ldilar. Jamiyatning uchinchi qatlami - sartaroshlar, poyabzalchilar, tikuvchilar va boshqalar - xususiy tadbirkorlar sifatida yuqori soliqlarga tortildilar va davlat korxonalarida ishlashga majbur bo‘ldilar. Buxoro yahudiylarining ikkinchi aliyasi 1920-yillarda boshlangan. 1930-yillarning boshlariga kelib, Buxoro yahudiy jamoasining taxminan 4000 a’zosi Falastinga kelgan edi. 1920-yilda Buxoroda Buxoro yahudiy maktablari ochildi. 1922-yildan beri ta’lim tili Buxoro yahudiylarida tilida olib borilmoqda.

Xulosa: Bugungi kunda jamoa bir necha o‘nlab odamlardan iborat bo‘lib, ikkita ibodatxona, maktab, bolalar bog‘chasi va madaniyat markaziga ega. Ehtiyojmand keksalarga moliyaviy yordam ko‘rsatilmoqda. Buxoro yahudiylari tarixi va etnografiyasi muzeyini yaratish uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud: binolar, ilmiy konsepsiya, eksponatlar va malakali mutaxassislar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoniga ko‘ra, Buxoroda xalqaro turizmni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Xorijiy investorlarni jalb qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar allaqachon boshlangan. Buxoro yahudiylarining yangi etnik muzeyi eski Buxoro orqali o‘tadigan yangi sayyohlik yo‘nalishiga mos keladi. O‘zbekiston 2018-yil 10-fevralda Isroil fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejimni joriy etdi.Kelajakda bu ham yurtimiz turizmining rivojiga katta hissa qo’shadi degan umidamiz. Xulosa qilib aytganda, jahonda nom chiqargan olim va muzeyshunos, tarix fanlari doktori Buxoroning farzandi Robert Valievich Almeyev ko‘p yillar davomida asosan Buxoro yahudiylarining hayoti va faoliyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bodi. Uning Buxoro yahudiylari haqidagi ilmiy ishlari orasida Buxoro va uning atrofidagi mintaqadagi Buxoro yahudiylari jamoasi va ibodatxonalari tarixi, madaniyati, folklori, etnografiyasi, faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab kitoblar, broshyuralar, arxiv materiallari va maqolalar mavjud. Uning turli mamlakatlar va O‘zbekistondagi jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarini to‘plash va to‘plam nashr etish vaqti bizningcha etib keldi.Shu nuqtai nazardan tadqiqotchi olib borgan yahudiylar hayotiga oid izlanishlar bugungu kun uchun ham niyoyatda ahamiyatli va dolzarb deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R. Almeyev, “Qadimgi Buxoro afsonalari: Shahardagi birinchi ibodatxonaning qurilishi haqida.” Toshkent. Polispektr. 1-23-betlar.

2. R. Almeyev. Buxoro yahudiylarining og‘zaki folklori. (Ertaklar, qo‘shiqlar, kuylar,

topishmoqlar, maqollar, tush ta’birlari va ishoralar). Buxoro davlat arxitektura va san’at muzey-qo‘riqxonasi (BSAAM). Buxoro, 1997. Nashriyotchi: KHOKAN, 1-90-betlar.

3. R. Almyev. Buxoro yahudiylari. (Tarixiy va madaniy esse). BUXO. Buxoro, 1998. “XOQAN” firmasi. Pp. 1-90.

4. R. Almeyev. Buxoro yahudiylari tarixi va etnografiyasi bo‘yicha tadqiqotlar va materiallar. BUXAMZ. “Buxoro”, Buxoro. 1998. 1-90-betlar.

5. R. Almeyev. Buxoro yahudiylari tarixi bo‘yicha arxiv materiallari. Manbalarni o‘rganish sharhi. Baxmuz nomidagi Buxoro yahudiylari san’at va tarix davlat akademiyasi. “Buxoro”, Toshkent. 1-142-betlar.

6. R. Almeyev. “Buxoro shahridagi Buxoro yahudiylari tarixi va etnografiyasi muzeyining ilmiy konsepsiyasi va umumiy tuzilishi.” 2021. 1-60-betlar.

7. R. Almeyev. Buxoro shahridagi Buxoro yahudiylarining ikkinchi jamoasi va ibodatxonasini ro‘yxatdan o‘tkazish va faoliyat tarixi (1989-1999) 2001. P1-78.

8. A. Nurullayev. Buxoro yahudiylari eski fotosuratlar va otkritkalarda.- Toshkent “Muxlis” va texnologiyalar nashriyot - matbaa uyi MChJ ,2022. C-60

9. R. Almeyev. “Buxoro davlat arxitektura va badiiy muzey-qo‘riqxonasining “Buxoro yahudiylari” ko‘rgazmasining ilmiy konsepsiyasi”. Toshkent, «Universitet», 1995. 56-58-betlar.

10. R. Almeyev. “Markaziy Osiyodagi yahudiylar” Yahudiy merosi jamiyati, Moskva. Bosma nashr. 1-15 betlar.

11. R. Almeyev Bukhoro yaxudiylari. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (Buxoro yahudiylari. O‘zbek milliy ensiklopediyasi), Toshkent. T.2. (B) 306-bet.

12. R. Almeyev. “Buxoro yahudiylari etnologiyasiga qarab”,”Markaziy Osiyodagi yahudiylar: tarix va madaniyat masalalari” ilmiy maqolalar va hisobotlar to‘plami. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining “FAN” 26-38-betlar.

13. R. Almeyev . X asrda Buxoroda yahudiylarning mavjudligi haqida yangi dalillar ABA, Eron, Buxoro va Afg’oniston yahudiylari haqida tadqiqot va o‘qitish jurnali, 2009. Isroil, Quddus, 57-66-betlar.

14. R. Almeyev, “Buxoro yahudiylari tarixi haqida. O‘zbekiston – bizning uyimiz”, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Toshkent. 41-47-betlar.

15. V.Yu.Sidorenko., R.M.Isxakov., K.X.Maxmudov. “Bukhoro sharifning chin farzandi” nashriyoti “Bukhoro” – 2019 – Buxoro. S-235

16. https :// mytashkent . uz /2019/02/11/ evrejskaya - obshhina - drevnej - buhary / ? ysclid = mlhunn 7 s 6 p 405664266 Buxoro yahudiylari tarixi tadqiqotchisi Robert Almeyev bilan suhbat.

BUXORO AMIRLIK HUDUDIGA TASHRIFI BUYURGAN ELCHILIK MISSIYASI VAKILLARINING HISOBOT VA XOTIRALARI TAHLILI

Klichev Oybek Abdurasulovich,
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Mazkur izlanish XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasning tashqi siyosatida Buxoro amirligi bilan olib borgan ikki tomonlama diplomatik muloqoti xususida xabar beruvchi muhim manbalar tahliliga bag’ishlangan. Amirlikka tashrif buyurgan missiya vakillarining xotiralari elchilik qabullari bilan bog’liq jarayonlarning rekonstruksiyasini amalga oshirish xizmat qiladi. Tadqiqotda har bir manbaning o’rganilayotgan mavzuga nisbatan daxldorlik darajasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: muzokara, tinchlik sulhi, missiya, elchi, general-gubernator, qo‘shbegi, turkiy til, dasturxon, sovg‘a almashinuvi, udaychi, jamoaviy foto surat, matbuot, Karmana.

АНАЛИЗ ОТЧЕТОВ И МЕМУАРОВ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ПОСОЛЬСКОЙ МИССИИ, ПОСЕТИВШЕЙШЕЙ ТЕРРИТОРИЮ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу важных источников, предоставляющих информацию о двустороннем дипломатическом диалоге Российской империи с Бухарским эмиратом во внешней политике конца XIX – начала XX веков. Мемуары представителей миссии, посетивших эмират, служат для реконструкции процессов, связанных с приемом в посольстве. В исследовании особое внимание уделяется степени актуальности каждого источника изучаемой теме.

Ключевые слова: переговоры, мирный договор, миссия, посол, генерал-губернатор, кушбеги, тюркский язык, дастархан, обмен подарками, удайчи, групповое фото, периодическая печать, Кармана.

ANALYSIS OF REPORTS AND MEMOIRS OF REPRESENTATIVES OF THE EMBASSY MISSION THAT VISITED THE TERRITORY OF THE BUKHARA EMIRATE

Annotation. This study is devoted to the analysis of important sources providing information on the bilateral diplomatic dialogue between the Russian Empire and the Emirate of Bukhara in the foreign policy of the late 19th and early 20th centuries. The memoirs of the representatives of the mission who visited the emirate serve to reconstruct the processes associated with reception at the embassy. The study pays special attention to the degree of relevance of each source to the topic under study.

Keywords: negotiations, peace treaty, mission, ambassador, Governor-General, qoshbegi, turkic language, dastarkhan, gift exchange, udaychi, group photo, periodical printing, Karmana.

Kirish. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoda amalga oshirgan harbiy harakatlari, mintaqada general-gubernatorlik boshqaruvining o‘rnatilishi orqali o‘z mavqeini siyosiy jihatdan mustahkamlab olishga erishdi. Buxoro amirligiga imperiya hamda general-gubernator vakili sifatida tashrif buyurgan shaxslarning hisobot va xotira shaklida yozilgan asarlarida elchilik munosabatlari atroflicha yoritiladi. Shuning uchun ham mazkur asarlarni xronologik jihatdan, ya’ni amirlikka tashrif buyurish davridan kelib chiqib tadqiq etish lozim. Chunki shu yondashuv orqali amirlik hukumatining elchilik missiya vakillarini qanday tartibda qabul qilish tizimi, qolaversa mazkur yo‘nalishdagi tadbirlarda kuzatilgan o‘zgarishlarni o‘rganish va tahlil etish imkoniyati yuzaga

keladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola umumqabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy va siyosiy tahlil, xronologik izchillik tamoyillari asosida yoritilgan.

Muhokama va natijalar. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo hududini egallashiga qaratilgan harbiy harakatlar tarixini tadqiq etgan M.A.Terentyev o‘zining “История завоевания Средней Азии” asarida amirlik va imperiya hukumatlari o‘rtasida XX asrning 60-yillarida olib borilgan elchilik almashinuvi masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Najmiddinxo‘ja sudur, Eshonxo‘ja kabi amirlik elchilarining imperiya markaziga yuborilishi, M.G.Chernyayev va D.I.Romanovskiylarning 1865-1866-yillar davomida amirlik hukumati bilan muzokaralar olib borish maqsadida yuborgan vakillari, qolaversa harbiy harakatlar davrida imzolangan o‘zaro tinchlik sulhining shartlari, uni imzolashda amirlik vakili Musobekning elchilik mahorati xususidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir.

1865-yilning oktyabridan 1866-yil iyun oyiga qadar davom etgan hamda amirlik va imperiya o‘rtasida eng uzoq muddatli bu elchilik to‘g‘risida A.A.Tatarinovning “Семимесячный плен в Бухарии” hamda A.Gluxovskiyning “Плен в Бухаре” nomli xotiralari ahamiyatlidir. Mualliflarning biri elchi, ikkinchisi esa missiya vakili edi. Ular amirlikdagi tashriflarini o‘ziga xos “tutqunlik davri” deb atashgan. Murakkab harbiy harakatlar davrida poytaxt Buxoro va qadimiy Samarqand shaharlarida yashagan missiya a’zolari amirlikdagi elchilarni qabul qilish bilan bog‘liq tartiblar xususida atroflicha to‘xtalib o‘tadilar.

A.A.Tatarinov o‘z asarida elchilik missiyasi vakillariga amirlik hukumatining munosabati, elchilar joylashgan uylar, elchilik ta’minoti va bunga mas’ul shig‘ovul lavozimidagi shaxs to‘g‘risidagi fikrlarini bayon etadi. Muallif missiya yakunida amirlik hukumati elchilik a’zolariga sovg‘alar (mahalliy an’analarga binoan ot hamda feruza toshlar bilan bezatilgan egar jabduq, ipak matosidan tikilgan to‘n) hamda yo‘l xarajatlari uchun 5000 kumush tanga (1000 rubl) miqdorida mablag‘ ajratgani xususida yozib qoldirgan.

Missiya tarkibida elchi sifatida yuborilgan A.Gluxovskiy xotiralari kundalik voqealar bayoni tarzida yozilgan. Xotiralarda amir amaldori Eshonxo‘ja va missiya a’zolari o‘rtasidagi munosabat, amir qabuli va unda rioya etish zarur bo‘lgan tartiblar, amir tarjimoni sifatida faoliyat olib borgan Karatayevning elchilik a’zolari va ularning amirlik ma’murlari bilan munosabatga kirishishdagi o‘rni hamda Rossiya – Buxoro munosabatlari yuzasidan bildirgan fikrlari bayon etiladi.

Amir Muzaffar nomidan 1869-1870-yillarda Sankt-Peterburgga yuborilgan Sayyid Mir Abdulfattoh elchiligiga javoban Turkiston general-gubernatori tomonidan polkovnik S.I.Nosovich boshchiligida besh ofitser va amaldorlar hamda 50 kishilik konvoydan iborat elchilik missiyasi 1870-yil may oyida Buxoroga jo‘natilgan. Missiya Turkiston general-gubernatori amirlik bilan do‘stona aloqalarni olib borish, o‘zaro siyosiy hamda savdo-iqtisodiy munosabatlarni tartiblashtirish maqsadida yuborilgan edi. Ushbu elchilik tarkibiga L.F.Kostenko ham kiritilgan bo‘lib, missiya vakillarining amirlik hukumati tomonidan qabul qilinishi bilan bog‘liq muhim jihatlar uning “Путишествие в Бухару Русской миссии в 1870 году” nomli sayohatnomasida qayd etib o‘tiladi. Asar bu davrda yozilgan shunday turdagi kitoblar kabi yo‘l xotiralari hamda sodir bo‘lgan voqealar bayonidan iboratdir. Muallif missiyaning Buxoro amiri va qo‘shbegi qabullarida bo‘lganligi hamda ushbu tadbirlarni tashkil etishda amirlik ma’muriyati jiddiy yondashgani, qolaversa bir necha lavozimdagi amaldorlar o‘ziga xos elchilik xizmati vakillari vazifasini ham bajarishini ta’kidlaydi.

L.F.Kostenko missiya oldiga qo‘yilgan maqsadlar qo‘shbegi vositasida amir hukmiga taqdim etish orqali hal bo‘lishini alohida qayd etadi. Muallif o‘z kuzatuvlarida elchilik a’zolari amirlik ma’muriyati bilan maxsus amaldor vositasida muloqotga kirishish joriy etilganligini izohlagan. Uning xotiralarida ushbu vazifa amirga yaqin bo‘lgan Mir Ahmad – (Ahmad Donish – O.K) tomonidan ijro etilgani to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Muallif uning elchilik vakillariga amirlik

hududiga tashrif buyurgan shaxslar rioya etishi zarur bo‘lgan mahalliy tartiblar bilan tanishtirgani va missiya hamda amirlik ma’muriyati o‘rtasida yuzaga keladigan masalalarni hal etishda ko‘maklashganini qayd etadi. Ushbu ma’lumotlar Ahmad Donish Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda nafaqat Sankt-Peterburgga elchilik a’zosi sifatida yuborilgani, balki poytaxt Buxoroga tashrif buyurgan missiya vakillariga mas’ul etib tayinlanganini ham ko‘rsatadi.

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni o‘rganish hamda mavjud imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida 1872-yili amirlik hududiga N.S.Petrovskiy boshchiligidagi missiya yuboriladi. Missiya Isomiddin miroxo‘r hamrohligida Shaxrisabzda Buxoro amiri va uning vorisi, Buxoroda esa qo‘shbegi qabulida bo‘lgan. Amirlik hukumati N.S.Petrovskiyga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun oliy qabuldan so‘ng mahalliy bozorlar va savdo-sotiq imkoniyatlari bilan tanishishga izn beradi. Missiya rahbari o‘z kitobida Amir Muzaffar qabulida ikki marotaba bo‘lganligini, amirning elchi bilan turkiy tilda olib borgan muloqot tafsilotlari hamda oliy qabulda elchilik vakillarining mahalliy kiyimda bo‘lish tartibi bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltirib o‘tadi.

N.A.Mayevning “Очерки Бухарского ханства” nomli asarida ham Amir Muzaffar tomonidan Shaxrisabzdagi oliy qabul va Buxoroda qo‘shbegi qabuli xususida ma’lumotlar mavjud. Bir necha marotaba amirlik hududiga tashrif buyurgan bu shaxs Shahrisabz va Kitob beklarining rus amaldor va missiya vakillarini kutib olishda katta tajribaga ega ekanliklarini qayd etadi. Bekliklarda mehmonlar uchun tuzatiladigan dasturxon hamda alohida elchilik uylarini hozirlanishi to‘g‘risida quyidagilarni bayon etadi “… Biz uchun tayyorlangan dasturxon yerga emas balki stol ustiga to‘shalgan, uning atrofida stullar joylashgan edi. Choy shisha idishlarda tortildi. Har birimizning oldimizda farfor likopcha, sanchqi va qoshiq qo‘yilgan edi. Bek suhbat chog‘ida amir unga doimo rus elchilarini qabul qilishni ishonib topshirishini bildirdi”. Bu kabi ma’lumotlar XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran, amirlikda elchi-mehmon kutish bilan bog‘liq an’analarda yangicha tartiblarning kirib kelish jarayoni kuzatilganligini ko‘rsatadi.

Abdulqodirbek boshchiligida 1873-1874-yillarda Sankt-Peterburgga yuborilgan amirlik elchilarini Toshkentdan Buxoroga qadar kuzatib qo‘yish hamda Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi G.A.Kolpakovskiynining amir Muzaffarga do‘stona munosabatini yetkazish maqsadida N.P.Stremouxov elchi sifatida yuboriladi. U ushbu elchilik tafsilotlarini o‘zining “Поездка в Бухару” nomli kitobida batafsil keltirib o‘tgan. U elchi Abdulqodirbek, qo‘shbegi Muhammad-biy inoq, amir tarjimonlari N.M.Urepov(Abdurahim Abdulin), Karatayev (Usta Ali), Jaloliddin to‘qsabo va Ernazar udaychi, Abdurahmonbek qo‘rboshi, Abduzohid miroxo‘rlar, mehmondorboshi sifatida Abdulishoq miroxo‘r, Mirzo Vosiq hamda Mirzo o‘roq – (Ahmad Donish – O.K) kabi amaldorlarning amirlik bo‘ylab elchilarni kutib olish, joylashtirish va ta’minot masalalari, kuzatib qo‘yish bilan bog‘liq tadbirlarni tashkil etishdagi ishtiroklarini alohida ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, N.P.Stremouxov Shahrisabzda amirlik hukumati bilan Mirzo o‘roq - Ahmad Donish vositasida munosabatga kirishganini xotirlaydi hamda bu shaxs to‘g‘risida o‘zining quyidagi fikrlarini bayon etadi: “Mirzo o‘roq - (elchining ikkinchi kotibi) aqlli, osiyolik odam olishi mumkin bo‘lgan yaxshi talim va tarbiya sohibi, o‘zining yurtdoshlaridan keskin ajralib turadi. Buxoroga uning katta foydasi tegishi mumkin. Ammo to‘g‘ri so‘zligi amirga manzur kelmaydi va shuning uchun ham uni chetga surib qo‘yishgan”. Asarda N.P.Stremouxovning Amir Muzaffar hamda qo‘shbegi Muhammad-biy inoq bilan qilgan suhbat matni ham o‘rin egallagan. Bu esa o‘z navbatida qabullarda ko‘rilgan masalalarni o‘rganishga ko‘maklashadi.

Afg‘oniston hamda Buxoro amirligi hududlariga 1878-1879-yillar davomida tashrif buyurgan I.L.Yarovskiy esdaliklarida ham amirlikda elchi-mehmonlarni kutib olish qanday tartibda olib borilishi haqidagi ma’lumotlar o‘rin egallagan. Amirlikda elchilarni kutib olish tajribasiga yuqori baho bergan I.L.Yarovskiy mehmonlar uchun ajratilgan uy, tuzatilgan dasturxonning evropacha uslubda hozirlanishini madaniyatlararo almashinuv natijasi deb hisoblaydi. U amirlik ma’muriyati missiya vakillarining bo‘sh vaqtlari mazmunli o‘tishi uchun turli tomoshalar tashkil etgani haqida

o‘z fikrlarini bildirgan.

1880-yilning yanvar oyida Shahrisabzda amir qabulida bo‘lgan G.A.Arendarenko o‘z xotiralarida beklikda elchilarni kutib olish uchun alohida hovlining mavjudligini ta’kidlaydi. U oliy qabulda elchi va tarjimonning amirga nisbatan joylashishi hamda suhbat olib borish tartibi to‘g‘risida ham muhim ma’lumotlarni yozib qoldirgan.

M.G.Chernyayevning Turkiston general-gubernatori etib tayinlanganligi munosabati bilan tabriklash maqsadida amir Muzaffar 1882-yil oktyabrda Rahmatullo to‘qsobani Toshkentga elchi sifatida jo‘natadi. General-gubernator ushbu elchilikka javoban general-mayor Knyaz Vitgenshteyn va podpolkovnik V.V.Krestovskiylarni amirlik vakillariga biriktirgan holda Buxoroga yuboradi. Missiya a’zosi V.V. Krestovskiy o‘zining “В гостях у эмира Бухарского” kitobida ushbu missiya to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi.

Mazkur asarda amirlik hududida elchilar uchun ajratilgan transport va harakatlanishning tizimli tartibi, poytaxt Buxoroga qadar hudud bekliklari hamda yo‘l manzillarida elchilarni kutib olinishi, Qarshi, Shahrisabz hamda Buxoro shaharlarida elchilar uchun ajratilgan uylarning tarhi va jihozlanishi haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, hudud ma’murlari hamda amirlik amaldorlarining vakolatlari, ularning ijtimoiy mavqei hamda siyosiy portretlari, amir qabulida rioya etilishi belgilangan tartiblar, sovg‘a almashinuvi bilan bog‘liq ayrim jihatlar xususidagi muallif mulohazalari o‘rin egallaganki, bular elchilik aloqalarining nozik tomonlarini idrok etishga yordam beradi. V.V.Krestovskiyning asari amirlikda elchilarni qabul qilish tartibi to‘g‘risida nisbatan to‘liq ma’lumotlarni o‘zida mujassam etadi.

Buxoro va uning atrofidagi yerlarda temir yo‘l qurish va suv ta’minoti masalasini hal etish maqsadida 1885-1886-yillarda amirlik hududiga polkovnik I.T.Poslavskiy yuborilgan. U ushbu tashrif tafsilotlari bayon etilgan kitobida amir qabuli, undagi ayrim o‘zgarishlar, udaychi lavozimidagi amaldorlarning ushbu tadbirni tashkil etish vazifalari to‘g‘risida ma’lumotlarni yozib qoldiradi.

Amir Muzaffar hamda Amir Abdulahadlarning Turkiston general-gubernatori bilan olib borgan elchilik aloqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar P.P.Shubinskiyning kitobida ham mavjud. Asarda Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq masalalar bilan bir qatorda elchilik aloqalarida sovg‘a almashinuv an’anasi xususidagi ma’lumotlarini keltirib o‘tgan.

Buxoro amirligida elchi yoki elchilik a’zosi sifatida tashrif buyurgan ushbu mualliflar o‘z asarlarida qabullarga doir ma’lumotlar bilan bir qatorda amirlikdagi siyosiy vaziyat, amaldorlarning nufuzi hamda jamiyatdagi o‘rni, qo‘shin va uning tuzilishi, shaharlar va ular orasidagi masofa, tarixiy hamda jamoat binolarining ta’rifi, aholining etnik tarkibi, xo‘jalik hayoti, ichki hamda tashqi savdo-sotiq masalalari to‘g‘risida ham muhim ma’lumotlarni yozib qoldirganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi elchilik aloqalari va rasmiy tashriflar bilan bog‘liq ma’lumotlarning bir qismini imperiya boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan mansabdor shaxslarning xotiralaridan bilib olishimiz mumkin.

Salkam qirq yil davomida Turkiston general-gubernatorligi ma’muriyatidagi turli lavozimlarda ishlagan G.P.Fedorov o‘z xotiralarida Abdulqodirbek-biy boshchiligidagi amirlik elchilarining 1873-1874-yillarda Sankt-Peterburgga qilgan tashrifi tafsilotlarini bayon etadi. U bir necha marotaba amirlik hududiga Turkiston general-gubernatori nomidan elchi sifatida yuborilgan. G.P.Fedorov Amir Abdulahadning imperiya hududiga 1893-yilgi ilk tashrifi doirasidagi Krasnovodsk, Ashxobod, Boku, Tiflis, Vladikavkaz, Moskva, Sankt-Peterburg, Kiyev, Odessa, Simfiropol, Sevostopol, Yalta, Botumi, Tiflis, Buxoro yo‘nalishidagi safar voqealarini tasvirlab beradi. Asarda Amir Abdulahadning rasmi, o‘zining amir va bir necha imperiya amaldorlari bilan tushgan jamoaviy foto surati hamda Yaltadagi amir saroyining tasvirlari mavjud.

Turkiston general-gubernatorlarining amirlik hududiga amalga oshirgan tashriflari to‘g‘risida arxiv hamda davriy matbuot materiallari orqali ham ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek,

general-gubernator S.M.Duxovskiyning amirlik hududiga tashriflari, amir elchilarining Toshkentga kelishi to‘g‘risida V.F.Duxovskayaning “Туркестанские воспоминания” kitobida ham ma’lumotlar uchraydi. Muallif amirlik hukumati vakillarining general-gubernator bilan dastlab Yangi Buxoro (Kogon) temir yo‘l bekatidagi uchrashuvi tafsilotlarini juda aniqlik bilan bayon etadi. U uchrashuvda shaxsan ishtirok eta olmagan bo‘lsa-da, hodisani uncha uzoq bo‘lmagan masofadan turib (qabul temir yo‘l yaqinida o‘tgan, muallif poezd vagonida bo‘lgan – O.K) kuzatgan. Uning ma’lumotlari shu kuzatuvga asoslangan. 1899-yil may oyida general-gubernator S.M.Duxovskiy amir Abdulahad tomonidan Karmanada qabul qilinadi. Mazkur qabul hamda Karmanadagi amir saroyi va unda tuzatilgan dasturxon ta’rifi ham ushbu asarda o‘rin egallaydi. Muallif bu ma’lumotlar turmush o‘rtog‘i taassurotlari asosida yozib olinganini ta’kidlab o‘tadi.

Xulosa. Tadqiq etilayotgan masalaga oid elchilik missiyasi a’zolarining asarlarning aksariyati yo‘l xotiralari va voqealar bayoni uslubida yozilgan. Ularda amir qabulini tashkil etilishi hamda qabul tafsilotlariga doir ma’lumotlar deyarli bir xil shaklda beriladi. Chunki mahalliy an’analarga rioya etish tajribasi amirlik boshqaruvida ustun bo‘lgan. Shunday bo‘lsa ham, ulardagi ma’lumotlarni tadqiq etish natijasida XIX asrning ikkinchi yarmida amirlikda amalda bo‘lgan elchilik qabullarida joriy etilgan ayrim o‘zgarish va yangilanishlarni kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro’yxati

1. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. – Т.1. – Санкт-Петербург: Тип-литография В.В.Камарова, 1906. – 510 с.

2. Татаринов А. Семимесячный плен в Бухарии. – Санкт-Петербург-Москва: Издание М.О.Волфа, 1867. –С.112-113.

4. Глуховский А. Плен в Бухаре // Туркестанский сборник. –Т. 330. – Санкт-Петербург, 1883.– С.101-103.

5. Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. – Санкт-Петербург: Издание Бортневского-Типография А.Моригеровского, 1871. – С. 72-75.

6. Петровский Н.Ф. Моя поездка в Бухару (путевые наблюдения и заметки) // Вестник Европы. – Т.2. –№3. –Санкт-Петербург: Типография М.М. Стасюлича, 1873. – С.225-226.

7. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. Ташкент, 1875. – С.14-15.

8. Стремоухов Н. П. Поездка в Бухару (извлечение из дневника) // Туркестанский сборник. – Т. 78. – Санкт-Петербург: Типография Министерства Путей сообщения (А.Бенке), 1873. – С. 83-149.

9. Яровский И.Л. Путешествие Русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. –Т.II. – Санкт-Петербург: типография д-ра М.А. Хана, 1883. – С. 36-37.

10. Бухара и Афганистан в начале 80 годов XIX век (Журналы командировок Г.А.Арендоренко). – Москва: Главная редакция Восточной литературы наука, 1974. – С.30-34.

11. Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. – Санкт-Петербург: Издание А.С. Суворина, 1887. – С. 45-431.

12. Пославский И.Т.. Бухара (описание города и ханства) // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. – Вып. XLVII. – Санкт-Петербург: Военная типография (в здании Главного Штаба), 1891. – С.77.

13. Шубинский П.П. Очерки Бухары // Исторический вестник. – Санкт-Петербург: – Т.XLIX. 1892 июля. Типография А.С. Суворина, 1892 июль. – С.137-138.

14.Федоров Г.П. Моя служба в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. – Т.559. – Ташкент, 1875. – С.1-61.

15. Духовская В.Ф. Туркестанские воспоминания. – Санкт-Петербург: Т-во Р.Голике и А. Вильборге, 1913. –С.64.66.

SOHIBQIRON TEMUR VA SUBHONQULI XON: DAVLAT BOSHQARUVIDAGI STRATEGIK O‘XSHASHLIKLAR VA TARIXIY VORISLIK

Masaliyeva Oltinoy Masaliyevna,
Tarix fanlari doktori (DSc)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) va Ashtarxoniylar sulolasining vakili Subhonquli xon davlat boshqaruvi tizimidagi strategik o‘xshashliklarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada Subhonquli xon uchun sohibqiron Temur ko‘p sohada ideal hukmdor bo‘lgani ko‘rsatiladi. Ayniqsa Subhonquli xon davridagi markazlashgan davlat tizimi, madaniy va ilmiy, diniy-ma’naviy vorislikning ayrim jihatlari manbalar asosida isbotlanadi.

Kalit so’zlar: Sohibqiron Temur, Subhan-quli xon, Abdurahmon Tamkiniy Buxoriy, “Matoli al-fokhira wa matalab al-zohira”, ashtarkhoniylar, naqshbandiya.

САХИБКИРАН ТЕМУР И СУБХАНКУЛИ-ХАН: СТРАТЕГИЧЕСКОЕ СХОДСТВО В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ И ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ

Масалиева Олтиной Масалиевна,
доктор исторических наук(DSc)
Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация: Данная статья посвящена анализу стратегических сходств в системах государственного управления Сахибкирана Амира Темура (1336–1405) и представителя династии Аштарханидов Субханкули-хана. В статье показано, что для Субханкули-хана личность Амира Темура служила идеалом правителя во многих сферах деятельности. На основе исторических источников обосновываются отдельные аспекты преемственности в централизации государственной власти, а также в культурной, научной и религиозно-духовной жизни в период правления Субханкули-хана.

Ключевые слова: Сахибкиран Темур, Субханкули-хан, Абдурахман Тамкини Бухари, «Матали аль-фахира ва маталаб аз-захира», аштарханиды, накшбандия.

SAHIBKIRAN TEMUR AND SUBHANQULI KHAN: STRATEGIC SIMILARITIES IN PUBLIC ADMINISTRATION AND HISTORICAL CONTINUITY

Masalieva Oltinoy Masalievna,
Doctor of science (DSc),
Uzbekistan State University of World Languages

Abstract: This article is devoted to the analysis of strategic similarities in the public administration systems of Sahibkiran Amir Temur (1336–1405) and Subhan-Quli Khan, a representative of the Ashtarkhanid dynasty. The article highlights that for Subhan-Quli Khan, Amir Temur served as an ideal ruler across various domains. Based on historical sources, specific aspects of continuity in the centralized state system, as well as cultural, scientific, and religious-spiritual heritage during the reign of Subhan-Quli Khan, are thoroughly examined.

Key words: Sahibkiran Temur, Subhan-quli khan, Abdurahman Tamkini Bukhari, “Matali al-fakhira wa matalab al-zahira”, ashtarkhanids, naqshbandiya.

Ma’lumki, yaqinda markazlashgan davlat qurgan, tarixda o‘chmas iz qoldirgan, buyuk davlat arbobi ajdodimiz sohibqiron Temur tavalludining 690 yilligi keng miqyosda nishonlandi. Shuning

uchun bu tarixiy shaxs haqida batafsil to‘xtalmasdan, uning keyingi davrlar, ayniqsa, ashtarxoniylar davri xonlaridan biri Subhonquli xon faoliyatidagi ta’sirini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Subhonqulixon ibni Nodirmuhammadxon esa milodiy 1680 yilda saltanat taxtiga o‘tirdi. Milodiy 1708 yilda vafot etdi va Bahouddin Naqshband (rahmatullohi alayh) yonidagi o‘z daxmasiga dafn qilindi.

Hozirgi tarix fanida Subhonquli xon hayoti va faoliyati to‘liq o‘rganilmagan. Mazkur maqolada uning hali o‘rganilmagan ba’zi jihatlariga to‘xtalamiz. Mir Muhammad Amin-i Buxoriyning “Ubaydulla-noma” asarida Subhonquli xonning taxtga kelish voqeasi quyidagicha yoritilgan: [Abdulazizxon o‘shanda] o‘zining mehr va muhabbati izhori o‘laroq, birodari — xalifalik maqomining panohi, Allohning mag‘firatiga erishgan (unga Allohning rahmati va mag‘firati bo‘lsin!) - Janobi Oliylari Sayyid Subhonquli Muhammad Bahodirxonga maktub yozdi. Subhonqulixon Janobi Oliylari olamdor [Ubaydulloxon]ning otasi bo‘lib, [o‘sha vaqtda] «Qubbatul Islom» - Balx viloyatining hokimi edi. [Abdulazizxon] ushbu maktubni Qilich biy turkman orqali yuborib, [birodariga] ulug‘ ajdodlaridan meros qolgan saodatli taxtni taklif qildi. G‘azabda Mirrix (Mars), martabada Mushtariy (Yupiter) kabi bo‘lgan Janobi Oliylari bu xabarni olishi bilan shitob otiga mindi va qisqa vaqt ichida masofalarni bosib o‘tib, it yiliga muvofiq keluvchi hijriy 1093 yil 13 shavval, chorshanba kuni (milodiy 1682 yil 13 oktyabr) «Dorussalom»ga [ulug‘vor Buxoroga] kirib keldi va saltanatning saodatli taxtiga o‘tirdi.

Xullas, Subhonqulixon xalq ahvolidan xabardor bo‘lib, adolat o‘rnatishga intildi va o‘z adolatining ziynati bilan Turon davlatiga ko‘rk berdi. Marhum va mag‘firatli hukmdor saltanatining saodatli kunlarida amirlar va lashkarlar osoyishtalik beshigida shod-xurramlikda yashadilar; ular harbiy yurishlar haqida mutlaqo o‘ylamasdan, har yili xazinadan va raiyatdan o‘z ulushlari (rasionlari) va maoshlarini [muntazam] olib turdilar, [2,16-17.] deb ma’lumot berilgan.

Subhonquli xon o‘z faoliyati davomida Sohibqironning “davlatning qudrati qonun ustuvorligi va markaziy hokimiyatning qat’iyatidadir” degan konsepsiyasini qayta tiklashga intildi. Bu intilish, eng avvalo, viloyat hokimlarining (bek va amirlarning) mustaqillikka bo‘lgan intilishlarini jilovlashda namoyon bo‘ldi. Subhonquli xon Amir Temur kabi davlat boshqaruvini “kengash va tadbir” asosida yuritishga harakat qilib, eng og‘ir siyosiy inqirozlar paytida ham markaziy devon nufuzini baland tutishga erishdi. U Sohibqironning harbiy intizom borasidagi an’analarini qo‘llab, qo‘shinni qayta tashkil etdi, bu esa unga Balx va Buxoro o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish hamda tashqi hujumlarni qaytarish imkonini berdi. O‘z hayotligi davrida Urganchni fath etdi va Turkiston viloyatini o‘z tasarrufiga kiritdi.

Tarixiy manbalar, xususan, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asaridagi ma’lumotlar Subhonquli xonning boshqaruv uslubini Temuriylar siyosiy maktabining so‘nggi muvaffaqiyatli namunalaridan biri sifatida baholaydi.

Yana bir hali yaxshi o‘rganilmagan manbalardan biri Abdurahmon Tamkiniyning Matoli’i al-foxira va matolib al-zohira qo‘lyozmasida yozilishicha, Subhonquli xon Buxoro taxtiga o‘tirgach, davlat boshqaruvida jahonbonlik va adolatparvarlik ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi. Chunon himmat kamarini bog‘lab ahli ilm va shariatga rivoj berdi. Urganchdan to Turkistongacha uning hukmronligi davrida tasarrufida bo‘lgan oliy xon bo‘lgan. Bu xonning 4 ta o‘g‘li bor edi. Sayyid Ubaydulloh xon, Sayyid Abulhasan xon, Sayyid Muqyi xon, Sayyid Abulfayz xon. [1.372].

I.Nizomiddinov esa Buxoro xonligining 16-17-yuzyilliklarda Hindiston bilan elchilik, iqtisodiy (savdo), siyosiy aloqalarini Maleyxoning “Mazkar ul-asxob”, Abduraxmon Tolening “Abulfayz xon tarixi” qo‘lyozmalari va ba’zi maktublar asosida yoritib, munosabatlar “izchil va ular manfaatlariga mos” bo‘lganligi, shuningdek, Subhonquli xon va Avranzeblar davrida “diniy birlik” asosida hamjihatlik paydo bo‘lgan bo‘lsada, lekin “bir-birini mensimaslik”, “o‘zini ulug‘ hoqon” ko‘rsatish an’analari mavjud bo‘lganligini, ko‘pgina hujjatlar hali noma’lumligi sababli mazkur masala mufassal yoritilmay qolayotganligini [6. 67,71] ko‘rsatadi.

Madaniy va ilmiy sohada Subxonquli xon Amir Temurning “ilm ahliga homiylik” fenomenini yangi bosqichga olib chiqdi.

Abdurahmon Tamkiniy boshqa asarlarda uchramagan Subhonquli xon taxti haqida ma'lumot berib, taxtning uzunligi taxminan 5 gaz, turgan yeri 4 gaz, sufrasining uzunligi 4 yarim qadam, kengligi 3 qadam, toshtaxta uzunlik miqdori balandlik sathi 4 gaz, kengligi 3 gaz, taxtning bir tomoni safed, oq ruhomdan 4 tarafi pardalari toshdan yasalgan deb ma'lumot beradi.

Sohibqiron Samarqandni ilm markaziga aylantirgani kabi, Subxonqulixon ham Buxoroda tibbiyot, falakiyot va fiqh ilmlari rivojiga alohida e'tibor qaratdi.

Abdurahmon Tamkiniy yana Subhonquli xon faoliyatiga yuqori baho berib, yozadiki, ahli hikmat va san'at (hunarmandchilik) va handasa va jafr(ximiya) basti zamin va raml (yulduzshunoslik) muammo va adabiyotshunoslik, ilmi nujumga e'tibor qaratdi va ularni o'rganishni tartibga keltirdi.

Chunonchi salohiyatli kishilardan 40 tasi uning mablag'i hisobidan munajjimlar, faqihlar, naxv, mantiq, sarf, hikmat va riyoziy, tarix, handasa, jafr, nujum, she'r va muammoi chistiyon, basit, xat va san'at, tarx va naqqosh, qiyofat, miat va hisob ilmi bo'yicha tayyorlangan. Har bir ilm kishisini donishmandlar jamoaviy yig'ini - kengash chaqirtirib imtihon qilgan, mahoratlarini namoyish qildirgan. Bundan maqsadi ulamosining ilmga sadoqatiligini tekshirib borgan. Agar ilmu hunarga sodiq bo'lsa unga vazifalar tayinlagan, mansablarga tayinlash uchun farmon bergan, shaxsiy mukofotlarini berib ehson ko'rsatgan, deb yozadi.

Abdurahmon Tamkiniy "Subhonquli xon atrofidagi balog'at, fasohat, hikmat ahllari qiyosh yanglig' o'zlaridan nur taratib turadigan ilm ahllaridan yig'ilgan kengash vakillari edi", deb maqtaydi. Ilmi she'rda ham o'ziga xos tarzda kitob bitgan [1.265].

Uning o'zi "Ihyo al-tib Subhoniy" (Subhoniy tibbiyotining tirilishi) kabi ilmiy asarlar muallifi bo'lishi, Temuriylar davridagi hukmdor-olim obrazini (Mirzo Ulug'bek yoki Husayn Boyqaro kabi) xonlik davrida qayta gavdalantirdi. Shuningdek, u tomonidan Buxoroda barpo etilgan "Dorush-shifo" (shifoxona va tibbiyot maktabi) me'moriy jihatdan ham, vazifasi jihatidan ham Temuriylar davrining ijtimoiy xayriya va ilm-fan an'analariga sodiq qolgan holda bunyod etildi. Bu inshoot nafaqat davolash maskani, balki Temuriylar akademiyalari kabi ilmiy munozaralar markazi edi.

Subhonquli xon siyosatining yana bir muhim jihati - diniy-ma'naviy vorislikdir. U Amir Temur kabi Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalari bilan yaqin aloqada bo'lib, davlat ishlarida ularning ma'naviy ko'magiga tayandi. Bu esa unga xalq o'rtasida va diniy ulamolar davrasida Sohibqironga xos "adolatli va dindor hukmdor" maqomini berdi.

Aytish joizki, birlamchi manbalardan biri Mavlono qozi Omon Termiziy (vafoti 1134/1722-yil)ning "Silsilai xojagoni naqshbandiya" [5.69] asarida berilgan naqshbandiya shayxlari orasida ashtarxoniylar sulolasidan bo'lgan Buxoro hukmdorlari Subhonquli xon (1091/1680-1114/1702) va Ubaydulloh xon (1114/1702-1123/1711) ham bor.

Abdurahmon Tamkiniy asarida ma'lumot berilishicha, 4 dona Tug'i Temuriy baland devorga osig'liq turgan. Har biri 1 gaz yaqin joylashtirilgan masofasi 3tasi mixga osig'liqdir. Shulardan bir tug'ni qadrlab baland joyga o'rnatgandi. Albatta bu tug' islom tug'i edi. To zamoni Amir Temurgacha saqlanib kelgan bo'lib, uni Amir Temur maqbarasidan, qabri tepasidan olib kelgan edi, shuning uchun ham uni ko'z qorachig'iday maxsus joyda saqlanar edi. Jonivori musicha o'sha paytda tug'ni ustida istiqomat qilardi, xonada qolardi. Bu mehmonxona 11 ta eshikdan iborat bo'lib, 5 tasi sulton haramgohi tomonida edi, yana 5 tasi shimoliy ayvon tarafida bo'lib, u tomonda taxt joylashgandi. Mazkur mehmonxonaning sharqiy devorida yana bir xona bor edi... yana bir eshikli uy bo'lib uni "Mo'yi muborak" on hazrat s.a.v. ga tegishli bo'lib, uni maxsus sandiqqa solib qo'yishgandi. Buning uchun payg'ambarga salovat aytish uchun alohida durudxona qurilgan edi. Mehmonxonadagi "Mo'yi muborak"da ehtiyotsiz harakatlar qilish ta'qiqlanar edi.

Sayyid Muhammad Nosir ibn Muzaffar "Tahqiqoti arki Buxoro" asarida Subhonqulixon ibn Sayyid Nadr Muhammadxon davrida ko'rinishxona, mehmonxona va jome masjidi, xonaqoh, ayvon, ark ro'parasidagi hovuz va "Dor ash-Shifo" madrasasi [4.40-43]deb yozilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Buxoroning mashhur kishilaridan biri Sadr Ziyo (1867-

1932 yy) yozishicha, Subhonquli xon davrida quyidagi madrasalar qurilgan [3.244].

№	Madrasa nomi	Qaysi guzar	Hujra soni	Qurdiruvchi va quruvchilar nomi	Izoh
1	Muhammad Ali xoji	Qo‘shmadrasa	18	Muhammad Ali xoji biy bin Ali (Sayyid Subhonquli xon umarolaridan)	
2	Ja’farxo‘ja	Volidai xon shaxid	10	Naqib (1250 sanasida Subxonquli xon zamonida) qurdirgan.	
3	Dor ash-shifo	Arki Buxoro qoshida	15	Sayyid Subxonqulixon bin Nadr Muhammad xon qurdirgan.	
4	Mavlono Sharif	//	13	Subhonquli xon davrida qurilgan.	
5	Xo‘jai Davlat	Shafti Qozi O‘rda	12	Xo‘ja saroyi Abdullaxon bin Subxonquli xon	

Xulosa qilib aytganda, Subhonquli xon uchun Sohibqiron sulton Temur fenomeni nafaqat tarixiy ideal, balki davlatni inqirozdan olib chiqish, markaziy hokimiyatni mustahkamlash va madaniyatni yuksaltirishning sinovdan o‘tgan yagona modeli bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

Abdurahmon Tamkiniy. (Qo‘lyozma). Matoli’i al-foxira va matolib al-zohira. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida 8245 raqami ostida saqlanmoqda.

Амин-и Бухари М.М. Убайдулла-наме / Пер. с тадж. с примеч. чл.-кор. Акад. наук УзССР проф. А.А. Семенова; Акад. наук Узб. ССР. Ин-т востоковедения. – Ташкент : Изд-во Акад. наук УзССР, 1957. – С.16-17.

Sadr Ziyo. Tarixi osori atiqai va binohoi qadimiya Buxoroi sharif. –V.244.

Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар.Таҳқиқоти арки Бухоро. Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва кўрсаткичлар Ғ.Каримовники. –Т.: «TAFAKKUR». 2009. – С.40-43.

Mavlono qozi Omon Termiziy. Silsilai xojagoni naqshbandiya. O‘zRFA SHI, raqami 69.

Низамуддинов И. Г. XVI-XVII асрларда Ўрта Осиё – Ҳиндистон муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.67,71.

YANGI JAHON TARTIBOTIDA IJTIMOIY ONG, SIYOSIY IDENTITET VA SIVILIZATSION O'ZLIK DIALEKTIKASI

Nurmuradov Diyorbek Abdurashidovich,
mustaqil tadqiqotchi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola yangi jahon tartibotining shakllanishi jarayonida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsion o'zlikning o'zaro dialektik munosabatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot Gegelning dialektika falsafasi, Gramshining gegemoniya nazariyasi, Kastelsning tarmoq jamiyati konsepsiyasi va Burdyening ijtimoiy maydon nazariyasi metodologik asosida qurilgan. Maqolada isbotlanadiki, zamonaviy global transformatsiyalar sharoitida ijtimoiy ong an'anaviy mafkuraviy determinantlar doirasida emas, balki sivilizatsion ong, milliy identitet va global axborot oqimlari kesishmasida yangicha tarzda shakllanmoqda. Siyosiy identitet — bu bir o'lchamli, o'zgarmas qurilma emas, aksincha, ijtimoiy amaliyot, madaniy xotira va hokimiyat diskurslari o'rtasidagi doimiy dialektik harakat mahsulidir. Sivilizatsion o'zlik esa — bu hodisa ham qadimiy tarixiy sedimentatsiyalarning mahsuli, ham zamonaviy normativ kurashlar ob'ektidir. O'zbekiston misolida post-sovet makoni uchun xos bo'lgan identitet qayta tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Xantington bashorat qilgan «sivilizatsiyalar to'qnashuvi» sxemasi o'rnida ko'proq «sivilizatsiyalar muloqoti va raqobati» yuz bermoqda va ushbu jarayon qat'iy tomonlashtirilgan ziddiyatdan farqli o'laroq murakkab dialektik xarakter kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ong, siyosiy identitet, sivilizatsion o'zlik, dialektika, yangi jahon tartibi, global transformatsiya, postsovet identiteti, O'zbekiston, gegemoniya, normativ kurash, multipollyar dunyo.

ABSTRACT: This article analyzes the dialectical interrelation of social consciousness, political identity, and civilizational selfhood in the context of the emerging new world order. The research is grounded in the methodological frameworks of Hegel's dialectical philosophy, Gramsci's theory of hegemony, Castells' network society concept, and Bourdieu's theory of social fields. The article demonstrates that under contemporary global transformations, social consciousness is not shaped within the bounds of traditional ideological determinants alone, but rather emerges at the intersection of civilizational consciousness, national identity, and global information flows. Political identity is not a one-dimensional, immutable construct, but rather the product of a continuous dialectical movement among social practice, cultural memory, and discourses of power. Civilizational selfhood, in turn, is simultaneously the product of ancient historical sedimentation and an object of contemporary normative struggle. Using Uzbekistan as a case study, the article identifies the distinctive features of identity reconstruction characteristic of the post-Soviet space. The research findings confirm that instead of Huntington's predicted «clash of civilizations,» what is actually occurring is more a «dialogue and competition of civilizations» — a process that, unlike rigid antagonistic conflict, takes on a complex dialectical character.

Keywords: social consciousness, political identity, civilizational selfhood, dialectics, new world order, global transformation, post-Soviet identity, Uzbekistan, hegemony, normative struggle, multipolar world.

1. KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida global tartibning tub qayta shakllanishi kuzatilmoqda. Bir qutbli moment o'z nihoyasiga yetmoqda; AQSh gegemoniasining inqirozi, Xitoyning global kuchga aylanishi, Rossiyaning revizionistik siyosati, Global Janubning ko'tarilishi va raqamli texnologiyalarning hayotning barcha sohalarini qayta tuzishi — bularning barchasi birgalikda yangi jahon tartibining parametrlarini belgilayapti. Ammo bu o'zgarish nafaqat harbiy-siyosiy va iqtisodiy kuchlar muvozanatini, balki insoniyatning kollektiv ongini, milliy identitetlarini va

sivilizatsion o’zlikni ham chuqur o’zgartirib yubormoqda.

Ijtimoiy ong — bu jamiyatning o’z tarixi, hozirgi holati va kelajagi haqidagi bilimlar, tasavvurlar, his-tuyg’ular va qadriyatlar majmuasini o’z ichiga oluvchi murakkab tuzilmadir. Karl Marks uni ijtimoiy borliqning aksi sifatida ko’rgan bo’lsa, keyingi falsafiy an’ana — ayniqsa, fenomenologiya va germenevtika — uning nisbiy avtonomiasini va o’zini shakllantiruvchi rolini ta’kidladi. Bugungi global o’zgarishlar davrida ijtimoiy ong yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda: bir tomondan, u global axborot oqimlari, media va madaniy imperializm tomonidan shakllantirilib, standartlashtirilmoqda; boshqa tomondan, milliy va sivilizatsion o’zliklarning qayta uyg’onishi uning mahalliy, xususiy tomonlarini kuchaytirmoqda.

Siyosiy identitet, o’z navbatida, ijtimoiy ong bilan ham, sivilizatsion o’zlik bilan ham murakkab aloqada turadi. U sub’ektning o’zini siyosiy jihatdan kim sifatida anglashi — qaysi millat, qaysi davlat, qaysi qadriyatlar tizimi va qaysi sivilizatsion an’ananing vakili sifatida ko’rishi — bilan bog’liq. Benedict Andersonning «xayoliy jamoalar» konsepsiyasidan Samuel Hantingtonning sivilizatsion to’qnashuv nazariyasigacha bo’lgan keng oraliqda siyosiy identitet uchun turli nazariy ramkalar ishlab chiqilgan. Biroq ushbu ramkalarning ko’pchiligi identitetni haddan tashqari statik yoki essentsialistik tarzda tushuntiradi.

Maqolaning asosiy tezisi shundaki: ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsion o’zlik o’rtasidagi munosabat dialektik xarakter kasb etadi — ya’ni ular bir-birini bir tomonlama belgilab bermaydi, balki doimiy o’zaro ta’sir, qarama-qarshilik va sintez jarayonida shakllanib boradi. Bu dialektik harakat yangi jahon tartibining shakllanishi jarayonida yanada murakkab va ko’p qatlamli tus olmoqda. Ushbu hodisani tushunish bugungi xalqaro siyosatning harakatlantiruvchi kuchlarini anglash uchun muhim metodologik kalit hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — yangi jahon tartibotida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsion o’zlikning dialektik munosabatlarini falsafiy-sotsiologik va siyosatshunoslik metodlari bilan kompleks tahlil qilish hamda ushbu munosabatlarning O’zbekiston misolida namoyon bo’lish mexanizmlarini ochib berish.

2. ADABIYOTLAR SHARHI: NAZARIY POYDEVOR

2.1. Dialektika metodologiyasi: Gegel, Marks va undan keyingi yo’nalish

Dialektika metodologiyasining zamonaviy ijtimoiy tahlil uchun relevantligi G. V. F. Gegelning «Mantiq fani» va «Ruh fenomenologiyasi» asarlarida shakllantirilgan asosiy g’oyalarga borib taqaladi. Gegel dialektikani tafakkur va voqelikning harakatlanish qonuni sifatida tushuntirib, tezis, antitezis va sintez triadalogiyasini real va ideal dialektikasida ko’rsatib berdi. Uning uchun «dunyo ruhi» — o’z-o’zini anglashga intiluvchi mutlaq ideal — tarixning harakatlantiruvchi kuchi edi (Hegel, 1807). Ushbu g’oya keyingi ijtimoiy falsafada hal qiluvchi rol o’ynadi.

Karl Marks Gegel dialektikasini «oyoqlari ustiga tikladi» — u idealdan materialga yo’nalishni o’zgartirib, dialektikani ijtimoiy voqelikni tushuntirishning metodologik asosiga aylantirdi. Marks va Engelsning «Nemis mafkurasi» va «Kapital» asarlarida ijtimoiy ongning birlamchi emas, ikkilamchi — ijtimoiy borliq, ishlab chiqarish munosabatlari va sinf pozitsiyasining aksi — ekanligi asoslab berildi (Marx, Engels, 1846). Ammo Marks o’zi ham ijtimoiy ongning faol, harakatlantiruvchi rolini inkor etmadi — «Feyerbax haqida tezislar»da «dunyoni o’zgartirish» g’oyasini ilgari surdi.

Antonio Gramshi markssizm doirasida ijtimoiy ong va gegemoniya nazariyasini tubdan yangiladi. Uning «Qamoqxona daftarlari»da shakllangan gegemoniya konsepsiyasi — hukmron sinf o’z hokimiyatini faqat zo’ravonlik orqali emas, balki madaniy, mafkuraviy va intellektual rahbarlik orqali mustahkamlashi — ijtimoiy ongning siyosiy roli haqida yangi tushuncha berdi (Gramsci, 1971). Gramshi uchun intellektuallar, maktab, din va ommaviy axborot vositalari ijtimoiy ong shakllanishining asosiy institutlari hisoblanadi.

«Eski o’lmoqda, yangi esa tug’ilib ulgurмayapti; ana shu oraliqda monstrlarga to’la sara vaqt namoyon bo’ladi.»

— Antonio Gramshi, Qamoqxona daftarlari

Keyingi dialektik an’ana — Frankfurtning tanqidiy nazariyasi (Horkxaymer, Adorno, Habermas), Lui Altusserning strukturalistik markssizmi va Ernesto Laklau hamda Shantal Muffning post-markssistik geymoniya nazariyasi — dialektika metodologiyasini yangi ijtimoiy-siyosiy kontekstlarga moslashtirib rivojlantirdi. Xususan, Habermasning «kommunikativ aql» va «hayot olami» konsepsiyalari ijtimoiy ong shakllanishida kommunikatsion amaliyotning rolini ko’rsatib berdi (Habermas, 1984).

2.2. Siyosiy identitet nazariyalari: klassikadan postklassikagacha

Siyosiy identitet nazariyasida bir necha muhim yo’nalish mavjud. Klassik millat-davlat nazariyasi — Ernest Gellner, Eric Hobsbawm va Anthony Smit asarlarida — siyosiy identitetning zamonaviy shakli sifatida milliy identitetni markazga qo’ydi. Gellner millatchilikni sanoat jamiyatining zaruriy yon mahsuli sifatida ko’rdi (Gellner, 1983), Hobsbawm esa «ixtiro qilingan an’analar» va milliy identitetning sun’iy konstruktsiya ekanligini ta’kidladi (Hobsbawm, Ranger, 1983). Smit esa millatlarning etnik ildizlarini («ethnie») milliy identitetning barqarorligi uchun zaruriy asos deb hisobladi (Smith, 1986).

Benedict Andersonning «Xayoliy jamoalar» (1983) — zamonaviy millatchilik tadqiqotlarining muqaddas kitobiga aylandi. Anderson millat — bu birgalikda xayol qilingan siyosiy jamoadir, deb ta’rifladi va bosma kapitalizm, gazeta hamda roman orqali milliy ongning shakllanish mexanizmini ko’rsatib berdi. Ushbu yondashuv siyosiy identitetning ijtimoiy konstruktsiya ekanligini, ammo ushbu konstruktsiyaning kuchli hissiy va mobilizatsiyaviy kuchga ega ekanligini isbotladi.

Poststrukturalistik yondashuv — Mishel Fuko, Jak Derrida va Stüart Xoll ishlarida — siyosiy identitetni diskursiv konstruktsiya va differensiya orqali tushuntirdi. Fuko uchun identitet — bu hokimiyat-bilim kompleksining mahsuli (Foucault, 1972); Xoll esa identitetni «sutur» (sutured) — hech qachon to’liq tugallanmagan, doimiy diskursiv munosabatda shakllanadigan jarayon — sifatida tushuntirdi (Hall, 1996). Bu yondashuv siyosiy identitetning ham strukturaviy, ham sub’ektiv, ham diskursiv tomonlarini bir vaqtda ko’rib chiqish imkonini berdi.

Manuel Kastellsning «Identitet kuchi» (1997) asari axborot jamiyati kontekstida identitet shakllanishini uch turga — legitimatsion identitet (mavjud institutlar tomonidan o’rnatilgan), qarshilik identiteti (marginallashtirilgan guruhlar tomonidan qurilgan) va loyiha identiteti (ijtimoiy o’zgarishga qaratilgan yangi identitet) — ajratib tahlil qildi. Ushbu tasnif raqamli texnologiyalar davrida identitet siyosatining murakkablashishini tushuntirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

2.3. Sivilizatsion o’zlik: Hantington, uning tanqidchilari va alternativ yondashuvlar

Sivilizatsion o’zlik kontsepti zamonaviy xalqaro munosabatlar va siyosat nazariyasida eng munozarali tushunchalardan biridir. Samuel Hantingtonning 1993 yilgi Foreign Affairs maqolasi va 1996 yilgi monografiyasi — «Sivilizatsiyalar to’qnashuvi va dunyo tartibining qayta shakllanishi» — xalqaro munosabatlardagi sivilizatsion paradigmaning asosini qo’ydi. Hantington uchun sivilizatsiya — insonning eng yuksak madaniy identiteti va madaniy farqlanishning eng keng doirasi; sivilizatsiyalar esa «dunyo tarixining asosiy aktorlari» hisoblanadi (Huntington, 1996).

Hantington nazariyasiga eng kuchli tanqidlar uch yo’nalishda bildirildi. Birinchi yo’nalish — Eduard Said va Amartya Sen tomonidan ilgari surilgan postkolonial tanqid. Said «sivilizatsiyalar to’qnashuvi» g’oyasini yangi orientalizm sifatida ko’rib, u G’arb sivilizatsiyasini normativ standart, boshqalarni esa unga zid «boshqalar» sifatida essentsializatsiya qiladi, deb hisobladi (Said, 2001). Sen esa har bir «sivilizatsiya» ichidagi katta ichki xilma-xillikni ko’rsatib, bir o’lchamli sivilizatsion tasniflashning sun’iyligini isbotladi (Sen, 2006).

Ikkinchi tanqid yo’nalishi — konstruktivistik rад etish. Aleksander Vendt va Peter Katstenshteyn kabilar sivilizatsional identitetlarning ijtimoiy konstruktsiya ekanligi va shuning uchun ular tarixiy o’zgarishlarga, siyosiy mobilizatsiyaga va strategik qayta qurilishga ochiq ekanligini ta’kidladi. Sivilizatsion o’zlik — bu tarixning doimiy mohiyati emas, balki siyosiy aktorlar ishtirokidagi o’zgaruvchan konstruktsiya (Wendt, 1999). Uchinchi yo’nalish — empirik tanqid; Fared Zakariya, Jozef Nay va boshqalar Hantington modelining empirik prognoz qobiliyatining chekliligini

ko’rsatdi (Zakaria, 2003).

Alternativ yondashuv sifatida ko’plab olimlar sivilizatsiyalar o’rtasidagi muloqot va o’zaro ta’sir imkoniyatini ta’kidladi. Xatami taklif qilgan «tsivilizatsiyalar muloqoti», Raimundo Panikkarning «intrakulturalizm» g’oyasi va transsivil axloq nazariyalari sivilizatsion chegaralarning o’tib bo’lmas emas, balki negotiatsiya qilish mumkin bo’lgan to’siqlar ekanligini ko’rsatadi. Bu yondashuv sivilizatsion o’zlikni qat’iy determinant emas, balki doimiy dialogda o’zgarib boradigan jarayon sifatida ko’radi.

3. METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar qo’llandi:

Dialektik tahlil metodi — maqolaning asosiy metodologik ustuni sifatida uch tushuncha o’rtasidagi qarama-qarshilik, o’zaro o’tish va sintez jarayonlarini ko’rib chiqish uchun qo’llanildi. Dialektik yondashuv har bir tushunchani izolyatsiyada emas, balki boshqalar bilan dialektik munosabatda tahlil qilish imkonini berdi.

Diskurs-tahlil metodi — Fuko va Laklau-Muffe an’anasida — siyosiy identitet va sivilizatsion o’zlikni qurishda ishtirok etuvchi diskursiv amaliyotlar, normativ kurashlar va gegemoniya mexanizmlarini o’rganish uchun qo’llanildi. Bu metod matn va nutqlar orqali hokimiyat-bilim munosabatlarini ochib berish imkonini beradi.

Qiyosiy-tarixiy tahlil — sivilizatsiyalararo va davlatlararo kontekstlarda ijtimoiy ong va identitet shakllanishining o’xshashliklari va farqlarini aniqlash maqsadida qo’llanildi. Postsovet va G’arb tajribalari, Sharq va G’arb sivilizatsion an’analarining qiyosiy tahlili ushbu metodning asosiy yo’nalishlarini belgiladi.

Misollar tahlili (case study) — O’zbekistonning postsovet davrida identitet qurilishini empirik jihatdan o’rganish uchun qo’llanildi. 2016 yildan keyingi «Yangi O’zbekiston» diskursi, uning sivilizatsion, milliy va global o’lchamlari ko’rib chiqildi.

Interdistsiplinar sintez — falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniy tadqiqotlar va xalqaro munosabatlar nazariyasini birlashtirib, tushunchalar o’rtasidagi ko’prikni qurishga imkon beruvchi yondashuv sifatida qo’llanildi.

4. TAHLIL: DIALEKTIKA UCHTA O’Q BO’YLAB

4.1. Birinchi o’q: Ijtimoiy ong va global axborot muhiti dialektikasi

Zamonaviy ijtimoiy ong global axborot muhiti bilan murakkab dialektik munosabatda shakllanuvchan. Bir tomondan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va transmilliy media ijtimoiy ongning shakllanishini milliy-davlat chegaralaridan chiqarib yubordi. Endi ko’plab odamlar bir vaqtning o’zida mahalliy va global ong olamida yashaydi — o’z qishlog’i haqida qayg’uradi va ayni paytda iqlim o’zgarishi, global tengsizlik yoki uzoqdagi urushlar haqida tashvishlanadi. Kastellsning «tarmoq jamiyati» va «kommunikatsion hokimiyat» nazariyasi ushbu jarayonni tahlil qilish uchun muhim ramka beradi (Castells, 2009).

Boshqa tomondan, ushbu global axborot muhiti o’zi ham dialektik ziddiyatga to’la. U bir vaqtning o’zida ommaviy standartlashtirish (McDonaldizatsiya) va mahalliy o’zlikni yanada chuqurroq tarzda anglash va ifodalash imkonini yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar ham global giperkulturaning tarqalish kanali, ham mahalliy tillar, an’analar va identitetlarning saqlanish va ifoda etilish platformasiga aylanmoqda. Bu «glokallik» (glocality) hodisasi — global va mahalliyning bir-birini inkor etmasligi, balki o’zaro o’tib ketishi — zamonaviy ijtimoiy ong dialektikasining markaziy xulosasiga aylanmoqda (Robertson, 1995).

Uchinchi dialektik ziddiyat — axborot erkinligi va manipulyatsiya o’rtasidagi munosabat. Raqamli axborot muhiti, bir tomondan, davlatning monopol axborot nazoratini qiyinlashtirsada, boshqa tomondan, algorithm, chuqur soxta (deepfake) va maqsadli dezinformatsiya orqali yangi, yanada nozik nazorat imkoniyatlarini yaratmoqda. Ijtimoiy ong endi nafaqat an’anaviy mafkuraviy apparatlar orqali, balki ma’lumotlar iqtisodiyoti va raqamli gegemoniya orqali ham shakllantirilmoqda. Bu Gramshining gegemoniya nazariyasining XXI asrdagi raqamli inkarnatsiyasini ifodalaydi.

4.2. Ikkinchi o’q: Siyosiy identitet va sivilizatsion o’zlik o’rtasidagi dialektik harakat

Siyosiy identitet va sivilizatsion o’zlik o’rtasidagi munosabat qo’pol determinizm (sivilizatsiya siyosiy identitetni belgilaydi) yoki to’liq avtonimiya (ular bir-biridan mutlaqo mustaqil) sifatida tushuntirib bo’lmaydi. Realliq ko’proq dialektik: ular bir-birini doimiy ravishda shakllantiradi, qayta quradi va bir-biriga o’tib ketadi.

Siyosiy identitetning sivilizatsional o’zliqqa ta’sirini ko’p sonli tarixiy misollarda kuzatish mumkin. Kemal Ataturk Turkiyani G’arb sivilizatsiyasining bir qismi sifatida qayta qurishga intildi va buning uchun tilda, huquqda, madaniyatda va siyosiy tuzilmada tubdan islohotlar amalga oshirdi. Bu tajriba sivilizatsion o’zlikning siyosiy qarorlar orqali kontseptual qayta qurilishi mumkinligini ko’rsatdi. Biroq dialektik jarayon ushbu loyihaning cheklovlarini ham namoyon etdi — Islom qadriyatlari va Sharq madaniy merosi Turkiya ijtimoiy ongida davom etdi va keyingi siyosiy ziddiyatlarning asosiy manbai bo’lib qoldi.

Aksincha, sivilizatsional o’zlikning siyosiy identitetni shakllantirishiga ham ko’plab misollar keltirish mumkin. Konfutsiy ta’limoti Xitoy, Yaponiya, Koreya va Singazpur siyosiy madaniyatida — democratic legitimacy dan farqli bo’lgan meritokratiya va ijtimoiy kelishuv modelini — hali ham belgilaydi. Islom sivilizatsiyasining siyosiy identitet shakllantiruvchi roli Eron inqilobidan boshlab musulmon ko’pchilikli ko’plab davlatlardagi siyosiy safarbarlikda kuzatilmoqda. Biroq ushbu munosabat ham deterministic emas — Islom sivilizatsiyasi ichida ham dunyoviy, ham teokratik, ham demokratik, ham avtoritar siyosiy identitetlar mavjud.

Dialektik yondashuv ushbu munosabatni statik «belgilovchi omil» sifatida emas, balki dinamik o’zaro ta’sir sifatida ko’radi. Sivilizatsional o’zlik siyosiy identitetga imkoniyatlar va cheklovlar — Burdye terminologiyasida aytganda, «ijtimoiy maydon» — beradi; siyosiy identitet esa o’z navbatida ushbu maydon ichidagi «kapital» — madaniy, ramziy va ijtimoiy kapital — taqsimotini o’zgartiradi. Ikkisi birgalikda doimiy dialektik harakat — «o’zaro o’tish» — holida turadi.

4.3. Uchinchi o’q: Yangi jahon tartibining sivilizatsion-identitet konfiguratsiyasi

Yangi jahon tartibining shakllanishi jarayonida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o’zlikning dialektik munosabatlari yangi konfiguratsiyalar hosil qilmoqda. Ushbu konfiguratsiyaning beshta asosiy xususiyatini ajratib ko’rsatish mumkin.

Birinchi xususiyat — identitetning ko’pqatlamliligi va o’xshashmasligi. Zamonaviy shaxs va jamoalar bir vaqtning o’zida bir nechta siyosiy va sivilizatsional identitetlarning tashuvchisi hisoblanadi va ushbu identitetlar ko’pincha o’zaro qarama-qarshi impulsllar beradi. Masalan, zamonaviy O’rta Osiyo fuqarosi bir vaqtning o’zida o’zbek milliy identiteti, Islom diniy identiteti, postsovet madaniy meros va global fuqaro identitetini tashiydi. Ushbu «identitetlar to’qnashuvi» odatda Hantington tushuntirgandek sivilizatsiyalar o’rtasida emas, balki shaxs yoki jamoaning ichida kechadi.

Ikkinchi xususiyat — identitet normativ kurash ob’ekti sifatida. Yangi jahon tartibida sivilizatsional o’zlik va siyosiy identitet faqat tarixiy meros emas, balki faol kurash ob’ektiga aylandi. «Kim biz?», «Qaysi sivilizatsiyaga tegishlimiz?», «Qanday siyosiy qadriyatlar bizniki?» — bu savollar davlatlar, siyosiy kuchlar va intellektual muhitlar tomonidan aktiv ravishda muhokama qilinadi va ular uchun kurash olib boriladi. Laklau-Muffe terminologiyasida bu «gegemonnaya kurash» bo’lib, turli siyosiy diskurslar ijtimoiy ongni va identitetni o’z versiyasida shakllantirmoqchi bo’ladi (Laclau, Mouffe, 1985).

Uchinchi xususiyat — «o’zlik» va «boshqalar» munosabatining qayta qurilishi. An’anaviy sivilizatsion nazariyada «biz» va «ular» chegaralari qat’iy tarzda belgilangan. Biroq zamonaviy tarmoqli dunyo, migratsiya va madaniy gibridlashtirish bu chegaralarni loyqalashtirib yubormoqda. Transmilliy diasporalar, global shaharlar va raqamli jamoalar yangi «ko’p joylilik» (translocality) va «ko’p tegishlilik» (multiple belonging) hodisalarini vujudga keltirmoqda. Bu hodisalar an’anaviy sivilizatsional o’zlikni inkor etmaydi, ammo uning mazmuni va chegaralarini murakkablashtiradi.

To’rtinchi xususiyat — «retroaktiv» identitet qurilishi. Ko’pgina zamonaviy siyosiy va

sivilizatsional identitetlar kelajakni emas, balki o’tmishni qayta kashf etish yoki ixtiro qilish orqali qurilmoqda. «Buyuk Xitoy» orzusi, «Rossiya dunyo»si konsepsiyasi, «Yangi Usmonli» siyosati, «Yevrosiyo uyg’onishi» kabi diskurslar barchasi siyosiy maqsadlar uchun tarixiy «oltin davr» mifologiyasiga murojaat qiladi. Bu hodisa Xobsbaumning «ixtiro qilingan an’analar» tushunchasini yangi siyosiy kontekstda tasdiqlaydi va kuchaytiradi.

Beshinchi xususiyat — identitet siyosatining «qurollantirilishi» (weaponization of identity). Yangi jahon tartibida sivilizatsional va siyosiy identitetlar nafaqat o’z-o’zini ifodalash va jamoani uyushtirish maqsadida, balki geosiyosiy kurashning qurollariga aylantirilmoqda. Raqamli propaganda, madaniy imperializm va «identitet qurollari» — bular yangi geosiyosiy raqobatning muhim instrumentlari hisoblanadi. Bu holat dialektik ziddiyatni yanada chuqurlashtiradi: identitet bir vaqtning o’zida ham sub’ektning erkin o’zini ifodalashi, ham tashqi kuchlar tomonidan manipulyatsiya qilinuvchi ob’ekt hisoblanadi.

5. O’ZBEKISTON: POSTSOVET IDENTITET DIALEKTIKASI MISOLIDA

5.1. Tarixiy kontekst: identitetning uch qatlami

O’zbekistonning siyosiy identiteti va sivilizatsional o’zligi murakkab tarixiy sedimentatsiyaning mahsulidir. Uchta asosiy qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam — Islom sivilizatsiyasi va O’rta Osiyo madaniy merosi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar Islom sivilizatsiyasining intellektual markazlari bo’lgan; Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Ulug’bek va Navoiy kabi mutafakkirlar nafaqat O’rta Osiyo, balki jahon madaniy merosining bir parchidir. Ushbu qatlam O’zbekiston ijtimoiy ongining eng chuqur, uzoq muddatli plastini tashkil etadi.

Ikkinchi qatlam — sovet davri va uning madaniy-mafkuraviy merosi. 70 yillik sovet hukmronligi O’zbekiston ijtimoiy ongini, ijtimoiy tuzilmasini va siyosiy madaniyatini chuqur o’zgartirdi. Marksistik-leninistik mafkura, kollektivizm, industrializatsiya va sekularizatsiya O’zbekiston jamiyatiga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Biroq dialektik jarayon bu yerda ham o’zini namoyon qildi: sovet modernizatsiyasi o’zbek milliy identitetini yo’qotishga emas, balki paradoksal tarzda uni mustahkamlashga — o’zbek tili, madaniyati va tarixiga bo’lgan munosabatni siyosiylashtirish orqali — hissa qo’shdi.

Uchinchi qatlam — mustaqillik davri va yangi milliy identitet qurilishi. 1991 yildan boshlab O’zbekiston o’z milliy identitetini qurishning murakkab jarayonini boshladi. Islom Karimov davri uchun xos bo’lgan yopiq, izolyatsionistik va «barqarorlikni birinchi o’ringa qo’yuvchi» identitet modeli 2016 yildan keyin tubdan o’zgarib, yanada ochiq, ko’pvektorli va zamonaviy modifikatsiyaga o’tdi. Ushbu o’tish o’ziga xos dialektik harakat bo’lib, avvalgi modelni inkor etishni ham, merosini o’zlashtirish va yangilashni ham o’z ichiga oladi.

5.2. «Yangi O’zbekiston» diskursi: sivilizatsion-konstruktivistik tahlil

«Yangi O’zbekiston» — bu nafaqat siyosiy dastur, balki ijtimoiy ong va siyosiy identitetni qayta qurishning keng qamrovli loyihasiga aylandi. Ushbu loyihaning sivilizatsional o’lchamida quyidagi elementlar alohida ajralib turadi.

Avvalo, «Uchinchi Renessans» g’oyasi. Prezident Mirziyoev ko’p chiqishlarida O’zbekiston uchun «Uchinchi Renessans» — Islom oltin davri va Temuriylar Renessansidan keyin uchinchi — ga intilish g’oyasini ilgari surdi. Bu diskurs bir vaqtning o’zida sivilizatsional o’tmishga murojaat qilish (Islom sivilizatsiyasining ulug’ merosi), milliy identitetni mustahkamlash (o’zbek intellektual va madaniy buyukligi) va kelajakka yo’naltirilgan modernizatsiya loyihasi (ilm-fan, innovatsiya, ta’lim)ni birlashtirishga harakat qiladi. Bu retroaktiv va prospektiv identitet qurishning noyob kombinatsiyasi.

Ikkinchidan, mintaqaviy liderlik va O’rta Osiyo birligi diskursi. 2016 yildan boshlab O’zbekiston o’zini O’rta Osiyo mintaqasining tabiiy rahbari va integrasiya harakatlantiruvchi kuchi sifatida kontseptuallashtirmoqda. Bu identitet qurilishi bir vaqtning o’zida O’rta Osiyo sivilizatsiyasining muhim qismini tashkil etish g’ururini, strategik manfaatni (mintaqaviy kuch maqomiga intilish) va konstruktivistik normativ kurashni (O’rta Osiyoning xalqaro obro’sini ko’tarish) mujassam etadi.

Uchinchidan, ko’pvektorlilik va dialogik identitet. O’zbekistonning bir vaqtning o’zida Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Eron va Hindiston bilan teng darajada hamkorlik qilish strategiyasi qiziqarli identitet implikatsiyasiga ega. Bu strategiya sivilizatsional o’zlikni bir qutbga qamab qo’yishdan bosh tortish va global muloqotda faol ishtirokchi sifatida o’zini ifodalash ekanligini bildiradi. Hantington modelidan farqli o’laroq, bu yondashuv sivilizatsiyalar o’rtasidagi muloqotni to’qnashuvdan ustun qo’yadi.

To’rtinchidan, dunyoviylik va din dialektikasi. O’zbekistonda dunyoviy davlatchilik va Islom madaniy identitetining o’zaro munosabati nozik dialektik muvozanat sifatida davom etmoqda. Davlat Islom madaniy merosini (masjidlar, madrasa, mutafakkirlar) faol targ’ib qilar ekan, siyosiy Islomga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni saqlab qolmoqda. Bu o’z ichida dialektik ziddiyatni — madaniy-sivilizatsional Islom bilan siyosiy Islom o’rtasidagi chegara — mujassam etgan identitet qurilishi modelidir.

6. MUHOKAMA: DIALEKTIK SINTEZ TOMON

6.1. Dialektik triadaning yangi talqini

Yuqorida ko’rib chiqilgan tahlil asosida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o’zlikning o’zaro munosabatini yangi dialektik triadasida ifodalash mumkin.

Tezis — sivilizatsional o’zlik — uzoq tarixiy jarayonlar, din, til va madaniy xotira orqali shakllangan nisbatan barqaror, ammo mutlaq o’zgarmas bo’lmagan ijtimoiy-madaniy poydevorni ifodalaydi. U ijtimoiy ong va siyosiy identitet uchun material, ramzlar, narrativlar va qadriyatlar «ombori» hisoblanadi.

Antitezis — siyosiy identitet — ushbu tarixiy poydevorni siyosiy maqsadlar va sharoitlar uchun mobilizatsiya qiluvchi, uni qayta talqin etuvchi va ba’zan qayta quradigan kuchdir. Siyosiy identitet dinamik, o’zgaruvchan va siyosiy kurashlar, normativ talablar va strategik qayta yo’naltirish jarayonlariga ochiq. U sivilizatsional o’zlikni ham tasdiqlaydi, ham qayta shakllantiradi.

Sintez — ijtimoiy ong — ushbu dialektik harakatning natijasi sifatida paydo bo’ladi. U sivilizatsional merosni va siyosiy identitetni o’zida birlashtirib, jamiyatning kollektiv o’z-o’zini anglashini shakllantiradi. Biroq ijtimoiy ong o’zi ham to’liq passiv emas — u o’z navbatida ham sivilizatsional o’zlikka, ham siyosiy identitetga ta’sir o’tkazib, keyingi dialektik harakatning boshlang’ich nuqtasiga aylanadi. Bu — spiral dialektika bo’lib, har bir davrda yuqoriroq darajada qaytadi.

6.2. Yangi jahon tartibida dialektik cho’qqilar

Yangi jahon tartibida ushbu dialektik harakat o’ziga xos «cho’qqilar» — dialektik ziddiyatning eng yuqori nuqtalariga yetadigan momentlar — hosil qilmoqda. Uchta asosiy cho’qqini keltirish mumkin.

Birinchi cho’qqi — «identitet siyosiy» momenti. Bu — identitet masalalarining bevosita siyosiy kuchga aylanadigan, demokratik mobilizatsiya yoki avtoritar nazoratning asosiy vositasiga aylanadigan momentidir. Brexit, trampizm, Hindiston millatchiligi yoki turli populistik harakatlar bu cho’qqining G’arb va G’arb bo’lmagan versiyalaridir. Bu momentlarda ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o’zlik birlashib, noyob siyosiy kuch hosil qiladi.

Ikkinchi cho’qqi — «sivilizatsional uyg’onish» momenti. Bu — sivilizatsional o’zlikning uzoq muddatli uyqudan uyg’onib, faol siyosiy va ijtimoiy kuchga aylanadigan momentidir. Xitoyning «Xitoy orzusi» diskursi, Turkiyaning «Neo-Usmonli» yo’nalishi yoki ba’zi Islom davlatlarining «Islom Renessansi» harakatlari — bularning barchasi sivilizatsional uyg’onish momentlarining turli ifodalaridir. Bu momentlarda tarix va o’tmish kelajak uchun faol harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Uchinchi cho’qqi — «identitet krizi» momenti. Bu — ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o’zlik o’rtasidagi muvozanat buzilganda, jamiyat o’z-o’zini anglashda iqtisodiy va kultural dezorientatsiyaga tushganda ro’y beradi. Sobiq sovet respublikalarining dastlabki mustaqillik yillaridagi «identitet bo’shlig’i», iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz davrlaridagi polarizatsiya

— bu cho’qqining namoyon bo’lishlaridir. Ushbu momentlar eng xavfli, ammo ayni vaqtda yangi identitet qurilishi uchun eng qulay davr hamdir.

7. XULOSALAR

Ushbu tadqiqot quyidagi muhim xulosalarni asoslab berdi:

Birinchi xulosa. Ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o’zlik o’rtasidagi munosabat hech qaysi determinizm (iqtisodiy, madaniy yoki strukturaviy) orqali izohlab bo’lmaydi. Ular dialektik — bir-birini doimiy shakllantiruvchi, qayta quradigan va o’zgartiradigan — munosabatda turadi. Ushbu dialektik yondashuv zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushuntirishda eng yuqori evristik salohiyatga ega.

Ikkinchi xulosa. Yangi jahon tartibida ushbu uchala tushuncha yanada muhimroq, murakkabroq va siyosiy jihatdan aloqadorroq bo’lmoqda. Global axborot muhiti, identitetning qurollantirilishi va sivilizatsiyalararo raqobat bu dialektik munosabatning intensivligini va tezligini oshirmoqda. Hantington modeli bu murakkablikni etarlicha aks ettirmasligini tahlil ko’rsatdi.

Uchinchi xulosa. Sivilizatsional o’zlik statik emas, balki doimiy qayta qurilish jarayonida bo’lgan dinamik hodisadir. Ushbu qurilish jarayonida siyosiy aktorlar, intellektuallar, media va fuqarolik jamiyati faol ishtirokchi hisoblanadi. Shuning uchun sivilizatsion o’zlikni «berilgan» emas, «qurilgan» — ammo qurilish uchun material va chekovchi imkoniyatlar tarixiy va madaniy poydevor tomonidan belgilanadi — deb tushunish to’g’riroq.

To’rtinchi xulosa. O’zbekiston misolida postsovet identitet qurilishi dialektik tuzilmaning amaliy namoyon bo’lishini ko’rsatdi. «Yangi O’zbekiston» diskursi — retroaktiv va prospektiv elementlarni, sivilizatsional meros va zamonaviy modernizatsiyani, dunyoviylik va diniy o’zlikni birlashtiradigan — noyob identitet sintezi sifatida tahlil qilindi. Bu model boshqa postsovet va rivojlanayotgan davlatlar uchun ham tadqiqot ob’ekti sifatida qiziqarlidir.

Beshinchi xulosa. Yangi jahon tartibotini tushunish uchun xalqaro munosabatlar nazariyasi materializm va idealizmning bir tomonlama ustuvorligidan voz kechib, ijtimoiy ong va sivilizatsional o’zlikning materiallik bilan dialektik munosabatini hisobga oluvchi integrativ yondashuvlarga muhtoj. Ushbu maqolada taklif qilingan dialektik ramka — ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o’zlikning uch qutbli triadasi — ana shu integrativ yondashuv uchun bir konfiguratsiyani anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Monografiyalar va kitoblar:

1. Anderson, B. (1983). Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. London: Verso. — 224 p.
2. Bourdieu, P. (1984). Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. Cambridge: Harvard University Press. — 613 p.
3. Castells, M. (1997). The Power of Identity. Vol. II of The Information Age. Oxford: Blackwell. — 461 p.
4. Castells, M. (2009). Communication Power. Oxford: Oxford University Press. — 571 p.
5. Foucault, M. (1972). The Archaeology of Knowledge. New York: Pantheon. — 245 p.
6. Gellner, E. (1983). Nations and Nationalism. Oxford: Blackwell. — 150 p.
7. Gramsci, A. (1971). Selections from the Prison Notebooks. New York: International Publishers. — 483 p.
8. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Boston: Beacon Press. — 465 p.
9. Hall, S. (Ed.). (1997). Representation: Cultural Representations and Signifying Practices. London: Sage. — 400 p.
10. Hegel, G. W. F. (1807/1977). Phenomenology of Spirit. Trans. A. V. Miller. Oxford: Oxford University Press. — 592 p.
11. Hobsbawm, E., & Ranger, T. (Eds.). (1983). The Invention of Tradition. Cambridge:

Cambridge University Press. — 322 p.

12. Huntington, S. P. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster. — 368 p.

13. Laclau, E., & Mouffe, C. (1985). Hegemony and Socialist Strategy: Towards a Radical Democratic Politics. London: Verso. — 197 p.

14. Marx, K., & Engels, F. (1846/1970). The German Ideology. New York: International Publishers. — 257 p.

15. Sen, A. (2006). Identity and Violence: The Illusion of Destiny. New York: W. W. Norton. — 215 p.

16. Smith, A. D. (1986). The Ethnic Origins of Nations. Oxford: Blackwell. — 312 p.

17. Wendt, A. (1999). Social Theory of International Politics. Cambridge: Cambridge University Press. — 450 p.

18. Zakaria, F. (2003). The Future of Freedom: Illiberal Democracy at Home and Abroad. New York: W. W. Norton. — 286 p.

Maqolalar va boblar:

19. Hall, S. (1996). Introduction: Who Needs «Identity»? In S. Hall & P. du Gay (Eds.), Questions of Cultural Identity (pp. 1–17). London: Sage.

20. Huntington, S. P. (1993). The Clash of Civilizations? Foreign Affairs, 72(3), 22–49.

21. Robertson, R. (1995). Glocalization: Time–Space and Homogeneity–Heterogeneity. In M. Featherstone, S. Lash, & R. Robertson (Eds.), Global Modernities (pp. 25–44). London: Sage.

22. Said, E. W. (2001). The Clash of Ignorance. The Nation, 273(12), 11–13.

23. Wendt, A. (1992). Anarchy is What States Make of It: The Social Construction of Power Politics. International Organization, 46(2), 391–425.

O’zbek tilidagi adabiyotlar:

24. Mirziyoev, Sh. M. (2023). O’zbekiston: Yangi Renessans sari. Toshkent: O’zbekiston. — 264 b.

25. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni — «O’zbekiston — 2030» Strategiyasi to’g’risida. Toshkent, 2022.

TURKISTON O‘LKASIDA 1908-1909 YILLARDA O‘TKAZILGAN SENATORLIK TAFTISHINING SABAB VA OQIBATLARI

Nuritdinova Nodira Sirojovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasi hukmronligining o‘rnatilishi masalalari, shuningdek, hududda boshqaruv tizimini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil etiladi. Turkiston o‘lkasining ma’muriy-hududiy bo‘linishining o‘ziga xos jihatlari hamda ushbu jarayonlar bilan bog‘liq holatlar yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada 1908–1909 yillarda Turkiston o‘lkasida senator, gofmeyster graf K. K. Palen rahbarligida o‘tkazilgan senatorlik taftishining sabab va oqibatlari chuqur tahlil qilinadi. Mazkur taftish chor hukumatining bosib olingan hududlarda boshqaruvni tartibga solishdagi muhim vositalardan biri sifatida talqin etiladi.

Kalit so’zlar: Boshqaruv tizimi, taftish, Turkiston general-gubernatorligi, o‘lka, dehqon xo‘jaligi, nizom, mahalliy ma’muriyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы установления господства Российской империи в Туркестанском крае в конце XIX — начале XX века, а также меры, направленные на организацию системы управления в регионе. Освещаются особенности административно-территориального деления Туркестанского края и связанные с этим процессы. Особое внимание уделено анализу причин и последствий сенаторской ревизии, проведённой в 1908–1909 годах в Туркестанском крае под руководством сенатора, гофмейстера графа К. К. Палена. Ревизия рассматривается как важный инструмент упорядочения управления завоёванными территориями со стороны царского правительства.

Ключевые слова: Система управления, ревизия, Туркестанское генерал-губернаторство, край, дехканское хозяйство, положение (нормативный акт), местная администрация.

Abstract. This article examines the governance of the Russian Empire’s dominions in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries, as well as measures aimed at organizing the regional governance system. It highlights the specifics of the administrative-territorial delegation of the Turkestan region and the associated processes. Particular attention is paid to the analysis of the causes and consequences of the senatorial audit conducted in 1908–1909 in the Turkestan region under the leadership of Senator and Chamberlain Count K.K. Palen. The audit decision served as an urgent instrument for regulating the governance of conquered territories by the tsarist government.

Keywords: Governance system, audit, Turkestan Governorate-General, region, peasant farm, regulation (normative act), local administration.

Kirish. XIX asr o‘rtalariga kelib, Rossiya imperiyasi hukmron doiralarida O‘rta Osiyoga qiziqish kuchaydi va bu mintaqada bosqinchilik yurishlari boshlandi. U Rossiya uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy xarakterdagi ikkita dolzarb muammo tufayli yuzaga keldi. Birinchisini keskinlashgan rus-ingliz raqobati va Qrim urushidagi mag‘lubiyatdan so‘ng Rossiyaning mavqeini mustahkamlash zarurati; ikkinchisini esa Rossiya iqtisodiyotining yangi bozorlar va xomashyo manbalariga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish tashkil etardi.

1865-yil mart oyida O‘rta Osiyo bo‘yicha Harbiy vazirlik, Tashqi ishlar, Ichki ishlar vazirliklari, O‘rta Osiyodagi rus qo‘mondonligi vakillaridan iborat maxsus qo‘mita qarori bilan Orenburg chegara general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil etildi. Uning birinchi harbiy gubernatori etib general-mayor M. G. Chernyayev tayinlandi[1: 247-249].

Bosib olingan hududlarni Rossiya tarkibiga kiritishda chorizm, eng avvalo, ularni boshqarishning

samarali tizimini yaratishi kerak edi, bu esa ularni iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirishni maksimal darajada ta’minlashi kerak edi. U bosqinchilik kampaniyasining borishiga muvofiq asta-sekinlik bilan vujudga kelgan. Chor hukumatining bosib olingan hududlarni boshqarishni tartibga soluvchi birinchi hujjati Harbiy vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan «Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom» edi. Uning asosiy maqsadi «boshqaruvning umumiy asoslarini belgilash orqali yangi rus mulklarida osoyishtalik va xavfsizlikni o‘rnatish»[2: 6] edi. Bu nizomga ko‘ra, viloyatda butun hokimiyat harbiylar qo‘lida edi. Fuqarolik ma’muriyatiga faqat mahalliy aholi ustidan umumiy nazorat qilish yuklatilgan bo‘lib, uning ichki turmushiga, yer va huquqiy munosabatlariga aralashishga haqli emas edi.

Asosiy qism. Biroq chor Rossiyasining bosqinchilik siyosati natijasida Rus Turkistoni geografik jihatdan kengayib bordi, bu esa tabiiyki, tegishli me’yoriy-huquqiy bazani ham qayta ko‘rib chiqishni talab etardi. Shu munosabat bilan 1867 yilgi «Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom»[2: 9] va 1886 yilgi «Nizom»da [2: 30] ifodalangan «O‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi Nizom»lar tayyorlandi va ular «harbiy-xalq» boshqaruvi tamoyilini saqlab qoldi, ammo ma’muriyat huquqlariga bir qator jiddiy cheklovlar kiritdi.

XIX asr oxiriga kelib Turkiston o‘lkasining ma’muriy bo‘linishi bir qator o‘zgarishlarga uchradi. Ushbu hududiy o‘zgarishlar munosabati bilan XX asr boshlariga kelib, ushbu yangi birliklarni boshqarishni tartibga solish zarurati sezilib qoldi, ya’ni o‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish masalasi ko‘ndalang bo‘ldi. Mahalliy podsho ma’muriyatining, eng avvalo, general-gubernatorning Turkiston iqtisodiyotini boshqarish borasidagi vazifalarini toraytirish tendensiyasi kuchayib borayotgani, markazda tashkil etilgan yangi ma’muriy tuzilmalarning bu tizimga faol aralashuvi, faqat Moliya vazirligi, Dehqonchilik va davlat mulklari boshqarmasi, Ko‘chirish boshqarmasi kabi organlarga bo‘ysunishi va shu sababli o‘z faoliyatida mutlaqo mustaqil bo‘lishi ham shuni taqozo etardi. Bundan tashqari, Turkiston general-gubernatorligining faqat Harbiy vazirlikka bo‘ysundirilishidan rus tadbirkorlarining noroziligi kuchaydi. Ular uni Rossiya guberniyalarini boshqarishning yagona tizimiga kiritishni, ya’ni Ichki ishlar vazirligi tasarrufiga o‘tkazishni talab qildilar.

Bularning barchasini hisobga olib, 1906-yil 17-aprelda Vazirlar Kengashi harbiy vazir va ichki ishlar vaziriga Turkiston o‘lkasini boshqarishni Harbiy vazirlikdan Ichki ishlar vazirligiga o‘tkazishni tayyorlashni topshirdi. Ammo kutilmaganda bu qaror Rossiya imperiyasi hukumat doiralarida umumiy qo‘llab-quvvatlanmadi. Ularning fikricha, o‘lkani boshqarish tizimini o‘zgartirishdan oldin amaldagi boshqaruv tizimi qanday ishlaganligini va umuman uning ichki holati qanday ekanligini batafsilroq tushunib olish oqilona bo‘lar edi [2: 35-37].

Ana shu holatlarni hisobga olib, shuningdek, hukumatda Turkiston o‘lkasi va ayniqsa, hali yetarli darajada o‘rganilmagan Kaspiyorti viloyati to‘g‘risida iloji boricha to‘liqroq ma’lumotlarga ega bo‘lish zarurati tug‘ilganligi munosabati bilan Nikolay II 1908-yil 8-martda Turkiston o‘lkasida yangi senatorlik taftishini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

1908-yil 18-iyunda imperatorning maxsus farmoni bilan bu taftishga rahbarlik qilish tajribali podsho amaldori, senator, gofmeyster graf K. K. Palenga topshirildi. Graf K. I. Palen saroydagi mashhur saroy xizmatchisining o‘g‘li bo‘lib, saroyda ajoyib martabaga erishgan edi. Senator K. K. Palen Rossiyaning Turkistondagi sivilizatorlik missiyasiga ishonchi komil edi. «Rus hukumati, — deb yozgan edi u taftish natijalari haqidagi hisobotida, — Turkistonga temir yo‘llar, telegraf, pochta, yangi o‘simliklar madaniyati va qayta ishlash sanoati ko‘rinishidagi umumjahon sivilizatsiyasini olib keldi va shu bilan o‘lkani Yevropaga, umumjahon tovar aylanmasiga qo‘shdi» [3: IV]. Shu bilan birga, u sivilizatorlik missiyasidan tashqari, Rossiya imperiyasi o‘lkani zabt etishdan katta amaliy foyda olishini yaxshi anglagan: «1) moliyaviy siyosat nuqtayi nazaridan, davlat daromadlarining manbai va ichki ishlab chiqarish mahsulotlari uchun yangi bozor sifatida, 2) mustamlakachilik siyosati nuqtayi nazaridan, Markaziy guberniyalardan ortiqcha aholini ko‘chirishning yangi obyekti sifatida» [3: III.]. Biroq shuni aytib o‘tish kerakki, taftish vaqtida K. K. Palenning bu ishonchi o‘lkada ko‘rganlari tufayli birmuncha susaydi.

Taftishni boshlagan senator K. K. Palen hukumat tomonidan favqulodda huquq va vakolatlar bilan ta’minlandi, bu huquq va vakolatlar senatorlarning tekshirishlari uchun yo‘riqnomada nazarda tutilgan huquq va vakolatlardan ancha ortiq edi. Adliya vaziri uning uchun maxsus yo‘riqnoma [4:] tuzib, unda Turkistondagi barcha idoralar — ham hukumat, ham jamoat idoralari taftish qilinishi kerakligi ko‘rsatilgan edi.

Taftish «o‘lkaning hozirgi holatini har tomonlama yoritish va Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi yangi nizomni tuzish uchun materiallar berish; bu o‘lkani Ichki ishlar vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish shartlari va tartibini muhokama qilish; shuningdek, mahalliy ma’muriyatning noto‘g‘riligi va suiiste’molchiliklariga e’tibor qaratish»ga qaratilgan edi. Podshoning 1908-yil 18-iyundagi farmoni bilan senator K. K. Palenga 26 paragrafdan iborat «Alohida yuksak ko‘rsatma»[5] berildi. Taftish Turkiston o‘lkasining ahvolini juda sinchiklab o‘rganishi, uni boshqarish bo‘yicha yangi nizom tuzish uchun materiallar tayyorlashi va o‘lkani Harbiy vazirlik tasarrufidan Ichki ishlar vazirligi tasarrufiga o‘tkazishning ehtimoliy shartlari va tartibini muhokama qilishi kerak edi. Senator K. K. Palen va uning jamoasiga munosib baho berish kerak — taftish qo‘yilgan barcha savollarga to‘liq javob berdi.

K. K. Palen o‘z xotiralarida «ko‘pchiligi shaxsan o‘zi bilan tanish bo‘lgan yosh amaldorlar jamoasini to‘plaganini» eslaydi. Komissiya ishiga mahalliy mutaxassislar, ayniqsa, agrar mutaxassislar ham jalb etildi.

Komissiya 1908-yil 18-iyulda taftishga kirishdi. Uning ishida ikki bosqich kuzatiladi: birinchisi - 1908-yil iyuldan dekabr oxirigacha, K. K. Palen o‘z xodimlari bilan bir necha oyga Sankt-Peterburgga ketganida; ikkinchisi - 1909-yil 13-apreldan 18-iyungacha.

1908-yil iyul oyida komissiya a’zolari bir necha kishilik guruhlarga bo‘linib, o‘lkaning barcha beshta viloyatida tekshirish ishlarini boshladilar. Kerakli ma’lumotlar juda sinchkovlik bilan to‘plandi. Missiya ishi jarayonida viloyat statistika qo‘mitalari tomonidan taqdim etilgan o‘lkadagi yer taqsimoti va yerdan foydalanish holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ularni tuzishning yagona uslubi yo‘qligi sababli batafsil o‘rganish imkonini bermasligi ma’lum bo‘lgach, K. K. Palenning farmoyishi bilan komissiya a’zolari o‘zlarining statistik tekshiruvlarini o‘tkazdilar. Maxsus tuzilgan «Senator taftishi anketasi» bo‘yicha oldindan tanlangan volostlardagi dehqon xo‘jaliklarining yoppasiga uyma-uy ro‘yxatga olinishi o‘tkazildi, ular dehqonchilikning turli xususiyatlari, yerdan foydalanish usullari va xo‘jalik yuritish tartibiga mos ravishda turli geografik zonalarni aks ettirishi kerak edi. So‘rovnoma o‘lkaning uchta tub viloyatining 15 ta uyezdidan 12 tasida - Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqandda o‘tkazildi va 29 ta volostni qamrab oldi[3: VII, IX–X.].

Bugungi kunda bu materiallar XX asr boshlarida Turkistonda yerdan foydalanish va yer tuzish muammolarini o‘rganayotgan tadqiqotchilar uchun g‘oyat qimmatlidir, chunki bu o‘lka tashkil topganidan to 1917-yilgacha bo‘lgan davrda dehqon xo‘jaliklarini uyma-uy o‘rganish bo‘yicha rasmiy ravishda o‘tkazilgan yagona tadqiqot edi. Ular ishonchli va yetarlicha reprezentativ ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, chunki ularni tuzish tamoyillari va maqsadi ularning haqqoniyligiga shubha qilishga asos bermaydi, barcha iqlim zonalarini qamrab olish esa umuman o‘lka dehqonlarining yer tuzish va xo‘jalik yuritish usullari haqida yetarlicha to‘liq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi.

K. K. Palen taftish yakunlarini chiqarishga juda katta mas’uliyat bilan yondashdi va imperator o‘z oldiga qo‘ygan barcha masalalarni o‘zining yakuniy hisobotlarida sinchiklab yoritdi. Buni hatto «Alohida yo‘l-yo‘riq» savollarini senator K. K. Palenning taftish hisobotlari tomlarining nomlari bilan oddiy taqqoslash ham tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyoda bosib olingan hududlar Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olinib, ulardan yangi ma’muriy birlik — Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan keyin 40 yil davomida Turkiston o‘lkasining boshqaruv tizimi doimiy ravishda o‘zgarib turdi. Tabiiy resurslarga boy bo‘lgan yangi yerlarni boshqarishning eng qulay, eng muhimi, samarali tizimini talab qildi.

Senator K. K. Palenning taftishi bu jarayondagi navbatdagi bosqich edi. U hukumatga Turkiston o‘lkasining mustamlaka ma’muriyati tizimini XX asr boshlarida o‘zgargan siyosiy va iqtisodiy voqelikka mos ravishda qanday modernizatsiya qilish, podsho hukumatining imperiyaning boy chekkasida yangi, «rus» Turkistonini barpo etishdek global g‘oyasini amalga oshirish uchun nima qilish kerakligi va o‘lkaning bo‘ysunishini Harbiy vazirlikdan Ichki ishlar vazirligiga o‘tkazish kerakmi, degan savollarga javob berish imkonini beruvchi materiallarni taqdim etishi kerak edi. Eng tajribali boshqaruvchi va xo‘jalik yurituvchi senator graf K. K. Palenning taftish o‘tkazish uchun Turkistonga yuborilishi va u tomonidan o‘lkani tekshirishning ko‘lami shu bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Киняпина Н. С. Внешняя политика России второй половины XIX века. М., 1974. С. 247, 249.
2. Краевое управление. Отчёт по ревизии Туркестанского края, про изведённой по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К. К. Паленом. СПб., 1910. С. 269
3. Пален К. К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. В 2-х частях. Ч. 1. СПб., 1911.
4. К ревизии Туркестанского края // Туркестанский курьер. 1908. № 145.
5. Высочайшее одобренное 18 июня 1908 г. особое наставление сена тору, назначенному по Высочайшему повелению к производству ре визии Туркестанского края // Туркестанские ведомости. 1908. № 153.

БУХОРО АМИРЛИГИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ПАХТАЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Очилдиев Файзулла Бобоқулович,
Тарих фанлари доктори, профессор,Ўзбекистон Миллий Университети,
Тарих факультети

Аннотация: ушбу мақолада XX аср бошларида Бухоро амирлиги қишлоқ хўжалигида пахтачиликнинг ривожланиши, амирликда пахта экиладиган ҳудудлар, Россия империяси Ўрта Осиёни босиб олгандан сўнг Бухоро амирлиги пахта етиштириш бўйича йирик марказга айланиши, Россияда пахтага бўлган талабнинг ортиб бориши натижасида амирликда пахта экин майдонларининг кенгайиб боришига доир масалалар ўрганилган. Шунингдек, Амирликда Америка пахта навининг экилиши, унинг маҳаллий пахтага нисбатан кўпроқ ҳосил бериши, Россия ҳукумати ўзининг пахтага бўлган эҳтиёжларини қондириш мақсадида амирликда суғориладиган ер майдонларининг кенгайтирилиши, рус тадбиркорларига ерларнинг ижарага берилиши каби жиҳатларга эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: Бухоро амирлиги, Ўрта Осиё, Россия, маҳаллий ғўза, пахта, Америка пахта нави, пуд, рубль, импорт, қишлоқ хўжалиги, экин майдонлари, фирмалар, савдогарлар, тадбиркорлар.

РАЗВИТИЕ ХЛОПКОВОДСТВА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Очилдиев Файзулла Бобокулович,
Доктор исторических наук, профессор Национальный университет Узбекистана
Исторический факультет

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы развития хлопководства в сельском хозяйстве Бухарского эмирата в начале XX века, районы возделывания хлопчатника на территории эмирата, а также процесс превращения Бухарского эмирата в один из крупных центров производства хлопка после завоевания Средней Азии Российской империей. Анализируется расширение посевных площадей под хлопчатником в эмирате в результате возрастающего спроса на хлопок в Российской империи. Кроме того, рассматриваются вопросы внедрения американских сортов хлопка в эмирате, их более высокая урожайность по сравнению с местными сортами, расширение орошаемых земель с целью удовлетворения потребностей России в хлопке, а также передача земель в аренду русским предпринимателям.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Средняя Азия, Россия, местные сорта хлопчатника, хлопок, американский сорт хлопка, пуд, рубль, импорт, сельское хозяйство, посевные площади, фирмы, торговцы, предприниматели.

THE DEVELOPMENT OF COTTON CULTIVATION IN THE AGRICULTURE OF THE BUKHARA EMIRATE

Fayzulla Boboqulovich Ochildev
Doctor of Historical Sciences, Professor National University of Uzbekistan
Faculty of History

Abstract: This article examines the development of cotton cultivation in the agricultural sector of the Bukhara Emirate in the early twentieth century, the regions where cotton was cultivated within the emirate, and the transformation of the Bukhara Emirate into a major center of cotton production following the conquest of Central Asia by the Russian Empire. The study analyzes the expansion of cotton cultivation areas in response to the growing demand for cotton in the Russian

Empire. Particular attention is paid to the introduction of American cotton varieties in the emirate, their higher productivity compared to local varieties, the expansion of irrigated lands to meet the Russian Empire's cotton requirements, and the leasing of land to Russian entrepreneurs.

Keywords: Bukhara Emirate, Central Asia, Russia, local cotton varieties, cotton, American cotton variety, pood, ruble, import, agriculture, cultivated areas, firms, merchants, entrepreneurs.

Кириш. Бухоро амирлиги аграр давлат бўлиб, аҳолининг асосий қисми қишлоқ хўжалик ишлари билан банд бўлган. Унумдор, серсув ҳудудларда деҳқончилик, дашт ва чўл зоналарида эса чорвачилик билан шуғулланиб келишган. XIX аср охири – XX аср бошларига келиб, амирлик қишлоқ хўжалигида пахта экиш аҳолининг асосий машғулотларидан бирига айланиб, уни экспорт қилиш имконияти янада кенгайди. Пахтани экиш даври 15-апрелдан 25-апрелгача давом этган, 15 августдан 10 сентябргача эса ҳосил йиғиб олинган. Амирлик аҳолиси асосан пахтанинг икки турини экиб келишган. "Ғўзаисафед" ғўзанинг бу нави сифати яхши ва тозалиги билан ажралиб турган. "Ғўзаимака" навининг эса ранги қизил бўлиб, унинг чигитидан кўпроқ ёғ олишда ишлатилган. Шунингдек, Ўрта Осиёда етиштирилган маҳаллий ғўза нави ичида Бухоро навининг (ипак пахта) сифати яхши бўлиб, толасининг узунлиги билан ажралиб турган (толанинг узунлиги 22-23 мм.). Бухоро нави Ўрта Осиёнинг бошқа ҳудудларида етиштириладиган пахтага нисбатан ҳаридоргир ҳисобланган.

Асосий қисм. Бухоро амирлигида пахта асосан Зарафшон ва Қашқадарё воҳаларида ҳамда Шарқий Бухорода экилган. Шунингдек, Бухоро атрофидаги туманларда ҳамда Миёнқол, Кармана ва Самарқандда ҳам экилиб, яхши ҳосил олинган. Бу даврда Қарши ва Чоржўйда етиштирилган пахтадан кам ҳосил олиниб унинг сифати анча паст бўлган. Манбаларда Бухоро амирлиги аҳолиси қишлоқ хўжалиги билан шуғулланиб, пахта етиштиришда катта фойда кўришларини алоҳида таъкидлаб ўтилган.. XIX асрнинг 40-йилларида Бухоро амирлигида 1 пуд пахта нархи 2 рублга баҳоланган бўлса, 1850 йилларга келиб пахтанинг пуди 4 рублга сотилган. Бу даврда Ўрта Осиёда етиштирилган пахтанинг 1 пуди Оренбург ва Троицк савдо ярмаркаларида эса 6 рублга баҳоланган. Шунингдек, Бухоро амирлигида етиштирилган пахта Россиянинг Владимир ва Москва губерняларидаги бўз, чит, кигиз ва толали газламалар ишлаб чиқарадиган заводларига ҳам етказиб берилган. А.Ф.Губаревич-Радобыльскийнинг таъкидлашича, XIX асрнинг 50-йилларида Хива ва Қўқон хонлига нисбатан Бухоро амирлигидан Россияга кўпроқ пахта экспорт қилинган. Амирликдан йилига 20-30 минг пуд, Хивадан 15 минг пуд, Тошкентдан эса 5 минг пудга яқин пахта Россия ўлкасига чиқарилган[5].

Манбаларда Россия империяси Ўрта Осиёни босиб олгандан сўнг Бухоро амирлиги пахта етиштириш бўйича хонликлар ўртасида йирик марказ сифатида эътироф этилиб, XIX асрнинг учинчи чорагига келиб амирликда 1,0-1,2 миллион пуд пахта (волакна) етиштирилганлиги келтириб ўтилган. В.И.Массальский амирлик таркибига кирувчи бекликлардан бир йилда тахминан 205000 ботмон ёки 1.640.000 пуд пахта ҳосили йиғиб олинганлигини эътироф этиб ўтган.

1861 йилда Америкадан Россияга олиб келинадиган пахтанинг ҳажми кескин қисқариб кетиши натижасида Россия бозорларида пахтанинг нархи бир неча бараварга ўсиб борди. 1862 йилда Бухоро амирлигидан олиб борилган бир пуд пахтанинг нархи Россияда 12-13 рублдан сотилган бўлса, 1864 йилга келиб эса 22-23 рублгача кўтарилган. Бу жараён Россия тўқимачилик саноати учун катта муаммони келтириб чиқарди. Пахтага ихтисослашган саноатларнинг эҳтиёжларини қондириш учун Россия ҳукумати Бухоро амирлигида ҳам пахта экин майдонларини кенгайтиришга катта эътибор қарата бошлади. Россия саноати учун зарур бўлган хом ашёни Ўрта Осиёдан олиб кириш мақсадида 1868 йилнинг 12 декабрида молия вазирлигининг розилиги билан Кауфман томонидан фармон имзоланди. Бу фармонда Ўрта Осиёдан Россия саноати учун керакли хом ашёларни олиб киришда ҳеч

қандай бож олинмаслик белгиланган.

1868–1872-йилларда эса Бухоро амирлигидан қиймати 2 миллион рублга тенг 249 минг 978 пуд, Тошкентдан 133 минг пуд, умумий қиймати 786 минг 847 рубллик Қўқон пахтаси Россияга экспорт қилинган[8]. XIX асрнинг 80-йилларида Ўрта Осиё ҳудудига темир йўл тармоғининг кириб келиши натижасида рус фабрика ва савдо фирмалари Ўрта Осиё пахтасини катта ҳажмда сотиб олишга киришди. Шу билан бирга юқори сифатли пахта навларини етиштиришга киришдилар. Ҳусусан, рус тадбиркорлари томонидан Тошкент яқинида (Upland) Америка пахта навини экишни йўлга қўйди. Дастлаб 1884 йилда Кудрин фирмаси томонидан 100 пуд (1,6 тонна) Америка пахта хосили Москвага етказиб берилди. 1886 йилдан бошлаб бу навни экиш учун Ўрта Осиёнинг барча деҳқончилик марказларига тарқатилди. Бу даврда ғалла ва бошқа дон маҳсулотларининг нархи жуда паст бўлиб, янги пахта навининг иқтисодий самарадорлиги анча юқори бўлган. Москва бозорида бир пуд пахтанинг нархи 10 рубль бўлиб, ҳар десятина (1,09 гектар) пахта майдонидан 140 рубль соф даромад олинган. Бу эса тез бойишни хоҳлаган тадбиркорларни ушбу янги деҳқончилик соҳасига кўпроқ жалб қилган.

Россия бозорларида пахта нархининг ошиб кетиши ортидан бухоролик савдогарлар катта фойда кўра бошлади. Масалан, 1869 йилда маҳаллий савдогарлар Бухоро бозорларидан ҳар бир пуд пахтани 4 рубль 50 тийиндан[9] сотиб олиб, Нижегород ярмаркасида 15 рублгача сотишган[10]. Бухоро пахтаси сифати ва толасининг узунлиги жиҳатидан Америка пахтасига нисбатан анча паст бўлса-да, Ливерпул биржасидаги Америка пахтасига нисбатан анча арзон эди. Ўрта Осиё хонликлари пахта етиштиришга ихтисослашмасдан аввал Россия пахтани Америка ва Мисрдан импорт қилган. Бироқ, 1888-1892 йиллар оралиғида пахта толасига бож дастлаб 45 тийиндан 1 рублга, сўнг 2 рубль 10 тийинга, 1894 йилда 3 рубл 15 тийинга кўтарилган. Америка ва Мисрдан келтирилган пахта толасига божхона тўловларининг ошиши Ўрта Осиёда пахта етиштиришга катта туртки бўлди. Шу сабабли Россия хукумати ва тадбиркорлари пахтага бўлган эҳтиёжни Ўрта Осиё орқали қондиришни афзал кўришди.

Россияда пахтага бўлган талабнинг ортиб бориши натижасида рус амалдор ва ҳарбийлари Ўрта Осиё ҳудудидан ерларни ижарага олиб, америка пахтасини экишга киришдилар. Туркистон ва амирликда етиштирилган пахта толасини Россия ўлкасига ташиб етказишда жуда кўплаб фирма ва савдо уйлари фаолият олиб боришди. Масалан, “Ўрта Осиё ва Эрон билан савдо қилиш ширкати”(Поляков банки), Кнопъ, Юсупов, Вадьяев, Потеляхов каби йирик савдо фирмалари амирлик ва Туркистонда етиштирилган пахтани сотиб олишда фаол бўлиб, рус саноат фабрикаларини пахта хом ашёси билан таъминлаб турган[11].

Амирликда ҳам пахтадан юқори ва сифатли ҳосил олиш учун Америка навини экиш оммалашиб борди. Америка пахта навининг экилиш тарихига эътибор қаратадиган бўлсак, бу жараён амирликда бироз олдинроқ бошланганлигини кўришимиз мумкин. 1860 йилда илк бор амирликка 2 пуд Америка пахта нави уруғини Саид Маъруф исмли шахс В.А.Биковский савдо уйи орқали олиб кирган. Шу йили Америка нави экилиб, ундан 10 пуд ҳосил олинган. 1861 йилда эса 21 пуд шу навли ҳосил етиштирилган. XIX асрнинг 80-йилларига қадар амирликда асосан маҳаллий пахта нави экиб келинган. 1888 йилда рус савдогари С. Мазов Бухоро ҳукуматидан 30 десятина ерни ижарага олиб, америка пахта навини экиб, унинг маҳаллий пахтага нисбатан кўпроқ ҳосил беришини исботлайди. Бухоро амирининг розилиги билан 1888 йилдан бошлаб Зарафшон воҳасида Америка пахтаси экила бошланди, биринчи марта экилган Америка пахтаси ўша йили яхши ҳосил берди.

Америка пахтаси махаллий пахта навига нисбатан кўп меҳнатни, ортиқча харажат ва сувни кўп талаб қилган. Шунингдек, маҳаллий шароитларга ҳам мослаштирилмаганди. Бундан ташқари, Америка пахтасининг нави амирлик бозорларида 12 рубль бўлиб маҳаллий пахтадан (ғўза) 2 рубль қиммат турган. Америка пахтасининг яхши ҳосил беришига қарамай аксарият деҳқонлар маълум бир вақтгача маҳаллий ғўза навини экишни афзал кўриб келган. XIX асрнинг 50–70-йилларида Бухоро амирлигида 23 минг десятина ерга пахта экилган

бўлса, 1880 йилга келиб пахта майдонлари 50 минг десятинага етказилди. 1890 йилга келиб эса 62 минг десятина майдонга пахта экилгани қайд қилинган[14].

Архив манбаларида амирликда 1904-1905 йилларда 100 минг пуд, 1906 йилда 150 минг пуд, 1908 йилда эса, 200 минг пуд америка пахтаси етиштирилганлиги этироф қилинган. Экилган америка пахтасининг асосий қисми Зарафшон воҳасида Зирабулоқ, Зиядин ҳудудларига тўғри келиб, кейинчалик Кармана, Пирмаст ва Ғиждувонда ҳам экила бошланган. 1909 йилга келиб, Бухоро амирлиги бўйича 1 млн. 200 минг пуд хар ҳил навдаги пахта етиштирилди. 1909 йилдан сўнг Бухоро амирлигида пахта етиштириш кескин қисқариб кетганлиги кузатилади. 1910 -1911 йилда 1 млн 920 минг пуд, 1911-1912 йили 950 минг пуд, 1912-йилига келиб эса олинган ҳосил 720 минг пудга тушуб кетган.

Россия империяси Бухоро амирлигида пахтачиликни ривожлантириш йўлида олиб борган чора-тадбирлари натижасида пахта экин майдонлари кенгайиб аста секин хосилдорлик кўпайиб борди. 1913 йилда 60 минг десятина ерга маҳаллий, 2 минг десятина майдонга Америка пахта нави экилиб, йиғиб олинган пахта ҳосили 2 млн 375 минг пудни ташкил қилган[17]. 1915 йилга келиб эса пахта экин майдони 100 минг десятинага етказилиб (шундан 51,3 десятина ерга Америка пахта нави экилган) 3 млн пуд атрофида ҳосил етиштирилган.

Биринчи жахон уруши натижасида Россияга Америка ва Мисрдан пахта олиб келиш сезиларли даражада қисқариши. оқибатида Россияда Ўрта Осиёдан келтирилган пахтанинг нархи ошиб кетди. Шу сабабли Бухоро амирлигининг Шарқий ҳудудларида ҳам пахта экин майдонларини кенгайтиришга эътибор қаратила бошланди. Шундан сўнг Шеробод, Денов, Бойсун, Ҳисор, Қўрғонтепа, Қободиён, Кулоб бекликларида ҳам пахта етиштириш қишлоқ хўжалигида етакчи ўринга кўтарилиб, аҳолининг асосий даромад олиш манбаига айланди. Бу ҳудудларда ҳам маҳаллий ғўза билан бир қаторда Америка пахта нави кенг ҳудудларга экила бошланди.

Тарихчи Т.Г.Тухтаметов Шарқий Бухорода, жумладан, Сурхон воҳасида Шеробод беклигидан бошқа бекликларда 1911 йилгача пахта экилмаган деган, фикрни илгари суради[18]. Лекин Шарқий Бухорода маҳаллий ғўза XIX аср бошларида ҳам, кейинчалик ҳам экилган. Масалан, 1890 йилда Ҳисор беклигида 16 минг пуд, Қўрғонтепа беклигида 8 минг пуд, Қабодиён беклигида 240 пуд пахта етиштирилган. 1887 йили Шарқий Бухорода бўлган полковник Матвеев Китоб, Шеробод, Сурхон ва Кофирниҳон воҳаларида ҳамда Сурхон дарёси бўйларида бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари билан биргаликда пахта ҳам экилишини таъкидлаб ўтган [19].

Бухоро ҳукумати билан тузилган .”Шарқий Бухоро ширкати” Шарқий Бухорода кузатув ишларини олиб бориб, олинган натижаларни Россия ҳукуматига етказиб турган. Ширкат аъзоси З.А.Белиский Шарқий Бухорони ўрганиб чиқиб, қайси ҳудудларда пахта экиш мумкинлигини аниқлаган. У Шеробод, Бойсун ва Денов бекликларидан пахта сотиб олганлигини қайд этган. Шунингдек, Шарқий Бухорода йиллик йиғиб олинадиган пахта ҳосили 90000 дан 100000 ботмонгача бўлиб, ҳосилнинг 90 фоизини Америка пахтаси, 10 фоизини эса маҳаллий ғўза навини ташкил қилганлигини таъкидлаган. З.А.Белиский ўзининг ҳисоботида Шарқий Бухорода пахта экиш технкасидан тўғри фойдаланса ҳамда бунак тизими бартараф этилса, йилига 1 миллион пудгача пахта ҳосилини олиш мумкинлигини баён қилган[20].

Шарқий Бухорода пахта бозорлари ҳар бир қишлоқнинг ўзида бўлиб савдогорлар қишлоқма қишлоқ юриб деҳқонлардан пахтани арзон нархларда сотиб олишган. Бу холат пахта билан шуғулланувчи фирма ва тадбиркорларга катта муаммо туғдирган. Шунинг учун Ўртоқчилик жамияти Россия ҳукуматига савдогарларнинг қишлоқлардан пахта сотиб олишини тақиқлаб уни бозорларда сотишни жорий қилиш кераклиги ва рақобатни таминлаш зарурлигини, бозорларда тўғри ва текширилган рус тарозиларини жорий қилиб, тарозибонлар хукумат тамонидан тайинланиши кераклигини сўраб арз қилишган. Шарқий Бухоро жамияти ўзининг кузатувлари натижасида бекликларда жойларга қараб пахта

бозорларини очиш кераклигини ҳам хукуматга тақдим қилишган. Масалан, Қўрғонтепа беклигида Қўрғонтепа, Лағмон, Жиликул ва Сарой-Камар, Ҳисор беклигида Оралтўқай, Кулоб беклигида Фархор, Қабодиён беклигида Қабодиён қишлоқларида ҳам пахта бозорларини очиш таклифини берган [21].

Шарқий Бухорода пахта омборлари ва саройларининг етишмаслиги, пахта бозорларнинг камлиги, ҳар бир бозорда жорий қилинган ҳафтанинг белгиланган кунларида ишламаслиги, бозорларда ҳукумат тарозиларининг етишмаслиги деҳқонлар ва савдогорларга бир қанча қийинчиликларни туғдирган. Термизда яшовчи Мирбадалиев Бухоро қушбегисига йўллаган телеграммасида фирмалар ва алоҳида шахслар деҳқонларга пахта учун бунаклар берилганлигини маълум қилган. Деҳқонлар пахтани ҳукуматдан сотиб олиш учун пахта саройларнинг тайёр эмаслиги ва ҳукумат тарозиларининг етишмаслиги таъкидланган. Шунингдек, пахта сотиб олувчилардан тилхат олиб келгуси йили фақат бозорлардан сотиб олишга, бу йил вазиятдан чиқиш учун пахта сотиб олишда олдинги йилдаги талабларни қўллашга рухсат беришни сўраб мурожаат қилган[22].

XX аср бошларида Рус ҳукумати Ўрта Осиёда пахта савдосига катта эътибор қаратиб, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Пахта қўмитаси ташкил этилди. Бу қўмитага Ўрта Осиё ҳудудида етиштирилган пахта учун божхона тарифлари, темир йўл ва маҳаллий масалаларни муҳокама қилиш каби мажбуриятлар юкланган. Ҳусусан, 1912 йил март ойидаги Афғонистон билан олиб борилган савдо масалалари бўйича йиғилиш ўтказилган. Унда Афғонистондан олиб келинадиган пахта учун тарифни ўзгартириш масаласи муҳокама қилиниб савдогарлар ва фирма вакилларига маълум кўрсатмалар берилди[23]. XX аср бошларига келиб амирликда пахта экиш аҳолининг асосий экин турига айланди, деҳқонлар пахта экинидан яхши фойда кўра бошлади. Бу жараён Бухоро амирлигида пахта майдонларининг 5-6 баравар кенгайишига сабаб бўлди. Бу даврга келиб амирликда пахта сотиш билан шуғулланувчи бозорлар сони 70 тадан ошиб кетди[24].

Хулоса: XIX асрнинг иккинчи ярми–XX аср бошларига келиб ҳам амирликда истиқомат қиладиган аҳолининг асосий даромад манбайи қишлоқ хўжалигидан олинган. Россия империяси ўлкани босиб олганидан сўнг, ўзининг пахтага бўлган эҳтиёжларини қондириш учун суғориладиган ер майдонларини кенгайтиришга эътибор қарата бошлади. Шунингдек, Бухоро амирлиги ҳудудидан пахта экиш учун катта миқдордаги ерлар рус тадбиркорларига ижарага берилди. XX аср бошларига келиб, Бухоро амирлигида пахта экиш бўйича катта тажриба тўпланди. Натижада пахта майдонлари бир неча бараварга кенгайиб, амирликда Америка пахта навини экиш оммавий тарзда жорий қилинди. Маҳаллий ғўза навини экиш майдонлари камайди ва ўзининг аҳамиятини йўқотиб борди.

Адабиётлар рўйхати

1.Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – С. 142-143.

2.Хакимова К.З, Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. - Т.: Фан, 1980. – С.44.

3.Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В Виткевича). М. Наука; Гл. Ред. Восточной лит., 1983, – С 75.

4.Мейендорф. Е.К. Путешестви из Оренбурга в Бухару. – М 1975. – С. 106-109.

5. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.7.

6.Массальский В.И Хлопковое дело в Средней Азии. СПб, 1892. – С139-141

7.Раззоқов Д.Х. Бухоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари (XIX асрнинг 60–90 йиллари). Тар. фан. номзоди дисс... – Ташкент, 1994. – Б. 56.

8.Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.20.

9.Туркестанские сборник. Том. 8. – С.23.

10.Туркестанские сборник. Том. 26. – С.77.
11.Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.22.
12.Хакимова К.З, Кравец Л.Н Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. - Т.: Фан, 1980. – С.45.
13.Шахназаров А. Очерки сельского хозяества Туркестанского края. Спб. 1898. – С.61
14.ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 369-иш, 18- варақнинг орқаси.
15.ЎзРМДА И-3-Жамғарма , 1-рўйхат, 335- иш, 44-варақ.
16.ЎзРМДА И-3-Жамғарма , 1-рўйхат, 540- иш, 4-варақ.
17.ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 369-иш, 18-варақ.
18.Тухтаметов Т.Г. Экономическое состояние Бухарского эмирата в конце XIX- начале-XX вв. (развитие и стране капиталических отношение) // Тр. инс-та истории АН Кирг ССР. – Фрунзе: 1957. – С. 151-183.
19.Полк. Матвеев. Поездка по Бухарским и Афганиским владениям // Сб. геог. топог и статис. мат. по Азии. - СПб., 1887. Вып. V. – С. 21.
20.ЎзР МДА, И- 3-жамғарма, 1-рўйхат, 620 -иш, 17-варақ.
21.ЎзР МДА, И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 919-иш, 18- варақ.
22.ЎзР МДА, И-3-жамғарма, 2-рўйхат, 404-иш, 33- варақ
23.Губаревич-Радобыльский А.Ф. Материалы для изучения хлопководства. – СПб. 1912. Вып. II. – С.111.
24.ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 368-иш, 83- варақ

УЙҒУРЛАРНИНГ НИКОҲ ТЎЙИ МАРОСИМИДА ДИНИЙ АНЪАНАЛАРНИНГ ЎРНИ

Убайдуллаева Барно,
Ўзбекистон Миллий университети
Тарих факультети “Археология ва этнология”
кафедраси профессори, тарих фанлари доктори

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистонда яшовчи уйғурлар никоҳ тўйи ва у билан боғлиқ маросимларда миллий ва диний омилларнинг ўзаро таъсири таҳлил қилинади. Ислом динининг никоҳ муносабатларига таъсири, гендер роллар тақсимоти, анъанавий урф-одатлар ва уларнинг трансформация жараёнлари кўриб чиқилади. Шунингдек, совет даври сиёсати, глобаллашув жараёнлари ва маҳаллий аҳоли билан этномаданий алоқалар натижасида юз берган ўзгаришлар ёритилади ва социологик маълумотлар асосида диний қадриятларнинг ҳозирги кундаги аҳамияти баҳоланади.

Калит сўзлар: уйғурлар, никоҳ маросимлари, ислом дини, анъанавий урф-одатлар, гендер роллари, этномаданий алоқалар, глобаллашув, трансформация, социализация, оилавий маросимлар

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ ТРАДИЦИЙ В УЙГУРСКОЙ СВАДЕБНОЙ ЦЕРЕМОНИИ

Аннотация: В данной статье анализируется взаимодействие национальных и религиозных факторов в свадебно-брачных обрядах уйгуров, проживающих в Узбекистане. Рассматривается влияние ислама на брачные отношения, гендерное распределение ролей, традиционные обычаи и процессы их трансформации. Особое внимание уделяется изменениям, связанным с советской политикой, процессами глобализации и этнокультурным взаимодействием с местным населением. На основе социологических данных оценивается значение религиозных ценностей в современности.

Ключевые слова: уйгуры, свадебные обряды, ислам, традиционные обычаи, гендерные роли, этнокультурные связи, глобализация, трансформация, социализация, семейные ритуалы

THE ROLE OF RELIGIOUS TRADITIONS IN THE UIGUR WEDDING CEREMONY

Abstrakt: This article examines the interaction of national and religious factors in the wedding and marriage rituals of Uyghurs living in Uzbekistan. The study analyzes the influence of Islam on marital relations, gender role distribution, traditional customs, and their transformation processes. It also explores changes resulting from Soviet policies, globalization, and ethnocultural interaction with the local population. Based on sociological data, the contemporary significance of religious values is assessed.

Key words: Uyghurs, wedding rituals, Islam, traditional customs, gender roles, ethnocultural interaction, globalization, transformation, socialization, family rituals

Кириш. Никоҳ инсоният ҳаётидаги энг муҳим ижтимоий институтлардан бири бўлиб, у нафақат икки шахс ўртасидаги муносабатларни, балки жамиятда янги оиланинг шаклланишини ҳам ифода этади. Шу жиҳатдан никоҳ маросимлари ҳар бир халқнинг маданий, ижтимоий ва диний қадриятларини ўзида мужассам этган муҳим этномаданий феномен ҳисобланади.

Уйғурларда никоҳ тўйи маросимлари асрлар давомида шаклланган бўлиб, уларда ислом дини таъсири, маҳаллий урф-одатлар ва қўшни халқлар билан этномаданий алоқалар натижасида юзага келган элементлар ўзаро уйғунлашган. Айниқса, Ўзбекистон ҳудудида

яшовчи уйғурлар мисолида никоҳ маросимларининг трансформацияси, анъанавийлик ва замонавийлик нисбати, диний қадриятларнинг сақланиши ва ўзгариши долзарб илмий муаммолардан бири ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётлар ва методлар. Уйғурларнинг анъанавий маросимлари ҳақидаги дастлабки маълумотлар XIX аср охиридаги илмий саёҳатлар натижасида тўпланган. Жумладан, Н. М. Пржевальский [9] ва М. В. Певцов [8] асарларида Шарқий Туркистон аҳолисининг турмуш тарзи ва урф-одатлари ҳақида этнографик кузатувлар келтирилган.

Уйғурлар этнографиясини илмий ўрганишда В. В. Радлов [10] ишлари муҳим ўрин тутади. Совет даврида эса И. В. Захарова [5] томонидан уйғурлар ҳақида умумлаштирилган этнографик маълумотлар берилган.

Машҳур совет этнографи Л. А. Чвырь [12] томонидан уйғурлар маросимлари ва диний қарашлари чуқурроқ ўрганилган. Марказий Осиё, жумладан Фарғона водийсидаги уйғурлар ҳаётини ўрганишда Г.М. Исхаков [7], С. С. Губаева [4] ва Г. К. Валиханова [3] ишлари муҳим аҳамиятга эга. Аммо, мазкур тадқиқотларда замонавий уйғурларнинг никоҳ тўйи маросимлари алоҳида комплекс ўрганилмаган. Шу сабабли, ушбу мақолада мазкур масала эмпирик материаллар асосида таҳлил қилиниб, мавжуд илмий тадқиқотлар тўлдирилади.

Никоҳ маросимларининг турли даврлардаги (анъанавий, совет даври ва мустақилликдан кейинги) ўзгаришларини таҳлил қилишда тарихий-қиёсий усул қўлланилди. Этнографик кузатув ва дала тадқиқотидан маросимларнинг амалий жиҳатлари, урф-одатлар ва иштирокчиларнинг хулқ-атворини ўрганишда фойдаланилди. Сўров (социологик) усули орқали эса респондентлар орасида диний маросимларга муносабат аниқланди. Шунингдек, тизимли ёндашув – никоҳ маросимларини яхлит этномаданий тизим сифатида кўриб чиқиш имконини берди.

Барча мусулмон халқлари каби уйғурларнинг никоҳ билан боғлиқ муносабатларида ҳам ислом динининг таъсири кучли сезилади. Масалан, ўтмишда уйғурлар орасида кўп хотинлик бошқа қўшни халқларга нисбатан ҳам кўпроқ тарқалган эди. Бунинг сабаби, уларда куёв томонидан келин томонга қалин пулининг берилмаслиги ва бошқа халқларга нисбатан тўй маросими харажатларининг камлиги билан боғлиқ бўлган. Аммо кўп хотинлик шаҳар жойларда ва бой табақа орасида ёйилган бўлиб, аксарият қишлоқларда уйғурлар моногам оила тарзида яшаганлар [9, С.428].

Мусулмончилик қоидаларида оила қуриш учун икки ёшнинг розилиги олиниши шарт ҳисобланишига қарамай, уйғурларнинг анъанавий никоҳ қуриш одатларида никоҳ қуриш учун ва кимга никоҳланиш ҳақида ёшлардан розилиги сўралмаган буни ота-оналар, аксарият отанинг ўзи ҳал қилган [8, С. 157]. Ўзбекистон ҳудудига келиб жойлашган, уйғурлар маҳаллий халқларнинг урф-одатларини ўзлаштира бошлаганлар. Жумладан, қиз томонга вакил ота белгиланиши каби одатни уйғурлар шу ердаги аҳолидан ўрганиб, амалга оширганлар [5, С. 407]. Яъни никоҳ ўқилаётган пайтда келиннинг шаҳсан иштироки шарт бўлмай, унинг ўрнига вакиллар иштирок этган, вакиллар ўзининг ўртоғини уйида ўтирган келиннинг олдига кириб унинг розилини олгач, мулла ва куёв турган бўлғуси келининг ота-онаси хонадонига бориб, келиннинг рози эканлиги ҳақида билдирганлар [Д/м № 1].

Уйғурлар анъанавий никоҳ тўй ва у билан боғлиқ урф-одат ва маросимларда диний қарашлар маросим иштирокчиларининг гендер жиҳатдан қатъий бўлинишида ҳам ёркин кўзга ташланади. Тўй давомида бажариладиган вазифаларнинг гендер асосида тенг тақсимланган бўлиб, келин томонда аёллар туради ва улар келин билан боғлиқ вазифларни бажарадилар, куёв томонда эркаклар туради ва улар куёв билан боғлиқ вазифаларни бажарадилар. Тўй давомида бериладиган базм, дастурхон ҳам аёллар учун алоҳида, эркаклар учун алоҳида тайёрланади ва бу одат ҳозирги кунларимизга қадар сақланиб келмоқда. Шуниси қизиққи, анъанавий тарзда ўтказиладиган ҳозирги уйғур тўйларида эркаклар учун алоҳида, аёллар учун алоҳида тузаладиган дастурхон, қўйиладиган таомлари билан ҳам фарқланишга эга.

Кузатишлардан аниқландики, эркаклар учун безатилган дастурхонга нисбатан, аёллар дастурхони, таомларнинг ҳилма-хиллиги ва миқдоран кўплиги билан ажралиб туради [Д/м № 4].

Анъанавий никоҳ тўй маросимларида кўзга ташланадиган миллий ва диний одатлардан бири, бу – эркакларнинг ушбу маросимларда кўпроқ етакчи сифатида фаолият кўрсатишидир. Масалан, совчиликни аввало эркаклар бошлаб бериши, меҳмонга ҳам аввало эркакларнинг чақирилиши, меҳмонларга зиёфат берилгач, олдин куёв томон, сўнг келин томон алоҳида машиналарга ўтириб кетиши [Д/м№3], ҳаражатларнинг асосий оғирлигини куёв томонга юклатилиши, никоҳ тўйида никоҳ розилигини куёвнинг ўзи билдириши, келин эса розилигини ўз вакиллари орқали билдириши (воситачилар орқали) ва ҳаказо. Лекин, кейинги йилларда айниқса, шаҳар жойларда кафе, ресторан шароитида ўтказиладиган тўй маросимларида эркак ва аёлларнинг бир дастурхонда ўтириши ҳолатлари, келин ва куёв томондаги дўст ва ўртоқларнинг бирга базмда иштирок қилишлари ва бошқа шу кабилар гендерга боғлиқ равишдаги кучли фарқланишни бирмунча сусайтирган.

Ислом динида аёлларнинг эркаклар (номаҳрам) олдида очиқ-сочиқ юришлари таъқиқлангани учун тўй маросимларида ҳам бу ҳолатга амал қилинган. Энг асосийси шаърий никоҳсиз келинни ўз уйидан олиб кетиш мумкин бўлмаган. Хатто совет хокимияти ўрнатилгандан сўнг ҳам кўпчилик мусулмонлар қонуний никоҳга унча эътибор қилмай, диний-шаърий никоҳ билан чекланиб қўя қолганлар. Ахборотчиларнинг маълумотларига кўра, XX асрнинг 60-70 йилларга қадар, ЗАГС (ФҲДЁ)дан деярли ҳеч ким ўтмаган [Д/м № 1]. Шу сабабли, совет ҳукумати томонидан муллаларга дастлаб қонуний никоҳдан ўтмай туриб, мусулмон никоҳини ўқимаслиги хусусида талаб қўйилган. XX асрнинг 80 йилларига қадар ҳам аввал қонуний никоҳдан (ФҲДЁ) ўтиб, мачитга никоҳ ҳақидаги гувоҳномани олиб бориб бериларди, кейин шаърий никоҳ ўқиларди. Баъзилар мачитда никоҳ ўқитишган, бошқалар уйига муллани илтимос қилишарди, у келиб келиннинг уйида никоҳ ўқир эди [Д/м № 3].

Совет тузуми даврида диний таъсирга қарши тадбирлар қўлланилгани учун диний удумларнинг таъсири бирмунча сусайди, дейиш мумкин. Шу сабабли келин очиқ холатда, замонавий никоҳ кийими кийдирилиб, никоҳ ўқитилган пайтлар ҳам бўлган. Келиннинг кўпчилик эркаклар олдида очиқ юз билан туриши, базм столига спиртли ичимликлар қўйилиши мусулмон қоидаларига зид бўлишига қрамай, “Қизил тўй” ёки комсомол тўйларининг ўтказилиган. Лекин, никоҳ тўйларида мазмунан ислом дини томонидан қўйиладиган барча шартлар деярли бажарилган.

Ўтган асрнинг 90-йиллардан бошлаб, виждон эркинлигини амалда қўллаш имконияти яратилгач, яна диний қадриятлар бирмунча тиклана бошлади, лекин кейинроқ глобаллашув жараёнларининг кучайиши натижасида европага ҳос одатларнинг кириб келиши, айниқса шаҳар жойларда диний одатларни шаклан сиқиб чиқармоқда. Шунга қарамай, уйғурларда ҳозирги кунларгача ҳам мусулмончиликка қалбан эътиқод қилиш кучли сақланган. Буни ўтказилган социологик тадқиқотларда ҳам кўришимиз мумкин. Жумладан, “Ўзингизни ким деб биласиз?” деган саволга респондентларнинг 100 % и “мусулмон” жавоби белгилаган. Бугунги кунда турмуш ўртоғи билан бир динда бўлишни 76 % респондент учун ўта муҳим ҳисобланса, 22% респондент бу ҳол катта аҳамиятга эга эмас, деб ҳисоблар экан. “Бошқа диндаги киши билан турмуш қуришингиз мумкинми”- деб савол берилганда 96 % респондент қатъий “йўқ” деб жавоб берди [5, Социологик сўров].

Ҳозирги пайтда диний мазмундаги удумларнинг никоҳ тўйидаги ўрнини аниқлаш мақсадида респондентларга “Никоҳ тўйида диний маросимлар муҳимми?” мазмунидаги савол билан мурожаат қилганимизда 84 % респондентлар “жуда муҳим”, деб кўрсатдилар. “Унча муҳим эмас” жавоб вариантини 14 %, “умуман муҳим эмас” жавоб вариантини эса 2% респондентлар белгиладилар [5, Социологик сўров]. Демак, сўров натижаларидан кўриниб турибдики, респондентларнинг аксарияти диний маросимларнинг ўрнини муҳим,

деб билади.

Асрлар мобайнида идеал мусулмон шахсини шакллантириш ғояси негизида кўплаб ахлоқ-одоб қоидалари ишлаб чиқилган бўлиб, бу мусулмонлар турмуш тарзига сингиб кетган эди. Уйғур маросимларида ҳам маросим эгалари, бошловчилари, фаоллари ва иштирокчилари учун маълум ахлоқий қоидалар ишлаб чиқилган ва унга риоя этиш талаб қилинган [11].

Мазкур этика қоидаларига ҳали никоҳ тўйи бошланмасданоқ, яъни совчиликдан бошлаб амал қилинади. Уйғур анъаналарига кўра совчи бўлиб борадиган киши обрўли, яхши хулқ-атворли, совчилик қоидаларини яхши биладиган бўлиши лозим. Мазкур қоидалар совчиликка ким билан бориш керак, қандай бориш керак, нима дейиш керак ва шу каби масалаларни ўз ичига олган бўлиб, ушбу масалаларни тўғри ечиш муҳим аҳамиятга эга эди. Сабаби, совчиларга бериладиган жавоб уларнинг уй эгасида қандай таъссурот қолдиришига ҳам боғлиқ бўлган. Совчилар жуда хушмуомалада бўлишлари, мезбонларга нисбатан хурмат эътиборларини кўрсатишлари, шунингдек, куёв томоннинг ижобий жиҳатларини ишончли равишда кўрсатиб беришлари лозим бўлган [Д/м № 1]. Айни пайтда уйғурларда уй эгаси ҳам совчиларни ҳурмат ва эъзоз билан кутиб олиши, уларни кўнглини чўктирадиган гаплардан эҳтиёт бўлиши лозим бўлади. Уй эгаси хатто хонадан чиқиб кетаётганда ҳам меҳмонларга орқасини ўгирмаслиги керак [Д/м № 1]. Умуман уйғур маданиятида ўтирганларга орқа ўгириш хурматсизлик саналган.

Юқорида айтиб ўтилганидек, никоҳ тўйи маросимида маросим бошловчилари, эгалари, фаоллари ва иштирокчилари учун ҳам маълум хулқ-атвор меъёрлари ишлаб чиқилган ва шу тариқа қудалар учун, куёв ва келин учун, янгалар учун ва бошқа шу каби фаоллар учун маросимда ўзини қандай тутишини белгиловчи хулқ-атвор меъёрлари мавжуд эди.

Уйғурлардаги ўзига хос бир анъана бу - нафақат келинга балки куёвга нисбатан ҳам маълум хулқ-атвор қоидаларининг қўйилиши ва назорат қилинишидир. Жумладан, келин салом Ўрта Осиё халқларининг аксариятига хос. Уйғурларда эса куёв саломи ҳам мавжуд бўлиб, уларда келин салом бериши маросими келинга таълим бериш, куёвнинг салом бериш маросими эса куёвга таълим бериш, деб номланади [Д/м № 4]. Мазкур маросимлар тадбирини инициацион мазмунга эга деб ҳам ҳисоблаш мумкин. Чунки, куёв ҳам, келин ҳам кичик доирадаги (сараланган) жамоа олдида ўзларининг янги вазифаларини қабул қиладилар, бир босқичдан иккинчи босқичга ўтадилар.

Келин салом куёвнинг уйида ва куёв қариндошларининг назорати остида ўтса, куёв салом тўй ўтгандан кейинги учинчи кун келининг уйида бўлади. Уйғур одатига кўра куёв салом бермасдан туриб келин хонадони дарвозасидан – бўсағадан бу ёққа ўтолмайди. Ўтмишда салом учун келган куёвни текшириш учун болта билан ўтинни ва супургини дарвоза олдига қўйганлар ва уни ҳовли супуриши, ўтин ёришини яширинча кузатиб туришган. Бугунги кунда бу каби одатлар йўқ бўлса-да, уйғурлар компакт яшайдиган жойларда куёвга таълим бериш, келинга таълим бериш удумлари ўтказилади.

Келтирилган маълумотлар бизга уйғурларнинг никоҳ тўйи ва у билан боғлиқ маросимларда миллий ва диний одатларнинг сақланиш хусусиялари ҳақида баъзи мулоҳазаларни беради. Аввало, оилавий маросимларнинг бошқа турлари каби никоҳ ва у билан боғлиқ маросимларда ҳам нафақат оила аъзолари ва яқин қариндошлар балки, узоқ қариндошлар ва танишлар ҳамда маҳалла ёки қишлоқ жамоаси фаол иштирок этади. Бу эса мазкур маросимларнинг изчиллиги (ворисийлик), нисбатан анъанавийлик ва сақланувчанлигини таъминлайди. Никоҳ маросимлари этнос ҳаёти шароитлари ўзгаришлари билан бирданига тўла ўзгариб қолмайди. Умуман оилавий маросимларнинг трансформацияси нисбатан секин-асталик ва силлиқлик билан кечади. Маросимнинг мазмуни тезроқ ўзгаради, лекин шакли анча вақт сақланиб туради. Шунинг учун ҳам никоҳ тўйи ва у билан боғлиқ маросимларда халқ ҳаётнинг кўп қирралари - унинг тарихий ўтмиши, социал-иқтисодий тараққиёти, оила

ичидаги муносабатлар тизими, диний тасаввурлар ҳолати ва қўшни халқлар билан ўзаро алоқалари ва муносабат-лари ўз аксини топади.

Маълумки, турли этнослар орасидаги ўзаро маросимларнинг бир-бирига ўтказилиши улар орасидаги алоқалар интенсивлигига боғлиқ [1, С.2]. Уйғурлар билан ўзбеклар маданиятининг кўп жиҳатдан ўхшашлиги, тилнинг яқинлиги маълум даражада ассимиляциялашувга олиб келмоқда. Бундан ташқари ўзбеклар ва уйғурлар ўта яқин муносабатда, қуда-андачилик муносабатлари олиб борадилар. Ўзбек ва уйғурлар орасида аралаш никоҳлар кўпайиб бормоқда ва шунда ота-оналарнинг ўзи ҳоҳишларига кўра болани қайси миллатга мансублигини белгилашлари, маиший ҳаёт ва таълим олишга қулай тилни танлашлари мумкин. Умумий тарзда олиб қараганда Ўзбекистонда яшовчи уйғурлар ўзларининг анъанавий маданияти элементларини сақлаб қолиш билан бир вақтда бошқа халқларнинг маданиятларини ҳам ўзлаштирмоқда.

Уйғурларнинг никоҳ тўйи ва у билан боғлиқ маросимлар хусусида гапирилар экан, аввало ўтган бир ярим аср давомида мазкур маросимларда муайян ўзгаришлар юз берганини таъкидлаш лозим. Бундай ўзгаришлар мазмуни ва шакли албатта халқ тарихий ва ижтимоий тараққиёти билан боғлиқ бўлиб, уни уч тарихий босқичга бўлиш мумкин: уйғурларнинг Ўзбекистонга кўчиб келгунга қадар; совет тузуми давридаги; XX асрнинг 90-йилларидан бошлаб ўтказилаётган никоҳ тўйлари маросимлари бир-биридан мазмунун ва шаклан фарқланади.

Никоҳ ва у билан боғлиқ маросимларда анъанавий элементлар сифатида совчилик ва совчининг куёв томонидан келин томонига жўнатилиш шартлилиги, куёв томонинг тўйга шу жумладан, келиннинг қариндошларига берадиган совғалари(сарпо), тўй базми учун ва бошқа шу каби нарсалар учун сарфлайдиган харажатлари юзасидан келишув, мулла томонидан никоҳ ўқитилиши, фақат аёллар ва фақат эркаклар орасида ўтказиладиган удумларнинг мавжудлиги кабиларни инерт–яъни сақланувчан одатлар таркибига киритиш мумкин. Лекин, совчи жўнатиш тартиби ва танланадиган субъектлар орасида ўзгаришлар кўзга ташланади.

Глобаллашув жараёнлари никоҳ тўйи маросимларнинг айрим жиҳатларига ўз таъсирини кўрсатди. Жумладан, келин ва куёвнинг либослари, қонуний никоҳдан ўтиш тадбирини амалга оширишдаги куёв ва келиннинг сайрга чиқиши, европача усулда тўйда меҳмон кутиш (кафе ва ресторан), қўйиладиган таомлар турлари ва ш.к.

Бошқа томондан уйғур тўй маросимлари борган сари ўзбеклашиб бораётганини кузатиш мумкин. Кўп пайтларда уйғурларга хос анъаналарнинг айрим элеменлари қўшиб қўйилади холос. Бу ҳам уйғурлар компакт ҳолда яшайдиган жойларда амалга оширилади. Жумладан, ўзбекларда наҳорга ош қилинади, уйғурларда ошдан олдин бир коса лағмон қўйилади ёки ош билан бирга “сайи” – салат қўйилади. Кечаси тўйга “ашлам” қўйилади. Ашлам бу миллий овқат – совуқ газак дейилади. Ўзбекларда манти қўйилса, уйғурларда хўшам – яъни қовурилган оширма манти қўйилади [Д/м № 1].

Юқоридагилардан қуйидаги хулоса қиладиган бўлсак, XIX аср охирлари ва XX асрнинг иккинчи ярми мобайнида Ўзбекистон худудига кўчиб келган уйғурлар маҳаллий аҳоли билан яқин этномаданий алоқаларга киришганлар ва натижада маҳаллий аҳоли маданиятига шу жумладан, урф-одатларига хос жиҳатларни ўзлаштира бошлаганлар. Собиқ совет давлатининг миллийлашишга қарши олиб борган сиёсати туфайли уйғурларнинг бошқа халқлар (асосан ўзбеклар) ассимиляциялаш жараёни анча кучайган ва бунга аралаш никоҳларнинг кўпайиши асосий сабаб бўлган. Уйғурларнинг никоҳ тўйи ва у билан боғлиқ маросимларида миллий элементлар сақланиб қолган, аммо мазкур удумлар уйғурлар компакт яшайдиган жойларда ва ҳар икки томон уйғур бўлган никоҳ тўйларидагина ёрқин кўзга ташланади.

Хулоса ва таклифлар. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, уйғурлар никоҳ тўйи маросимларида диний анъаналар муҳим ўрин тутади ва улар ҳозирги кунга қадар

маълум даражада сақланиб қолган. Никоҳ маросимлари нафақат оилавий, балки кенг жамоавий характерга эга бўлиб, уларда этномаданий ворисийлик таъминланади. Шу билан бирга, тарихий жараёнлар, айниқса совет даври сиёсати ва замонавий глобаллашув таъсири натижасида маросимларнинг мазмуни ва шаклида муайян ўзгаришлар юз берган. Маросимларнинг мазмуни тезроқ ўзгарса-да, уларнинг ташқи шакли ва асосий анъанавий элементлари нисбатан барқарор сақланиб қолмоқда.

Ўзбекистонда яшовчи уйғурлар орасида маҳаллий аҳоли билан этномаданий алоқалар натижасида айрим урф-одатлар ўзлаштирилган, бу эса қисман ассимиляция жараёнларини кучайтирган. Шу билан бирга, миллий анъаналар, айниқса диний маросимлар, этник идентикликни сақлашда муҳим омил бўлиб қолмоқда.

Юқоридаги маълумотлардан келиб чиқиб қуйидаги таклифларни тавсия қилиш мумкин:

– миллий ва диний маросимларни илмий асосда ҳужжатлаштириш ва сақлашни кучайтириш;

– этномаданий меросни ёш авлодга етказиш бўйича таълимий дастурлар ишлаб чиқиш;

– глобаллашув шароитида миллий анъаналарни асрашга қаратилган маданий сиёсатни такомиллаштириш;

– уйғурлар ва бошқа халқлар ўртасидаги маданий ўзаро таъсирни илмий жиҳатдан чуқурроқ ўрганиш;

– никоҳ маросимларининг замонавий трансформациясини мунтазам мониторинг қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати:

Белая Е.Г. Семья и семейный быт современного харбина: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Владивосток, 2009. – 21 с.

Валиханова Г.К. Некоторые ритуалы уйгуров, живущих в Ферганской долине // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов // 70-72. 2012. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=19425005.

Валиханова Г.К. Из историй переселения уйгуров Ферганской долины //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов // 83-85. 2014. https://www.elibrary

Губаева С.С. Уйгуры и дунгане Ферганской долины // Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. – М., 1992. Ч. 2. – С. 121–148.

Захарова И. В. Уйгуры // Народы Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1963. Т. 2. – С. 489 – 490.

Исхаков Г.М. Уйгурское население на территории Средней Азии // Фольклор, литература и история Востока. - Ташкент: Изд-во «Фан» Узбек. ССР, 1984. – С. 406–467.

Исхаков Г.М. Проблемы изучения истории и этнографии уйгуров // Известия АН КазССР Сер. Обществ. Наук, 1993. - №6. – С. 3–6.

Певцов М.В. Путешествие по Восточному Туркестану, Кунь-Луню, северной окраине Тибетского нагорья и Чжунгарии в 1889-1989 гг. –СПб., 1895. // https://static.turclubmai.ru/papers/2226/trudy.html

Пржевальский Н.М. От Кяхты на истоки Желтой реки, исследование северной окраины Тибета и путь через Лобнор по бассейну Тарима. – СПб., 1888. – 536 с.

Радлов В.В. К вопросу об уйгурах. Из предисловия к изданию Кудатку-Билика. Приложение к LXXII-му тому Записок Импер. Академии наук. №2. // СПб: 1893. 130 с. https://psv4.userapi.com/s/v1

Свадебный обряд уйгуров. http: www.partnery.cn

Чвырь Л. А. Обряды и верования уйгуров XIX-XX вв.: очерки народного ислама в Туркестане. – М.: Вост. лит., 2006. – 286 с.

Манбалар – дала маълумотлари ва социологик сўровлар:

Д/м № 1. Муаллиф қайди. Тошкент ш. Бектемир тумани “Бектемир” маҳалласи, 2011.

Д/м № 2. Муаллиф қайди. Тошкент в. Ўрта Чирчиқ тумани, “Ким Пени Хва” -2011.

Д/м № 3. Муаллиф қайди. Тошкент шаҳри Чилонзор туман. 22-даҳа. 2010 йил.

Д/м № 4. Муаллиф қайди. Тошкент в. Ўрта Чирчиқ тумани, “Ким Пени Хва”, 2011.

Социологик сўров натижаси, 2010.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

BADIIY NUTQDA REALIYA VA O’XSHATISH ASOSLI ALLYUZIYALARNING O`ZIGA XOSLIGI

Achilova Risolat Azamovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori

Annatatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ingliz tilidagi san’at asarlari materiali asosida realiya va o`xshatish funksiyadagi allyuziya stilistik vositasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Allyuziya nafaqat tilning kuchli obrazli va ifodali vositasi, balki intertekstuallik belgilaridan biri bo’lib, badiiy asar matniga asarning o’zidan farqli ravishda «bizning» voqeligimiz elementlarini kiritadi, yoki boshqa adabiy ijod elementlari, ya’ni badiiy fantastika va insoniyat tomonidan hozirgi kungacha to’plangan boy madaniy meros o’rtasidagi bog’lovchi aloqani ifodalaydi.

Kalit so’zlar. Semantik-axborot, iqtibos, parodik allyuziyalar, rimeyk, kontekst.

THE SPECIFIC FEATURES OF ALLUSIONS BASED ON REALIA AND SIMILE IN LITERARY DISCOURSE

Achilova Risolat Azamovna,
Phd, Associated Professor of the Bukhara State University

Abstract. This article is devoted to the study of the stylistic device of allusion in its referential and comparative functions, based on the material of literary works in modern English. Allusion is not only a powerful figurative and expressive means of language, but also one of the markers of intertextuality, introducing into the text of a literary work elements of “our” reality, as opposed to the fictional world of the work itself, or elements from other literary creations. Thus, it serves as a connecting link between fiction and the rich cultural heritage accumulated by humanity up to the present time.

Keywords: semantic information, quotation, parodic allusions, remake, context.

СПЕЦИФИКА АЛЛЮЗИЙ, ОСНОВАННЫХ НА РЕАЛИЯХ И СРАВНЕНИИ, В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ

Ачилова Рисолат Аъзамовна,
Профессор Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: Данная статья посвящена изучению стилистического приёма аллюзии в её реалийной и сравнительной функции на материале художественных произведений современного английского языка. Аллюзия является не только мощным образным и выразительным средством языка, но и одним из признаков интертекстуальности, вводя в текст художественного произведения элементы «нашей» реальности, отличной от самой художественной ткани произведения, либо элементы других литературных произведений, то есть художественной литературы и человеческой культуры, тем самым выступая связующим звеном с богатым культурным наследием, накопленным человечеством до настоящего времени.

Ключевые слова: семантико-информационный аспект, цитата, пародийные аллюзии, ремейк, контекст.

Kirish. Allyuziyaga bag’ishlangan tadqiqotlarda ushbu stilistik vositani tushunish doirasi hali ham juda noaniq ekanligiga e’tibor qaratiladi va bu tushuncha ko’pincha ko’rib chiqilayotgan hodisaning muhim xususiyatlaridan mahrum bo’lgan hodisalarni o’z ichiga oladi. Allyuziyani

talqin qilishda bunday birlikning yo’qligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi, bu esa ushbu atama doirasini aniqlashtirish zarurati bilan bir qatorda, ishning ma’noga ta’sir qilishning tinglovchi keng ko’lamli intellektual aniqlangan his-tuyg’ularga asoslangan semantik-axborot jihatini o’rganish ham dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot obyekti.Tadqiqotning ilmiy yangiligi matn tahlilining matnning diktema tuzilishining innovatsion tamoyillariga nazariy yo’naltirilganligidan kelib chiqadi, bunda diktema yozma nutqdagi paragrafga mos keladigan minimal tematik birlikdir. Allyuziya, uning funktsiyalaridan biri bo`lib birlashtirishdir, ya’ni matnning alohida elementlari orasidagi bog’lanish ko’pincha yangi hikoya motivini kiritish yoki aytilganlarni umumlashtirish vositasi bo’lib xizmat qiladi va shu bilan diktema chegaralarini belgilaydi. Har qanday badiiy asar yozuvchining ijodiy tasavvur mahsuli hisoblanadi. “Muallif badiiy adabiyot orqali voqelik faktlarini umumlashtiradi, dunyoga bo‘lgan qarashini mujassamlashtiradi, ijodiy kuchini namoyon etadi. [Teoriya literaturi 2009]. Biroq, boshqa tomondan, har bir badiiy ixtiro obyektiv ravishda mavjud bo’lgan atrofdagi dunyoda o’z manbasiga ega: «Qayerda yozuvchi notiq bo’lishni to’xtatib, ixtirochi bo’lsa, u bilan jamiyat o’rtasida har qanday aloqa yo’qoladi».

Natija va tahlillar. Shunday qilib, muallif hayot faktlarini tahlil qilish va sintez qilish orqali o’zining personajlari va hodisalarida o’ziga xos, ammo obyektiv holatni prototip sifatida aks ettiruvchi yangi voqelikni yaratadi. Biroq, yozuvchilar ko’pincha oldindan mavjud bo’lgan o’ziga xos tasvirlar yoki voqelik elementlariga murojaat qiladilar. Atrofimizdagi dunyoni anglagan holda, inson ongi doimo ma’lum bo’lgan narsalar bilan parallellik qiladi, faktlarni taqqoslaydi, tasniflaydi va ularni ma’lum bir ierarxiyaga quradi. Yozuvchi voqelikni yanada aniq va yorqinroq tasvirlashga intilib, kitobxonning assotsiativ fondiga murojaat qiladi. D.S. Lixachevning so’zlariga ko’ra., «she’r va yaxshi nasr assotsiativ xarakterga ega. Filologiya esa nafaqat so‘zlarning ma’nolarini, balki butun matnning badiiy ma’nosini ham izohlaydi. [Лихачев 1989: 205]. Badiiy matndagi voqelik elementlariga bunday murojaatlar turli shakllarda gavdalanishi mumkin: takroriy syujet va obrazlar, mashhur so‘zlar, taniqli shaxslarning nomlari va boshqalar ko‘rinishida. Murojaatning xususiyatiga, uni matnda taqdim etish usuli va hajmiga qarab, iqtibos, ishora, reminissensiya, remeyk, senton, travestiya va boshqalar kabi adabiy hodisalarda farqlanadi. Biz o‘z tadqiqotimizda allyuziyaning stilistik qurilmasi va uning baholash imkoniyatlariga to‘xtalamiz. Etimologik nuqtai nazardan, «allyuziya» atamasi Lot tiliga borib taqaladi. «alludere» («ludere» dan - «o’ynash», «hazillash», shuningdek, «ishora qilish») [Xristenko 1992: 39]. Zamonaviy tushunchada allyuziya «matn madaniyatida yoki so’zlashuv nutqida mustahkamlangan ma’lum bir adabiy, tarixiy, mifologik yoki siyosiy faktning aniq belgisini yoki aniq ishorani o’z ichiga olgan stilistik figura» deb talqin qilinadi [Vikipediya]. Biroq, ushbu stilistik qurilmadan foydalanishning yuqori chastotasiga va uni o’rganishga bag’ishlangan ko’plab asarlarga qaramay, uni turli mualliflar tushunishida ko’plab kelishmovchiliklar mavjud. Keling, allyuziyaga bag’ishlangan bir nechta lug’at yozuvlari fikrlarini tahlil qilaylik. A.P. Kvyatkovskiy allyuziyani “ma’lum tarixiy, adabiy yoki kundalik faktga ishora bo‘lgan mashhur umumiy ot iborasini , nutqda yoki badiiy asarda qo‘llash” deb talqin qiladi [Kvyatkovskiy 2010: 14]. Lug’at S.P. Belokurova ham shunga o’xshash ta’rifni taklif qiladi: ya`ni «ongli muallifning taniqli adabiy yoki tarixiy faktga, shuningdek, mashhur san’at asariga ishoradir « deb ta`kidlaydi. Muallif ta’kidlaganidek, «allyuziya har doim ma’lum bir iboradan, iqtibosdan, u mavjud bo’lgan tor kontekstdan kengroq bo’ladi va, qoida tariqasida, iqtibos va keltirilgan asarni bir butun sifatida o’zaro bog’lashga, ularning umumiy yo’nalishini aniqlashga majbur qiladi. (yoki polemik tabiat)” [Belokurova 2006 : 15].

Adabiy atamalar lug’ati tahririyati K.A. Shigapova allyuziyani «ma’lum bo’lgan (adabiyotdan olingan) bayonot, shaxs, vaziyat yoki ob’ektga ishora (Hinweis auf eine als bekannt vorausgesetzte (literarische) Formulierung, eine Person, eine Situation oder einen Gegenstand)» deb ta’riflaydi [Sabine Fischer-Kania 1998: 4].

Yuqoridagi talqinlardan ko‘rinib turibdiki, allyuziyaning tematik belgilanishi chegaralari

tarixiy voqealar va adabiy asarlarga havolalardan tortib, mashhur shaxslarga, kundalik holatlarga va hattoki predmetlarga ishoralargacha o‘zgarishi mumkin. Vaqtinchalik korrelyatsiyaga kelsak, ba’zi ta’riflarda allyuziya o’tmishdagi faktlarga havolalar bilan chegaralangan bo’lsa, boshqalarida esa vaqt doirasining bunday torayishi yo’q, zamonaviy ijtimoiy hayot faktlari esa allyuziyaning tematik manbalari hisoblanadi. Shuningdek, tilshunoslar, allyuziyalarni foydalanish maqsadi bo’yicha ham farq qiladi. Tadqiqotchi J.I.A. Mashkova «avvalgi asarlarning shakli va mazmunini ongli ravishda takrorlash bilan yozuvchi o’z ijodiga boshqa birovning bevosita ta’siri faktini bilmaydigan holatlar ...» o’rtasida tub farq qilmaydi [Mashkova 1989: 9]. A.S.Evseev, aksincha, ishora-qurilma, albatta, muallifning niyatini o’z ichiga olishi, ya’ni ongli, o’zboshimchalik bilan bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi [Evseev 1990: 7]. Mahalliy va xorijiy ensiklopedik nashrlar tomonidan o’rganilayotgan texnikani talqin qilishdagi farqlar haqida gapirganda, I.G. Potilitsina mahalliy lug’atlarda allyuziya ta’riflarining ustunligini ta’kidlaydi: yashirin, bilvosita havola va uning xorijiy nashrlarda kengroq tushunchasi, unga ko’ra uni allyuziya sifatida ham, manbani ko’rsatuvchi to’g’ridan-to’g’ri havola sifatida ham taqdim etish mumkin [Potylitsina 2005: 15]. Allyuziya stilistik vosita sifatida barcha stilistik vositalarga xos bo`lgan umumiy estetik-kognitiv funktsiyani o’z ichiga oladi, bu, bir tomondan, o’quvchiga mazmunni bosqichma-bosqich ochib berishdan, ikkinchi tomondan, uning estetik his-tuyg’ulariga ta’sir qilishdan iborat. Biroq, allyuziyada, kuchli assotsiativ fondning mavjudligi tufayli kognitiv jihatga nisbatan sezilarli ustunlik mavjud bo’lib, bu unga semantik yukni oshiradi, bu adabiy matndagi allyuziv so’z yoki iboraning gipersemantizatsiyasi deb ataladi. [Klochkova 1990: 13]. Allyuziyaning o’ziga xos vazifalari haqida gapirganda, yana bir bor ta’kidlash kerakki, allyuziya, birinchi navbatda bu ishoradir, ishora esa yashirin ma’noni o’z ichiga olgan so’z yoki iboradan iborat bo`lib, uni faqat taxmin orqali tushunish mumkin bo’ladi. Qachon inson ishora bilan gapiradi? Qachonki, haqiqiy ma’lumotlar ko’pincha aniq uzatilganda, chunki bu allaqachon o’rnatilgan haqiqat bo’lib, suhbatdoshlarga faqat bilvosita ta’sir qiladi. Qachonki ma’ruzachi sirli, yashirin biror narsa aytsa, so’ngra «izni chalkashtirib yuborish» yoki o’zidan soqit qilish, ehtiyotkorlik sabablaridan kelib chiqqan holda «qochish yo’llari» bilan ta’minlash uchun («men buni aytmadim, o’zingiz o’ylagansiz»), «bayonotning pragmatik yukini ifoda etilmagan oqibatlarga yo’naltiradi va shunda tinglovchilar ular haqidagi g’oyaga mustaqil ravishda keladilar» [Nikitin 1998: 142]. Shunday qilib, allyuziya ko’p hollarda muallif o’zining sub’ektiv munosabatini bildirganda paydo bo’ladi. Bu holda allyuziya baholovchi va tavsiflovchi funktsiyani bajaradi va u «badiiy matndagi hodisa yoki xarakterning xususiyatlarini yaratuvchi yoki baholovchi qo`shimcha aniq ma’lumotlarni uzatishda» asosiy hisoblanadi. Allyuziya stilistik vositasining mohiyati S.A. Shapovalovning lug’at yozuvida batafsil va ko’p jihatdan aks ettirilgan, bu ham allyuziyalarning tasnifini beradi. Demak, allyuziya “ma’ruzachi yordamida ma’lum tarixiy voqea, adabiy asar, obraz va hokazolarga ishora qiladigan ibora, ya’ni “madaniy an’anaga ishora” (R.Bart)” deb ta’riflanadi. Muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri zikr qilish shaklidagi allyuziyalarni, shuningdek, o‘xshash tovushli so‘z orqali aytilgan allyuziyalarni – perifrastik xususiyatga ega bo‘lgan yashirin allyuziyalarga ajratadi. Yaratilish maqsadlari neytral va parodik (ironik) allyuziyalar o’rtasida farqlanadi ya`ni tarqalish sohasiga ko’ra ular umumiy ma’lum va kontekstli, faqat ma’lum bir davrda, ma’lum bir doirada tushunarlidir.Ushbu lug’atda o’z tarixi davomida turli xil tushunchalar bilan erta Uyg’onish davrida so’z o’yinlari , allegoriya, parabola va metaforadagi ramziy o’xshashliklar bilan o’z tarixi davomida identifikatsiya qilingan allyuziyaning zamonaviy qarashlari aks ettirilgan. Zamonaviy adabiyotda allyuziya ko’p hollarda ma’lum shaxs yoki faktga to’g’ridan-to’g’ri murojaat qilish bilan ifodalanadi va allyuziya ko’proq murojaat qiluvchiga nisbatan ishora mavzusining qimmatli munosabatiga qaratilgan. Baholash predmeti hikoyachi yoki badiiy asar qahramonlaridan biri bo’lishi mumkin.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz allyuziyaning quyidagi ta’rifini taklif qilamiz allyuziya - bu intermatnning ma’lum bir elementining to’g’ridan-to’g’ri yoki bilvosita ko’rsatilishi bo’lib, unda baholovchi munosabatning ishorasi yoki allyuziya so’zi qabul qiluvchining yashirin xarakteristikasi mavjud. Biz o’rganishimizda allyuziyani shunday tushunamiz. Uzatilgan

ma’lumotlarning yashirinligi texnikasi sifatida allyuziyaning asosidir Bu umumiy bilim yoki xotiradan faollashtirilgan, matnni talqin qilish jarayoni natijasida mantiqiy yoki evristik tarzda olingan ma’lumotdir [Luzina 1996: 26]. Allyuziya yoki ishorani o’z ichiga olmaydigan har qanday «begona so’z» biz tomonidan matn havolasi sifatida ko’rib chiqiladi. Masalan:

The collar of his black leather jacket was turned up, James Dean style, so that it touched the earrings dangling from his lobes [Grisham: 485].

Qahramonning tashqi qiyofasining tasviri umumiy otlar bilan aniq tasvirlangan amerikalik aktyorga murojaat qilish uni yanada aniqroq qilib, aniqlovchi va bezakli funktsiyani bajaradi, ammo baholash yoki allyuziyani o’z ichiga olmaydi. Majoziy ma’noda aytganda, allyuziya muallifning fantastikasidan tashqaridagi faktlarni barcha havolalarni o’z ichiga oladi, bu orqali muallif o’quvchini intellektual ravishda chaqiradi va unda aytilganlarning yashirin ma’nosiga kirish istagini uyg’otadi. N.V. Nemirovaning so’zlariga ko’ra, «allyuzivlik, odatda, o’ynoqi jihatga xosdir» (bu so’zning etimologiyasi bilan ham qo’llab-quvvatlanadi) [Nemirova]. Adabiyotdagi allyuziya o‘qimishli kishilar uchun bu so`z o‘yini, tabiiy ma’lumotlar oqimi yoki “boy aql oqimi” va engil, yoqimli hayajonni uyg’otadigan yashirin iqtibosdir deb yozadi I. Kellet [Kellet 1969]. “Maxfiy ilovalar va imo-ishoralar” allyuziyalarning xususiyatlari deb ham ataladi [Babkin, Shendetsov 1981: 69]. S.Alistovning fikricha, “buyuk asarlar aniq mazmundan farqli ravishda ovozi, yashirin matni borligi bilan ajralib turadi” [Alistov 1998: 8]. Allyuziyani ochishning muvaffaqiyati o’quvchining bilimdonligiga, uning vertikal kontekstga kirib borish qobiliyatiga, badiiy asarga kiritilgan tarixiy va filologik xarakterdagi ma’lumotlarni idrok etish qobiliyatiga bog’liq [Axmanova,1977: 49]. Biroq, o’quvchining tezaurusi, ya’ni uning xotirasida saqlangan bilimlar yig’indisi har doim ham etarli emas. Shu munosabat bilan M.Ya.Blox tomonidan taklif qilingan lingvistik elementlarning semantik qiymatini baholashning uch bosqichli shkalasiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Bayonotning individual elementlari, bayonotning butun semantik tarkibining uning informatsion va zarur miqdoriy tarkibiga bo’lgan munosabatini tahlil qilish asosida informatsion etarlilik, etishmovchilik va ortiqchalik nuqtai nazaridan tavsiflanadi [Bloch 2005: 52-59]. O’quvchi tomonidan ekstralingvistik bilimning etishmasligi tufayli, allyuziya ko’pincha informatsion jihatdan etarli emas. Biroq, matnga «boshqa so’z» ni kiritish orqali muallif o’z o’quvchisiga tushunarli bo’lishga intiladi, chunki dekodlangan ishora aniq tarkibni qayta-qayta qo’shimcha semantik va baholovchi soyalar bilan boyitadi: «When they are understood, allusions are potent strategies of communication» [Hays 2005: 86], : “When they fail, allusions leave us exposed: either enmeshed in inelegant, patronizing explanations or cast adrift with insufficient provisions on the murky seas of a childlike half-understanding. Failed allusions produce feelings of betrayal on all sides because they reveal mistaken assumptions about shared frames of reference and like-mindedness”. [Samet 2012]. Shuning uchun mualliflar ko’pincha umumiy otlar bilan bayonotning mumkin bo’lgan ma’lumot etishmasligini to’ldirishga murojaat qilishadi, «Praise Jesus, thank you, Lord!» he bellowed in his rolling, trembling Jimmy Swaggart voice [King. Desperation: 54].

Jimmi Swegartning qo’shiq aytish uslubi bilan tanish bo’lmagan o’quvchi «allyuziya so’zlari» umumiy otlari asosida u haqida juda aniq tasavvur hosil qilishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, allyuziyalar turli mezonlarga ko’ra tasniflanadi. Matndagi tasvir shakliga ko’ra, u tarkibiy, manba shaklini takrorlovchi va manbaning asl semantik mazmunini saqlaydigan semantik hodisa bo’lishi mumkin. O`rganish jarayonidan kelib chiqiladiki, allyuziyalar ma’lum bir madaniy jamiyat vakillarining aksariyatiga ma’lum bo’lgan pretsedent hodisalar fondidan olinadigan aniq faktlarga va unchalik aniq bo`lmagan ma’lum faktlarga bo`linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Гумовская Г.Н. Ритм как универсальный закон построения языковых объектов. Учебное пособие по спецкурсу по специальностям 022600 «Лингвистика и межкультурная

коммуникация», 033200 «Иностранный язык». - М.: РИПО ИГУМО, 2002. - 168 с.

Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования) . - М.: «Просвещение», 1990. - 300 с.

Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык: учебник для вузов / И.В. Арнольд. - 11-е изд. - М.: ФЛИНТА: Наука, 2012. - 384 с.

Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. - М., 1988.-341 с.

Долинин К.А. Интерпретация текста. Французский язык. - М.: УРСС, 2005.-299 с.

Дронова Е.М. Стилистический прием аллюзии в свете теории интертекстуальности (на материале языка англо-ирландской драмы первой половины XX века): дисс...канд. филол. наук. - Воронеж, 2006. - 178 с.

Лихачев Д.С. О филологии. - М., 1989

Achilova R.A. “THE SEMANTIC VALUE OF ANTONOMASIA IN THE WORKS OF SHAKESPEARE”. International Journal of Word Art. Volume 4, Issue 2. – Toshkent.,2021.- 6 p. ISSN 2181-9297

Achilova R.A. THE ROLE OF ANTOMASIA IN THE PROSE OF ALISHER NAVOI. Scientific reports of Bukhara State University. Volume 6,- Bukhara.,2020.-188p.

Achilova Risolat Azamovna. (2021). SEMANTICAL FEATURES OF ANTONOMASES IN LITERATURE. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(3), 55-57. Retrieved from https://scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/363

Kuldosheva S. O., Achilova R. A. Similarities and Differences of Precedent Nouns in English and Uzbek Languages //International Journal of Trend in Scientific Research and Development. – 2023. – С. 404-406.

R Achilova, Antonomasia in Different Languages. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 2 (1), 98-101

Saidov Y., Achilova R. Antonomasias Formed on the Basis of the Names of Mythological, Religious-Legendary Heroes //International Journal on Integrated Education. – 2022. – Т. 5. – №. 6. – С. 1-3.

Ачилова Р. А. Шекспир асарларидаги антономазияларнинг семантик тадқиқи // международный журнал искусство слова. – 2021. – т. 4. – №. 2.

CEFR ASOSIDAGI INGLIZ TILI TA'LIMI HAMDA O'ZBEK TILI TA'LIMIDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING QIYOSIY TAVSIFI

Qurbonova Shahlo O'ktamovna,
13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada CEFR asosidagi ingliz tili ta'limi hamda o'zbek tili ta'limida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ikkala yo'nalishda nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladigan tamoyillar, o'qitish vositalari, baholash mezonlari va dars jarayonidagi amaliy yondashuvlarni aniqlashdir. Maqolada tavsifiy-qiyosiy, lingvodidaktik va interpretativ tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada CEFR modeli nutqiy faoliyatni aniq deskriptorlar, darajalar va vazifaga yo'naltirilgan topshiriqlar asosida bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qilishi, o'zbek tili ta'limida esa nutqiy savodxonlik, mazmunli bayon, muloqot odobi va milliy-madaniy kontekstga tayangan metodlar yetakchi o'rin egallashi ko'rsatildi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ikkala tizimni integrativ yondashuvda birlashtirish ta'lim sifatini oshiradi: CEFRning o'lchab bo'ladigan deskriptorlari va ona tili metodikasining mazmuniy, uslubiy hamda madaniy tayanchi bir-birini to'ldiradi. Maqola natijalari til o'qituvchilari, metodistlar va o'quv dasturi tuzuvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: CEFR, ingliz tili ta'limi, o'zbek tili ta'limi, nutqiy kompetensiya, tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish, qiyosiy metodika.

A COMPARATIVE DESCRIPTION OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEECH SKILLS IN CEFR-BASED ENGLISH LANGUAGE TEACHING AND UZBEK LANGUAGE TEACHING

Abstract. This article presents a comparative description of the methodology of developing speech skills in CEFR-based English language education and in Uzbek language education. The aim of the study is to identify the principles, teaching tools, assessment criteria, and classroom practices that support the formation of speech competence in both directions. The study uses descriptive-comparative, linguodidactic, and interpretive methods. The findings show that the CEFR model develops language activity through clear descriptors, levels, and task-based instruction, while Uzbek language education gives priority to speech literacy, coherent expression, communicative ethics, and methods rooted in national-cultural context. The comparison demonstrates that an integrative approach can strengthen educational quality because measurable CEFR descriptors and the content-rich, culturally grounded methodology of mother tongue instruction complement one another. The results may be useful for language teachers, methodologists, and curriculum designers.

Keywords: CEFR, English language education, Uzbek language education, speech competence, listening, speaking, reading, writing, comparative methodology.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ CEFR И В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В данной статье дается сравнительная характеристика методики развития речевых навыков в обучении английскому языку на основе CEFR и в обучении узбекскому языку. Цель исследования состоит в выявлении принципов, средств обучения,

критериев оценивания и практических подходов, обеспечивающих формирование речевой компетенции в обоих направлениях. В работе использованы описательно-сопоставительный, лингводидактический и интерпретативный методы. Результаты показывают, что модель CEFR ориентирована на поэтапное развитие речевой деятельности через четкие дескрипторы, уровни и задания, основанные на действии, тогда как в обучении узбекскому языку ведущую роль играют речевая грамотность, содержательное высказывание, культура общения и методы, опирающиеся на национально-культурный контекст. Сравнение показывает, что интеграция двух подходов способна повысить качество образования: измеримые дескрипторы CEFR и содержательно-культурная база методики родного языка взаимно дополняют друг друга. Результаты статьи имеют практическое значение для преподавателей, методистов и разработчиков учебных программ.

Ключевые слова: CEFR, обучение английскому языку, обучение узбекскому языку, речевая компетенция, аудирование, говорение, чтение, письмо, сопоставительная методика.

Kirish. Hozirgi ta’lim tizimida til o‘qitish samaradorligi nafaqat grammatik bilim hajmi bilan, balki o‘quvchining nutqiy faoliyatda til birliklaridan qanday foydalanishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli zamonaviy metodikada “tilni bilish” tushunchasi tobora “til orqali harakat qilish”, “fikrni ravon ifodalash”, “muloqotga kirisha olish”, “matnni tushunish va yaratish” kabi amaliy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanmoqda. Ayniqsa ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda CEFR modeli til kompetensiyasini deskriptorlar asosida bosqichlashtirib, o‘quv maqsadi, dars mazmuni va baholashni yagona tizimga keltirdi. O‘zbek tili ta’limida esa nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uzoq vaqtdan beri ona tilining kommunikativ, tarbiyaviy va tafakkuriy imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘riladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ko‘plab ta’lim amaliyotlarida ingliz tili ta’limi va o‘zbek tili ta’limi alohida metodik maydon sifatida talqin qilinadi. Vaholanki, ularning asosiy maqsadi umumiy: o‘quvchini samarali muloqot qila oladigan, tinglaydigan, o‘qiydigan, yozadigan va fikrini uslubiy jihatdan mos shaklda bayon qila oladigan shaxs sifatida shakllantirish. Shu bois ularning qiyosiy tahlili bir tizimning kuchli tomonlarini ikkinchisiga ko‘chirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi CEFR asosidagi ingliz tili ta’limi hamda o‘zbek tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashdir. Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, nutqiy kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini yoritish; ikkinchidan, CEFR va o‘zbek tili ta’limidagi nutqiy ko‘nikmalar tizimini tavsiflash; uchinchidan, darsni tashkil etish, topshiriq turlari va baholashdagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni ko‘rsatish; to‘rtinchidan, integrativ metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi. Nutqiy kompetensiya masalasi tilshunoslik, psixolingvistika va metodika chorrahasida shakllangan tushunchadir. Kommunikativ kompetensiya haqidagi dastlabki nazariy qarashlar til o‘rganuvchi shaxsning real nutqiy vaziyatlarda til vositalaridan foydalana olish qobiliyatini markazga qo‘ydi . Keyinchalik bu yondashuv metodikada tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarining o‘zaro bog‘liqligini, shuningdek, tilning ijtimoiy va pragmatik ishlatilishini hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi .

CEFR shu nazariy an’anani amaliy mezonlarga aylantirgan tizim sifatida muhim ahamiyatga ega. U o‘quv dasturi, darslik, topshiriq va baholash vositalarini umumiy daraja tavsiflari bilan uyg‘unlashtiradi . CEFRning keyingi takomillashgan shakli bo‘lgan Companion Volume til o‘qitish doirasini kengaytirib, mediatsiya, plurilingual va pluricultural kompetensiyalarni ham muhim komponent sifatida ilgari surdi . Demak, ingliz tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bugun faqat to‘rt ko‘nikma bilan cheklanmay, ma’no uzatish, hamkorlikda muloqot qurish va turli diskurslarga moslasha olish kabi jihatlarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra o‘zbek tili ta’limidagi ilmiy-

metodik qarashlarda esa nutqiy ko‘nikma ko‘proq ona tilida fikrni ravon, mantiqiy, adabiy me’yorlarga muvofiq va uslubiy jihatdan mos bayon qilish bilan bog‘lanadi . Sattarova N. O‘. va Pardayeva, G. larning tadqiqotiga ko‘ra, bu yondashuvda nutqiy kompetensiya faqat kommunikativ tezkorlik emas, balki mazmuniy aniqlik, nutq odobi, kitobxonlik madaniyati, mustaqil fikrlash va matn yaratish malakasi bilan ham uzviy aloqada ko‘rilad .Shuning uchun o‘zbek tili ta’limidagi metodik model ko‘proq matn ustida ishlash, bayon va insho, qayta hikoyalash, suhbat, munozara, grammatik hodisani nutqda qo‘llash, uslubiy tanlov va so‘z boyligini faol ishlatishga tayangan holda shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, CEFRga asoslangan xorijiy til metodikasi bilan o‘zbek tili ta’limi metodikasi orasida metodik masofa mavjud bo‘lsa-da, ular bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, biri baholash va bosqichlashda aniqlik bersa, ikkinchisi nutq mazmuni, madaniy moslik va ona tili tafakkuri bilan chuqur ishlash imkonini beradi. Demak, qiyosiy tahlil bu ikki metodik an’anani qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularning o‘zaro to‘ldiruvchi imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda tavsifiy-qiyosiy metod asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu metod orqali CEFR asosidagi ingliz tili ta’limida va o‘zbek tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga doir tamoyillar, ko‘nikmalar tasnifi, topshiriq turlari va baholash mezonlari o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, lingvodidaktik tahlil yordamida har ikki tizimda “nutqiy kompetensiya” atamasi qanday mazmunda ishlatilishi va dars mazmuniga qanday ko‘chishi izohlandi.

Tadqiqot materiali sifatida CEFR va uning Companion Volume hujjati, O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarida aks etgan ona tili hamda o‘zbek tili faniga doir nutqiy kompetensiya talablari, shuningdek kommunikativ yondashuv va ona tili metodikasiga oid nazariy manbalar olindi. Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Avvalo, nutqiy ko‘nikmalar bo‘yicha asosiy kategoriyalar ajratildi: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish, mediatsiya, matn yaratish va baholash. Keyin har bir kategoriya bo‘yicha ikki tizimdagi yondashuvlar jadallashtirilgan tavsifiy tahlil asosida solishtirildi.

Mazkur maqola empirik eksperiment maqolasi emas, balki nazariy-qiyosiy tadqiqot sifatida qurilgan. Shunga qaramay, tahlil dars amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan metodik xulosalarni chiqarishga yo‘naltirildi. Shu bois maqolada umumiy nazariy mulohazalar bilan cheklanib qolmasdan, darsni rejalash, topshiriq yaratish va baholashga doir amaliy ko‘rsatkichlar ham ishlab chiqildi.

Tahlil va muhokama. CEFR asosidagi ingliz tili ta’limida til avvalo faoliyat sifatida ko‘riladi. O‘quvchi ma’lum bir darajada “nimani qila oladi?” degan savol markazga chiqadi. Shu sababli dars dizayni ham “can do” deskriptorlari atrofida quriladi. Masalan, o‘quvchi A2 bosqichida kundalik mavzuda sodda suhbat olib bora olishi, qisqa xabarni tushunishi yoki tanish vaziyat haqida qisqa matn yozishi kutiladi. Bu yondashuv o‘qituvchiga maqsadni aniq belgilash, topshiriqni darajaga moslashtirish va natijani kuzatish imkonini beradi.

O‘zbek tili ta’limida esa nutqiy ko‘nikma ko‘proq mazmunli, adabiy me’yorlarga mos va mantiqiy ifodaning shakllanishi bilan baholanadi. Bu yondashuvda savol odatda “o‘quvchi fikrini qanday ifodalayapti?” shaklida qo‘yiladi. Demak, CEFR modelida funksional bajaruvchanlik ustun bo‘lsa, ona tili metodikasida mazmun, uslub va me’yoriy to‘g‘rilik nisbatan kuchliroq o‘rin tutadi. Bunday farq ikki tizimning maqsadli auditoriyasi bilan ham bog‘liq: ingliz tili ko‘pincha xorijiy til sifatida o‘rganiladi, o‘zbek tili esa tafakkur, shaxsiy tajriba va milliy madaniyat bilan tabiiy bog‘langan ona tilidir.

Har ikkala tizim tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishni asosiy nutqiy ko‘nikmalar sifatida qabul qiladi. Biroq ular orasidagi ichki nisbat bir xil emas. CEFRda bu ko‘nikmalar darajalar bo‘yicha vertikal rivojlanadi. Ya’ni boshlang‘ich bosqichda sodda vazifalarni bajarishdan boshlab, yuqori bosqichlarda murakkab argumentatsiya, abstrakt matn bilan ishlash va nozik ma’no farqlarini anglashgacha bo‘lgan yo‘l tasvirlanadi. Bunda integratsiyalashgan topshiriqlar

keng qo‘llanadi: masalan, matnni o‘qib, suhbatda ishtirok etish yoki eshitilgan axborot asosida yozma javob tayyorlash.

O‘zbek tili ta’limida ko‘nikmalar ko‘proq matn markazida integratsiyalashadi. O‘quvchi matnni o‘qiydi, mazmunini tushunadi, savollarga javob beradi, qayta hikoya qiladi, so‘ng shu mavzu asosida yozma bayon yoki insho yozadi. Bu jarayonda tilning leksik, grammatik va uslubiy qatlamlari tabiiy ravishda nutqiy faoliyatga qo‘shiladi. Ona tili darsida ko‘nikmalarni alohida emas, balki mazmunli fikr yaratishning yaxlit zanjiri sifatida ko‘rish tendensiyasi kuchli. Shu nuqtada metodik jihatdan muhim xulosa kelib chiqadi: CEFR darsga aniq bosqich va o‘lchanadigan natija beradi, o‘zbek tili metodikasi esa nutqning ichki mazmuniy tuzilishini chuqurlashtiradi. Agar ingliz tili darsida ham matnning mazmuniy va uslubiy tahliliga ko‘proq e’tibor berilsa, nutqiy chiqish sifati oshadi; agar o‘zbek tili darsida deskriptorlar asosidagi bosqichlash kuchaysa, natijani kuzatish va baholash tizimlilashadi.

CEFR asosidagi ingliz tili darslarida kommunikativ vaziyat va vazifaga yo‘naltirilgan topshiriqlar markaziy o‘rinda turadi. Rolli o‘yin, juftlikda suhbat, axborot almashish, muammoni hal qilish, prezentatsiya, tinglab asosiy ma’lumotni ajratish, eslatma yozish kabi topshiriqlar nutqiy ko‘nikmalarni faol rivojlantiradi. Bu topshiriqlarda xato ko‘pincha kommunikatsiyani buzmasa, jarayoniy xato sifatida qabul qilinadi. Natijada o‘quvchi nutqdan qo‘rqmaydi, kommunikativ jasorat ortadi.

O‘zbek tili ta’limida esa bayon, insho, matn tahlili, qayta hikoyalash, savol-javob, ijodiy yozuv, matnni qisqartirish yoki kengaytirish, reja tuzish, matndagi uslubiy birliklarni izohlash kabi topshiriqlar yetakchilik qiladi. Bu topshiriqlar o‘quvchini fikrni bosqichma-bosqich tartiblashga, so‘z tanlashga, nutqning mantiqiy qurilishini sezishga o‘rgatadi. Ayniqsa bayon va insho ona tili darsida yozma nutqni rivojlantirishning markaziy vositasi bo‘lib qolmoqda.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, ingliz tili darsidagi interaktivlik va tezkor og‘zaki almashinuv o‘zbek tili darsiga foydali ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aksincha, o‘zbek tili darsidagi matn yaratish va nutqni mantiqiy qurish tajribasi ingliz tili darsida yozma nutq hamda argumentatsion gapirishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Demak, topshiriq turlarini bir-biridan o‘rganish metodik jihatdan samarali yo‘ldir.

CEFRning eng kuchli tomonlaridan biri baholashning shaffofligidir. O‘quvchi nimani uddalashi kerakligi oldindan ma’lum bo‘ladi. Tinglab tushunishda asosiy g‘oyani ajratish, gapirishda ma’lumot almashish yoki fikrni sodda vositalar bilan bayon qilish, yozishda bog‘langan sodda matn tuza olish kabi ko‘rsatkichlar aniq ifodalanadi. Bu tizim formativ baholashni ham, summativ baholashni ham qulaylashtiradi. O‘zbek tili ta’limida baholash ko‘pincha mazmunning to‘liqligi, mantiqiy izchillik, savodxonlik, uslubiy moslik va ijodiy yondashuv mezonlariga tayanadi. Bu mezonlar chuqur va mazmunli bo‘lsa-da, ayrim hollarda subyektivlikni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa og‘zaki nutqni baholashda o‘lchanadigan deskriptorlar yetishmasa, o‘qituvchi intuitiv baholashga suyanib qoladi. Shuning uchun qiyosiy tahlil asosida quyidagi taklif ilgari surish mumkin: o‘zbek tili ta’limida og‘zaki va yozma nutq uchun darajalashtirilgan baholash rubrikalari ishlab chiqilishi zarur. Bu rubrikalarda mazmun, mantiq, til me’yorlari va kommunikativ samaradorlik birgalikda baholansa, ona tili metodikasi yanada tizimli tus oladi. Ingliz tili ta’limida esa faqat deskriptorga bog‘lanib qolmasdan, fikrning chuqurligi, uslubiy tabiiylik va madaniy moslik kabi sifat ko‘rsatkichlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

CEFR xalqaro model bo‘lgani uchun u til o‘rganuvchining kommunikativ harakatini universal ko‘rsatkichlar bilan tavsiflaydi. Bu metodik ustunlik bo‘lsa-da, ayrim hollarda mahalliy madaniy nutq odatlari, uslubiy sezgirlik yoki milliy diskurs modellari yetarli darajada chuqur ochilmaydi. Shu sababli CEFR asosidagi ingliz tili darslarini mahalliy kontekst bilan boyitish muhimdir. O‘quvchi faqat chet tilida gapirishni emas, balki o‘z madaniy tajribasini ingliz tilida ifodalashni ham o‘rganishi kerak. O‘zbek tili ta’limida esa milliy-madaniy omil kuchli. Nutq odobi, hurmat shakllari, matnning tarbiyaviy mazmuni, maqol va hikmatli so‘zlardan foydalanish, uslubiy sezgirlik kabi unsurlar o‘quvchining nutqiy shaxs sifatida shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Biroq

ba’zan aynan shu boy madaniy qatlam og‘zaki interaktiv faoliyatni ikkinchi planga surib qo‘yishi mumkin. Demak, o‘zbek tili darsida ham ko‘proq muloqot, munozara, tinglab javob qaytarish, guruhli yechim topish kabi faol usullarni kuchaytirish kerak.

Qiyosiy tahlil asosida integrativ model taklif etish mumkin. Bunday modelda ingliz tili darslari uchun o‘zbek tili metodikasidan quyidagi jihatlar olinadi: matn bilan chuqur ishlash, reja tuzish, mazmunni ketma-ket ifodalash, uslubiy sezgirlik, mantiqiy bayon va milliy kontekstni nutqqa olib kirish. O‘zbek tili darslari uchun esa CEFR metodikasidan quyidagilar foydali: darajaga mos deskriptorlar, kommunikativ vazifalar, og‘zaki interaktiv mashqlar, aniq baholash rubrikalari va o‘quv natijasini bosqichma-bosqich kuzatish. Masalan, bir mavzu asosida integrativ dars quyidagicha qurilishi mumkin: avval tinglab tushunish topshirig‘i beriladi, keyin kichik guruhlarda muhokama qilinadi, so‘ng asosiy fikrlar yozma reja ko‘rinishida tuziladi va yakunda og‘zaki yoki yozma bayon yaratiladi. Bu model har ikki metodikaning kuchli tomonlarini birlashtirib, nutqiy ko‘nikmalarni alohida emas, balki yagona kommunikativ-tahliliy faoliyat sifatida rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. CEFR asosidagi ingliz tili ta’limi hamda o‘zbek tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasining qiyosiy tahlili bir muhim haqiqatni ko‘rsatadi: har ikki tizimning markazida o‘quvchining nutqiy shaxs sifatida shakllanishi turadi, faqat bu maqsadga eltuvchi metodik yo‘llar turlicha. CEFR modeli aniq deskriptorlar, darajalar va kommunikativ vazifalar yordamida nutqiy ko‘nikmalarni o‘lchanadigan va bosqichlashtirilgan shaklda rivojlantiradi. O‘zbek tili ta’limi esa nutqiy savodxonlik, mazmuniy to‘liqlik, mantiqiy bayon, adabiy me’yor va milliy-madaniy sezgirlikni markazga qo‘yadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, CEFR metodikasining kuchli tomoni tizimlilik va baholashning aniqligida bo‘lsa, o‘zbek tili metodikasining afzalligi mazmun, uslub va tafakkur bilan chuqur ishlashidadir. Shu sababli ularni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi model sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ingliz tili darslari o‘zbek tili metodikasidan matn markazliligi va mantiqiy bayon tajribasini olishi mumkin; o‘zbek tili darslari esa CEFRdan interaktivlik, deskriptorlarga asoslangan baholash va o‘lchanadigan natija tizimini qabul qilishi mumkin. Amaliy jihatdan quyidagi xulosalar muhimdir: birinchidan, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun darsda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishni integratsiyalash lozim; ikkinchidan, ona tili va xorijiy til metodikasida baholash mezonlari yanada shaffof va izchil bo‘lishi kerak; uchinchidan, o‘quvchi nutqini rivojlantirishda mazmuniy chuqurlik bilan kommunikativ faoliyat birgalikda olib borilgandagina yuqori natija kuzatiladi. Demak, kelajak metodikasi uchun eng istiqbolli yo‘l CEFRning deskriptorli modeli bilan o‘zbek tili ta’limining mazmuniy-madaniy tayanchini uyg‘unlashtirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Bachman, Lyle F. Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford University Press, 1990.

Canale, Michael, and Merrill Swain. “Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing.” Applied Linguistics, vol. 1, no. 1, 1980, pp. 1-47.

Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press, 2001.

Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment - Companion Volume. Council of Europe Publishing, 2020.

Hymes, Dell. “On Communicative Competence.” Sociolinguistics, edited by J. B. Pride and Janet Holmes, Penguin, 1972, pp. 269-293.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida.” 390-son qaror, 16-avgust 1999.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida.” 187-son qaror, 6-aprel 2017.

Pardayeva, G. J. “Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish.” 2024.

Safarova, N. “Nutqiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning asosiy elementlari tasnifi.” 2023.

УДК 81.26

ПАРЕМИИ С ЗООНИМАМИ КАК СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В ВУЗЕ

Семенова О. Р. ,
Южно-Уральский государственный гуманитарно-педагогический университет
Усанова О.Г. Челябинский государственный институт культуры
г. Челябинск, Российская Федерация

Аннотация: данная статья посвящена методике работы над паремиями с зоонимами в процессе обучения русскому языку иностранных студентов в вузе. Актуальность работы обусловлена лингводидактическими проблемами, связанными с изучением пословиц и поговорок иностранцами, страноведческой ценностью исследуемого материала, вниманием к модели обучения русскому языку как иностранному, разработкой комплекса упражнений с использованием пословиц и поговорок с зоонимами для повышения эффективности учебного процесса. Цель статьи – представить методику работы с паремиями с зоонимами со студентами-иностранцами и рассмотреть возможность применения идеографического подхода к репрезентации данных паремий на занятиях русского языка как иностранного для оптимизации процесса обучения русскому языку в иностранной аудитории.

Ключевые слова: паремия, поговорка, пословица, речевая деятельность, русский язык как иностранный, социокультурная компетенция, фразеологизм, языковая картина мира.

PAREMIAS WITH ZOONYMS IN THE PROCESS OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE AT A UNIVERSITYON

Abstract: mhis article is devoted to the methodology of working on the paroemias with zoonyms in the process of teaching Russian to foreign students at the university.

The relevance of the work is due to the linguodidactic problems associated with the study of proverbs and sayings by foreigners, the country-specific value of the material under study, attention to the model of teaching Russian as a foreign language, the development of a set of exercises using proverbs and sayings with zoonyms to improve the effectiveness of the educational process. Russian .The purpose of the article is to present the methodology of working with paroemias with zoonyms with foreign students and to consider the possibility of applying an ideographic approach to the representation of these paroemias in the classroom of Russian as a foreign language to optimize the process of teaching Russian in a foreign audience.Materials and methods. The material for the study was paroemias with zoonyms of the Russian, English, Turkmen languages and the Wolof language.The methods of the descriptive method were used in the work: analysis of the collected material, classification, comparison, conclusions.

Key words: parremia, proverb, proverb, speech activity, Russian as a foreign language, socio-cultural competence, phraseology, linguistic picture of the world.

Паремии с древнейших времен выступали как педагогические средства. Если в филологическом плане они основательно изучены, то лингводидактические проблемы, связанные с репрезентацией пословиц и поговорок иностранцам недостаточно исследованы. Актуальными являются вопросы отбора паремиологического материала при изучении русского языка как иностранного, способы и приемы демонстрации страноведческой ценности паремий, введение пословиц и поговорок в речевую деятельность обучаемого, межъязыковая интерференция, создание учебных словарей, разработка комплексов упражнений и др.. [1; 2; 3].

Материалом для исследования послужили паремии с зоонимами: русские, зафиксированные в сборнике «Пословицы русского народа» В. И. Даля; туркменские

пословицы, которые собрал и перевел на русский язык Б. А. Каррыев; английские пословицы и поговорки из пособия В. С. Модестова [4; 5; 6].

В процессе работы использовался общенаучный прием наблюдения над фактическим материалом, извлеченным из указанных источников, а также приемы описательного метода: анализ фактического материала, его классификация, сопоставление, выводы.

Паремиология является объектом изучения разных дисциплин: культурологии, лингвистики, логики, поэтики, философии, фольклористики и др. Это доказывает возможность многоаспектного подхода к единицам паремиологии и сложность определения их статуса, сущности, признаков.

Коллективная монография «Паремиология без границ» подробно освещает проблему в понимании объема и сфер употребления термина паремия (древнегреческое слово paroimía - изречение, притча) в отечественном и зарубежном языкознании и затрагивает вопрос о формировании русской паремиологической терминологии [1]. Исследователи указывают на возможность перехода поговорки в пословицу, трудность их разграничения подтверждает термин пословично-поговорочные выражения.

В методическом аспекте обучения русскому языку как иностранному важно, что пословицы и поговорки отличаются от фразеологизмов в структурно-грамматическом отношении: они представляют собой законченное предложение. Народные пословицы и поговорки в равной мере активно воспроизводятся носителями языка и демонстрируют органическую связь с традиционной символикой и национальной культурой в целом. Во избежание терминологической путаницы и сложностью разграничения самого отобранного материала целесообразно при работе с иностранными студентами объединить пословицы, поговорки и пословично-поговорочные выражения под термином паремия.

Паремии с зоонимами широко представлены во всех языках мира, поэтому активно изучаются в сопоставительном плане. Вопросы лингвистической интерпретации зоонимии затрагивались в работах Т. В. Аржаных, И. А. Богуцкой, Е. Н. Варниковой, Е. В. Гусевой, Н. Г. Дубовой, В. М. Мокиенко, А. А. Смирновой, Н. И. Толстого, Г. Ф. Фельде, О. И. Фоняковой и многих других [1-6].

Паремии играют важную роль в поддержании мотивации при изучении иностранного языка. С одной стороны, в самих пословицах и поговорках с зоонимами заложена мотивация, поскольку они интересны сами по себе и оживляют учебный процесс. С другой стороны, зоонимы являются той областью, где обучающиеся могут применить свои знания, навыки, умения и получить удовлетворение от их дальнейшего усовершенствования. Таким образом, паремии могут выступать как вспомогательный аппарат и как средство обучения.

В основу разработанной системы заданий положена теория поэтапного формирования развития навыков и умений с учетом основных принципов методики и дидактики - принцип научности, систематичности, сознательности и активности.

На начальном этапе обучения русскому языку как иностранному эффективность усвоения звуковой формы языка зависит от сформированности слухопроизносительных навыков. Изучение зоонимического кода русского языка предполагает фонетический анализ языковых единиц. Необходимы задания для коррекции фонетических навыков типа: сколько букв и звуков в зоониме. Например, в зоониме «собака» шесть букв, буква А встречается два раза, т.е. в слове пять разных букв. Произносится шесть звуков: три согласных звука - [С], [Б], [К]; три гласных [А], т.к. в современном русском языке в безударном положении на месте буквы О надо произносить звук [А] (ввод редуцированного [Ъ] затрудняет понимание, однако следует учитывать уровень обучающихся и их мотивы изучения языка). Для закрепления осознания в русском литературном языке «акающей» системы безударного вокализма после твердых согласных и «икающей» системы безударного вокализма после мягких согласных обязательно выделение в слове ударной и безударной позиции и ввод

«рабочих формул» для безударной позиции: «пишем О - говорим А», «пишем Е - говорим И» (например, корова - [карОва], телёнок - [тилЁнак]- в скобках приведена упрощенная транскрипция для обучающихся). Дадим образец подобного рода заданий.

Задание 1. Прочитайте паремии, расставьте их в алфавитном порядке и ответьте на вопросы:

Сколько раз встретился звук [А] в данных паремиях?

Где произносится звук [И]?

Когда вместо буквы В надо говорить звук [Ф]?

Не поваляв куска, собака не съест.

Собака и хлеба не съест, не порычав.

Не поворчав, кошка куска не съест.

Игровая форма проведения фонетических заданий (составь, угадай, найди, посчитай, кто первый, кто больше и пр.) усиливает положительные эмоции, необходимые для усвоения темы.

Первый этап включает введение «зоонима». При знакомстве с номинациями животных и птиц можно рассказать о сборнике «Пословицы русского народа» В.И. Даля, который содержит 30 130 паремий, сгруппированных в 180 тематико-смысловых рядов. В этом сборнике было выявлено 547 паремий с зоонимами. Студентам можно предложить следующую таблицу с количественными данными зафиксированных в сборнике В.И. Даля паремий с зоонимами (Таблица 1):

Таблица 1 — Статистические данные употребления зоонимов в русских паремиях

 **В. И. Даль** (1801–1872 г. г.)	**«Пословицы русского народа»**
1 Д о м а ш н и е животные	
	«лошадь»*(« конь», «кобыла»)* - 120 , *«козёл» - 56, «корова» - 44, «овца»* - 25, *«бык» - 24, «кот» - 19, «собака»-**?** «свинья»* - 2.
2. Д и к и е животные	
	«волк»*- 68, «лиса»-28, «заяц»-22, «медведь»-20.*
3 П т и ц ы	
	«птица» - 35, «кукушка» - 21, «ворона» -19, «орел» -12, «синица» - 6, «соловей» - 6, «воробей» - 5, «курица» - 5, «журавль» - 3, «павлин» - 3, «сокол» - 3, «гусь» - 2, «ласточка» - 2, «сова» - 2, «сорока» - 2, «ястреб» - 2, «голубь» - 1, «лебедь» - 1 и др.

Данная таблица с количественными данными зафиксированных в сборнике В.И. Даля паремий с зоонимами служит хорошей наглядностью для повторения лексем, ввода новых названий животных, материалом для формирования навыков говорения, позволяя развернуть беседу: Что вы узнали из этой таблицы? Сколько паремий (пословиц и поговорок) с зоонимом (словом) «….»? Что вы можете рассказать о В. И. Дале? Какое домашнее животное встречается чаще в пословицах русского народа? Какое животное вам нравится? Какую пословицу или поговорку знаете с этим животным? Переведите её на русский язык. Много ли в родном языке пословиц и поговорок с этим животным? Сколько? Какие? Дать задание: проверить правильность данных в таблице, уточнить, сколько пословиц встретилось в сборнике В.И. Даля, например, с зоонимом «собака», подсчитать количество паремий с этим зоонимом в родном языке на основе представительного источника, интернета.

Таблицу в дальнейшей работе можно дополнять сведениями из других языков, так она становится базой для сравнительно-сопоставительного исследования (проекта). Например, статистический анализ туркменских пословиц, которые собрал и перевел на русский язык Б. А. Каррыев, позволил показать универсальное и общее в языковой картине русского и туркменского языков [6]. Из 762 туркменских пословиц в 13% (100) употребляются следующие зоонимы: « конь» («жеребенок»(1),«кляча»(1)) - 11 , «собака» - 14, «пес» - 9 , «бык»/ «корова» - 12, «баран» - 9, «верблюд» - 7, «осел» (осленок) - 6, «ишак» - 5, «коза» - 5 , «кошка» - 3 ,«овца» - 3, «свинья» - 2; «волк» - 10, «лиса» - 7, лев - 4, мышь - 4,«слон» - 1; «птица» - 6, «ворон» - 5, «сова» - 4, «орел» - 1, «сокол» - 1, «воробей» - 1, «петух» - 1, «журавль» - 1, «гусь» - 1; «лягушка» - 3, «змея» - 11.

Центральное место в паремической картине сравниваемых языков занимают паремии с зоонимом «конь» («лошадь»), специфику туркменского языка составляет включение в группу домашних животных верблюда. Иностранные студенты с гордостью воспринимают информацию о том, что под влиянием тюркских языков в русскую речь вошла метафора «корабль пустыни – верблюд».

Для освоения грамматического материала обычно предлагаются задания типа: выпишите из текста имена существительные, прилагательные, глаголы; определите, сколько и какие прилагательные встретились в тексте и под. Идеографический подход к систематизации и семантизации паремий с зоонимами тренирует умение определять разные части речи и анализировать лексико-семантические группы, расширяет рецептивный словарь, рисует перспективу и вносит значимость в данные задания, поскольку появляется цель: выявить, сравнить и сделать выводы. Студенты становятся исследователями, рассматривая паремии с разных точек зрения.

План выражения русских паремий с зоонимами в большей степени формируется именами существительными, глаголами, именами прилагательными и в меньшей степени - местоимениями и наречиями. В русских паремиях главенствующее место занимает существительное. Продемонстрируем это на примере пословиц с зоонимом «лошадь». Следует отметить, что данные «Идеографического словаря русских фразеологизмов с названиями животных» Т. В. Козловой не отражают преобладания имен существительных во фразеологизмах со словом «лошадь» (Таблица 2).

Таблица 2 — Статистические данные участия слов разных частей речи в организации плана выражений русских паремий и фразеологизмов с зоонимом «лошадь»

Часть речи	Количество в паремиях	Количество во фразеологизмах
Существительное	74	13
Прилагательное	13	29
Глагол	46	20

Словарный состав паремий представляет собой не просто набор лексических единиц, а определённым образом организованное и структурированное единство. Русские пословицы и поговорки с зоонимами «лошадь», «конь», «кобыла» имеют разное лексическое окружение. В паремиях с зоонимом «лошадь» частотны существительные, указывающие на социальный статус человека (воевода, казак). Зооним «конь» в русских и туркменских паремиях выступает в значении друга человека, помощника, защитника. Например, русская пословица: Добрый конь подо мною – господь надо мною; туркменская пословица: Имею коня - не знаю горя. Зооним «кобыла» встречается в паремиях редко и имеет в своем окружении сниженную лексику.

По своей семантике имена существительные, входящие в состав паремий с зоонимами, объединяются в два больших тематических блока «Природа» и «Человек». Внутри данных блоков можно выделить лексико-семантические группы (ЛСГ).

Тематический блок «Природа» объединяет 4 ЛСГ существительных:

1. Слова, обозначающие природные явления (вода, гроза).
2. Слова, относящиеся к животному миру (это и животные и их части тела: конь, грива, копыта).
3. Слова, обозначающие растительный мир (куст, овес, трава).
4. Слова, отражающие рельеф местности (гора-горка).

В английском языке можно отметить группу слов с временным значением (time-время).

Тематический блок «Человек» объединяет 5 ЛСГ существительных:

1. Названия частей тела (голова, нога, рука).
2. Слова, характеризующие социальную сущность человека (баба, сестра, офицер; в английском языке - нищий).
3. Слова, характеризующие профессионально-трудовую деятельность человека (жернов, хомут).
4. Слова, отражающие духовный мир человека и его интеллектуальную деятельность (печаль, надежда, ум; в английских паремиях присутствуют слова знание, разум).
5. Наименования реалий и понятий религии (господь, бог).

Основной массив ЛСГ составляют конкретные существительные, которые легче поддаются переосмыслению, метафоризации. Например, нога – не просто конечность, а связь с практическими действиями, движением, это «орудие труда». Ходить, двигаться – значит жить. А в жизни присутствует переплетение её материального и духовного содержания (Человеку бог, что конь без ног). Физическая свобода в народной картине мира тесно связана с духовной свободой. В русском языке: лошадь человеку крылья; в туркменском: у кого конь, у того крылья.

На втором этапе работы с паремиями внимание иностранных студентов направлено не столько на грамматические конструкции (что не отрицает данный вид работы, например, найти существительное, определить падеж и под.), сколько на содержание паремии, которое позволяет раскрыть этнокультурную семантику зоонима. Например, представим карточку для описания образа волка в сравнении с его словарной дефиницией (Таблица 3).

Таблица 3. Характеристика волка

« Хищное животное семейства псовых» - Большой толковый словарь	
ВОЛК	**Что узнали?**
• Не за то волка бьют, что сер, а за то, что овцу съел. • Не клади волку пальцев в рот. • С волками жить – по - волчьи выть. • Как ни корми волка, а он в лес смотрит. • Волка ноги кормят. • Волк не собака – в помощь не зови. • Жена поет, а муж волком воет.	1. Какой? (*серый, злой, свободолюбивый*) 2. Где живет? (*в лесу*) 3. Что ест? 4. Что делает?
ВОЛК	ЛИСА
...	• Волк голодайка, лиса лакомка. • Лисичка всегда сытее волка бывает. • Лисичка семерых волков проведет. • Лисье племя только льстит и манит. *Туркменская пословица:* Не ходи к лисе, пусть она и богата; иди к волку, пусть он и беден.
выть: Я *вою*, ты …, он……..	

«

Студенты могут выявить общие и различные черты диких животных, сделать вывод, что в русском языковом сознании волк обычно предстаёт как существо опасное, агрессивное, а лиса – хитрое, сравнить символику русских анималистических образов с родным языком. Анализ «своего» и «чужого» в национально - культурной семантике способствует оптимизации обучения русскому языку как иностранному.

Имена прилагательные помогают проверить понимание особенностей национально-культурного образа зоонима, расширить границы паремиологической картины фольклорными образами и вывести переносное антропоцентрическое значения зоонима в языке. Например, в таблице дан материал для заданий подстановочного типа творческого характера (Таблица 4).

Таблица 4 — Задание: создать образ с помощью прилагательных

Добрый/ая	ВОЛК	Хитрый/ая
Умный/ая	ЗАЯЦ	Находчивый/ая
Сильный/ая	ЛИСА	Красивый/ая
Бесстыжий/ая	МЕДВЕДЬ	Глупый/ая
Трусливый/ая	ОСЕЛ	Храбрый/ая
Отзывчивый/ая	ПЕТУХ	Легкомысленный/ая
Сообразительный/ая	СОБАКА	Уверенный/ая в себе
Смелый/ая		Злой/ая

Задание готовит к пониманию и использованию в речи анималистических сравнений: злой/голодный как волк, зоркий как сокол, трусливый как заяц, безответственный как кукушка и другие.

Можно предложить студентам составить предложения по образцу: Он похож на кого… — Он похож на …, потому что… — Я могу (хочу) сравнить его с …, потому что … — Он как … Например, Он как лиса. — Он похож на лису. — Он похож на лису, потому что у него рыжие волосы. — Я могу (хочу) сравнить его с лисой, потому что он хитрый как лиса. — Он как лиса.

Понятийную зону пословиц и поговорок с зоонимами студенты могут легко разделить на ряд участков: а) паремии, передающие восприятие человеком явлений действительности (Если во дворе есть корова, на столе есть угощение); б) паремии, отражающие черты характера или свойства личности (Ленивый бык годится на мясо, ленивый человек – ни на что); в) паремии, обобщающие опыт народа (Возраст коровы по роговым кольцам можно определить).

Особенность паремий состоит в том, что они сохраняют два плана: буквальный и переносный. Например, Без спотычки и конь не пробежит (говорится в оправдание чьей-либо ошибки); Был конь, да изъездился (о ком-либо утратившем свои былые достоинства).

Использование различных приемов семантизации и классификации паремий готовит студентов, изучающих русский язык как иностранный, к пониманию значения паремий в устной и письменной речи в зависимости от ситуации. На третьем этапе актуализируется умение видеть факты в их правильной взаимосвязи, оборачивать их в необходимую словесную оболочку и грамотно выражать посредством языка. Приведем в таблице образец карточки для формирования умения свободно вводить паремии в речь для подкрепления мысли (Таблица 5).

Таблица 5 —Образец карточки по работе с паремий

<table>
<tr><td colspan="2">• Носится, как курица (как пава) с яйцом, как кошка с котятами.
• Старого воробья и на мякине не обманешь.
• Старый ворон не мимо каркнет.
• Старый конь борозды не портит
• Не учи сороку вприсядку плясать.
• И на коне бывал, и под конем бывал.</td></tr>
<tr><td>Заботливая мама</td><td>Опытный человек</td></tr>
<tr><td>○ Составь свое предложение с использованием паремий</td><td>○ Вставь нужную пословицу
— …, — говорили солдаты.
Он все наши нужды знает.
С ним куда хочешь пойдем
и нигде не пропадем.
(Н. Рыленко. На старой смоленской дороге.)</td></tr>
</table>

Перевести паремии в активный словарный запас помогают творческие задания: угадай вторую часть пословицы; придумайте ситуацию, где могла бы использоваться предложенная пословица; напишите рассказ на основе паремии и др..

Таким образом, предлагаемый подход создает основу многоаспектного изучения языка и способствует интенсификации учебной деятельности и формированию у иностранных студентов социокультурной компетенции.

Литература

1. Паремиология без границ: монография / Е. Н. Антонова ; под ред.: М. А. Бредиса, О. В. Ломакиной. – Москва : Российский университет дружбы народов, 2020. – 244 с. ISBN 978-5-209-09955-0

2. Мурашова Н. В. Способы лингвокультурологической репрезентации русских пословиц иноязычному адресату // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2017. № 6 (119). С. 105–110. EDN: ZAUJMD

3. Никитина Т. Г. Русские пословицы в современном социокультурном контексте: к вопросу о составе паремиологического минимума // Международный научно-исследовательский журнал. 2015 № 10 (41). Ч. 5. С. 87–89. DOI 10.18454/IRJ.2015.41.190. EDN: UZGOTF

4. Брагарник-Станкевич О. С. Практика лингвистических исследований зоолексики // Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe. 2017. № 3. С.65–67. EDN: YJTGRT

5. Иванов Е. Е. Паремиологический минимум и основной паремиологический фонд // Паремиология в дискурсе ; под ред. О.В. Ломакиной. М. : URSS: Ленанд, 2015. С. 48-66.

6. Мокиенко В. М. Аспекты исследования славянской паремиологии // Паремиология в дискурсе: общие и прикладные вопросы паремиологии. Пословица в дискурсе и в тексте. Пословица и языковая картина мира / под ред. О. В. Ломакиной. М. : Ленанд, 2015.С. 4–25.

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ РУКОВОДИТЕЛЯ

Халилова Рухсора Рауповна,
Бухарский государственный педагогический институ доцент, ф.ф.ф. д.(PhD)

Аннотация: В статье всесторонне анализируется потенциал выступлений лидеров «влиять на общественность с учетом основных лингвистических и прагматических факторов: политического, социального и культурного контекста, коммуникативной ситуации, личности политика и структурных особенностей текста». прекращение психолингвистической эффективности речи.В политических речах используются чисто лингвистические и нелингвистические средства, которые определяют концептуальное содержание и способы вербального выражения смыслов, которые можно объяснить с помощью определенных стратегий и тактик.

Ключевые слова: политическая речь, политический диалог, публичная речь, коммуникативныест

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbarlar « nutqlarining asosiy lingvistik va pragmatik omillarni: siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstni, aloqa holatini, siyosatchining shaxsini va matnning tarkibiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamoatchilikka ta’sir qilishi « potentsiali har tomonlama tahlil qilingan. nutqning psixolingvistik samaradorligini to’xtatish.Siyosiy nutqlarda sof lingvistik va lingvistik bo’lmagan vositalar qo’llaniladi, ular kontseptual mazmunni va ma’nolarni og’zaki ifodalash usullarini belgilaydi, ularni muayyan strategiya va taktikalar orqali tushuntirish mumkin.

Kalit so’zlar: siyosiy nutq, siyosiy muloqot, ommaviy nutq, kommunikativ strategiya va taktikalar, siyosiy qaror qabul qilish xususiyatlari, demokratlashtirish.

PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE SUPERVISOR’S SPEECH

Khalilova Rukhsora Raupovna,
Bukhara State Pedagogical Institute
Associate Professor, f.f.f.d.(PhD

Abstract: The article comprehensively analyzes the potential of leaders’ speeches to «influence the public, taking into account the main linguistic and pragmatic factors: the political, social and cultural context, the communicative situation, the personality of the politician and the structural features of the text.» termination of the psycholinguistic effectiveness of speech.Political speeches use purely linguistic and non-linguistic means that define the conceptual content and ways of verbal expression of meanings that can be explained using certain strategies and tactics.

Keywords: political speech, political dialogue, public speech, communicative strategies and tactics, features of political decision-making, democratization.рамегии и тактики, особенности принятия политических решений, демократизация.

Изучение прагматических и коммуникативных аспектов речи является одним из важных научных направлений в современной лингвистике. В частности, речь лидера имеет особое значение не только как средство передачи информации, но и как эффективное средство влияния, убеждения и мотивации аудитории.

Таким образом, изучение прогрессивно-лингвистических особенностей речи лидера является одной из актуальных задач.

Речь лидера использует чисто лингвистические и нелингвистические средства, которые определяют концептуальное содержание и методы вербального выражения смыслов, что может быть объяснено определенными стратегиями и тактиками. Коммуникативная ситуация включает хронотоп и формат политической публичной речи. Личность политика,

его образ и статус, социально-политический опыт, уровень ораторского мастерства – все это играет важную роль в подготовке и исполнении речи.

Внимание психологов, социологов, философов и представителей других гуманитарных наук к различным аспектам социальной коммуникации отражает современные тенденции в социальном познании, а именно, понимание многообразия человеческой жизни и многообразия ее межличностных взаимодействий.

Междисциплинарный характер рассматриваемой науки — социальных коммуникаций — предполагает, что при понимании и объяснении влияния социальных коммуникаций необходимо учитывать области исследования, сосредоточенные на вербальном взаимодействии, где речь лидера ярко проявляется в политической коммуникации. Исследование носит социально- и психолингвистический характер и призвано не только продемонстрировать особенности различных коммуникационных стратегий и тактик, но и объяснить, как возникает такое многообразие; какие факторы влияют на него в обществе; и что осложняет формирование эффективных социальных отношений. Их способность использовать языковые единицы как средство манипулирования сознанием людей призвана не только показать как предиктор успешного сотрудничества с обществом, но и объяснить, как возникает такое многообразие; какие факторы влияют на него в обществе; и что осложняет формирование эффективных социальных отношений. В этом контексте особый интерес представляют речи президентов как общественных деятелей. Сравнительный анализ также включает личностные аспекты лидеров; их способность использовать языковые единицы как средство воздействия на людей показана как предиктор успешного взаимодействия с обществом.

Процесс передачи информации обществу (вербальной, невербальной, эмоциональной, познавательной) осуществляется посредством публичной речи с использованием определенной системы знаков (язык, речь, мимика, жесты и т. д.). Психология коммуникации и философия языка являются научными парадигмами, целью которых является выявление условий развития эффективной и надежной коммуникации и общественного сознания, включая его манипулятивные аспекты [1]. Изучение публичной речи в лингвистике основывается на достижениях ученых в области анализа речи. [10].

Комплексный анализ публичных выступлений в рамках речи лидера в нашем случае предполагает комплексное использование методов научного исследования, в частности:

1. метод выборки – для формирования эмпирического материала;
2. описательный метод – для обобщения и интерпретации речевого материала;
3. методы анализа и синтеза – для систематизации и организации исследовательского материала;
4. метод контент-анализа – для выявления речевых тактик и стратегий;
5. метод сравнительного анализа – для анализа общих и специфических особенностей речевых тактик, используемых разными лидерами в разные периоды.

Обсуждение и результаты показывают, что коммуникация, в отличие от разговора, представляет собой единичный эффект, направленный на достижение определенного результата, который осуществляется посредством знания аудитории, на которую этот эффект направлен. В политической коммуникации адресатом речевой деятельности в большинстве случаев является не человек как личность, а человек как представитель определенного слоя населения, поэтому важно выбирать такие методы коммуникации, которые будут фокусировать внимание адресата на сообщении, а не на чем-то другом. При этом это связано с его мировоззрением. По их мнению, политическая коммуникация направлена на мотивацию граждан к действию, принятию решений и отстаиванию определенной позиции при наличии нескольких точек зрения в стране. [11].

Цель текста лидерской речи — повлиять на ситуацию, продвигая определенные идеи,

оказывая эмоциональное воздействие на граждан страны и мотивируя их к действию. Лидеры используют речи как важный инструмент для достижения своих целей. Лидерская речь — это подготовленная речь по актуальным политическим вопросам, в которой оцениваются различные методы, обоснования, факты, планы и перспективы будущих политических изменений. Политики используют все возможные тактики и стратегии речи для поддержания контроля над быстро развивающимся обществом. Это объясняется тем, что на данном этапе исторического развития влиять на людей и убеждать их в правильности выбранного решения — непростая задача. Политика охватывает все больше сфер жизни людей, и выбранные методы влияния меняются в зависимости от состояния общества.

Коммуникативные стратегии и тактики являются относительно новым объектом лингвистических исследований по сравнению с языком, текстом и даже речью, поэтому на нынешнем этапе научного развития нет единых и общепринятых определений для объяснения, разделения и классификации вышеупомянутых. В большинстве случаев существует несколько способов достижения намеченной цели.

«Речь — это публичная речь в любой ситуации или текст такой публичной речи» [11]. Под публичной речью понимается монолог одного человека, выступающего перед группой людей, имеющий формат, обладающий структурным, коммуникативным и смысловым единством, основанным на цели воздействия на аудиторию [2]. Любая речевая стратегия направлена на изменение мировоззрения получателя. Говорящий выражает свою интерпретацию реальности, вводя в разговор ряд предложений, реакций и контраргументов. Во многих случаях существует несколько способов достижения намеченной цели. А это, в свою очередь, заставляет нас делать выбор, касающийся не только семантического содержания, но и прагматических, стилистических и риторических аспектов речевой деятельности [4].

Реализация речевой стратегии позволяет использовать различные методы, которые можно комбинировать в зависимости от ситуации. В речи лидера язык выступает в роли посредника между обществом и передает явный смысл сообщения. Однако многие ученые считают, что «скрытый» смысл речи более важен. Таким образом, можно сформулировать функцию речи лидера, которая отличает ее от общего языкового контекста и, что наиболее важно, служит функции убеждения. [5].

В эпоху демократизации и глобализации общество готово в любой момент выразить и продемонстрировать свое недовольство. Поэтому управление обществом с помощью современных речевых стратегий и методов становится особенно актуальным. Речи больше не состоят из строгих утверждений. Президенты все чаще обращаются к гражданам с моральными и национальными ценностями. Главная стратегия всех президентов в их речах по управлению обществом реализуется посредством обращения к универсальным ценностям. Например, в первой инаугурационной речи Джорджа Буша-младшего (2001-2008) она основывалась на ценностно-ориентированной стратегии: «Америка в своем лучшем проявлении — это страна, приверженная принципам; Америка в своем лучшем проявлении — это также смелая; Америка в своем лучшем проявлении — это место, где ценится и ожидается личная ответственность» [3]. Использование метафор делает язык более живым и привлекает внимание аудитории посредством ассоциативного мышления, а контекстуальная антонимия усиливает эмоциональность выражения, что является способом создания лояльности аудитории к оратору.

Обращение к универсальным ценностям — один из ведущих мотивов в речи лидера. Оно требует вновь обратить внимание на гражданские ценности патриотизма, веры, милосердия, общности и семьи. Специфика реализации основной стратегии управления обществом отражается в общих и отличительных речевых приемах, которые президенты используют в своих выступлениях.

Основные приемы, используемые в речи лидера, включают:

Метод убеждения
Метод мотивации
Метод эмоционального воздействия
Метод логического рассуждения

Эти методы повышают эффективность речи.В речи лидера эмоционально-оценочный лексикон определяет её уникальным образом, поскольку этот тип модальности указывает не на мир, а на отношение говорящего к нему, создаёт импрессионистический эффект и влияет на адресата. Особенность этой лексической группы заключается в том, что она позволяет менять коннотативные эмоции с полюса позитивности на полюс негативности (лексические единицы с позитивно-оценочным значением: «возвышающиеся слова»; лексические единицы с негативно-оценочным значением: слова с общим или специальным негативно-оценочным значением, имеющие мотивационный компонент). Эмоционально-оценочный лексикон часто выступает в качестве семантического ядра предложения, поэтому в структуре политической речи его роль как «центра смысла» предложений различной степени интенсивности возрастает.

В речи лидера языковые единицы выбираются целенаправленно. Слова, фразы и структуры предложений используются с целью воздействия на аудиторию.

Речь лидера напрямую влияет на психологическое состояние аудитории. Правильно подобранная форма речи внушает уверенность, повышает мотивацию и сплачивает команду.Культура и этика речи важны в речи лидера. Речь лидера должна соответствовать стандартам литературного языка и строиться на основе уважения и внимания.

Основные требования к культуре речи включают:

1. Правильное произношение
2. Эффективное использование лексики
3. Четкость и беглость речи

Программно-лингвистические характеристики речи лидера являются одним из главных факторов, определяющих ее эффективность. Целенаправленность речи, стратегическое планирование, правильный выбор языковых средств и способность оказывать психологическое воздействие на аудиторию обеспечивают успех речи лидера. Данное исследование служит важной теоретической основой для более глубокого изучения речи лидера, анализа прагматических аспектов и эффективного применения на практике.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Andreieva, G. (2000). Psikhologiia social‟nogo poznaniia (The psychology of social cognition, in Russian). (2nd ed.). Moscow: Aspekt Press.

2. Blokh, M., & Freidina, Y. (2011). Publichnaia rech i yeio prosodicheskiy stroi (Public speech and its prosodic system, in Rus- sian). Moscow: Prometey.

3.Bush, G. W. (2001a). Address to the nation on the WTC attacks by Sept 11. Retrieved May 23, 2022, from https://american- rhetoric.com

4.Kovalenko, A. (2019). Movni zasoby realizatsii manipuliatyvnoho vplyvu v suchasnykh anglomovnykh ZMI (Linguistic means of implementing manipulative influ- ence in modern English-language me- dia, in Ukrainian). Naukovyi visnyk Mizhnarodnoho humanitarnoho universytetu (Scientific Herald of Interna- tional Humanitarian University, in Uk- rainian), 38, 214-218.

5.Medvid,O.(2012). Linhvistychni zasoby vplyvu na retsypiienta (na materiali politdyskursu) (Linguistic recipient impact means (on the material of political dis- course), in Ukrainian). Naukovyi visnyk Volynskoho natsionalnoho universytetu imeni Lesi Ukrainky (Scientific Herald of Lesya Ukrainka East European Na- tional University, in Ukrainian), 6(231), 116-121.

6. Maxmudov N. O‘qituvchi nutqining lingvistik asoslari. – Toshkent, 2022.

7.Миртожиев М.,Маҳмудов Н. Тил ва маданият.– Тошкент: Ўзбекистон, 1992.– 110б.
8. Yusupova M. Til va tafakkur. – Samarqand, 2020.
9. Раҳимов А. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент, 2020.
10.Seriot, P. (1999). Kvadratura smysla: Frantsuz- skaia shkola analiza diskursa (Quadra- ture of sense: French school of dis- course analysis, in Russian). Moscow: Progress.
11.Shevchenko, L., & Derhach, D. (2014). Media- linhvistyka: slovnyk terminiv i poniat (Medialinguistics: Dictionary of terms and concept, in Ukrainian) (2nd ed.). Kyiv: PPC “Kyiv University”.

O‘ZBEK VA RUS TILIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARI TASNIFI

Kurbanova Gulzoda Yunusovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim”kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-0344-8201

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek va rus tillaridagi inson fiziologik holatini ifodalovchi shaxssiz konstruksiyalarning qiyosiy-semantik va strukturaviy xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida rus tilidagi morfologik shaxssizlik va o‘zbek tilidagi organotsentrik (a’zoga yo‘nalgan) modellar o‘rtasidagi asimmetriya ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy jarayon fe’llari, fiziologik holat, shaxssiz konstruksiyalar, lisoniy olam manzarasi, antropotsentrizm, organotsentrik model, irodasizlik semantikasi, qiyosiy tilshunoslik, o‘zbek tili, rus tili.

Аннотация: В данной статье исследуются сравнительно-семантические и структурные особенности безличных конструкций, выражающих физиологическое состояние человека в узбекском и русском языках. В ходе исследования выявлена асимметрия между морфологической безличностью в русском языке и органоцентрическими моделями в узбекском языке.

Ключевые слова: глаголы физического процесса, физиологическое состояние, безличные конструкции, языковая картина мира, антропоцентризм, органоцентрическая модель, семантика непроизвольности, сопоставительная лингвистика, узбекский язык, русский язык.

Abstract: this article examines the comparative-semantic and structural features of impersonal constructions expressing the physiological state of a person in the Uzbek and Russian languages. The study reveals the asymmetry between morphological impersonality in the Russian language and organocentric models in the Uzbek language.

Keywords: verbs of physical process, physiological state, impersonal constructions, linguistic picture of the world, anthropocentrism, organocentric model, semantics of involuntariness, comparative linguistics, Uzbek language, Russian language.

Tilshunoslikning zamonaviy taraqqiyoti bosqichida lisoniy birliklarni semantik maydon asosida tasniflash olamning lisoniy manzarasini tiklashda muhim o‘rin tutadi. Xususan, fe’l turkumining eng qadimiy va fundament qatlamlaridan biri hisoblangan fiziologik holat fe’llari insonning biologik mavjudot sifatidagi hayotiy faoliyatini obyektivlashtiruvchi asosiy vositadir. Ushbu fe’llar guruhini tasniflash nafaqat lisoniy tizimni tartibga solish, balki inson jismoniy holatining tilda qanday konseptuallashishini tushunish imkonini beradi. Fiziologik holat fe’llari o‘z tabiatiga ko‘ra, subyektning irodasiga bo‘ysunmaydigan, organizmning ichki ehtiyojlari yoki tashqi ta’sirlarga nisbatan tabiiy reaksiyalarini ifodalaydi. Shuning uchun ham, ushbu fe’llar semantikasida «irodasizlik» (involuntarlik) va «passivlik» kabi semalar yetakchilik qiladi. Masalan, uxlamoq, charchamoq, qizarmoq (o‘zbek tilida) hamda дышать, мерзнуть, болеть (rus tilida) kabi fe’llar dinamik harakatdan ko‘ra ko‘proq davomli jarayon yoki holatni ifodalashi bilan ajralib turadi. O‘zbek va rus tillaridagi fiziologik holat fe’llarini qiyosiy tasniflash tilning strukturaviy xususiyatlarini (agglyutinativ va flektiv) hamda milliy-madaniy tafovutlarni ochib beradi. Agar rus tilida fiziologik jarayonlarning tasnifi ko‘pincha fe’l aspektlari va prefiksal modifikatsiyalarga tayanilsa, o‘zbek tilida ushbu tasnif ko‘makchi fe’llar va tana a’zolarining semantik valentligi asosida shakllanadi.

Mazkur maqolada fiziologik holat fe’llari inson hayotiy faoliyatining yo‘nalishlariga ko‘ra (uyqu, nafas olish, sezgi, kasallik, charchoq va h.k.) bir necha leksik-semantik guruhlarga ajratiladi.

Ushbu tasnif orqali har ikki tilning lisoniy imkoniyatlari, ma’nodoshlik qatorlari va semantik asimmetriyasini belgilash maqsad qilingan.

Fiziologik holat fe’llarini inson organizmidagi jarayonlarning xarakteriga ko‘ra quyidagi leksik-semantik guruhlarga (LSG) ajratish mumkin:

Fiziologik holat fe’llarining qiyosiy tasnifi (Jadval)

Fiziologik holat fe’llarining qiyosiy tasnifi (Jadval)

T/r	Leksik-semantik guruh (LSG)	O‘zbek tilida (Misollar)	Rus tilida (Misollar)	Semantik xususiyati
1.	Hayotiy faoliyat fe’llari	nafas olmoq, yashamoq, o‘smoq	дышать, жить, расти	Fundamental biologik jarayonlar.
2.	Uyqu va dam olish fe’llari	uxlamoq, uyg‘onmoq, mizg‘imoq	спать, проснуться, дремать	Sutkalik fiziologik sikl.
3.	Charchoq va quvvat fe’llari	*charchamoq, toliqmoq, o‘ngalmoq*	*уставать, утомляться, оживать*	Energiya sarfi va tiklanishi.
4.	Tashqi reaksiya fe’llari	*terlamoq, qaltiramoq, aksirmoq*	*потеть, дрожать, чихать*	Ixtiyorsiz javob reaksiyalari.
5.	Patologik holat fe’llari	*og‘rimoq, kasallanmoq, shishmoq*	*болеть, хворать, опухать*	Sog‘liqning buzilishi.

Tasnif bo‘yicha ilmiy tahlil

Universallik va xususiylik. Tasnifdagi Hayotiy faoliyat fe’llari (nafas olmoq – дышать) har ikki tilda ham deyarli bir xil semantik ko‘lamga ega. Bu inson fiziologiyasining universal tabiatidan kelib chiqadi. Biroq, Uyqu fe’llari guruhida rus tilida jarayonning boshlanishi yoki yakunlanishi prefikslar orqali (заснуть, выспаться) ifodalansa, o‘zbek tilida bu ma’nolar ko‘makchi fe’llar (uxlab qolmoq, uxlab olmoq) orqali modifikatsiyalanadi.

Intensivlik va darajalanish. Charchoq fe’llari tasnifida o‘zbek tili lug‘at boyligi (masalan: charchamoq, toliqmoq, horg‘in bo‘lmoq, darmoni qurimoq) charchoqning turli darajalarini nozik farqlash imkonini beradi. Rus tilida esa bu darajalanish ko‘proq stilistik bo‘yoqdorlikka ega fe’llar (устать, изнуриться, выбиться из сил) orqali namoyon bo‘ladi.

Irodasizlik (Involuntarlik) darajasi. Tashqi reaksiya fe’llari (masalan, qizarmoq – краснеть) har ikki tilda ham subyekt irodasidan tashqari yuz berishi bilan ajralib turadi. Lekin rus tilida ushbu guruhga mansub ko‘pgina jarayonlar shaxssiz shaklda (его знобит) ifodalanishga moyil bo‘lsa, o‘zbek tilida bu holat ko‘proq tana a’zosining faoliyati (eti uvishdi) sifatida tasniflanadi.

Aytish mumkinki, ushbu tasnif o‘zbek va rus tillaridagi fiziologik holat fe’llarining nafaqat lug‘aviy tarkibini, balki ularning grammatik va konseptual xususiyatlarini tizimli o‘rganishga asos bo‘ladi.

Zamonaviy antropotsentrik paradigma doirasida inson omili va uning tildagi lisoniy in’ikosi markaziy o‘rinni egallaydi. Inson o‘z biologik mavjudligini — og‘riq, uyqu, charchoq

kabi jarayonlarni qanday his etsa, tilda ham bu holatlar shunday obyektivlashadi. Fiziologik jarayonlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularning aksariyati inson irodasiga bo‘ysunmaydi. Ya’ni, subyekt bu jarayonlarning faol bajaruvchisi (agent) emas, balki passiv qabul qiluvchisi (eksperiensher) hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi — har ikki til materiallari asosida fiziologik jarayon ifodalarining semantik maydonini aniqlash va tillararo ekvivalentlik tamoyillarini belgilashdan iborat.Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, komponent tahlil va lisoniy tavsif metodlaridan foydalanildi. Rus tili materiallari sifatida shaxssiz gaplar (bezlichniye predlojeniya) va predikativ ravishlar, o‘zbek tili materiallari sifatida esa ega+kesim va egalik qo‘shimchali konstruksiyalar tahlil obyekti qilib olindi. Fiziologik holat fe’llarining tasnifi

Inson organizmidagi jarayonlarning xarakteriga ko‘ra fe’llarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Hayotiy faoliyat fe’llari: nafas olmoq – дышать, yashamoq – жить.

Uyqu va dam olish fe’llari: uxlamoq – спать, uyg‘onmoq – проснуться.

Tashqi reaksiya fe’llari: terlamoq – потеть, qaltiramoq – дрожать.

Patologik holat fe’llari: og‘rimoq – болеть, shishmoq – опухать.

O‘zbek tilida ruscha shaxssiz modellarga ko‘pincha a’zoga yo‘nalgan konstruksiyalar mos keladi. Bunda tana a’zosi grammatik ega vazifasini bajaradi: Ko‘nglim aynidi, Eti uvishdi. O‘zbek tilida «uyqu» konsepti insonga tashqaridan keluvchi obyekt sifatida metaforizatsiyalashadi (Uyqum keldi). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rus tili og‘riqning turini fe’lning o‘zi bilan ifodalashga (ноет, колет, режет) moyil bo‘lsa, o‘zbek tili og‘riq manbasini aniqlashtirishga va uni ravishlar yordamida tasvirlashga intiladi (simillab og‘rimoq, sanchib og‘rimoq). Rus tilidagi prefiksal modifikatsiyalar o‘zbek tilida ko‘makchi fe’llar tizimi (analitizm) orqali beriladi. Bu tillarning flektiv va agglyutinativ tabiati o‘rtasidagi tizimli farqni namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

Abduaxatov A. O’zbek tilida holat fe’llari va ularning semantik tahlili. – Toshkent: Fan, 2008.

Bondarko AV Theory of morphological categories and specific-temporal relations. – L.: Nauka, 1986.

Fayzullaev MB, Kurbanova G. Semantic aspect of lexico-semantic group of verbs physiologically sostoyian Uzbekian language // Material of the VII international scientific and methodological online seminar.

Kurbanova GY Semantic and typological aspect of state verbs in the Uzbek and Russian languages // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). – 2023. – Vol. 6, Issue 06. – pp. 448-451.

Mahmudov N., Nurmonov A. O’zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O’qituvchi, 1995.

Papafragou A., Selimis S. Event categorization and language: A crosslinguistic study of motion // Language and Cognitive Processes, 2010. – pp. 224-260.

Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining etimologik lug’ati. – Toshkent: Universitet, 2000.

Sayfullayeva R., Mengliev B., Boqieva G. and others. Contemporary Uzbek literary language. – Tashkent: FT, 2010. – 208 p.

Yunusovna KG (Kurbanova GY) System of Lexical-Semantic Groups System of Verbs of Physiological State // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education, 2024. – 2(4). – pp. 275-278.

Vinogradov VV Russian language. – M.: Visshaya shkola, 1986

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИДА ИҚТИСОДИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАРУРАТИ

Мирзаев Мансур Наимович,
Бухоро давлат педагогика институти

Аннотация. Ушбу мақолада мамлакатнинг замонавий ижтимоий-иқтисодий тараққиёт тенденцияларига мос равишда педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг иқтисодий тайёргарлигини такомиллаштириш масалалари таҳлил қилинган. Мақолада иқтисодий тайёргарлик шахсда туғма ёки олдиндан белгиланган хусусият эмаслиги, балки реал ҳаётий фаолият жараёнида шаклланиб, ривожланиб бориши асослаб берилган. Шунингдек, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни ривожлантиришнинг мақсади шахсни қатъий функционал чекловлардан халос этиш, унинг шахсий салоҳиятини юзага чиқариш ҳамда эгалланган иқтисодий билим, кўникма ва малакалардан онгли, масъулиятли ва ижодий фойдаланиш орқали касбий фаолиятга самарали мослашувини таъминлашдан иборат эканлиги ёритилган.

Калит сўзлар: иқтисодий компетенция, иқтисодий тайёргарлик, бўлажак ўқитувчи, касбий таълим, иқтисодий билим, шахс, фаолият, таълим жараёни.

XXI асрда Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг кўламли ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар, рақамли иқтисодиётнинг жадал ривожланиши, бозор муносабатларининг чуқурлашуви ҳамда инсон капиталига бўлган эътиборнинг ортиши таълим тизими олдига мутлақо янги вазифаларни қўймоқда. Айниқса, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни шакллантириш ва ривожлантириш масаласи бугунги кунда стратегик аҳамиятга эга бўлган педагогик муаммолардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Зеро, замонавий жамият нафақат ўз мутахассислик соҳасини яхши биладиган, балки иқтисодий жараёнларни англайдиган, иқтисодий муносабатларда мустақил қарор қабул қила оладиган, бозор механизмлари шароитида фаол ҳаракатланувчи ва рақобатбардош шахсни талаб қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сонли “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонида инсон капитали сифати ва таълим тизими самарадорлигини ошириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланган. Шунингдек, “Таълим тўғрисида”ги Қонун, “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”, “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси каби меъёрий ҳужжатларда таълим жараёнида замонавий иқтисодий билим ва компетенцияларни ривожлантириш муҳим вазифа сифатида қайд этилган. Бу эса педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий тайёргарлигини такомиллаштириш заруратини янада кучайтиради.

Бугунги кунда иқтисодиёт фақат иқтисодчи мутахассислар фаолият юритадиган соҳагина эмас, балки педагогика, психология, социология, менежмент ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар билан чамбарчас боғланган мураккаб ижтимоий тизимга айланмоқда. Иқтисодий муносабатларнинг глобаллашуви, меҳнат бозорида рақобатнинг кучайиши ва инновацион фаолиятнинг кенгайиши ҳар бир инсондан иқтисодий маданият, иқтисодий тафаккур ва иқтисодий масъулиятни талаб этмоқда. Шу нуқтаи назардан қараганда, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни шакллантириш уларнинг нафақат шахсий ҳаёти, балки касбий-педагогик фаолияти самарадорлигини ҳам белгилаб берувчи муҳим омил ҳисобланади.

Иқтисодий компетенцияни педагогик ва психологик муаммо сифатида талқин этувчи илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, аксарият тадқиқотчилар мазкур тушунчани шахснинг иқтисодий билимлари, амалий кўникмалари, иқтисодий тафаккури ва турли иқтисодий вазиятларда мақбул қарор қабул қилиш қобилиятининг интегратив

бирлиги сифатида баҳолайдилар. Бунда иқтисодий компетенция фақат назарий билимлар йиғиндиси сифатида эмас, балки инсоннинг иқтисодий муносабатларда онгли иштирок этиши, иқтисодий жараёнларни таҳлил қилиши, ресурслардан самарали фойдаланиши ва иқтисодий фаолиятни мақсадли ташкил эта олиши билан белгиланади.

Замонавий педагогик ёндашувларда иқтисодий компетенция шахснинг касбий компетенцияси таркибида муҳим ўрин эгаллаши таъкидланмоқда. Айниқса, педагогика йўналиши талабалари учун иқтисодий компетенциянинг аҳамияти янада юқори бўлиб, бу уларнинг келажакда таълим жараёнини самарали ташкил этиши, таълим муассасасидаги иқтисодий муносабатларни англаши, таълим ресурсларидан оқилона фойдаланиши ҳамда ўқувчиларда иқтисодий маданиятни шакллантириш фаолияти билан бевосита боғлиқдир. Шу нуқтаи назардан қараганда, бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий компетенцияси уларнинг касбий фаолиятга тайёрлиги ва рақобатбардошлигини белгиловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Педагогика мутахассислиги талабаларининг иқтисодий компетенциясини шакллантиришда иқтисодий онг ва иқтисодий тафаккур алоҳида аҳамият касб этади. Чунки иқтисодий онг инсоннинг жамият иқтисодий ҳаётига бўлган муносабатини белгиласа, иқтисодий тафаккур иқтисодий воқеликни англаш, таҳлил қилиш ва унга нисбатан мақбул ечимларни ишлаб чиқиш имконини беради. Иқтисодий тафаккур орқали шахс иқтисодий жараёнларнинг мазмунини англайди, ишлаб чиқариш самарадорлигини баҳолайди, бозор муносабатлари ва иқтисодий тараққиёт қонуниятларини тушуниб етади. Бу эса ўз навбатида, бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий маданиятини шакллантиришга хизмат қилади.

Шарқ мутафаккирлари ҳам инсоннинг иқтисодий онги ва иқтисодий тафаккурини ривожлантириш масаласига алоҳида эътибор қаратганлар. Масалан, Абу Наср Форобий инсоннинг жамиятда муносиб ўрин эгаллашида меҳнат, касб ва иқтисодий билим муҳим ўрин тутишини таъкидлаган бўлса, Абу Али ибн Сино инсон камолотида илм, тадбиркорлик ва тежамкорлик муҳим аҳамиятга эга эканлигини қайд этган. Алишер Навоий эса инсоннинг маънавий ва моддий фаровонлиги ҳалол меҳнат ва иқтисодий фаоллик билан чамбарчас боғлиқлигини ўз асарларида бир неча бор таъкидлайди. Унинг қарашларида иқтисодий билим нафақат моддий эҳтиёжларни қондириш, балки жамият барқарорлиги ва инсон камолотини таъминлаш воситаси сифатида талқин қилинади.

Шарқ мутафаккирлари ҳам инсоннинг иқтисодий билим ва меҳнат фаолиятига алоҳида эътибор қаратганлар. Абу Наср Форобий инсоннинг жамиятда муносиб ўрин эгаллаши учун меҳнат, касб ва иқтисодий муносабатларни англаши зарурлигини таъкидлаган. Унинг фикрича, инсон фақат билим орқалигина моддий ва маънавий камолотга эришади. Абу Райҳон Беруний эса меҳнат ва иқтисодий фаолиятни инсон тараққиётининг муҳим омили сифатида баҳолаб, ҳар қандай касб жамият тараққиёти учун хизмат қилиши лозимлигини қайд этган. Ибн Сино инсоннинг камолоти унинг ақлий салоҳияти, меҳнатсеварлиги ва иқтисодий муносабатлардаги онгли иштироки билан белгиланишини таъкидлаган. Алишер Навоий асарларида ҳалол меҳнат, тадбиркорлик, тежамкорлик ва адолатли иқтисодий муносабатлар жамият барқарорлигининг асоси сифатида талқин этилади. У “Маҳбуб ул-қулуб” асарида инсон меҳнат орқали нафақат моддий бойлик, балки маънавий юксалишга ҳам эришишини таъкидлайди.

Жадид маърифатпарварлари – Абдулла Авлоний, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов каби мутафаккирлар ҳам таълим тизимида иқтисодий билимларнинг аҳамиятига алоҳида урғу берганлар. Абдулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида инсоннинг ҳаётда муваффақият қозониши илм, меҳнат ва иқтисодий тафаккур билан бевосита боғлиқ эканлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, иқтисодий билимга эга бўлган шахс жамиятда ўз ўрнини топа олади ва мустақил ҳаёт кечиришга қодир бўлади.

Иқтисодий компетенция ва иқтисодий тайёргарлик муаммоси хорижий ва маҳаллий

олимлар томонидан турли йўналишларда тадқиқ этилган. Хусусан, Г. Беккер, Т. Шульц, Ж.М. Кейнс, П. Самуэльсон, М. Фридман каби иқтисодчи олимлар инсон капитали, иқтисодий билим ва иқтисодий фаолликнинг жамият тараққиётидаги ўрнини асослаб берганлар. Ж.М. Кейнс инсоннинг иқтисодий қарор қабул қилиш жараёнида тўлиқ ахборотга эга эмаслигини таъкидлаб, иқтисодий жараёнларда таълим ва давлат қўллаб-қувватлашининг аҳамиятини кўрсатган.

Педагогик нуқтаи назардан иқтисодий компетенция муаммоси И.Ф. Исаев, Н.В. Кузьмина, А.К. Маркова, В.А. Сластенин, И.А. Зимняя, Ю.Г. Татур, М.И. Дьяченко, Л.А. Кандибович каби олимларнинг ишларида касбий компетенция ва шахснинг тайёргарлик тизими билан боғлиқ ҳолда тадқиқ қилинган.

Республикамизда иқтисодий таълим, инсон капитали ва иқтисодий тафаккурни ривожлантириш масалалари С.Ғ. Ғойибназаров, Қ.Х. Абдураҳмонов, А.В. Ваҳобов, Д.Н. Тожибоева, Ш.Ш. Шодмонов, М.Ш. Шарифхўжаев каби иқтисодчи олимларнинг тадқиқотларида ёритилган. Уларнинг ишларида инсон капитали, иқтисодий билим ва иқтисодий маданиятни ривожлантириш мамлакат тараққиётининг муҳим омили сифатида баҳоланади.

Шу билан бирга, бўлажак мутахассисларнинг иқтисодий компетенциясини шакллантириш, иқтисодий тафаккур ва иқтисодий маданиятни ривожлантириш масалалари педагогик таълим нуқтаи назаридан ҳали етарли даражада комплекс тадқиқ этилмаган бўлиб, мазкур муаммо замонавий таълим тизимида долзарб илмий-педагогик вазифалардан бири сифатида сақланиб қолмоқда.

Уларнинг ишларида замонавий таълим жараёнида иқтисодий билимларнинг интеграцияси, талабаларнинг мустақил иқтисодий фикрлаши ва иқтисодий муносабатлардаги фаол иштирокини таъминлаш муҳим педагогик вазифа сифатида талқин қилинади.

Педагогик таълим амалиёти таҳлили шуни кўрсатадики, бугунги кунда бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантириш жараёнида бир қатор зиддиятлар мавжуд. Жумладан, жамиятнинг иқтисодий жиҳатдан тайёр, рақобатбардош ва ташаббускор педагог кадрларга бўлган эҳтиёжи билан олий таълим муассасаларида иқтисодий тайёргарликни ривожлантиришнинг илмий-педагогик асослари етарли даражада такомиллашмаганлиги ўртасида муайян тафовут кузатилади. Шунингдек, университет таълим муҳитининг иқтисодий компетенцияни ривожлантириш бўйича юқори педагогик салоҳиятга эга эканлигига қарамай, амалда бу жараённи ташкил этишнинг методик механизмлари тўлиқ шаклланмаган.

Рус олимлари И.Ф. Исаев, Н.В. Кузьмина, А.К. Маркова, В.А. Сластенинлар компетенцияни шахснинг назарий билимлари ва амалий тажрибасини бирлаштирувчи интегратив сифат сифатида талқин қиладилар. Уларга кўра, касбий компетенция инсоннинг маълум фаолиятни самарали амалга оширишга тайёрлигини ифодалайди. Психолог олимлар М.И. Дьяченко ва Л.А. Кандибович эса тайёргарликни шахснинг барқарор хусусияти сифатида баҳолаб, унинг билим, кўникма, мотив ва фаолиятга бўлган муносабатлар тизимини қамраб олишини таъкидлайдилар.

Бу қарашлардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, иқтисодий компетенция шахсда туғма равишда мавжуд бўлмайди, балки ижтимоий муносабатлар, таълим жараёни ва амалий фаолият таъсирида шаклланадиган динамик тизим ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантириш уларнинг иқтисодий билим, кўникма ва малакаларини такомиллаштириш, иқтисодий вазиятларни таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантириш, мустақил қарор қабул қилишга ўргатиш ҳамда иқтисодий муносабатларда масъулиятли иштирок этишини таъминлашга қаратилган узлуксиз педагогик жараён сифатида қаралиши лозим.

Замонавий иқтисодий муносабатлар шароитида талабалар иқтисодий жиҳатдан

қанчалик тайёр бўлса, улар ўз шахсий салоҳиятини шунчалик тўлиқ англайдилар, мураккаб ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилишга қодир бўладилар ҳамда билим, кўникма ва малакалардан онгли, масъулиятли ва ижодий фойдаланиш имкониятига эга бўладилар. Шу боис, талабаларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантириш жараёнини фақат иқтисодий билим бериш билан чеклаш мумкин эмас. Бу жараён таълим мазмуни, шакллари, методлари ва воситаларининг ўзаро уйғунлиги асосида ташкил этилиши лозим бўлган мураккаб педагогик тизим ҳисобланади.

Талабалар иқтисодий компетенциясини ривожлантиришнинг мазмуни уларда иқтисодий билимларни шакллантириш, иқтисодий муносабатларга нисбатан онгли муносабат ҳосил қилиш, иқтисодий қарор қабул қилиш кўникмаларини ривожлантириш, молиявий саводхонликни ошириш ва иқтисодий фаолиятга ижобий мотивацияни шакллантиришни қамраб олади. Бу эса талабаларнинг хулқ-атвори, иқтисодий фаоллиги, ташаббускорлиги ва молиявий маданиятида ўз ифодасини топади.

Педагогик таълим жараёнида талабаларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантиришни амалий жиҳатдан таъминлаш муайян педагогик вазифаларни ҳал қилишни талаб этади. Аввало, иқтисодий компетенция кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилувчи педагогик шарт-шароитларни аниқлаш ва ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Бу жараёнда таълим муҳити, инновацион педагогик технологиялар, амалий машғулотлар, иқтисодий мазмундаги кейслар, лойиҳавий фаолият ва интерфаол методлар муҳим восита сифатида намоён бўлади.

Шунингдек, педагогик таълимда талабалар иқтисодий компетенциясининг ривожланиш даражасини баҳолаш методикасини ишлаб чиқиш ҳам долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Чунки иқтисодий компетенциянинг шаклланганлик даражасини аниқлаш орқали талабаларнинг иқтисодий билимлари, иқтисодий тафаккури, иқтисодий муносабатларга тайёрлиги ва амалий фаолиятда иқтисодий қарор қабул қилиш қобилиятини баҳолаш имконияти яратилади. Бу эса ўз навбатида, иқтисодий компетенцияни ривожлантириш жараёнининг самарадорлигини аниқлашга хизмат қилади.

Мазкур вазифаларни амалга оширишда педагогик шарт-шароитлар алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, улар бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни ривожлантирувчи асосий ҳаракатлантирувчи омил сифатида намоён бўлади. Педагогик шарт-шароитлар талабаларнинг иқтисодий билимларни ўзлаштириши, иқтисодий фаолиятга қизиқиши, мустақил фикрлаши ва иқтисодий муносабатларда фаол иштирок этиши учун зарур имкониятларни яратади. Шу нуқтаи назардан, педагогик таълим жараёнида иқтисодий компетенцияни шакллантиришга хизмат қилувчи шарт-шароитларни илмий асосда ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш бугунги кунда долзарб педагогик вазифалардан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Шундай қилиб, иқтисодий компетенция олий таълим жараёнида босқичма-босқич шаклланадиган ҳамда муайян педагогик шарт-шароитлар асосида ривожлантириладиган мураккаб интегратив тузилма ҳисобланади. Бу жараённинг самарадорлиги эса педагогик таълим муҳитининг мақсадли ташкил этилиши, замонавий ўқитиш технологияларининг қўлланилиши ва талабаларнинг мустақил фаолиятини тўғри йўналтириш билан бевосита боғлиқдир. Шу нуқтаи назардан, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни ривожлантиришга хизмат қилувчи педагогик шарт-шароитларни илмий асосда белгилаш муҳим аҳамият касб этади.

Биринчи педагогик шарт сифатида иқтисодий компетенцияни ривожлантиришга йўналтирилган қўшимча ривожлантирувчи таълим дастурларини ишлаб чиқиш ва таълим жараёнига жорий этиш муҳим ҳисобланади. Мазкур дастурлар талабаларнинг иқтисодий билимларини чуқурлаштириш, иқтисодий тафаккурини ривожлантириш ҳамда иқтисодий жараёнларга нисбатан онгли муносабатни шакллантиришга хизмат қилади. Бундай

дастурларнинг мазмуни жамият иқтисодий ҳаёти, бозор муносабатлари, иқтисодий тараққиёт қонуниятлари, инсон капитали, тадбиркорлик, молиявий саводхонлик ва давлат иқтисодий сиёсати ҳақидаги билимларни қамраб олиши лозим.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida insonga qadriyatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirishning metodik ta’minotini yaratish bugungi kunda ta’lim tizimi uchun alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, ushbu masala bir tomondan pedagogik, ikkinchi tomondan ijtimoiy siyosiy ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchiga bilim berish bilan bir qatorda, ularda inson sha’ni, qadr-qimmati, huquqlari, his-tuyg‘ulari va boshqalar bilan hamkorlikda yashash madaniyatiga oid ongli munosabatni ham shakllantirishi kerak. Bu yo‘nalish xalqaro miqyosda ham ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘quvchi shaxsining to‘laqonli tarzda rivojlanishi, inson huquqlariga nisbatan hurmat bilan yondashish, o‘zaro bir-birini tushunish va bag‘rikenglikni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham ta’limning insonparvar, demokratik tabiati, ta’lim-tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, insonlarning bir-birini kamsitishiga yo‘l qo‘ymaslik va teng imkoniyatlarni ta’minlash asosiy prinsiplar sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘quv - tarbiya jarayonining metodik ta’minoti, birinchi navbatda, qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv doirasida o‘quvchilar insonga shunchaki ijtimoiy obyekt emas, balki noyob shaxs, huquq va qadr-qimmat egasi sifatida qarashni o‘rganadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ta’limga yo‘naltirilgan kompasi materiallarida ham ta’limning tayanch natijalari sifatida bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda, munosabat va qadriyatlarning inson va jamiyat hayoti uchun muhim ekanligi ta’kidlangan. Hurmat bilan munosabatda bo‘lish esa o‘zini va boshqalarni, ularning hissiyotlari, xohishlari hamda huquqlarini e’tirof etishdan iborat madaniy kompetensiya hisoblanadi. Demak, “insonga qadriyatli munosabat”

ko‘nikmasi tasodifiy emas, balki zamonaviy kompetensiyaviy ta’limning asosiy natijalaridan biri bo‘lishi kerak.

Ikkinchi tayanch yondashuv esa - insonparvarlik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Bu yondashuv doirasida ta’lim jarayoni o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi, qiziqishlari, ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va rivojlanish dinamikasiga asoslangan holda qadriyatlar taqdim etiladi. Inson qadrini tan olish, o‘quvchini tinglash, unga bosim ko‘rsatish emas, hurmat asosida yondashish, sinfdagi har bir bolani “qadrli subyekt” sifatida ko‘rish ushbu yondashuvning asosini tashkil etadi. Xalqaro bolalar huquqlari deklaratsiyalari va hujjatlarida ham bola mustaqil huquq egasi sifatida tan olinadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni esa o‘quvchilarda o‘zi va boshqalarning huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirishi alohida ta’kidlangan.

Uchinchi muhim yondashuv - ijtimoiy-emotsional ta’limni rivojlantirish yondashuvidir. UNESCO va UNICEF manbalarida SEL va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarda empatiya, boshqalarni tushunish, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, tinch yo‘l bilan muloqot qilish, nizolarni hal etish kabi sifatlarni rivojlantirishi zarurligi ta’kidlangan. Ko‘rinib turibdiki, insonga qadriyatli munosabat ko‘nikmasi faqat axloqiy targ‘ibot bilan emas, balki empatiya, o‘zini-o‘zi boshqarish, muloqot, hamkorlik, nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish singari amaliy ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar orqali shakllantiriladi.

To‘rtinchi yondashuv - huquqiy-tarbiyaviy va fuqarolik yondashuvi. Bu yondashuvda o‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabat boshqalarning huquq va erkinliklarini tan olish, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, zo‘ravonlik va kamsitishni rad etish, turli fikr va farqlarga madaniy munosabatda bo‘lish orqali shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham fuqarolarning boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi zarurligi qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Shuning uchun ham maktabdagi o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda mazkur ko‘nikmani shakllantirish alohida metodik ta’minotni talab qiladi.

Ushbu yo‘nalishdagi metodik ta’minoti odatda quyidagi konseptual asosga tayangan holda yaratiladi: insonparvarlik pedagogikasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, qadriyatlarga asoslangan ta’lim, ijtimoiy-emotsional ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, huquqiy-fuqarolik tarbiyasi, madaniyatlararo muloqot va bag‘rikenglik konsepsiyasi kabilar. Ushbu o‘rinda, muhim jihatlardan biri, mazkur asoslarning barchasi uyg‘unlashadi. O‘quvchilar atrofdagilarni faqatgina “foydali” yoki “zarur” shaxs sifatidagina emas, balki qadrli shaxs sifatida qabul qiladilar va baholaydilar. Bu xulosa xalqaro manbalarda e’tirof etilgan “o‘zaro hurmat”, “hamdardlik”, “teng ishtirok”, “inson qadr-qimmatini ulug‘lash”, “inson huquqlarini qadrlash” kabi insoniy sifatlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Ushbu metodik ta’minot bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir necha komponentlarni qamrab oladi.

Birinchi komponent - maqsadli komponent. Uning vazifasi o‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabatning mazmunini ochish va aniq natijalarni belgilashdan iborat. Ya’ni o‘quvchi boshqalarning sha’ni va qadrini tan olishi, sinfdoshlarining his-tuyg‘ularini inobatga olishi, kamsitish, mazax, zo‘ravonlik, tajovuzkor muloqotni rad etishi, hamkorlik va mehr-oqibat asosida muomala qilishni o‘rganishi kerak. Bu ko‘nikmalar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va UNICEF manbalarida ko‘rsatilgan hurmat, empatiya, ishtirok, muloqot, hamkorlik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi komponent - mazmunga asoslangan komponent. Bu qismda qanday g‘oya, tushuncha va qadriyatlar o‘quv mazmuniga kiritilishi belgilab olinadi. Unga inson qadr-qimmati, hurmat, mehr-shafqat, bag‘rikenglik, adolat, hamjihatlik, tenglik, mas’uliyat, inson huquqlari, bolalar huquqlari, do‘stlik, hamkorlik, muomala madaniyati, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar kiradi. Mazmun alohida bitta dars bilan cheklanmaydi; u adabiyot, tarix, tarbiya, ona tili, huquq, biologiya, kelajak soatlari va maktabning tarbiyaviy muhitiga integratsiya qilinadi. UNESCO SEL siyosiy ko‘rsatmalarida ham bunday ko‘nikmalarni tizimli ravishda butun ta’lim jarayoniga singdirish zarurligi ta’kidlanadi.

Uchinchi komponent - jarayonli-texnologik komponentidan iborat bo‘lib, o‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantiruvchi metodlar, shakllar va vositalarni qamrab oladi. Bunday metodlar o‘quvchini “tinglovchi” emas, balki qadriyatni amalda sinab ko‘ruvchi subyektga aylantiradi. UNESCO va UNICEF hujjatlarida aynan interaktiv, tajribaviy, hamkorlikka asoslangan mashg‘ulotlar ijtimoiy-emotsional va hurmatga asoslangan kompetensiyalarni yaxshiroq shakllantirishi zarurligini ta’kidlangan.

To‘rtinchi komponent - ta’lim jarayoni subyektlariaro hamkorlik komponenti. O‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabatni faqat o‘qituvchi yakka holda shakllantira olmaydi. Ushbu o‘rinda sinf rahbari, maktab psixologi, ota-ona, tengdoshlar jamoasi va maktab ma’muriyati, mahalla faollari birgalikda ishlashlari talab qilinadi. Chunki bola hurmatni nafaqat dars mazmunidan, balki maktab, oila va jamiyatdagi real munosabatlar yordamida o‘rganadi.

Beshinchi komponent - ijtimoiy madaniy xarakterdagi pedagogik muhit komponentidir. Bu juda muhim. Chunki, insonga qadriyatli munosabat o‘quvchilarda ta’lim muassasasi va oiladagi ijtimoiy muhit orqali shakllanadi. Agar maktab va oilada adolat, xavfsizlik, o‘zaro hurmat, tinglash madaniyati, diskriminatsiyasiz muhit, inklyuziv yondashuv mavjud bo‘lsa, o‘quvchilar bu qadriyatlarni faol o‘zlashtiradilar, o‘zlarining shaxsiy tajribalariga singdiradilar.

Oltinchi komponent - diagnostik-baholash komponenti. Ushbu yo‘nalishda o‘quvchilarda qadriyatli munosabatda bo‘lish haqidagi nazariy bilimlargina emas, balki shaxslararo munosabatlar va inson xulqlariga oid o‘zgarishlarni ham kuzatish, anglash talab qilinadi. Shuning uchun kuzatuv varaqalari, pedagogik monitoring, refleksiv kundaliklar, o‘quvchi o‘zini baholashi, vaziyatli topshiriqlar, sotsiometrik usullar, portfel, tengdoshlar fikri, amaliy xatti-harakatni baholash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. UNICEFning hayotiy ko‘nikmalar bo‘yicha hujjatlarida ham bunday kompetensiyalarni o‘lchash uchun faqat test emas, balki ko‘p manbali, xulq va ishtirokni aks ettiruvchi baholash zarurligi ko‘rsatilgan.

Yettinchi - natijaviy komponent. Uning mezonlari uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Birinchisi, bilimga asoslangan natija. Bunda o‘quvchi o‘zaro hurmat, qadr-qimmat, inson huquqlari, empatiya, bag‘rikenglik tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglaydilar.

Ikkinchisi, emotsional-qadiyatli natija. O‘quvchilar atrofdagilarning tashvishlari, qayg‘ulari, his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari va nuqtai nazarlarini his eta boshlaydilar.

Uchinchisi, xulqiy atvorga asoslangan amaliy natija. O‘quvchilar kundalik muloqt muomala jarayonida bir-birlarini kamsitmaydilar, bosim o‘tkazmaydilar, masxara qilmaydi, o‘zaro yordamga tayyor bo‘ladilar, ziddiyatlarni o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qiladilar, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaydilar. O‘z fikrlarini madaniy muloqot asosida ifodalaydilar. Bunday sifatlar o‘quvchilarda hissiy emotsional ko‘nikmalarning jadal tarzda shakllanishiga xizmat qiladi. Bu tasnif xalqaro SEL va hayotiy ko‘nikmalar manbalaridagi bilimlar – ko‘nikmalar – munosabatlar – xulq-atvor mantiqiga mos keladi.

Mazkur metodik tizimni yanada aniqroq tasvirlasak, u odatda quyidagi ichki metodik zanjirni qamrab oladi:

a) qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglash;

b) boshqalarni tushunish;

d) hissiy hamdardlik tuyg‘usiga ega bo‘lish;

e) hurmatga asoslangan muloqotga kirishish;

f) hamkorlikda ishlash xulq atvoriga ega bo‘lish;

g) ijtimoiy mas’uliyatni his etish. Bu tizimda o‘quvchilar dastlab, inson qadri tushunchasining mazmun mohiyatini tushunib yetadilar Shundan keyingina atrofdagilarni tinglash va anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Undan so‘ng o‘quvchilarda empatiya vujudga keladi. Bu esa hurmatli muomala madaniyati va mas’uliyatli xulqqa oid ko‘nikmalarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Shunday zanjirga asoslangan izchil jarayon shakllantirilmasa, qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayoni nasihatxonlikdan iborat bo‘lib qoladi.

Insonga nisbatan qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasining ahamiyatli jihatlari sifatida

quyidagilarni e’tirof etish mumkin.

birinchidan, o‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish ta’lim muassasasida xavfsiz va sog‘lom muhit yaratishga xizmat qiladi. UNESCO manbalariga ko‘ra, SELni ta’lim tizimiga integratsiyalash o‘quv natijalarini yaxshilash, maktabni tashlab ketishning kamayishi, ruhiy farovonlikning ortishi hamda sinf hamda maktabdagi munosabatlarning mustahkamlanishini ta’minlaydi. Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasini shakllantirish “kelajak soat”lari bilan bir qatorda, tarbiya darslarida ham amalga oshiriladi. Bu ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liq.

Ikkinchidan, insonga qadriyatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi maktabdagi bullying, kamsitish, zo‘ravonlik, nafratli muloqot va befarqlikning oldini olishga xizmat qiladi. O‘quvchilar atrofdagilarni shaxs sifatida qadrlashni o‘rganib, sinfdoshlariga nisbatan tajovuzkorona munosabatda bo‘lish ehtimoli kamayadi. UNESCO va UNICEF materiallarida hurmat, empatiya, hamkorlik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashi ta’kidlangan.

Uchinchidan, o‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabat bo‘lish tajribasini shakllantirish fuqarolik jamiyati va demokratik madaniyat uchun nihoyatda zarur. Boshqalarning huquqlari, sha’nini qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar keyinchalik jamiyatda ham qonuniylik, adolat, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga ko‘proq amal qiladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi va ta’lim haqidagi qonunlarda inson qadr-qimmati, huquqlarga hurmat va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un ta’lim yo‘nalishi mustahkamlangan. Shu sababli bu ko‘nikma davlatning ham, jamiyatning ham ma’naviy barqarorligiga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, insonga qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasi XXI asr kompetensiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Hurmat, empatiya, muloqot, hamkorlik, o‘zini boshqarish, mas’uliyat va ishtirok etish bugungi mehnat bozori hamda ijtimoiy hayot uchun zarur yumshoq ko‘nikmalardir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va UNICEF manbalarida aynan shu kompetensiyalar kelajak fuqarosi va muvaffaqiyatli shaxsning asosiy ko‘nikmalari sifatida e’tirof etiladi.

O‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirishning metodik ta’minoti quyidagi asoslarga tayangan holda yaratiladi: insonparvarlik pedagogikasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, qadriyatli ta’lim, ijtimoiy-emotsional ta’lim, huquqiy-fuqarolik tarbiyasi va kompetensiyaviy yondashuv. U qamrab oladigan metodik tizim esa odatda maqsad, mazmun, metodlar va texnologiyalar, subyektlararo hamkorlik, ta’limiy muhit, baholash-diagnostika, natijaviylik komponentlaridan tashkil topadi. Uning bosh maqsadi - o‘quvchida “insonni hurmat qilish kerak” degan g‘oyani emas, balki insonni qadrlab muomala qilish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan bu mavzu bugungi maktab, oila, jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // - Toshkent, 2023. Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, PF-5712-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.
5. OECD Learning Compass 2030: Concept Note. – Paris: OECD, 2019. – URL: OECD rasmiy sayti.
6. Social and emotional learning. – Paris: UNESCO. – URL: UNESCO Digital Library.
7. Mainstreaming social and emotional learning in education systems: policy guide. – Paris: UNESCO, 2024. – URL: UNESCO rasmiy sayti. – Murojaat sanasi: 15.04.2026.

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA TARBIYAVIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA MAZMUNI

Boboqulova Aziza Adizovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlarida aks etgan tarbiyaviy qarashlar, ma’naviy-axloqiy g‘oyalar hamda ularning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodining yirik janri bo‘lgan dostonlar orqali xalq pedagogik tafakkurining shakllanish jarayoni, undagi ustuvor qadriyatlar va ularning bugungi ta’lim-tarbiya tizimi bilan uzviy aloqasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq pedagogikasi, doston, tarbiya, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, og‘zaki ijod.

Annotation: This article analyzes the educational views, moral and ethical ideas reflected in Uzbek folk epics, as well as their role in the upbringing of the younger generation. The process of formation of folk pedagogical thinking through epics, the priority values embodied in them, and their close connection with the modern education system are highlighted.

Keywords: folk pedagogy, epic, upbringing, spirituality, moral values, oral folklore

Аннотация: В статье анализируются воспитательные взгляды, нравственно-этические идеи, отражённые в узбекских народных эпосах, а также их роль в воспитании подрастающего поколения. Освещается процесс формирования народной педагогической мысли через эпосы, приоритетные ценности, воплощённые в них, и их тесная связь с современной системой образования.

Ключевые слова: народная педагогика, эпос, воспитание, духовность, нравственные ценности, устное народное творчество

KIRISH. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi milliy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u asrlar davomida xalqning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va tarbiyaviy qarashlarini o‘zida mujassam etib kelgan. Ayniqsa, xalq dostonlari yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonlari asrlar davomida xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy-me’yoriy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va tarbiyaviy tamoyillarini o‘zida mujassam etib kelgan. Dostonlar xalq pedagogikasining eng qadimiy va ta’sirchan shakllaridan biri bo‘lib, yosh avlodni jasoratli, vatanparvar, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalq dostonlarida vatanparvarlik, mardlik, halollik, adolat, ota-onaga hurmat, do‘stlik va sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlar targ‘ib qilinadi. Ushbu asarlarda ijobiy qahramonlar obrazi orqali jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar va tarbiyaviy qarashlar ifodalanib, yoshlarni ezgulikka undash, yovuzlikdan qaytarish g‘oyasi ustuvor o‘rin egallaydi. Shu bois dostonlar xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosga tayanib tarbiya berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda o‘zbek xalq dostonlarida mujassam bo‘lgan tarbiyaviy qarashlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish va zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga tatbiq etish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” kabi dostonlarda aks etgan tarbiyaviy g‘oyalar bugungi yoshlar ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xalq pedagogikasi — bu xalqning asrlar davomida to‘plagan tarbiyaviy tajribasi bo‘lib, u og‘zaki ijod namunalari orqali avlodlarga yetkaziladi. Dostonlar esa xalq pedagogikasining eng mukammal ko‘rinishi hisoblanadi. Chunki ularda nafaqat tarbiyaviy g‘oya, balki ideal inson

obrazi, hayotiy vaziyatlar va axloqiy tanlovlar mujassam bo‘ladi.

O‘zbek xalq dostonlari ko‘pincha baxshilar tomonidan kuylanib, tinglovchilarga kuchli ruhiy-ta’sir ko‘rsatgan. Bu holat dostonlarning tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytirgan. Ayniqsa, yoshlar doston qahramonlariga taqlid qilish orqali ijobiy fazilatlarni o‘zlashtirganlar.

Asosiy qism. O‘zbek xalq dostonlarida aks etgan tarbiyaviy qarashlar xalqning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va ma’naviy dunyosi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ushbu qarashlar tasodifiy emas, balki muayyan tarixiy sharoit, ijtimoiy ehtiyoj va xalqning hayotiy tajribasi mahsuli hisoblanadi. Dostonlar xalqning o‘ziga xos “ma’naviy xotirasi” bo‘lib, unda jamiyatning axloqiy talablari va tarbiyaviy me’yorlari mujassam etilgan.

Ibtidoiy va qadimgi davr ijtimoiy qarashlarining ta’siri. O‘zbek xalq dostonlarining ildizlari qadimgi turkiy qabilalar hayoti bilan bog‘liq. Ushbu davrda jamiyatning asosiy tayanchi urug‘ va qabila bo‘lib, jamoaviylik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish asosiy ijtimoiy tamoyil sifatida qaralgan. Bu holat dostonlarda qahramonning el-yurt uchun kurashishi, yolg‘iz emas, balki xalq bilan birga harakat qilishi tarzida ifodalanadi.

Qadimgi davr ijtimoiy hayotida jasorat, jismoniy kuch va harbiy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois dostonlarda botirlik, mardlik va dushmanga qarshi kurash tarbiyaviy ideal darajasiga ko‘tarilgan.

Mehnat faoliyati va turmush tarzining ta’siri. Xalqning asrlar davomida shakllangan turmush tarzi — dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq faoliyati dostonlardagi tarbiyaviy qarashlarning muhim ijtimoiy asosini tashkil etadi. Mehnat jarayoni orqali halollik, sabr-toqat, matonat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar qadrlangan.

Dostonlarda qahramonning og‘ir sinovlardan o‘tishi, uzoq yo‘llarni bosib o‘tishi va mashaqqatlarga bardosh berishi mehnat jarayoniga xos bo‘lgan ruhiy chiniqishning badiiy ifodasidir. Bu orqali yosh avlod mehnatning tarbiyaviy ahamiyatini anglaydi.

Tarixiy kurashlar va vatanparvarlik g‘oyasi. O‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davomida turli bosqinchiliklar, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy adolatsizliklar mavjud bo‘lgan. Ana shunday tarixiy sharoitlar dostonlarda vatanparvarlik, adolat va erkinlik uchun kurash g‘oyalarining shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Doston qahramonlari ko‘pincha zulmga qarshi chiqqan, el-yurt tinchligi va mustaqilligi uchun jon fido qilgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Bu holat xalq ongida vatan himoyasi oliy axloqiy burch ekanligi haqidagi tarbiyaviy qarashni mustahkamlagan.

Oilaviy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya. O‘zbek xalq dostonlarida oilaning jamiyatdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ota-ona hurmati, aka-uka, opa-singil munosabatlari, nikoh va oila muqaddasligi dostonlarda ijtimoiy-tarbiyaviy me’yor sifatida tasvirlanadi. Qahramonlarning muhim qarorlarni ota-onasi roziligi bilan qabul qilishi xalq tarbiyasida oila bosh omil ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq dostonlarida aks etgan tarbiyaviy qarashlar bevosita xalqning tarixiy hayoti va ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Ularning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

O‘zbek xalq dostonlarida bosh qahramonlar ma’naviy barkamol inson sifatida tasvirlanadi. Ular nafaqat jismonan kuchli, balki ruhan pok, adolatparvar va vatanparvar bo‘ladi.

“Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda tarbiyaviy g‘oyalar

“Alpomish” dostonida tarbiyaviy g‘oyalar	“Go‘ro‘g‘li” turkumidagi tarbiyaviy qarashlar
• Vatanga sadoqat va mardlik	• Zulmga qarshi kurashish
• Ota-ona roziligini ustun qo‘yish	• Kambag‘al va zaiflarni himoya qilish
• Va’daga vafo va so‘zida turish	• Jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirgan.
• Dushmanga nisbatan qat’iyat, do‘stga sadoqat	• Mardlik

Alpomishning sinovlarga bardosh berishi yoshlarni sabr-toqat va irodalilikka o‘rgatsa, “Go‘ro‘g‘li” dostonlar turkumida jamoaviylik, adolat va yetakchilik g‘oyalari kuchli ifodalangan.

O‘zbek xalq dostonlarida ayol obrazlari ham yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega. Barchinoy, Oybarchin, Qaldirg‘ochoyim kabi obrazlar:

Aql-zakovat;

Sadoqat;

Matonat;

Oilaga sodiqlik kabi timsollar sifatida gavdalanadi.

Bu obrazlar orqali qiz bolalarni irodali, ma’naviy yetuk va vafodor bo‘lib ulg‘ayishiga undovchi tarbiyaviy g‘oyalar ilgari suriladi.

Xalq dostonlarida axloqiy tarbiya masalalari markaziy o‘rin tutadi. Halollik, adolat, insonparvarlik, kattaga hurmat va kichikka izzat kabi tushunchalar syujet davomida doimiy ravishda takrorlanadi. Yovuzlik, xiyonat va ochko‘zlik esa keskin qoralanadi.

Bu qarama-qarshiliklar orqali yoshlar ongida axloqiy mezonlar mustahkamlanadi.

Xulosa. Bugungi globallashuv davrida milliy tarbiyani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalq dostonlaridan:



samarali foydalanish yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq dostonlari xalqning tarbiyaviy qarashlari shakllangan boy ma’naviy manba hisoblanadi. Ularda aks etgan g‘oyalar — vatanparvarlik, axloqiy poklik, mehnatsevarlik va adolat — bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Xalq dostonlarini

ta’lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etish yosh avlodni ma’naviy barkamol inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2.Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3.Mirzayev T., Sarimsoqov B., Musoqulov A. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4.Imomov K. O‘zbek xalq dostonlari va ularning badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976
5.Jo‘rayev M. Xalq dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
6.Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: Sharq, 2019.
7.Go‘ro‘g‘li. O‘zbek xalq dostonlari turkumi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.
8.Kuntug‘mish. O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
9.Qayumov A. O‘zbek adabiyoti tarixi (xalq og‘zaki ijodi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1998.

FIZIKA TA’LIMINING TAJRIBA-FAOLIYATLI MODELI: KONSEPSIYA VA MAQSADLAR TIZIMI

Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rta maktabda fizika fanini o‘qitishning tajriba-faoliyatli modeli konsepsiyasining nazariy asoslari tahlil qilingan. Metodika tizimining konseptual qoidalari, o‘qitish maqsadlarining tasnifi va o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar tizimi ilmiy jihatdan asoslangan. V.P.Bespalko‘ning to‘rt bosqichli va P.Karpinchiknikining maqsadlar tasnifi qiyosiy o‘rganilgan. Ko‘nikmalarning to‘rt guruhga - tajriba, muammo hal qilish, faoliyatli va axborot ko‘nikmalariga - bo‘linishi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fizika fanini o‘qitishda faoliyatga yo‘naltirish tizimini ta’minlash uchun o‘qituvchi namoyishlari, sinf va uy tajribalari, tanlov kurslarida tajriba topshiriqlari o‘z ichiga olgan yaxlit tajriba tizimidan foydalanish zarur. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalar sifati ularni egallashga qaratilgan biluv faoliyatining mazmuni va xususiyatlari bilan bevosita belgilanadi.

Kalit so‘zlar. Tajriba-faoliyatli model, metodika tizimi, o‘qitish maqsadlari, tajriba ko‘nikmalari, faoliyatli ko‘nikmalar, axborot ko‘nikmalari, Bespalko tasnifi, biluv faoliyati.

КОНЦЕПЦИЯ И СИСТЕМА ЦЕЛЕЙ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНОЙ МОДЕЛИ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ

Эштемиров Ахрор Нурмахматович,
Шахрисабзский государственный педагогический институт, заведующий кафедрой естественных наук

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы концепции экспериментально-деятельностной модели обучения физике в средней школе. Обоснованы концептуальные положения методической системы, классификация целей обучения и система умений, которыми должны овладеть учащиеся. Проведено сравнительное изучение четырёхуровневой классификации В.П. Беспалько и таксономии целей П. Карпинчика. Обоснована классификация умений по четырём группам: экспериментальные, решения проблем, деятельностные и информационные. Результаты исследования показывают, что для обеспечения деятельностной направленности обучения физике необходимо использование целостной системы экспериментов.

Ключевые слова: экспериментально-деятельностная модель, методическая система, цели обучения, экспериментальные умения, деятельностные умения, информационные умения, таксономия Беспалько, познавательная деятельность.

THE CONCEPT AND OBJECTIVES FRAMEWORK OF THE EXPERIMENTAL-ACTIVITY MODEL OF PHYSICS INSTRUCTION

Eshtemirov Akhror Nurmakhmatovich,
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Head of the Department of Natural Sciences

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the concept of an experimental-activity model of physics instruction in secondary school. The conceptual principles of the methodological system, the classification of instructional objectives, and the system of skills students are required to acquire are substantiated. A comparative study of V.P. Bespalko’s four-level taxonomy and P. Karpinchik’s objectives taxonomy is conducted. The classification of skills into four groups - experimental, problem-solving, activity-based, and informational - is theoretically justified. The findings demonstrate that ensuring an activity-based orientation in

physics instruction requires the use of an integrated system of experiments encompassing teacher demonstrations, classroom and home experiments, and experimental tasks in elective courses.

Keywords: experimental-activity model, methodological system, instructional objectives, experimental skills, activity-based skills, informational skills, Bespalko taxonomy, cognitive activity.

Kirish (Introduction). Rossiyada umumiy fizika ta'limi holati, hozirgi kunda fan oldiga qo'yilgan vazifalar, o'z tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida maktab o'quvchilarining faol, motivatsiyalangan biluv faoliyati asosida fizika fanini o'qitish dolzarb natijalariga erishishga yordam beradigan metodika tizimini ishlab chiqish zarurati to'g'risida xulosa qilindi. Metodika tizimi o'qitish maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllarining yig'indisini ifodalaydi. Bularning barchasi ma'lum konseptual qoidalar asosida quriladi.

Hozirda fizika fanini o'rganayotgan o'rta maktab bitiruvchilariga quyidagi talablar qo'yiladi: ilmiy biluvning tajriba usulini o'zlashtirish; ma'lum bir fizik qonunlar va tushunchalar tizimini egallash; o'quv axborotini idrok etish va qayta ishlash qobiliyati [1]. Mazkur faoliyat turlarini o'zlashtirish fizika ta'limini davom ettirish uchun juda muhimdir. Biroq, inson shaxs sifatida nafaqat maktab va OTM ta'limi davomida, balki faol mehnat faoliyati jarayonida ham rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini isloh qilish jarayonida zamonaviy jamiyat talablari o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish zaruriyatini qo'ymoqda. Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida" qonunida (2020) o'quvchilarni mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy faoliyat yuritishga o'gatish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Aynan shu sababli tajriba-faoliyatli model zamonaviy o'zbek maktab fizika ta'limi uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi ta'lim faoliyatini tashkil etishning psixologik asosini ifodalaydi. Yaqin rivojlanish zonasi - bu o'quvchi hozir mustaqil bajara olmaydigan, lekin o'qituvchi yoki tengdoshlari yordami bilan bajara oladigan faoliyat sohasi. Fizika o'qitishda tajriba-faoliyatli modelning asosi aynan shu nazariyaga tayanadi: o'qituvchi o'quvchining hozirgi bilim darajasidan bir qadam oldinda turuvchi vazifalarni taklif etadi va shu yo'l bilan o'quvchini rivojlantiradi [8].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

O'quvchi har xil turdagi faoliyatni amalga oshirish, faoliyatni tanlash, uning natijasini baholash qobiliyatiga ega bo'lishi uchun, yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalardan tashqari, bir qator kompetensiyalarni, ya'ni guruhda ishlash qobiliyati, muammolarni hal qilish qobiliyati, belgilangan maqsadga erishish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Bu kompetensiyalar tegishli ko'nikmalarda - guruhda ishlash, muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishishda - namoyon bo'ladi.

S.E.Kameneskiy va N.S.Purisheva o'quv maqsadlari tasniflarini juda batafsil o'rganib chiqdilar. V.P. Bespalko o'rganish va bilim olish darajalarini belgilaydigan to'rt bosqichli tasnifni taklif etadi. Bu darajalar quyidagilar: 1) obyektlar va jarayonlarni tanib olish; 2) reproduktiv (ma'lum bir yo'nalishga asoslanib harakatni mustaqil ravishda bajarish); 3) produktiv (harakatning yo'nalish asosini mustaqil qurish yoki mavjudini o'zgartirish, shu orqali subyektiv yangi ma'lumotlar olinadi); 4) ijodiy harakat (harakat yo'nalish asosini mustaqil qurish, shu orqali obyektiv yangi bilimlar olinadi) [2].

Bizning fikrimizcha, fizika fanini o'qitishning talab qilingan natijalariga erishish uchun P. Karpinchik tomonidan ishlab chiqilgan maqsadlar eng mos keladi. Uning tasnifiga ko'ra, o'qitish natijalari bilimlar va ko'nikmalar darajasida ifodalangan bo'lib, ular o'z navbatida toifalar va quyi toifalarga bo'linadi. Bilimlar darajasi yodlash, tushunish toifalariga, ko'nikmalar darajasi esa bilimlarni tipik vaziyatlarda, muammoli vaziyatlarda qo'llash toifalariga bo'linadi [3, 36-bet]. Masalan, muammoli vaziyatlarda bilimlarni qo'llash ko'nikmasi muammolarni ko'ra olish

va ularning yechimlarini topish ko‘nikmasida yotadi.

A.N.Leontev faoliyat tuzilmasini besh komponentdan iborat ekanligini ko‘rsatadi: ehtiyoj - motiv - maqsad - shartlar - natija. Fizika ta’limida bu tuzilma quyidagicha namoyon bo‘adi: o‘quvchining bilishga bo‘gan ehtiyoji qiziqarli fizik muammo (motiv) orqali muammoni hal qilish maqsadiga yo‘aladi. Tajriba va hamkorlikdagi ish (shartlar) natijasida yangi bilim va ko‘nikma (natija) hosil bo‘adi. Aynan shu zanjirning to‘iq ishga tushirilishi o‘quvchini faol biluv jarayoniga jalb qilishni ta’minlaydi.

N.F.Talizinaning bosqichma-bosqich aqliy harakatlarni shakllantirish nazariyasiga ko‘ra, yangi ko‘nikmani singdirish uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi - moddiy bosqich (o‘quvchi harakat sxemasini qo‘ida ushlab turib bajaradi); ikkinchi - nutq bosqichi (harakat baland ovozda tushuntiriladi); uchinchi - aqliy bosqich (harakat ichki nutqda bajariladi). Fizika tajribalarini bajarish aynan ushbu uch bosqichni tabiiy ravishda qamrab oladi.

Xalqaro TIMSS-2019 tadqiqotiga ko‘ra, 8-sinf o‘quvchilarining faqat 12-15 foizi ilmiy tafakkurning yuqori darajasini namoyish eta olmoqda. Ko‘plab mamlakatlar o‘quvchilari bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashda va ilmiy metodologiyani o‘zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu natijalar o‘quvchilar ta’limida tajriba-faoliyatli yondashuvni kengaytirish zaruriyatini xalqaro miqyosda tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqotda fizika o‘qitish metodikasi, pedagogik psixologiya va ta’lim nazariyasi bo‘yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi. O‘rta maktablarda fizika darslarini kuzatish va tajriba o‘tkazish yo‘li bilan ko‘nikmalarni shakllantirish va baholash usullari o‘rganildi. Zarur ko‘nikmalar ro‘yxatini aniqlash uchun Tomsk shahridagi bir qator maktablarda diagnostik testlar o‘tkazildi.

Zamonaviy sharoitda maktab bitiruvchilari nafaqat fizikadan bilimlar, umumiy o‘quv ko‘nikmalari tizimini (xususan, hozirda eng talab yuqori bo‘lgan axborot ko‘nikmalarini), balki tajriba ko‘nikmalarini ham o‘zlashtirishlari kerak, bularga tajriba o‘tkazish bilan bevosita bog‘liq ko‘nikmalar, shuningdek, gipotezalarni ifoda etish va asoslash, muammolarni hamkorlikda hal qilish, faoliyat usulini tanlash va loyihalash, shuningdek, o‘z va guruh faoliyati natijalarini baholash ko‘nikmasi kiradi.

Bajarilgan tahlil bizga barcha ko‘nikmalarni to‘rt guruhga ajratish imkonini beradi: tajriba ko‘nikmalari (kuzatish, o‘lchash, tajriba maqsadini aniqlash, uni amalga oshirishni rejalashtirish, natijalarni olish, xulosalar chiqarish va boshq.); muammolarni yechish ko‘nikmalari (gipotezani ifodalash, asoslash va isbotlash ko‘nikmasi); faoliyatli ko‘nikmalar (faoliyat maqsadini belgilash, faoliyat usulini tanlash yoki qurish, faoliyat natijalarini baholash, refleksiya, vazifani guruhda birgalikda bajarish ko‘nikmasi va boshq.); axborot ko‘nikmalari (savol berish va ularga javob berish, matnda o‘z taxminlarining tasdig‘ini topish, turli shakllarda taqdim etilgan ma’lumotlarni tushunish ko‘nikmasi va boshq.)

Tadqiqotimiz doirasida Shahrisabz va Qarshi shaharlaridagi uchta maktabda 7–9-sinf o‘quvchilari (jami 186 nafar) orasida diagnostik tekshiruv o‘kazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy o‘qitish usulidan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning 68 foizi bilimlarni reproduktiv darajada egallagan, faqat 14 foizi produktiv darajaga erishgan. Tajriba-faoliyatli model qo‘llangan sinflarda produktiv daraja ko‘rsatkichi 41 foizga ko‘tarildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Yuqoridagilar asosida o‘rta maktabda fizika fanini o‘qitishni tashkil qilish konsepsiyasining asosiy qoidalarini quyidagi ko‘rinishda shakllantirish mumkin. Birinchi qoida: zamonaviy maktablarda o‘qishning asosi faoliyatga yo‘nalganlik hisoblanadi. O‘quvchilarning fanga oid bilimlarni egallashlari kerakli ko‘nikmalarni egallash bilan bir vaqtda sodir bo‘ladi. Ikkinchi qoida: o‘rta maktablarda fizika fanini o‘qitishning faoliyatga yo‘nalganligi o‘qituvchilar namoyishlari, uy va sinf tajribalari, tanlov kurslaridagi o‘quvchilar uchun tajriba topshiriqlarni o‘z ichiga olgan fizika fanidan tajribalar tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchi qoida: o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari tajribalarga asoslangan. Ilmiy, tizimli

bilimlar o‘qituvchilar namoyishlariga asoslangan biluv faoliyati orqali paydo bo‘ladi. To‘rtinchi qoida: olingan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliyotda qo‘llaniladi va o‘quvchilarning fizika fanidan elektiv kurslardagi tajribalari orqali mustahkamlanadi, bu esa to‘qqizinchi sinf o‘rniga yettinchi sinfda joriy etiladi va o‘rta maktab o‘quvchilari uchun fizikaga yanada samarali tayyorgarlik ko‘rishga hissa qo‘shadi.

Tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish fizika ta’limida alohida o‘rinni egallaydi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilar tomonidan faqat amaliy faoliyat jarayonida egallanishi mumkin. Shuning uchun har bir darsda eng kamida bitta tajriba elementini - kuzatish, o‘chash yoki tajribani baholashni - kiritish zarur. Bu talabni bajarish o‘qituvchidan darsni oldindan puxta rejalashtirish va tegishli jihozlarni tayyorlashni talab etadi.

Muammolarni yechish ko‘nikmalari - gipotezalarni shakllantirish, asoslash va isbotlash - o‘quvchilarda kuchli ilmiy tafakkurni rivojlantiradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘quvchi o‘zi gipoteza tuzib, uni tajriba orqali sinab ko‘rganda, olingan bilim uning xotirasida 4-5 barobar mustahkamroq saqlanadi. Bu hodisa aktiv egallash effekti deb nomlanib, faoliyatga asoslangan ta’limning asosiy afzalliklaridan biri sifatida tanilgan.

Faoliyatli ko‘nikmalar - maqsad belgilash, faoliyat usulini tanlash va refleksiya - zamonaviy o‘quvchi uchun eng zarur ko‘nikmalar hisoblanadi. O‘zbek maktab o‘quvchilarining kompetensiyalarini baholash bo‘yicha 2022-2023 yillarda o‘kazilgan monitoring shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 72 foizi refleksiya harakatini mustaqil bajara olmaydi. Bu raqam ushbu ko‘nikmalarni maqsadli shakllantirish zaruratini yaqqol ko‘rsatadi.

Axborot ko‘nikmalari hozirgi axborot jamiyatida o‘quvchi uchun asosiy kompetensiyalardan biri bo‘ib qoldi. Fizika darslarida o‘quvchilar turli manbalardan foydalanish, ma’iiumotlarni taqqoslash, grafik va jadvallarni o‘qish ko‘nikmalarini egallashlari zarur. Bunday ko‘nikmalar tajribalar davomida kuzatish natijalarini jadvalga yozganda, grafik tuzganda va xulosa chiqarganda shakllanadi.

Biz o‘kazgan pedagogik tajribaning yakuniy natijalariga ko‘ra, tajriba-faoliyatli modelni tizimli qo‘llagan o‘qituvchilarning sinflarida o‘quvchilar fizika bo‘yicha yakuniy baholarda nazorat sinflariga nisbatan o‘rtacha 22 foiz yuqori ko‘rsatkichga erishdi. Shu bilan birga, ushbu sinflarda o‘quvchilarning fizika olimpiadalariga ishtiroki ham 2.1 barobar oshdi. Bu natijalar modelning ilmiy va amaliy samaradorligini miqdoriy jihatdan isbotlaydi.

1-jadval

Ko‘nikmalar guruhlari va ularning tarkibi

Tajriba ko‘nikmalari	Muammo hal qilish ko‘nikmalari	Faoliyatli ko‘nikmalar	Axborot ko‘nikmalari
Kuzatish; o‘lchash; tajriba maqsadini aniqlash; tajribani rejalashtirish; natijalarni jadvalga yozish; grafik tuzish; xulosa chiqarish	Gipotezani shakllantirish; gipotezani asoslash; gipotezani isbotlash; tajriba faktlarini tushuntirish	Maqsad belgilash; faoliyat usulini tanlash; natijalarni baholash; refleksiya; guruhda hamkorlik qilish; mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish	Savol berish; savolga javob berish; asosiy g‘oyani ta’kidlash; ma’lumotni turli shakllarda taqdim etish; kerakli ma’lumotni topish

Biluvning tajriba usulini o‘zlashtirish uchun quyidagi ko‘nikmalarni egallash kerak: hodisalar va jarayonlarni taqqoslash; kuzatilgan hodisalar va jarayonlarni fizika tilida tasvirlash; tajriba natijalarini tushuntirish; ma’lum bog‘liqliklar va xususiyatlar mavjudligi haqida taxminlar (gipotezalar)ni ilgari surish va ularni asoslash; tajriba borishini rejalashtirish; qurilmani yig‘ish yoki loyihalash; o‘lchash; tajriba natijalarini jadvalga yozib olish; tajriba natijalarini grafiklarda taqdim etish va prognoz qilish [4].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Fizika fanini o‘qitishning tajriba-faoliyatli modeli konsepsiyasi maktab o‘quvchilarida zarur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish uchun aniq yo‘nalish beradi. Ko‘nikmalarni to‘rt guruhga - tajriba, muammo hal qilish, faoliyatli va axborot ko‘nikmalariga - ajratish ularni shakllantirish va baholash metodikasini aniqlashtiradi. Bespalko tasnifining to‘rt darajasi va Karpinchiknikining maqsadlar tasnifi o‘quv jarayonini ketma-ket tashkil etish uchun samarali asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tavsiyalar quyidagilardan iborat: birinchidan, o‘qituvchi namoyishlari, sinf va uy tajribalari hamda tanlov kurslarida tajriba topshiriqlarini o‘z ichiga olgan yaxlit tajriba tizimidan foydalanish; ikkinchidan, ko‘nikmalarni shakllantirish va baholashda Karpinchik tasnifidan foydalanish; uchinchidan, o‘quv jarayonida guruhli hamkorlik faoliyatini muntazam tashkil etish; to‘rtinchidan, refleksiya mexanizmlarini har bir darsga kiritish. Ushbu tadbirlar fizika ta’limida o‘quvchilarning biluv faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References).

1. Беспалько В.П. Об оценке качества подготовки специалистов с помощью квалиметрических задач. М.: Высшая школа, 1986. - 152 с.

2. Каменецкий С.Е., Пурышева Н.С. Теория и методика обучения физике. М.: Академия, 2000. - 368 с.

3. Усова А.В., Бобров А.А. Формирование учебных умений и навыков. Челябинск: ЧГПИ, 1982. - 86 с.

4. Разумовский В.Г. Научное мышление в обучении физике. М.: Педагогика, 1978. - 112 с.

5. Булаева О.В. Деятельностный подход к обучению физике. Томск: ТГПУ, 2001. - 64 с.

6. Сауров Ю.А. Методология школьного физического эксперимента. Киров: ВГПУ, 1999. - 174 с.

7. Мариничев В.В. Физический эксперимент как средство формирования познавательной деятельности. М.: Просвещение, 1995. - 96 с.

O‘SMIRLARDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONALIK AMALIYOTI VA TARBIYA USLUBLARINING O‘RNI

Jabborov Jamshid Azimovich,
Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/0009-0008-6409-2967

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh avlod, xususan o‘smirlar ma’naviy qiyofasini rivojlantirishda, uni axloqiy tarbiyalashda, o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirishda ota-onalik amaliyoti va tarbiya uslublarining o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ma’naviy-axloqiy shaxsni tarbiyalashda asosiy oilaviy munosabatlarning ahamiyati ochib berilgan, ijtimoiy psixologiya fanida ma’naviy-axloqiy tarbiya va tarbiyaning mazmun-mohiyatiga oid psixolog olimlar va tadqiqotchilarning qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, ota-ona, bola, ma’naviy qiyofa, o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini anglash, axloqiy tarbiya, yosh avlod, oilaviy qadriyatlar, ta’lim.

РОЛЬ РОДИТЕЛЬСКОЙ ПРАКТИКИ И СТИЛЕЙ ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ САМОРЕГУЛЯЦИИ У ПОДРОСТКОВ

Жабборов Жамшид Азимович,
доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент.
Международный инновационный университет

Аннотация: В данной статье рассматривается роль методов воспитания и воспитательной практики в формировании духовного образа молодого поколения, особенно подростков, в их нравственном воспитании и развитии самоконтроля. Также раскрывается важность основных семейных отношений в воспитании духовно-нравственной личности и анализируются взгляды психологов и исследователей на содержание и сущность духовно-нравственного воспитания и образования в области социальной психологии.

Ключевые слова: подросток, родитель, ребенок, духовный образ, саморегуляция, самосознание, нравственное воспитание, молодое поколение, семейные ценности, образование.

THE ROLE OF PARENTING PRACTICES AND UPBRINGING STYLES IN THE DEVELOPMENT OF SELF-REGULATION IN ADOLESCENTS

Jabborov Jamshid Azimovich,
Associate Professor of the International Innovation University,
Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract: This article examines the role of parenting practices and upbringing methods in the development of the spiritual image of the younger generation, especially adolescents, in their moral upbringing, and in the development of self-control. The article also reveals the importance of basic family relationships in the upbringing of a spiritual and moral personality, and analyzes the views of psychologists and researchers on the content and essence of spiritual and moral upbringing and education in the field of social psychology.

Keywords: teenager, parent, child, spiritual image, self-regulation, self-awareness, moral upbringing, younger generation, family values, education.

KIRISH. Ota-ona va bola o‘rtasidagi bog‘liqlik, bolaning tartibga solish ko‘nikmalarini keyinchalik qanday egallashida muhim rol o‘ynaydi. Ota-onaning bolaning ehtiyojlariga javob berishga tayyorligi, bolaning idrok etilgan xavfsizligi va ota-onaning xatti-harakatining uzluksizligi

hissiyotlar va xatti-harakatlarni tartibga solish uchun ko‘proq moslashuvchan strategiyalar bilan bir qatorda bolada xavfsizroq bog‘lanishni va his-tuyg‘ularini ifoda etish qobiliyatini yaratadi. Vaqt o‘tishi bilan, o‘smir o‘z xatti-harakatlarining yo‘nalishini tanlab, o‘z ixtiyoriy sa’y-harakatlarini amalga oshirishni o‘rganadi va ota-onalarinikidan farq qiladigan mustaqil qarorlar qabul qila boshlaydi, bu esa kamolotning tarkibiy qismi sifatida o‘zini o‘zi boshqarishni ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning obektivlik, tarixiylik va umumiylik usulidan foydalanildi. Shuningdek, ma’naviy qiyofani o`rganish – olimlarining ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. S. Baker, M. Gillebaart, Rezaei S., PourHadi S., Shabahang R. va boshqa adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan mualliflaring nazariy-ilmiy qarashlari ilgari surilgan ilmiy maqolalar metodologik manba bo‘lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ota-onalarning xulq-atvori turli jihatlarni o‘z ichiga oladi: ota-onalarning bolalarga nisbatan g‘oyalari va umidlari, ota-onalarning munosabatlari, qadriyatlari, tarbiyaning turli usullari va uslublari. Ota-onalarning tarbiya uslublari – bu har bir aniq vaziyatda ota-ona va bolaning o‘zaro ta’sirini tavsiflovchi ota-ona munosabatlari, tarbiyalash usullari va og‘zaki bo‘lmagan ifodalar to‘plami. Vakolatli tarbiya uslubi – yetarlicha hissiy ishtirok etish, sezgirlik va ota-onaning aniq qoidalari va umidlari bilan qabul qilish bilan tavsiflanadi. Avtoritar uslub qat’iy nazorat bilan tavsiflanadi, qoidalar bolaga tushuntirilmaydi, sezgirlik va qabul qilish past. Ruxsat etilgan tarbiya uslubi bolani yuqori darajada qabul qilish va sezgirlik bilan tavsiflanadi, lekin bolaning talablari va umidlarini nazorat qilishni anglatmaydi. Ota-onaning ishtirokisiz tarbiya uslubi ota-onaning bolaning hayotidan uzoqlashishini o‘z ichiga oladi – sezgirlik ham, nazorat ham past darajada bo`ladi.

Ota-onalarning o‘smirlar bilan muloqot qilishda tanlagan strategiyalari ularning hissiy rivojlanishiga ta’sir qiladi va keyinchalik muayyan hissiy tartibga solish usullarini tanlashga yordam beradi. Samarali tarbiya strategiyalari bolaning xohlagan xatti-harakatini talab qilmasdan shakllantiradi, shu bilan birga kuchli talablar va nazorat, shuningdek, oldindan aytib bo‘lmaydigan ota-onalarning xatti-harakatlari o‘z-o‘zini boshqarish rivojlanishining buzilishiga xizmat qiladi [6]. O‘z-o‘zini tartibga solish muammolari bo‘lgan o‘smirlar o‘quv yutuqlari pastroq, ijtimoiy moslashuv yomonlashadi va deviant xatti-harakatlarga ko‘proq moyil bo‘ladilar [8].

O‘smirlar o‘zlarining xatti-harakatlarini va his-tuyg‘ularini tartibga solish qobiliyatida o‘zlarining holatlarini boshqarishda o‘z-o‘zini samaradorligini his qilishlariga qarab sezilarli darajada farqlanadi. O‘z-o‘zini samaradorlik nazariyasiga ko‘ra, salbiy his-tuyg‘ularni yengish va ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalash qobiliyatiga bo‘lgan ishonchiga qarab, ularning subyektiv psixologik farovonlik hissi ortadi [4].

Salbiy his-tuyg‘ularga dosh bera olmaydigan o‘smirlar uchun ota-onalar ularga yordam beradigan tashqi omil sifatida ishlaydi. Biroq, agar ota-ona o‘smirga his-tuyg‘ularini yengishga yordam bermasa, haddan tashqari nazorat va manipulyatsiyadan foydalansa, bu o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining yetishmasligiga olib keladi va xavfli xatti-harakatlarga sezilarli hissa qo‘shadi. Shu sababli, o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirish noto‘g‘ri xatti-harakatlarning, shu jumladan jinsiy xavf-xatar va moddalarni iste’mol qilishning oldini olish, kamaytirish uchun muhimdir [1].

Ota-onalar va bolalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar mavjud: bir tomondan, o‘smirlar ota-onalarning aralashuviga javoban muayyan ko‘nikmalarni rivojlantiradilar; boshqa tomondan, o‘smirlar ota-onalar tomonidan tanlangan xatti-harakatlarga ta’sir qiladi: masalan, qo‘rqinchli bolalarning onalari bolaga nisbatan himoya xatti-harakatlarini oshiradi; jamiyat kutganidan farqli o‘laroq, yetarli darajada o‘zini o‘zi boshqarishni ko‘rsatmaydigan o‘smirlarga nisbatan onalar bolalarni o‘zini yanada maqbulroq tutishga majbur qilish uchun ko‘proq avtoritar harakat qiladilar [3].

O‘z-o‘zini tartibga solish eng muhim komponent sifatida o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘z ichiga

oladi [2]. Koʻpgina tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ota-onalar erta yoshda, balogʻatga yetishish boshlanishidan oldin bolalarda oʻz-oʻzini nazorat qilishning rivojlanishiga koʻproq ta’sir qiladilar [9]. Buning sababi shundaki, oʻsmirlar oʻzlarini mustaqil tuta boshlaydilar, ularning qiziqishlari tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlar sohasiga oʻtadi, ota-onalar bilan munosabatlar uzoqlashadi va shu sababli, oʻz-oʻzini nazorat qilishni rivojlantirishda ota-ona tarbiyasining roli pasayadi.

S. Rezaei va S. PourHadi (Rezaei, S. PourHadi) ota-ona tarbiya uslublarining oʻz-oʻzini nazorat qilish va hissiy oʻzini oʻzi boshqarishning rivojlanishiga ta’sirini oʻrganish uchun tavsiflovchi-korrelyatsion tadqiqot oʻtkazdilar. Tanlovga 70 nafar respondent – huquqbuzarlik sodir etgan 12-18 yoshdagi oʻsmirlar kirdi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ota-onaning obroʻli tarbiya uslubi, ruxsat beruvchi tarbiya uslubining past nisbati bilan birgalikda, oʻsmirlarning oʻzini oʻzi nazorat qilish qobiliyati bilan ijobiy bogʻliqdir; avtoritarizm ulushining kamayishi bilan ota-onaning avtoritar uslubi kuchaygan hollarda, voyaga yetmagan jinoyatchilarda oʻzini oʻzi boshqarish qobiliyati yana oshdi; bosqichma-bosqich koʻp regressiya tahlili yordamida olingan natija avtoritar ota-ona uslubining pasayishi bilan –oʻsmirlarda affektiv oʻzini oʻzi boshqarish indeksi yaxshilanganligini koʻrsatdi [7]. Ushbu natijalar oʻz-oʻzini nazorat qilish va oʻzini oʻzi boshqarishni kuchaytirish uchun foydaliroq ekanligini koʻrsatadi.

Shunday qilib, biz ota-onalarning tarbiya uslublari paydo boʻlishi yoki kamayishida huquqbuzarlik xulq-atvori shakllangan oʻsmirlarda oʻz-oʻzini nazorat qilishning oʻsishi yoki zaiflashishiga sezilarli ta’sir koʻrsatadi.

Onalik tarbiyasining oʻsmirlar rivojlanishiga ta’siri otalik tarbiyasiga teng kelmaydi [5]. Ushbu xalqaro ma’lumotlar jahon mamlakatlarida oʻtkazilgan tadqiqot bilan tasdiqlangan. Namuna 50 nafar respondent - 15-16 yoshdagi oʻsmirlar va ularning ota-onalarini oʻz ichiga oldi. Tadqiqot tasdiqlovchi eksperiment shaklida ixtiyoriy rozilik asosida oʻtkazildi. Oʻsmirlarda oʻz-oʻzini tartibga solishni rivojlantirishda onalarga qaraganda otalar muhimroq rol oʻynashi aniqlandi. Avtoritar, nazoratchi otalar – oʻsmirlarning oʻzini oʻzi tashkil qilish, akademik mustaqillik va muvaffaqiyatsizlikka dosh berishni oʻrganish istagiga hissa qoʻshgan. Oʻsmirlar oʻz jarayonini tashkil qildilar: ular mustaqil ravishda rejalashtirish, maqsadlar qoʻyish va tuzatish, ishning borishini kuzatib borish va natijalarni tahlil qilish. Onadan qabul qilish, bir tomondan, oʻsmirning oʻzini oʻzi qadrlashini oshirdi, boshqa tomondan, uning mustaqilligini pasaytirdi, chunki oʻsmirlar qulay sharoitda boʻlib, oʻzgarish va avtonomiyaga intilmaganlar. Shunday qilib, biz avtoritar ota-onalarga oid yangi ma’lumotlarga ega bo`lamiz. D. Baumrindning tadqiqoti avtoritar ota-onalik oʻsmirning mustaqilligini va oʻzini oʻzi boshqarishini kamaytiradi, degan ma’lumot beradi. Biroq, otalar oʻsmirlar hayotida boshqacha rol oʻynashini koʻramiz. Koʻrinib turibdiki, oʻsmirlar, bir tomondan, otalarining qattiq talablari tazyiqi ostida oʻzlaridan talab qilingan narsani bajarishga intilishgan; boshqa tomondan, ehtimol, otalarining qattiq nazorati bosimidan qutulmoqchi boʻlib, imkon qadar tezroq mustaqil boʻlishni xohlashdi, iloji boricha tezroq ota-onalaridan ajralishga harakat qilishad.

D. Baumrind tadqiqotidan 60 yil oʻtgach ham, avtoritar uslub oʻsmirlarda oʻzini oʻzi boshqarish va oʻzini oʻzi rivojlantirish uchun eng samarali boʻlib qolayotganini koʻrishimiz mumkin. Ota-onalar tarbiyasi uslublarining oʻzi oʻsmirlarda oʻzini oʻzi boshqarish va oʻzini oʻzi boshqarishning rivojlanishiga va muammoli xatti-harakatlarning paydo boʻlishiga sezilarli ta’sir koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Kelajakda oʻsmirlardagi muammoli xulq-atvorning salbiy oqibatlariga e’tibor qaratish bilan cheklanib qolmasdan, oʻsmirlarning psixologik salomatligi va umumiy farovonligiga olib keladigan ota-onalarning strategiyalari, munosabatlari va amaliyotlarini yanada batafsil oʻrganish zarur. Oʻz-oʻzini tartibga solishni zamonaviy ta’limni rivojlantirish kontekstida oʻrganish ham muhimdir, chunki oʻz-oʻzini tartibga soluvchi ta’lim, birinchi navbatda, ta’limga ta’sir qiluvchi oʻz-oʻzini tartibga solish koʻnikmalariga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Baker S. The effects of parenting on emotion and self-regulation // Handbook of parenting and child development across the lifespan / Eds. M.R. Sanders, A. Morawska. Berlin: Springer, 2018. P. 217—240.

2.Gillebaart M. The ‘operational’ definition of self-control // Frontiers in psychology. 2018. Vol. 9. Article ID 1231. 5 p.

3.Grolnick W.S., Caruso A.J., Levitt M.R. Parenting and children’s self-regulation // Handbook of parenting: The practice of parenting / Ed. M.H. Bornstein. New York: Routledge/Taylor & Francis Group, 2019. P. 34—64.

4.Mesurado B, Vidal E.M., Mestre A.L. Negative emotions and behaviour: The role of regulatory emotional selfefficacy // Journal of adolescence. 2018. Vol. 64. P. 62—71.

5.Moilanen K.L., Rasmussen K.E., Padilla-Walker L.M. Bidirectional associations between self-regulation and parenting styles in early adolescence // Journal of research on adolescence. 2015. Vol. 25. № 2. P. 246—262.

6.Pinquart M. Associations of parenting dimensions and styles with externalizing problems of children and adolescents: An updated meta-analysis // Developmental psychology. 2017. Vol. 53. № 5. P. 873—932.

7.Rezaei S., PourHadi S., Shabahang R. Relationship of Perceived Parenting Styles with Self-Control Capacity and Affective Self-Regulation Among Delinquent Adolescents // Caspian Journal of Neurological Sciences. 2019. Vol. 5. № 2. P. 56—65.

8.Robson, D.A., Allen M.S., Howard S.J. Self-regulation in childhood as a predictor of future outcomes: A meta-analytic review // Psychological bulletin. 2020. Vol. 146. № 4. P. 324—354.

9.Structural home environment effects on developmental trajectories of self-control and adolescent risk taking / C. Holmes, A. Brieant, R. Kahn, K. Deater-Deckard, J. Kim-Spoon // Journal of Youth and Adolescence. 2019. Vol. 48. № 1. P. 43—55.

10. Jabbarov J.A. INTERPRETATION OF NEEDS IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF OUR ANCESTORS. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 633–636.

11.Жабборов, Ж.А. (2021). Интерпретация проблемы духовных потребностей в научных исследованиях ученых нашей страны. Общество и инновации, 2(5/S), 484–491. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp484-491

12.Жабборов, А. М., Жабборов, И. А., & Жабборов, Ж. А. (2015). ЭТНИЧЕСКИЕ СТЕРЕОТИПЫ И ПСИХОЛОГИЯ САМОБЫТНОСТИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (1), 80-83.

13.Жабборов, А. М., & Жабборов, Ж. А. (2016). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (3), 93-95.

14.Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар – жамият тараққиётининг мезони // «Трансформація суспільних наук: соціально-економічний, лінгвістичний, політичний та it-виміри» II Міжнародна наукова конференція. 22.10.2021. Харків, UKR. 40-43 бет. https://doi.org/10.36074/mcnd-22.10.2021

15.Жабборов Ж.А. Ўзбекистонда таълим-тарбия тизимини объектив заруратга мослаштириш бўйича олиб борилаётган давлат сиёсати. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. (6), 2021 y. 19-28 b.

16.Жабборов Ж.А. Илм-фанда эҳтиёжлар таснифи. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. 2021. https://doi.org/10.36074/logos-29.10.2021.v1.34

17.Жабборов Ж.А. Постмодерн жамият зиддиятларининг маънавий эҳтиёжлар юксалишига таъсири (фалсафий таҳлил). Традиційні та інноваційні підходи до наукових досліджень, 149.

18.Жабборов Ж.А. Мамлакатимиз олимларининг илмий тадқиқотларида маънавий эҳтиёжлар муаммосининг талқини // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 5 (2021) / ISSN 2181-1415. Impact Factor: SJIF 2021 = 5.395. Б. 484-491.

19.Jabborov J.A. Analysis of spiritual needs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary …, 2021.

20. Jabborov J.A. Ma’naviy ehtiyojlar rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari. Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 1 | ISSUE 3, ISSN 2181-1784. 2021. 30-35 b.

21. Жабборов Ж.А. Эҳтиёжлар тизимида - маънавий эҳтиёжлар. Актуальные вызовы современной науки. II Международная научная конференция. 2017. С 62-64.

22. Жабборов Ж.А. Ғарб олимларининг илмий тадқиқотларида эҳтиёжлар тизимининг таҳлили. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги – ЎзА илм-фан бўлими (электрон журнал). 2021. Б. 316-325.

23. Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар–жамият тараққиётининг мезони. Матеріали конференцій I Міжнародна наукова конференція «Трансформація суспільних наук: соціально-економічний, лінгвістичний, політичний». Украина. 2021.

24. Jabbarov J. A. Interpretatıon of needs ın the spırıtual herıtage of our ancestors. Best journal of ınnovatıon ın scıence, research and development. ISSN: 2835-3579. 2023. SJIF: 5.493

25. Джаббаров Д.А. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОТРЕБНОСТЕЙ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ НАШИХ ПРЕДКОВ. Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках, 633–636. Источник — https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1158

26. Jabborov J.A. Society in his Life Spiritual of Needs Held Place. merican Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 48–51.

PEDAGOGNING METODIK KOMPETENSIYASI

Jo‘rayev Yunus,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika Universiteti
“Texnologiya va professsionla ta’lim metodikasi”
kafedrasi dotsent v.b

Annotatsiya. Maqolada kasbiy faoliyatni tashkil etishda kompetentlik sifatlariga egalik, zamonaviy sharoitda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, jumladan, metodik kompetensiyalarning roli yuzasidan so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, kompetentlik, metodik kompetentlik,mutaxassis, kasbiy-pedagogik sifat pedagogik faoliyat.

МЕТОДИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ПЕДАГОГА

Юнус Джураев,
Узбекский национальный педагогический университет имен Низами
и.о. доцента кафедры «Технология и методика профессионального образования»

Аннотация. В статье рассматривается владение компетентностными качествами в организации профессиональной деятельности, развитие профессиональной компетентности педагогов в современных условиях, в том числе роль методических компетенций.

Ключевые слова. Компетенция, компетентность, методическая компетентность, специалист, профессионально-педагогическое качество педагогическая деятельность.

METHODOLOGICAL COMPETENCE OF THE TEACHER

Yunus Jurayev,
Nizami Tashkent State Pedagogical University
Department of «Technology and Methodology of Professional Education»Acting Associate Professor

Abstract. The article discusses the possession of competence qualities in the organization of professional activity, the development of professional competence of educators in modern conditions, including the role of methodological competencies.

Keywords. Competence, competence, methodological competence, specialist, professional-pedagogical quality, pedagogical activity.

Har bir mutaxassis kasbiy faoliyatni tashkil etishda o‘zining kompetentlik sifatlariga egaligini namoyon eta olishi zarur. Binobarin, kompetentlikning o‘zi mutaxassis tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malaka, kasbiy tajriba hamda shaxsiy sifatlarning majmuini ifodalab, ulardan amaliyotda bevosita samarali foydalanishni nazarda tutadi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ularning faoliyatlari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xohish va intilishlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1].

Aksariyat pedagoglar kasbiy-pedagogik sifatlar ma’naviy-axloqiy fazilatlar, bolalarga bo‘lgan muhabbat, o‘quv va tarbiya jarayonini oqilona tashkil qilish qobiliyati, pedagogik faoliyatga yo‘natirilganlik, kasbiy tayyorgarlik darajasidan iborat, deb hisoblaydi.

Zamonaviy sharoitda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish o‘ziga xos dolzarblik kasb etmoqda. “Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish – o‘qitishning doimiy ravishda o‘sish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga imkon beruvchi individual kasbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladigan dinamik jarayoni va kasbiy tajribaning takomillashuvi” demakdir [1].

Pedagogik faoliyatning malakali tashkil etilishi birgina dars misolida ham ish uslubi, metodi va usullarini oqilona tanlay olishi bilan belgilanadi. Malakali, kompetentli pedagog ta’lim texnologiyalarini talabalarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtira oladi. Talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, muayyan shartlar asosida ish uslubini o‘zgartiradi. Faoliyatida talabalarni so‘zlashga, faollik ko‘rsatishga undovchi usullardan foydalanadi.

O‘qitish jarayonining muhim elementi pedagog tomonidan qo‘llaniladigan qo‘shimcha manbalar, metodik materiallar sanaladi. Pedagog tomonidan qo‘llaniladigan har bir metod ta’limiy maqsadga erishishga yordam beradi.

Pedagogning metodik kompetensiyaga egaligini quydagilar mezonlarga muvofiq aniqlash mumkin:

- talabalar jamoasida vaziyatga ko‘ra muayyan ta’lim usullarini qo‘llaydi;

- qo‘llaniladigan usullar o‘rganilayotgan mavzu mazmunining talabalar tomonidan anglanishiga va mashg‘ulot maqsadiga mos keladi;

-amaldagi qo‘llaniladigan usullar mavzuni o‘rganishda mavjud sharoit va vaqtga to‘g‘ri keladi;

-zamonaviy o‘qitish usullariga ega; zamonaviy axborot va komunikatsiya texnologiyalaridan darsda oqilona foydalana oladi.

1. Pedagogning kasbiy bilimdonligi. Kompetentli pedagog fanning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etadi. U talabalarga mavzu haqida bilimlar beradi, hayotiy, amaliy misollarni keltiradi. Pedagogning mavzuni puxta bilish samarali o‘qitish uchun zarur, biroq, yetarli emas.

Muammo shundaki, pedagog mavzuni yaxshi bilsada, o‘quv jarayonini samarali tashkil eta olmasligi mumkin. Kompetentli pedagog faqat dalillargagina tayanibgina qolmasdan, shu bilan birga ilmiy tadqiqot metodlaridan ham xabardor bo‘lishi zarur. O‘z fanini yaxshi bilgan pedagog talabalar berishlari mumkin bo‘lgan savollarni oldindan biladi. Talabalarga chuqur bilim olishlariga yordam beradi. Fanning muammolari to‘g‘risida ma’lumot beradi. Talabalar bu kabi pedagoglarning mavzu bo‘yicha boy ma’lumotlarga egaligini anglaydi. Kompetentli pedagog ba’zan talabalarni qiziqtirib, mustaqil izlanishlari uchun ayrim ma’lumotlarni oshkor qilmaydi. Talabalar ilmiy munozaraga kirishganlarida esa pedagog fanni o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

Pedagogning kasbiy bilimdonligini quyidagi mezonlar asosida aniqlash mumkin: pedagog o‘z fanini yaxshi biladi; ishchi dasturlarni fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda tuzadi.

2.Pedagogning talabalar va akademik guruhlarning sub’ektiv imkoniyatlarini inobatga olish malakasi. Kompetentli pedagog ta’lim jarayonini tashkil qilishga individual yondashadi, ta’limning ilg‘or metodika va metodlaridan samarali foydalana oladi, zamonaviy metod va texnologiyalarni akademik guruh hamda har bir talabaning sub’ektiv imkoniyatlarini inobatga olgan holda qo‘llaydi.

Bunday pedagog talabaning yosh va psixologik xususiyatlari, individual imkoniyatlari haqida ko‘proq bilishni muhim deb hisoblaydi. Talabada fiziologik yoki intellektual cheklovlar (fikrlash jarayonining tezkorligi yoki sustligi, o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi o‘ta faolligi yoki faolligi, axborotlarni tez yoki sekin qabul qilishi kabilar) mavjudligini biladi. Talabalarning salohiyati, ta’limiy imkoniyatlaridan xabardor bo‘lib, pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonida ularga tayanib ish ko‘radi. Eng muhimi, pedagog talabalarga tavsiya etiladigan o‘quv materiallarining miqdoriy hajmi talabalarning o‘quv-bilish imkoniyatlariga mos kelishiga e’tibor qaratadi. Mavzuning mazmuniga mos ravishda ta’lim metodlarini tanlashda o‘quv maqsadiga tayanadi, maqsadni belgilashda esa talaba tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning o‘ziga xosligini nazarda tutadi. Talabalarga ularning shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq individual topshiriqlarni beradi. Zero, pedagog talabalarning mavjud bilim, ko‘nikma va malakalari darajasidan yaxshi xabardor.

OTM pedagogining faoliyati talabalarga individual hamda psixologik yordam ko‘rsatishdan iborat. Shunga ko‘ra u talabalardan iborat akademik guruhda ijodiy muhitni yaratib, ular o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogning talabalar va akademik guruhlarning sub’ektiv imkoniyatlarini inobatga olish malakasiga egaligi quyidagi mezonlar bilan baholanadi:

-akademik guruhning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda talabalarning o‘zaro

munosabatlaridan xabardor va kasbiy faoliyatda ularni inobatga oladi;

- “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning g‘oyalaridan yetarli darajada xabardor va unga muvofiq harakat qiladi;

-taqdim etilgan natijalar va boshqa tashxis ko‘rsatgichlariga asosan talabalarning bilim va rivojlantirish darajasini izchil tahlil qilib boradi;

-talabalarning individual xususiyatlariga tayangan holda ularning muayyan psixologik qiyofaga ega shaxslar toifasiga mansubligiga ko‘ra alohida-alohida o‘quv topshiriqlari bankini shakllantira olgan;

-pedagog tomonidan tayyorlangan talabalarning tavsifnomalar uning akademik guruh a’zolarining individual xususiyatlaridan yetarlicha xabardorligini tasdiqlaydi.

3. Rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va o‘quv materiallarini tanlashga bo‘lgan metodik tayyorgarlik. Pedagogning kasbiy faoliyatda oqilona qarorlarni qabul qilishda muayyan malakaga egaligi u tomonidan talabalarning yosh, psixologik va individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari hamda o‘quv materiallarini oqilona tanlay olishi bilan belgilanadi. Dastur va didaktik materiallarni tanlashga nisbatan metodik tayyorgarlik pedagogning o‘zi tomonidan qabul qiladigan qarorlar uchun to‘la mas’ul bo‘la olishini taqozo etadi.

O‘quv materiali taqdimot asosidagi maxsus tanlangan va uslubiy jihatdan tashkillashtirilgan va o‘quv jarayonida o‘zlashtiriladigan material bo‘lib, u o‘zida ovozli va yozma matnlarni, ovozsiz belgili ma’lumotlar (formulalar, grafiklar, sxemalar), oyoq-qo‘l harakatlari (jestlar) va mimika, ovozsiz harakatlar orqali ifodalanadigan axborotlarni aks ettiradi [2].

Pedagogik rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va o‘quv materiallarini tanlashga ikki xil yondashishi mumkin:

1) talaba rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va o‘quv materiallari shaxsan pedagogning o‘zi tayyorlaydi;

2) pedagog mavjud tayyor rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va o‘quv materiallaridan foydalanadi.

O‘quv dasturlarini ishlab chiqishda va ularni amaliyotga tatbiq etishda pedagog talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda yondashadi. O‘quv-uslubiy majmualarning to‘g‘ri tanlash, shuningdek, pedagogning o‘zi tomonidan didaktik va uslubiy materiallarni ishlab chiqish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Kasbiy faoliyatning natijasi boshqa bir qator omillar bilan birga pedagogning ta’lim dasturini amaliyotga qay darajada samarali tatbiq etishi bilan belgilanadi.

4. Ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonining axborotlar bilan yetarli darajada ta’minlanganligi. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda jarayonning axborotlar bilan ta’minlanganlik darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog o‘zi ta’lim berayotgan fan bo‘yicha talabalarni yetarli darajada o‘quv axborotlari bilan ta’minlash uchun vakolatga ega.

Ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonining axborotlar bilan yetarli darajada ta’minlanganligi pedagoglarning kognitiv va metodik kompetentlikka egaligidan dalolat beradi. Talabalar bilan kasbiy munosabatni samarali tashkil eta olish uchun pedagogdan o‘zining bilim, ko‘nikma, malaka va tayyorgarlik darajasini yetarli baholashi, talabalarning shaxsiga berilgan tavsiflardan xabardor bo‘lishi, o‘quv axborotlarini qayta ishlash va taqdim etish qobiliyatiga egaligini to‘la namoyon eta olish talab qilinadi.

Axborot pedagogik faoliyatning majburiy tarkibiy qismi sanaladi. Pedagogik faoliyatning axborot asosini to‘la shakllantirish, dalillarning aniqligi, to‘liq bo‘lishini ta’minlash uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyatda rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va didaktik materiallarni tanlashda yetarli metodik tayyorgarlikka ega bo‘lish pedagog tomonidan yuqori ko‘rsatgichlarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.

O‘z faoliyatida pedagog izchil ravishda talabalar xulq-atvorini to‘g‘ri, xolis baholash, har

bir talabada o‘quv mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, ehtiyojni yuzaga kelishini ta’minlash yuzasidan qarorlarini oqilona qabul qilishiga to‘g‘ri keladi.

Talimiy yondashuvlarni o‘zaro farqlay olish pedagogga yagona o‘quv standartiga asoslangan o‘quv dasturlarini ularning hajmi va yo‘naltirilganligi bo‘yicha turli darajada o‘zgartirish imkonini beradi.

O‘quv dasturlari garchi xilma-xil bo‘lsa-da, biroq, ularni tayorlash an’anaviylik tamoyiliga muvofiq kechadi. Dasturlar belgilangan shartlarga muvofiq ta’lim natijalariga erishish uchun asosiy talabning qondirilishini ta’minlaydi. Pedagogik faoliyatda rivojlantiruvchi ta’lim dasturini qo‘llash asosida talabalarni o‘qitish ularning shaxsiy fazilatlarini, psixologik xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kompetentlikka ega pedagog rivojlantiruvchi ta’lim dasturlarini o‘rinli, samarali tanlaydi, dasturlar asosida o‘quv materiallarini darsliklarda berilgan matn bilan taqqoslaydi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining afzalliklari hamda kamchiliklarini ko‘ra oladi.

Pedagogning rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va didaktik materiallarni tanlashga bo‘lgan metodik tayyorgarlikka egaligini quyidagi mezonlar asosida baholash imkoniyati yuzaga keladi:

-rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va o‘quv materiallarini qiyosiy tahlil qilish;

-ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash maqsadida o‘qitiladigan metodologik va didaktik materiallar mazmunini o‘rganish;

-o‘qitiladigan fan uchun darslik va o‘quv materiallarini asosli tanlash;

-pedagog tomonidan ishlab chiqilgan ish dasturining ta’limiy vazifalarni hal qila olishini ta’minlash.

Odatda pedagogning ish dasturining didaktik imkoniyati talabalar tomonidan o‘quv materiallarini izchil o‘zlashtirishga erishish jarayonida samaradorlikni kafolatlay olishi bilan baholanadi.

Xulosa qilib aytganda kasbiy kompetentlik qaysi soha bo‘lishidan qat’iy nazar mutaxassisning amaliy faoliyatga tayyorgarligi va uning darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli so‘nggi yillarda O‘zbekiston sharoitida mutaxassisning kompetentligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Pedagogda kasbiy kompetentlik namoyon bo‘lar ekan, uning negizida uch asosiy sifat ko‘rsatkichlari aks etadi: pedagogik empatiya va sotsiorefleksiya, kasbiy faoliyatga talabchanlik bilan yondashish, umumiy madaniyati darajasi, kognitiv, motivatsiyalash va metodik kompetensiyalarga egaligi, rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari va o‘quv materiallarini tanlashga bo‘lgan metodik tayyorgarligi. Ularning har biri pedagogning talaba (talaba), ota-onalar, hamkasblari va rahbarlar bilan kechadigan o‘zaro munosabatning mazmuni va natijasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umaralieva M.A. Methods of development of teacher’s professional competence //https:// cyberleninka.ru/article/n/methods-of-development-of-teacher-s-professional-competence.

2. Учебный материал // https:// methodological_terms.academic.ru/2209/ учебный_ материал

3. Tolipov U.K., Maxmudova I. Effektive Metods of Developing Student’s Creativity. International journal of special educaion Vol.37, No.2, 2022.-409-415 betlar.

4.Tolipov O‘.Q. Quyi kurs talabalarida tadqiqotchilik kompetenцiyalarini shakllantirish metodikasi. “Xalq ta’limi” jurnali. №2. 2019 yil.

5.Tolipov O`.Q., Saydaliyeva F.O`. Main quality levels of pedagog professional competence. Central Asian Journal of Education, Vol. 3 [2019], Iss. 1, Art. 6.

UMUMIY TA’LIM MAKTABLARINI INNOVATSION BOSHQARISHNI TASHXISLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Karimova Guljahon,
Turon universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarini innovatsion boshqarish jarayonini tashxislashning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Muallif tomonidan ta’lim muassasasining innovatsion faoliyatini boshqarishda mavjud holatni tahlil qilishning samarali metodlari – majmuaviy (kompleks) sintez tahlil, istiqbol rejalarni ishlab chiqish hamda muassasa faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijobiy va salbiy omillarni aniqlash usullari ilmiy asoslangan. Tadqiqot davomida innovatsion faoliyatga ta’sir etuvchi sakkiz juft ijobiy va salbiy omillar tasniflangan, ulardan unumli foydalanish hamda salbiy omillarni bartaraf etishning pedagogik shartlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada umumiy ta’lim maktablari rahbarlari va pedagogik jamoaning innovatsion faoliyatni tashxislash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion boshqaruv, ta’lim muassasasi, tashxis, majmuaviy sintez tahlil, istiqbol rejalashtirish, pedagogik jamoa, innovatsion faoliyat, ijobiy va salbiy omillar, ta’lim samaradorligi, pedagogik texnologiya.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИАГНОСТИКИ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ШКОЛАМИ

Каримова Гулжахон,
магистрант 2-го курса университета «Турон»

Аннотация. В статье освещены теоретические и методические основы диагностики процесса инновационного управления общеобразовательными школами. Автором научно обоснованы эффективные методы анализа существующего состояния при управлении инновационной деятельностью образовательного учреждения – комплексный синтез-анализ, разработка перспективных планов, а также способы выявления положительных и отрицательных факторов, влияющих на деятельность учреждения. В ходе исследования классифицированы восемь пар положительных и отрицательных факторов, воздействующих на инновационную деятельность, разработаны педагогические условия их рационального использования и устранения отрицательных факторов. Кроме того, в статье раскрыто содержание опытно-экспериментальной работы, направленной на формирование у руководителей общеобразовательных школ и педагогического коллектива умений и навыков диагностики инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационное управление, образовательное учреждение, диагностика, комплексный синтез-анализ, перспективное планирование, педагогический коллектив, инновационная деятельность, положительные и отрицательные факторы, эффективность образования, педагогическая технология.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DIAGNOSING INNOVATIVE MANAGEMENT IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Karimova Guljahon,
2nd year Master’s student, Turon University

Abstract. The article elucidates the theoretical and methodological foundations of diagnosing the process of innovative management in general secondary schools. The author scientifically substantiates effective methods for analyzing the current state of an educational institution’s

*innovative activity management, namely complex synthesis analysis, the development of long-term plans, and approaches to identifying positive and negative factors influencing the institution’s performance. The study classifies eight pairs of positive and negative factors affecting innovative activity, and the author elaborates pedagogical conditions for the productive use of favor*able *factors and the mitigation of unfavorable ones. Furthermore, the article presents the content of experimental work aimed at developing the skills and competencies of school administrators and pedagogical staff in diagnosing innovative activity.*

Keywords: innovative management, educational institution, diagnostics, complex synthesis analysis, long-term planning, pedagogical staff, innovative activity, positive and negative factors, educational effectiveness, pedagogical technology.

Kirish (Introduction). Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim sohasini rivojlantirish, uning sifati va samaradorligini oshirish bevosita innovatsion yondashuvga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogik jarayonga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni faol joriy etish vazifalarini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilamoqda.

Ta’lim muassasasini innovatsion boshqarish jarayoni uning faoliyatini ilmiy asosda tashxislashdan boshlanadi. Tashxis – muassasa faoliyatining barcha jihatlarini har tomonlama o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashga xizmat qiladigan murakkab tahliliy jarayondir. Aynan tashxis natijalari asosida innovatsion faoliyat strategiyasi shakllantiriladi va boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – umumiy ta’lim maktablarini innovatsion boshqarishni tashxislashning nazariy-metodik asoslarini yoritish, samarali metodlarini asoslash hamda innovatsion faoliyatga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahliliy o‘rganish natijalarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etishdan iboratdir.

Tadqiqot metodoogiyasi (Research methodology). Ta’lim muassasalarini innovatsion boshqarish muammosi pedagogika fanida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu masala bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlardan M.V.Klarin, V.G.Medinskiy, R.H.Jo‘rayev, X.I.Ibragimov, O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva, R.SH.Ahliddinov, M.T.Jumaniyozova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Biroq umumiy ta’lim maktablarini innovatsion boshqarishni tashxislashning yaxlit ilmiy-metodik tizimi va uni amaliyotga joriy etishning samarali yo‘llari yetarli darajada o‘rganilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil etish, ta’lim muassasalari faoliyatini bevosita kuzatish, rahbarlar bilan suhbatlashish, anketa so‘rovi va testlardan foydalanish, olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish hamda ilmiy umumlashtirish.

Faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahliliy o‘rganish. Mazkur metod ta’lim muassasasi tomonidan innovatsion faoliyatni tashkil etilishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish va ularning ta’sir kuchini baholashga xizmat qiladi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ta’lim muassasasi innovatsion faoliyatini samarali boshqarishga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’lim muassasasi faoliyatini bevosita kuzatish, ta’lim muassasalari rahbarlari bilan suhbatlar, anketa so‘rovlari va testlarni tashkil etish asosida quyidagi omillarning innovatsion faoliyatning samarali tashkil etilishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion faoliyatni tashkil etishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijobiy va salbiy omillar

№	Ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar	Salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar
1.	Ta’lim muassasasi rahbarining yangicha fikrlash qobiliyati va boy dunyoqarashga egaligi	Pedagogik jamoa a’zolarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishda birdek ishtirok eta olmasliklari
2.	Yangiliklarga intilish, ijtimoiy o‘zgarishlarga tezkor moslashish muassasa faoliyatining asosiy shioriga aylanganligi	Pedagoglarning kasbiy mustaqil izlanish va kasbiy malakalarini oshirishga bo‘lgan salbiy munosabatlari
3.	Pedagoglarning kasbiy mahorat, ko‘p yillik ish tajribasi hamda ijodiy faoliyat ko‘rsatish layoqatiga egaliklari	Tajribalar olib borish uchun yetarli sharoitning mavjud emasligi
4.	Pedagogik jamoada innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlovchi muhitning mavjudligi	Pedagoglarning innovatsion faoliyatlarini rag‘batlantirishga e’tibor qaratilmasligi
5.	Pedagoglarning o‘zaro tajriba va ilg‘or pedagogik texnologiyalar yuzasidan fikr almashishlarining doimiylik kasb etganligi	Pedagogik jamoaning axborotlarni yetarli va tezkor olish imkoniyatiga ega emasligi
6.	Pedagogik jamoada sog‘lom raqobatning yuzaga kelganligi	Ta’lim muassasasi moddiy-texnik asosining bugungi kun talablariga to‘liq javob bermasligi
7.	Ta’lim muassasasida o‘quvchilarning ichki imkoniyatlari va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishga jiddiy e’tibor qaratilishi	Muassasaning axborot markazlari hamda ijtimoiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikka ega emasligi
8.	Muassasada ilg‘or ish tajribalarini keng yoyishga imkon beruvchi sharoitning yaratilganligi	Ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda demokratik g‘oyalarning inkor etilishi, rahbarning avtoritar ustunligi

Umumiy ta’lim maktablarini samarali innovatsion boshqarishga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish umumiy vaziyatni obrazli tavsiflashga imkon beradi. Dastlabki bosqich yakuniga yetgach, hal etiladigan navbatdagi vazifalar – salbiy ta’sirga ega omillarni kamaytirish va ijobiy ta’sir kuchiga ega omillarni ko‘paytirishdan iborat.

Ta’lim muassasasini innovatsion boshqarishni tashxislashda mavjud muammolarning ustuvorlik jihatlarini ham baholash maqsadga muvofiq sanaladi. Shu sababli tajriba ishlarini tashkil etishda mavjud muammolarning dolzarbligi, muhimligi va ta’lim muassasasini rivojlantirishdagi ahamiyati nuqtai nazaridan ustuvorligi belgilandi.

Muammolarning ustuvorlik darajasi tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan umumiy ta’lim maktablarining rahbarlari, rahbar o‘rinbosarlari, metodik birlashma rahbarlari hamda tajribali o‘qituvchilar ishtirokida quyidagicha aniqlandi:

Maktab hayotiga individual ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat turlarini kiritish va jamoaning har bir a’zosining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘rtasida o‘zaro integratsiyani ta’minlash asosida yagona pedagogik jarayonni takomillashtirish.

O‘qituvchilarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash asosida ularning ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish.

Rahbarlik metodlarining ta’lim mazmuni, o‘quvchilarning o‘quv va ijtimoiy faolligi hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni faol joriy etish asosida tanlanishi.

Boshqaruv jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish.

Ta’lim muassasasida madaniy tadbirlarning ta’lim jarayoni bilan uzviylikda va o‘zaro muvofiqlikda tashkil etilishiga erishish.

Natijalar va muhokamalar (Result va Discussions). Tajriba-sinov ishlarini olib borishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining rahbarlari va pedagogik jamoa o‘rtasida innovatsion faoliyat va uni tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy ma’lumotlarni targ‘ib etuvchi tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

“Umumiy ta’lim maktablarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati” mavzusidagi ma’ruza quyidagi reja asosida tashkil etildi: «Innovatsiya» va «innovatsion faoliyat» tushunchalarining mohiyati; innovatsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlari; umumiy ta’lim maktablarida innovatsion faoliyatni tashkil etish shart-sharoitlari va muhim omillari; umumiy ta’lim maktablari innovatsion faoliyati samaradorligini belgilovchi me’zonlar.

“Innovatsion faoliyatni tashxislash” mavzusidagi amaliy seminar ikki qismdan iborat bo‘lib, dastlab respondent-rahbarlar va o‘qituvchilarga innovatsion faoliyatni tashxislash borasida nazariy ma’lumotlar berildi, so‘ngra esa ularda innovatsion faoliyatni tashxislash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyat tashkil etildi.

Respondent-rahbarlar va o‘qituvchilarda innovatsion faoliyatni tashxislash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida ularga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashxislash vazifasi topshirildi:

Umumiy ta’lim maktablarida maktabgacha ta’lim yoshi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlash;

umumiy ta’lim maktablarida iqtidorli bolalarning kamolotini ta’minlash;

bitiruvchi sinf o‘quvchilarini keyingi bosqich ta’limiga tayyorlash;

umumiy ta’lim maktablarida psixologik xizmatni tashkil etish;

umumiy ta’lim maktablarida ijtimoiy-pedagogik xizmatni yo‘lga qo‘yish;

umumiy ta’lim maktablarida tadbirkorlik xarakteridagi sport-sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish;

umumiy ta’lim maktablarida kichik ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish.

Mazkur jadvallar bo‘yicha topshiriqlarni bajarish jarayonida “Kichik guruhlarda ishlash” metodikasi qo‘llanildi va respondentlarning guruh shaklida o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishlari ta’minlandi. Bu esa innovatsion faoliyatni tashxislash bo‘yicha jamoaviy fikrlash

ko‘nikmasini shakllantirishga, turli yondashuvlarni qiyoslash hamda eng samarali yechimlarni topishga keng imkoniyat yaratdi.

“Innovatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi tamoyillar va mezonlar” mavzusidagi seminar respondentlarda innovatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi tamoyillar mohiyatini chuqur tushunish, ushbu samaradorlikni aniqlashga imkon beruvchi mezonlarni to‘g‘ri tanlash hamda samaradorlik ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

“Innovatsion faoliyatni loyihalashtirish” mavzusidagi amaliy treningni tashkil etishda loyiha mohiyati va uni ishlab chiqish shartlari, innovatsion faoliyat maqsadi, vazifalari va kutiladigan natijalari hamda innovatsion faoliyat samaradorligini ta’minlovchi omillar bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlandi va respondentlarning innovatsion faoliyatni loyihalash borasidagi ko‘nikma va malakalari rivojlantirildi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy ta’lim maktablarining innovatsion faoliyatini tashxislash ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilar va o‘qituvchilarni ham faol ijodiy mehnatga yo‘naltiradi hamda bu yo‘lda samarali shakl, metod va vositalarni aniqlashga keng imkoniyat yaratadi. Umumiy ta’lim maktablarining innovatsion faoliyatini tashxislashda turkum metodlarning qo‘llanishi bu borada belgilangan vazifalarning izchil hal etilishi va maqsadga erishishga imkon beradi. Tadqiqotning navbatdagi vazifasi – ta’lim muassasasi innovatsion faoliyatini tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri loyihalashtirilishiga erishish hisoblanadi. Zero, ilmiy asoslangan loyiha samarali shakl, metod va vositalardan o‘rinli, maqsadga muvofiq foydalanishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2004–2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Ta’lim taraqqiyoti jurnali. – Toshkent, 2004. – №5.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bozorini shakllantirish va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Ta’lim taraqqiyoti jurnali. – Toshkent, 1998. – №1.

3. Ahliddinov R.SH., Oldroyd D., Xodjayev A. O‘zbekistonda ta’limni boshqarish: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – Toshkent: TACIS-PROJECT, 1999.

4. Jo‘rayev R.H., Ibragimov X.I. Pedagogik jamoaning innovatsion faoliyati // Xalq ta’limi jurnali. – Toshkent, 2004. – №2.

5. Jumaniyozova M.T. Innovatsion faoliyat ta’lim sifatining kafolatidir // Uzluksiz ta’lim jurnali. – Toshkent, 2004. – №6.

6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

7. Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy pedagogike: obucheniye na osnove issledovaniya, igri i diskussii. – Riga: NPS «Eksperiment», 1995.

8. Medinskiy V.G. Innovatsionniy menedjment: Uchebnik. – Moskva: INFRA-M, 2002.

TALABALARGA INFORMATIKA KURSINI O’QITISHDA AKTDAN FOYDALANGAN HOLDA MUSTAQIL BILISHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Kilichev Nurilla Abbosovich,
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarga informatika kursini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalangan holda mustaqil bilishni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Fanning jadal rivojlanishi, axborot oqimining ortishi va ta’lim faoliyatining faollashuvi o‘quv mashg‘ilotlariga ajratilgan vaqtning cheklanganligiga mos kelmaydi. Maqolada AKTdan foydalanishning multimodallik tamoyili va uning o‘lashtirish jarayonlariga ta’iri, adaptiv ta’lim texnologiyalari (ATT) konsepsiyasi va uning pedagogik imkoniyatlari keng yoritilgan.

E.S.Polat, B.B.Andresen, I.A.Petrova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari asosida AKT vositalaridan informatika ta’limida mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish metodologiyasi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AKTga asoslangan adaptiv ta’lim texnologiyalarini qo‘llash talabalarning mustaqil bilish faoliyati samaradorligini 42-48 foizga oshiradi. Nochiziqqiy ta’lim texnologiyalarini joriy qilish uchun zarur pedagogik shartlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘lar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil bilish, adaptiv ta’lim texnologiyasi, informatika ta’limi, multimodallik, nochiziqqiy ta’lim, tashkiliy-pedagogik shartlar, faol o‘qitish.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ПОЗНАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКЕ

Киличев Нурилла Аббосович,
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются организационно-педагогические условия развития самостоятельного познания студентов при использовании ИКТ в обучении информатике. Раскрыты возможности ИКТ как средства активизации самостоятельной познавательной деятельности студентов. Рассмотрены принцип мультимодальности применения ИКТ, концепция адаптивных технологий обучения (АТО) и их педагогические возможности. На основе научных трудов Е.С. Полата, Б.Б. Андресена и И.А. Петровой обоснована методология использования ИКТ в развитии самостоятельного познания. Результаты показывают, что применение АТО повышает эффективность самостоятельной познавательной деятельности на 42-48%.

Ключевые слова: ИКТ, самостоятельное познание, адаптивные технологии обучения, обучение информатике, мультимодальность, нелинейное обучение.

ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING INDEPENDENT COGNITION USING ICT IN TEACHING INFORMATICS

Kilichev Nurilla Abbosovich,
Karshi State Technical University

Abstract. This article comprehensively analyzes the organizational and pedagogical conditions for developing students’ independent cognition through the use of ICT in informatics education. The possibilities of ICT as a means of activating students’ independent cognitive activity are revealed. The multimodality principle of ICT application and the concept of adaptive learning technologies

(ALT) and their pedagogical possibilities are examined. Based on the scientific works of E.S. Polat, B.B. Andresen, and I.A. Petrova, the methodology of using ICT in developing independent cognition is substantiated. The results show that applying ALT increases the effectiveness of independent cognitive activity by 42-48%.

Keywords: ICT, independent cognition, adaptive learning technology, informatics education, multimodality, non-linear learning, organizational-pedagogical conditions.

Kirish (Introduction).

Fanning jadal rivojlanishi, axborot oqimining ortishi, ta'lim faoliyatining faollashuvi va o'quv mazmuni hajmining oshishi o'quv mashg'ilotlariga ajratilgan vaqtning cheklanganligiga mos kelmaydi. Ushbu ziddiyatni hal qilishning eng samarali yo'li - axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalangan holda talabalarning mustaqil bilish faoliyatini faollashtirish hisoblanadi.

OTMga talabalar qabul qilinganda ta'lim muassasasiga ongli ravishda bilim orttirishga tayyor insonlar kirishi ko'zda tutiladi. Biroq, amaliyot ko'rsatishicha, bir tomondan, ta'lim olish davrida mustaqil bilish faoliyatining ahamiyatini talabalarning barchasi tushunavermaydi, boshqa tomondan esa, o'quv materiali real hayot talablariga har doim ham mos kelavermaydi. Shuning uchun ta'lim jarayonini shunday tashkil qilish zaruriyati yuzaga keladiki, unda mustaqil bilish faoliyatini har doim amalga oshirish, bilimlarni orttirish va ta'lim sifatini oshirish imkoniyati ta'minlangan bo'ishi kerak.

AKTni qo'llash butun mashg'ilotlarni jadallashtirish va ta'lim oluvchilar faoliyatini takomillashtirish yo'li bilan ta'lim jarayonini o'gartirish mumkin, chunki interfaol dasturiy-metodik ta'minotdan foydalanish o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik o'aro ta'irning sifat jihatdan yangi darajasini shakllantiradi. Bunda talaba axborot madaniyati, uning zarur axborotni izlash ko'nikmasi, tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish intensiv ravishda rivojlanadi, buning oqibatida ta'lim sifati o'garyadi va uning sur'ati tezlashadi.

Maqolaning maqsadi - informatika kursini o'qitishda AKTdan foydalangan holda talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, AKT asosida ta'limni tashkil etish so'nggi yillarda pedagogika fanining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. E.S.Polat va M.Y.Buxarkina o'zlarining «Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta'lim tizimida» asarida AKT va mustaqil o'lashtirish o'rtasidagi aloqani keng yoritib berishgan. Ular ta'idlashicha, AKT vositalarining asosiy pedagogik salohiyati - ta'limning individuallashuvini ta'minlash, o'qituvchi bilan teskin aloqa va o'z-o'ini nazorat qilish imkoniyatini yaratishdir [4].

B.B. Andresen va K. van den Brink «Multimedia ta'limda» asarida multimodallik tamoyilini asoslaydilar. Ushbu tamoyilga ko'ra, ta'lim jarayonida axborotni idrok qilish va uni qayta ishlashning turli kanallari ishga solinadi - matnli, audial, vizual, makonga oid, bunda AKT vositalari turli tabiatga ega axborotni - matn, tovush, grafika, fotosurat, video - butunga birlashtiradi. Ko'rish va tovush qatorlarining birlashuvi, ko'gazmali-obrazli va verbal-mantiqiy tafakkurning birlashuvi natijasida ma'iiumotni yaxshiroq o'lashtirish imkoni yaratiladi [2].

I.A. Petrova o'z tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan axborot-ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish metodikasini ishlab chiqqan. U ta'idlashicha, bunday muhitda talaba faqat passiv axborot qabul qiluvchi emas, balki o'z ta'lim jarayonini faol shakllantiruvchi subyektga aylanadi. Axborot-ta'lim muhitining asosiy xususiyatlari: teskari aloqa tezkorligi, moslashuvchanligi va kengayuvchanligi [3].

Xalqaro pedagogika tajribasini o'ganish shuni ko'rsatadiki, Finlandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi ta'limda yetakchi mamlakatlarda AKT asosida mustaqil o'lashtirish texnologiyalari

keng qo‘laniladi. OECD (2022) ma’iiumotlariga ko‘ra, AKTdan maqsadli foydalanadigan ta’lim tizimlarida o‘quvchilarning PISA test natijalari o‘rtacha 18-23 ball yuqori bo‘gan. Bu korrelyatsiya AKT va mustaqil o‘lashtirish samaradorligi o‘rtasidagi bevosita bog‘iqlikni tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ko‘rish va tovush qatorlarining birlashuvi, ko‘gazmali-obrazli va verbal-mantiqiy tafakkurning birlashuvi natijasida ma’iiumotni yaxshiroq o‘lashtirish imkoni yaratiladi, bu esa axborotni idrok qilishning psixologik-fiziologik xususiyatlari hisobiga markazida shaxs turgan yondashuvni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo‘lanildi. Ilmiy adabiyotlarning sistematik tahlili; AKT asosida ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha pedagogik kuzatuv; talabalar va o‘qituvchilar orasida so‘rovnoma; pedagogik eksperiment. Qarshi DTU’ning axborot texnologiyalari yo‘alishi talabalarining 3 ta guruhida (jami 96 nafar) 2022-2024 yillar davomida tadqiqot olib borildi.

Bundan tashqari, AKT mustaqillik, o‘z-o‘ini nazorat qilishning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek ular joriy nazorat va o‘z-o‘ini nazorat qilishni amalga oshirilishi uchun zarur. Aynan AKT bugungi kunda ta’lim subyektlarining ijodiy qobiliyatlarini to‘la ochib berishga yordam beradi, chunki ta’limning nochiziqqiy texnologiyalarini joriy qilishga katta yordam beradigan ATTni yaratish imkonini beradi.

Bunda AKTga asoslangan ta’limning markazida shaxs turuvchi xarakteri, birinchi navbatda, o‘z-o‘iga ta’lim berish tamoyilini, ATTda mustaqil bilish faoliyatini faollashtirishni amalga oshirish bilan bog‘iq, chunki u o‘quv, metodik ma’iiumotlar va ma’iiumotnomalarga murojaat qilishni yengillashtiradi. Tadqiqot doirasida mustaqil o‘lashtirish ko‘rsatkichlari oldindan va keyin o‘lchandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

AKT vositalarini qo’llashning navbatdagi muhim tarkibiy qismi jamoaviy tadqiqotchilik xarakteriga ega ta’lim innovatsion usullarini amalga oshirish imkoniyati hisoblanadi, ular mustaqil bilish faoliyati natijasida qarorlarni izlash va qabul qilishga qaratilgan faol shaklga ega bo’adi.

AKT vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonini jadallashтirishga real ijobiy ta’ir ko’rsatadi. Bunda talaba uchun AKT vositalari o’ganish ob’ekti hamda mustaqil bilish faoliyati uchun vosita hisoblanadi. Ta’lim jarayonida AKTning yaxshi tomoni, bizning nazarimizda, ATTni yaratish uchun shart-sharoitlarni ta’minlashidir. ATT quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratish imkonini beradi:

Birinchidan, interfaol so’rlashuv (dialog) amalga oshirilishini belgilaydigan foydalanuvchilar va AKT vositalari o’rtasida tezkor qayta aloqani amalga oshirish - bunda foydalanuvchining har qanday talabi tizimning javob harakatini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchining har doim pedagogik qo’lab-quvvatlanishi. Uchinchidan, majburlamaydigan ta’lim va o’qishga motivatsiyani ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish.

To’rtinchidan, ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish va ta’lim oluvchiga insonparvar munosabat. Beshinchidan, ATTda individual yo’l xaritasini qurish, u sub’ekt tomonidan o’quv vazifalarni, ularni bajarish sur’ati va vaqtini, ta’lim natijalarini taqdim qilish shakllarini tanlash erkinligini aks ettiradi. Oltinchidan, ta’lim oluvchi faoliyatining uzluksiz nazorati; diagnostikasi; ta’lim oluvchi tomonidan tizimning boshqarilishi; tizimni ishlash jarayonida takomillashtirish va moslashтirish [4].

Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning o‘ziga bo‘lgan past bahosi, hayojonlanish, ilojsizlik, ishdani konfliktlar, og‘riqli emotsiyalar, sog‘liq bilan bog‘liq muammolar, o‘zidan qanoatlanmaslik, har doim yomon narsalar haqida o‘ylash, optimizmning sustligi ularning kreativ kompetentlikiga xalaqt qiladigan jihatlar hisoblanadi. Ya’ni, psixologiya fanida kreativ kompetentlik fenomeniga qiziqish ortib borayotgan bo‘lsa-da, pedagogika fanida u hali ham aniq va tizimli ta’rifga ega emas

Pedagogik nuqtai nazardan esa kreativ kompetentlik masalasiga nisabatan ijodiy fikrlash masalasi ko‘proq ilmiy jihatdan keng o‘rganilgan muammolardan hisoblanadi. Ba’zi holatlarda, ya’ni amalda ularni ijobiy, ya’ni kreativ kompetentlik bilan chalkashtirish holatlari ham uchrab turadi. Lekin “ijodiy fikrlash” bilan “ijobiy fikrlash”, ya’ni kreativ kompetentlik bir-biri bilan bog‘liq, ammo ular o‘ziga hos jihatlari bilan bir-biridan farq qiladigan tushunchalar hisoblanadi. Pedagogik nuqtai nazardan “kreativ kompetentlik” masalasini tahlil etar ekanmiz eng avvalo “Avesto” asaridagi hamda ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan “Ezgu niyat, ezgu amal, ezgu xulq-atvor” singari aksiomaga aylangan g‘oya metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, A.Krutovskaya kreativ kompetentlikni bolalik davrlan boshlab tarbiyalash haqidagi fikrlarini ilgari suradi va u kreativ kompetentlik – bu hayotga optimistik nuqtai nazardan qarash hamda shunchaki emas, balki yaxshiliklarga bo‘lgan ishonch”, - degan ta’rifni beradi. U kreativ kompetentlikga taalluqli bo‘lgan negativ emotsiyalardan qochish va insonning o‘ziga bo‘lgan samimiy munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan “toksik pozitiv” tushunchasini ilgari so‘radi hamda bolalarda kreativ kompetentlikni shakllantirishning qo‘yidagi usullarini tavsiya etadi [4]:

pozitiv dialogga kirishga o‘rgatish,
murakakab vaziyatlarni hamkorlikda muhokama qilish,
atrofdagi yaxshi voqea, hodisa va jarayonlarni ko‘rib bilishga o‘rgatish,
o‘z emotsiyalarini anglashga hamkorlikda qarab chiqish,
o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini egallashi,
bolaning har qanaqa muvaffaqiyatini qayd etish,
bola yo‘l qo‘ygan xatolarga qatiy yumshoq munosaatda bo‘lish.

Bolalik davrdan boshlab pozitiv tafakkurning shakllanishi ijtimoiy hayotdagi har qanday vaziyatda ham xursandchilik uchun sabab topa olishi, muvaffaqiyatsizliklarni boricha qabul qilish orqali undan faqatgiga muammoni ko‘rmasdan, balki vaziyatlarni hal etish yo‘llarini topishga intilish, uning ijobiy tomonlarini ham ko‘rib bilish qobiliyatiga erishishga imkon beredi. Bu qobiliyatning ayniqsa, talaba-yoshlarda shakllantirishi va rivojlantirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogika ilmida asosan axloqiy tarbiya, ko‘nikma va malakalar yoki hissiy intellekt nuqtai nazaridan talqin qilinganligini inobatga oladigan bo‘lsak ushbu fenomenni ilmiy o‘rganishdagi yondashuvlarning tarqoqligini ko‘rish mumkin. Bunday tarqoqlik ta’lim amaliyotida, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda metodik jihatdan qo‘llashni qiyinlashtiradi.

Ta’limning insonparvarlik paradigmasi sharoitida kreativ kompetentlikni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va tarbiyaviy ishlar tizimiga amaliy transformatsiya qilishni talab etadigan muhim pedagogik kategoriya sifatida ko‘rib chiqish lozim. U ta’lim jarayoniga tasodifiy tarzda emas, balki hamkorlik, refleksiya, bag‘rikenglik, hissiy barqarorlik va axloqiy yetuklik ko‘nikmalarini shakllantiruvchi didaktik texnologiyalar orqali maqsadli ravishda kiritilishi kerak. Demak, pedagogik nuqtai nazardan kreativ kompetentlik - bu eng avvalo talabalarning barqaror shaxsiy munosabati bo‘lib, u muammolarni hal qilishga intilish, hissiy barqarorlik, o‘z kuchiga

ishonch va ta’limni o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi sifatida idrok etishia namoyon bo‘ladigan qadriyatli yo‘nalganlik hisoblanadi. Chunki, bunday pozitsiya tizimli qadriyatlar asosida tarbiyalash, talabalarga refleksiv xarakterga ega bo‘lgan topshiriqlarni berish (o‘quv vaziyatlarini tahlil qilish, o‘zini baholash, muvaffaqiyat kundaliklari), ularni mazmunli, ijtimoiy ahamiyatga ega va rag‘batlantiruvchi faoliyatga jalb etish singari ishlarni olib borish orqali rivojlantirilib boriladi.

Kreativ kompetentlik talaba-yoshlarda:

ta’lim, bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish,

ta’lim olishdagi faolligini oshirish,

- stresslar va turli xil risklarga bo‘lgan bardoshlilik va hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatini shakllantirish,

- jamoaviy ishlash ko‘nikmasini oshiradi, hamdardlik, bag‘rikenglik va hissiy intellektni rivojlantiish;

- o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy yetuklikka intilish singari sifatlarlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunda pedagogik jarayonlarda qo‘yidagi shart-sharoitlarni yaratish zarur:

- pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi kurslarining mazmuniga poizitiv fikrlash va shaxsning qadriyatli yo‘nalganligini tarbiyalashga doir mavzularini kiritish,

- pedagogik optimizm va empatik muloqotni rivojlantirishga doir mashg‘ulotlarni tashkil etish,

- o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida mulohaza yuritishga doir muhitni yaratish (fikr-mulohaza doiralari),

- ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda ishtirok etish,

- ijobiy pedagogik muloqot,

- rag‘batlantiruvchi metodlarni qo‘llash (muvaffaqiyatga yo‘naltirish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, talaba-yoshlarning tashabbuslarini e’tirof va h.k.),

- pedagogik jarayonlarni fasilitatorlik mazmunda tashkil etish va h.k.

Demak, kreativ kompetentlik talaba-yoshlarning nafaqat ruhiy xususiyati, balki maqsadli pedagogik ta’sirning natijasi, ularning shaxsiy salohiyatini ochish va tez o‘zgaruvchan dunyoda samarali ijtimoiylashuvining kaliti hisoblanadi. Uni shakllantirish va rivojlantirish tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Маматов Д. К. Роль компьютерной графики в развитии космического воображения студентов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).

Mamatov D. PROJECTS OF MAKING CLAY AND PLASTIC TOYS IN PRE-SCHOOL EDUCATION //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – С. 281-285.

Маматов Д.К. Организация самостоятельной работы студентов первая международная научно-методическая конференция междисциплинарные исследования в науке и образовании.

Маматов Д.К., Собирова Ш.У Особенности организации самостоятельной работы студентов Педагогические науки. http://wwenews.esrae.ru/pdf/2015/1/62.pdf

Odilova, M. O. «IMPROVING THE PEDAGOGICAL POTENTIAL OF BIOLOGY TEACHERS USING COMPUTER PROGRAMS.» International Engineering Journal For Research & Development 5.9 (2020): 4-4.

Qodirovich M. D. et al. Methods Of Developing Students’ Spatial Imagination Using Computer Graphics In The Teaching Of Drawing //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – Т. 27. – №. 1.

3Bartle, R. A. (2021). Augmented Reality and Virtual Reality in Engineering Education: A New Approach to Learning. Springer.

Johnson, P. (2020). 3D Modeling and Simulation in Higher Education: Enhancing Student Engagement and Creativity. IEEE Transactions on Education, 63(4), 402-410.

Cheng, K. & Lee, J. (2019). Computer-Aided Design in Engineering Curriculum: Benefits and Challenges. International Journal of Educational Technology, 14(2), 85-97.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA KOMPETENSIYAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Qandimova Nasiba
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy ta’limni tashkil etishning nazariy asoslari yoritib berilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy ta’lim tushunchasining pedagogik mohiyati, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ yondashuvning mazmuni, asosiy belgilari hamda pedagogik jarayondagi funksiyalari ochib berilgan.

Maqolada kreativ yondashuv va kompetensiyaviy ta’limning o‘zaro uyg‘unligi nazariy jihatdan asoslab berilib, kreativ yondashuv kompetensiyaviy ta’limni samarali tashkil etishning muhim omili ekanligi isbotlangan. Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini, muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy ta’limni takomillashtirish, kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda kelgusida metodik model va tajriba-sinov ishlarini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, kreativ pedagogika, ta’lim kompetensiyalari, zamonaviy ta’lim.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы организации компетентностного обучения на основе креативного подхода. В ходе исследования проанализирована педагогическая сущность понятия компетентностного обучения, а также его место и значение в современной системе образования. Кроме того, раскрыто содержание креативного подхода, его основные характеристики и педагогические функции в образовательном процессе.

В статье теоретически обоснована взаимосвязь креативного подхода и компетентностного обучения, а также доказано, что креативный подход является важным фактором эффективной организации компетентностного обучения. Подчеркивается, что образовательный процесс, организованный на основе креативного подхода, способствует развитию у обучающихся самостоятельного мышления, навыков работы с информацией и способности к творческому решению проблем.

Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования компетентностного обучения, внедрения креативных педагогических технологий, а также при разработке методических моделей и проведении экспериментально-опытных работ.

Ключевые слова: креативный подход, компетентностное обучение, креативная педагогика, образовательные компетенции, современное образование

Abstract: This article explores the theoretical foundations of organizing competency-based education through a creative approach. The study analyzes the pedagogical essence of competency-based education and examines its role and significance in the modern educational system. In addition, the content of the creative approach, its key characteristics, and its pedagogical functions within the educational process are discussed.

The article provides a theoretical justification for the integration of the creative approach and competency-based education, demonstrating that the creative approach is a crucial factor in the effective implementation of competency-based education. It is emphasized that an educational process organized on the basis of a creative approach promotes the development of students’ independent thinking, information-handling skills, and their ability to solve problems creatively.

The findings of the study serve as a theoretical foundation for improving competency-based

education, implementing creative pedagogical technologies, and developing methodological models and experimental practices.

Keywords: creative approach, competency-based education, creative pedagogy, educational competencies, modern education

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Endilikda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarda hayotiy vaziyatlarda mustaqil faoliyat yurita olish, axborot bilan ishlash, muammolarni kreativ hal etish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv yetakchi o‘rin egallamoqda.

Biroq kompetensiyaviy ta’limni samarali tashkil etish uchun an’anaviy o‘qitish usullari yetarli emas. Bu jarayonda o‘quvchilarning faolligini oshiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga undovchi, ijodiy imkoniyatlarini ochib beruvchi kreativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ma’ruzada kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy ta’limni tashkil etishning nazariy asoslari yoritib beriladi.

Asosiy qism

Pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” tushunchasi shaxsning muayyan faoliyat sohasida bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni kompleks qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kompetensiyaviy ta’lim esa o‘quvchining egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda mustaqil va samarali qo‘llay olishiga yo‘naltirilgan ta’lim modeli hisoblanadi.

Kompetensiyaviy ta’limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

* ta’lim natijalarining aniq va o‘lchanadigan bo‘lishi;
* bilim, ko‘nikma va munosabatlarning integratsiyalashuvi;
* o‘quvchining faol subyekt sifatida ishtirok etishi;
* amaliy faoliyatga yo‘naltirilganlik.

An’anaviy bilimga asoslangan ta’limda o‘quvchi asosan tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi bo‘lsa, kompetensiyaviy ta’limda u bilimlarni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va qo‘llovchi shaxs sifatida shakllanadi.

Kreativ yondashuv pedagogik jarayonda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, muammolarga noodatiy yechim topishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvidir. Kreativlik shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bilimlarni o‘ziga xos tarzda qayta ishlash va turli vaziyatlarga moslashuvchan yondashish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik nuqtai nazardan kreativ yondashuv quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

Muhim jihat shundaki, kreativlik tug‘ma sifat emas, balki maqsadli pedagogik ta’sir orqali rivojlantiriladigan kompetensiya hisoblanadi.



Kreativ yondashuv va kompetensiyaviy ta’limning o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy ta’lim muhitida juda muhim birlashish sanaladi. Kreativ yondashuv kompetensiyaviy ta’limni samarali tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki kompetensiyalar faqat tayyor bilimlarni egallash orqali emas, balki faol, ijodiy va mustaqil faoliyat jarayonida shakllanadi.

Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan kompetensiyaviy ta’lim:

* o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshiradi;
* axborotni izlash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
* tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantiradi;
* real hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Natijada o‘quvchi nafaqat bilim egasi, balki o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtira oladigan, muammolarni ijodiy hal qila oladigan kompetent shaxs sifatida shakllanadi.

Kreativ yondashuvga asoslangan kompetensiyaviy ta’lim quyidagi tamoyillarga tayangan holda tashkil etiladi:

Mazkur tamoyillar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy ta’limni kreativ yondashuv asosida samarali tashkil etish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Mazkur shart-sharoitlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Birinchidan, ta’lim mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalanishi zarur. Bunda o‘quv materiallari nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashni talab qiluvchi kreativ topshiriqlarni ham o‘z ichiga olishi kerak. Bu esa o‘quvchilarning axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, turli yechim variantlarini taklif etishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi axborot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi

va maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi.

Uchinchidan, kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy ta’limni tashkil etishda refleksiya jarayoniga alohida e’tibor qaratiladi. Refleksiya o‘quvchilarga o‘z faoliyatini baholash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa kompetensiyalarning barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy ta’limni tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Kreativ yondashuv kompetensiyaviy ta’limning nazariy asoslarini mustahkamlab, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash va muammolarni ijodiy hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv kelgusida kompetensiyaviy ta’limni takomillashtirish, metodik model va innovatsion o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – М.: Эйдос, 2013.

Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis, 1984.

Guilford J.P. Creativity: Yesterday, Today and Tomorrow. – Journal of Creative Behavior, 1967.

Torrance E.P. The Nature of Creativity as Manifest in Its Testing. – Cambridge University Press, 1974.

UNESCO. Education for the 21st Century: Learning to Know, Learning to Do, Learning to Be. – Paris, 2015.

Robinson K. Out of Our Minds: Learning to Be Creative. – Oxford: Capstone Publishing, 2011.

Фарберман Б.Л. Современные педагогические технологии. – Ташкент, 2018.

www.ziyonet.com

www.library.com

INTELLEKTUAL-IJODIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INDUSTRIAL CASES, IMEN METODLARINI QO‘LLASHNING SAMARADORLIGI

Dilnoz Salimovna Ro‘ziyeva,
Buxoro davlat texnika universiteti, Aniq fanlar kafedrasi dotsenti, p.f.p.d(PhD),
https://orcid.org/0009-0006-2246-3024

Annotatsiya: maqolada texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari talabalarining intellektual-ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini bajarish orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va baholash masalasi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, pedagogik-psixologik xususiyatlar, mezonlar, texnologik bosqichlar, mexanizmlar, intellektual – ijodkorlik, kompetentlik, muhandis.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АНАЛИЗА INDUSTRIAL CASES И IMEN В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация: В статье рассматривается вопрос формирования и оценки творческих способностей студентов технических высших учебных заведений при соблюдении педагогических условий развития интеллектуально-творческой компетенции.

Ключевые слова: креативность, педагогико-психологические особенности, критерии, технологические этапы, механизмы, интеллектуальная креативность, компетентность, инженер.

THE EFFECTIVENESS OF USING INDUSTRIAL CASES AND IMEN ANALYSIS METHODS IN DEVELOPING INTELLECTUAL AND CREATIVE COMPETENCE

Annotation: The article examines the issue of formation and assessment of creative abilities of students of technical higher educational institutions while observing pedagogical conditions for the development of intellectual and creative competence.

Key words: creativity, pedagogical and psychological characteristics, criteria, technological stages, mechanisms, intellectual creativity, competence, engineer.

Kirish. Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida ularda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo‘yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko‘nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun talabaning ongiga, dunyoqarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta’sir etib boriladi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish taraqqiyot strategiyasining maqsadlaridan biri ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, ushbu farmonda talabalar uchun ochiq va sifatli ta’lim olishini ta’minlash, talabaning shaxsiyatini, uning ijodiy qobiliyatlarini kasbiy faoliyatda foydalanish masalasini yoritish ko‘zda tutilgan [1]. Bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlarda intellektual koeffitsent (IQ) va ijodiy intellekt (CQ) oshirish bo‘yicha o‘z tavsiya va usullari taklif etishmoqda. Ta’lim jarayonida talabalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning salohiyatini boyitish, muammolarini mustaqil hal etish, ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish, intellektual madaniyatini rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Intellektual salohiyat tushunchasi psixologik adabiyotlarda keng tarqalgan. Insonning intellektual xususiyatlarini tavsiflash uchun umumiy psixologiyada qo‘llaniladigan aniq mezonlar jamiyatning zamonaviy

rivojlanish darajasiga va intellektual resurslarning ortib borayotganligiga qarab belgilanadi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Istiqbolli ilmiy-texnik g‘oyalarning amalga tezkorlik bilan tadbiq qilinishi rivojlangan davlatlarda bevosita iqtisodiyotga bog‘liq bo‘lib, bunda ilmiy-tadqiqot ijodkorlik ishi natijadorligini keskin oshirish talab qilinadi. Bajariladigan ijodkorlik ishining muvaffaqiyatli yakunlanishi mutaxassislarning murakkab tajriba-konstruktorlik, tashkiliy masalalarni ijodiy hal qilish qobiliyati va malakasiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, o‘z sohasining yetuk mutaxassislarini shakllantirish asosan fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda oliy ta’lim tizimi doiralarida hal qilinadi. Bundan texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida ilm-fan, innovatsion loyihalar, texnika va texnologiya sohalariga qiziquvchi talabalarni aniqlash va tanlash, intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni tashkil qilish lozim. Ta’lim jarayoniga munosib pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga bag‘ishlangan innovatsion ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish kabi pedagogik tadqiqot ishlari A.Abduqodirov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo‘ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O‘.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G‘afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalar tomonidan olib borilgan. Xususan, interfaol o‘qitish jarayonida talabalarda intellektual-ijodkorlik qobiliyatlarini bosqichlarini tadqiqotchi G.Ibragimova quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi [3].

Ta’lim oluvchilarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo‘naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z mavqeiga ega bo‘lish, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish,bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish; ta’lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish zarurdir.[4]

Tadqiqot metodologiyasi. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim muhitida talabalarning intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish omillarini bizning fikrimizcha quyidagi 1-chizma orqali ifodalash mumkin:



1-chizma. Intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish omillari

Intellektual-ijodiy faoliyat –biror tadqiq qilinayotgan texnik loyiha, ob’yekt haqida talabaning idrok qilgan, anglagan, o‘z tasavvur va taassurotlarini boshqalarga yetkazishda aniq bir maqsadga yo‘naltirgan faol fikriy-ijodiy faoliyatidir. Ta’lim oluvchilarning intellektual-ijodiy faoliyatida predmet yoki ob’yektni chuqur idrok qilish, mantiqiy-texnologik-tahliliy tafakkur qilish, axborot va ma’lumotlarni anglash, ob’yekt yoki predmetni ijodiy tasavvur qilish kabi rivojlantiruvchi sifat va qobiliyatlar zarur. Talabalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning asosiy ob’yekti sifatida faoliyatning ichki tuzilmaviy–motivatsion, emotsional, protsessual ,xulq-atvor omillariga oid bilim va ma’lumotlar ta’minlash zarur. Intellektual-ijodiy faoliyat mazmuni shaxs rivojlanayotgan ijtimoiy sharoitlar bilan ham belgilanadi, uning anglanishi esa faoliyatni emotsional-samarali yondashuv bilan ta’minlaydi. Bunda faoliyatning texnologik izchilligi va samaradorligi, o‘z-o‘zini tahlil etish kabi omillar katta o‘rin tutadi. Intellektual-ijodiy faoliyat talabalardan faqatgina yangilikni bilish va o‘zlashtirish hohishini emas, balki o‘tkir zehn, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishni ham taqozo qiladi.

Intellektual-ijodiy faoliyatning asosiysi ijodiy tasavvur bo‘lib, undan tushuncha va tasavvurlar asosida o‘z yangisini obraz shaklida yaratish talab etiladi. Ijodiy tasavvur emotsional idrok qilishni faollashtiradi va kuchaytiradi. kreativ qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik omillar vositasida faollashtirishsak, u muntazam rivojlangan va boyitilgan holda shaxsning tuzilmasiga kiradigan ijobiy motivatsiyaning madadiga tayanadi. Idrok qilish jarayonida o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatning shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar bunga mos keladi.

Talabalarning intellektual-ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin (2-chizma):

– motivatsion mexanizm– shaxsning o‘zi istamaguniga qadar uning qobiliyatlari namoyon bo‘lmaydi, albatta bunga erishish uchun shaxsga yetarlicha motiv berilishi kerak;

– operatsion mexanizm–operatsiya (usullar) yordamida qobiliyatlar namoyon bo‘ladi;

– funksional (jarayonli) mexanizm–ruhiy jarayonlar sifati orqali qobiliyatlarning operatsion mexanizmlari amalga oshadi;

– ilg‘or innovatsion metodlar, usul, uslub va vositalar.

Industrial Cases metodi. Texnika yo‘nalishidagi OTMlarda fizika fanini o‘qitishda fizika ta’limini hayotdan ajralgan nazariya emas, texnika, muhandislik va sanoat innovatsiyalari kaliti

sifatida qabul qilish kerak. Fizika darslarida talabalar bu muammoni qanday echishim mumkin degan savolga javob topish orqali ijodiy kamol topadilar. Intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish uchun britaniyalik olim S.Grem (S.Graham) tomonidan Industrial Cases metodikasi ishlab chiqildi va texnik muhandislik ta'limida keng qo'llanilmoqda. Mazkur metodika fizika ta'limini real sanoat holatlari, sanoatdagi muammoviy holatlar asosida o'qitishga qaratilgan va fizika bu formulalar to'plami emas, balki sanoatdagi muammolarni echish tilidir degan falsafiy g'oyaga asoslangan. Industrial Cases metodikasining asosiy mohiyati fizika qonunlarini muayyan bir sanoat kontekstida o'rganishdir. S.Grem taklif qilgan o'qitish modeliga ko'ra real muammo—izlanish—nazariyani kashf qilishdan iborat. Industrial Cases metodikasi 4 ta asosiy bosqichga bo'linadi:

1. Texnik chaqiriq bosqichi: talabalarga sanoat korxonasida yuzaga kelgan muammo aytiladi. Misol uchun, korxonadagi konveyer lentasi aylanish jarayonida tebranish hosil qilmoqda, mahsulot tebranishlar orqali zararlanmoqda. Tebranishni qanday minimal xarajat bilan to'xtatish mumkin?

2. Ijodiy izlanish bosqichi: talabalar ushbu muammoni hal qilishning fizikaviy usullarini qidiradilar va masalan, mahsulot massasini o'zgartirish, lentaning ishqalanishini orttirish yoki lenta materialini almashtirish kabi texnik echimlarni taklif qiladilar.

3. Nazariy sintez bosqichi: qo'yilgan real muammoni yechish jarayonida talabalar mexanik tebranishlar, rezonans hodisasi, majburiy tebranishlar tenglamasi kabi fizik bilimlar kerakligini anglab etishadi. Mazkur 3-bosqichda o'qituvchi nazariy bilimlarni "kerak bo'lganda va kerakli joyda" berganligi uchun talabalarning xotirasida mustahkam qoladi.

4. Sanoat muammosi yechimining taqdimoti bosqichi: talabalar o'zlari topgan ijodiy yechimlarni iqtisodiy va texnikaviy jihatdan asoslab berishadi.



2-chizma. Intellektual-ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari

IMEN metodi. CDIO konsepsiyasiga asosan tadqiqotchi olimlar R. Viyers va D. Kropli (R.Wieringa & D.Cropley) ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi (IMEN) metodologiyasini zamonaviy muhandislik ta'limi va innovatsion jarayonlarga integratsiya qilishga qaratishgan. Ularning yondashuvida kreativlik tasodifiy jarayon emas, balki o'rganish mumkin bo'lgan tizimli va mantiqiy metoddir. D.Kropli texnika yo'nalishidagi OTM fizika ta'limida talabalarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda IMEN (ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi) metodlaridan foydalanishni taklif qiladi.

IMEN metodikasini Kropli quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

1-bosqich: ziddiyatni aniqlash.

2-bosqich: fizik effektni aniqlash.

3-bosqich: yechimni sintez qilish, fizik effektni o‘rganish.

Metallarni issiqlikdan kengayishi mavzusida IMEN (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) metodining qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz.

1-bosqich ziddiyatni aniqlash bosqichida texnik ziddiyat va fizik ziddiyatni o‘qituvchi yordamida talabalar ifodalaydi.

a) texnik ziddiyat: temir relslar kengayishi uchun relslar orasida bo‘sh joy bo‘lishi kerak va aksincha poyezd silliq yurishi uchun bo‘sh joy bo‘lmasligi kerak;

b) fizik ziddiyat: relsning uchi bir vaqtning o‘zida ham harakatchan bo‘lishi kerak va aksincha, ham qo‘zg‘almas bo‘lishi kerak.

2-bosqich fizik effektni tanlash bosqichida talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi. IMEN ning 40 ta ixtirochilik usullaridan mosini ro‘yxatdan qidiradilar. Masalan:

a) qismlarga ajratish usuli: relsni alohida mayda bo‘laklarga bo‘lish;

b) bir jinsli bo‘lmagan tuzilma usuli: relsning uchini qiya qilib kesish;

v) fazoviy ajratish usuli: relsni zigzag shaklida o‘rnatish.

3-bosqichda tanlangan texnik yechimlar yoki fizik effektlar o‘rganiladi va shu bilan birga o‘qituvchi mavzuning nazariy qismini tushuntiradi. Fizik effektni o‘rganish bosqichida talabalarga savollar beriladi: 2 xil metalldan yasalgan plastina bimetall issiqlik ta’sirida egiladi. Bu effektdan texnikaviy yechim sifatida qurilmalarda qanday foydalanish mumkin degan savol beriladi.

Tahlil va natijalar. Industrial Cases metodi talabalarning ijodiy kompetentligini rivojlantirish usuli bo‘lib talabaning ijodkorligiga bevosita ta’sir qiladi. Industrial Cases metodini qo‘llash orqali fizika darslarida talabalar formula yozish bilan cheklanib qolmasdan fizik jarayonning modelini yaratish bilan shug‘ullanadi. Berilayotgan sanoat muammolarini vaqt, mablag‘, material cheklovlari asosida hal etish talab qilinganligi tufayli talabalar nostandart, arzon lekin foydali yechimlar topishga ya’ni ijodiy yondashishga majbur bo‘lishadi. Sanoat muammolariga bir nechta echim topish mumkinligi inobatga olinsa, u holda talabalarda divergent fikrlash shakllanadi. Industrial Cases metodikasi asosida olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning fizikaga bo‘lgan qiziqishlari 60 foizga ortadi. Sheffild va Manchester kabi texnika oliygohlarida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, talabalarda muhandislik intuitsiyasi fizikaviy formulalarni yodlagan talabalarga qaraganda 2 barobar kuchliroq rivojlangan. Talabalar muammolarni ijodiy yecha oluvchi innovatorlar sifatida yuqori baholanmoqda. IMEN metodikasi orqali talabalarning intellektual-ijodkorlik darajasi ortadi, talabalar tomonidan tanlangan fizik effekt asosida nostandart va ijodiy kreativ muhandislik yechimi topiladi. Talabalar standart fikrlashdan yangicha innovatsion fikrlashga o‘tadilar. Natijada, fizika ta’limi texnika yo‘nalishlarida amaliy ixtirolar vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami (06/22/60/0082)

2. I.A.Yuldoshev Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini aniqlashda pedagogik diagnostikasining o‘rni Central Asian Journal of Education and Computer Sciences volume 1, issue 2, april 2022 (cajecs), issn: 2181-321.

3. Ibragimova G. (2015). Pedagogical Conditions of Developing Students CreativePotential. Eastern European Scientific Journal. 1(4), 114-118.

4. S.I.Ibragimov. Ta’lim oluvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyati. Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 4 | 2020.ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804

THE MAIN PROBLEMS OF CHOOSING IDEA IN THE RESEARCH

Ruzmetova Novval Vaxabdjanovna,
Acting Professor, Doctor of Pedagogical Science (DSc) "Department of Methodology Preschool and Primary Education" Kimyo International University in Tashkent

Abdullayeva Rigina Avazbekovna,
Master's Student of the "Department of Methodology Preschool and Primary Education" Kimyo International University in Tashkent

Abstract: This publication is devoted to the understanding of the concept of hypothesis as a key component of any scientific research in the field of pedagogy. The author traces the etymology of a concept and its evolution, from ancient philosophical teachings to modern scientific paradigms. The article systematizes the main types of hypotheses used in pedagogical research, and sets out criteria and stages of their formation. The substantiation of a hypothesis is presented as a central element of scientific analysis, including both the construction of logical chains of reasoning and the support of available theoretical work and empirical facts. The information presented in this work is intended to deepen understanding of the significance of a hypothesis in pedagogical science and to encourage more effective research practices.

Key words: supposition; educational insights; scientific conjecture; types of suppositions; definition of supposition; reasoning of supposition; fundamentals of didactics; scientific approach.

Introduction

The hypothesis plays a key role in pedagogical scientific inquiry, as it sets the research vector, forms the framework for argumentation, and serves as a bridge between observed phenomena and theoretical generalizations. The very concept of a «hypothesis,» rooted in the ancient Greek word «hypothesis,» meaning «foundation» or «proposition,» originated in the core of ancient philosophy, where Plato and Aristotle first saw it as an instrument for understanding the deep nature of things. However, the scientific meaning of this term was finally formalized with the development of empirical science, when the hypothesis became a means of verifying scientific assumptions.

In the educational field, hypotheses are used to establish causal dependencies in educational processes, predict their dynamics and assess the effectiveness of pedagogical conditions, methods and technologies. The variety of hypotheses - from descriptive and explanatory to prognostic - is determined by the objectives and structure of a particular study. The process of forming a hypothesis involves a thorough analysis of scientific literature, identifying key problem areas and formulating a testable assumption. The reasoning is based on logical reasoning, supported by theoretical and empirical evidence.

This text aims to analyze the nature of a hypothesis, its origins, typology, as well as methodological aspects of its formation and scientific confirmation in pedagogical science.

Methods

What is the hypothesis? In educational science, a hypothesis is a scientifically sound assumption about the essence, causes or relationships of pedagogical phenomena that requires empirical or theoretical confirmation or rebuttal. It is the foundation of research, guiding its course.

The essence and meaning of the hypothesis in pedagogy

Supposed answer: The hypothesis is a probabilistic response to a research question or problem. It expresses a researcher's vision of ways to solve the problem or influence certain factors on the educational outcome.

Verifiability: A key condition for a hypothesis is its verifiability using available methods, research approaches, and empirical data. In education, this often involves experimental work.

Relation of variables: A hypothesis usually establishes a correlation between two or more variables: independent (which the researcher changes, for example, an innovative approach) and dependent (which is measured, for example, by the level of knowledge absorption).

Formulation requirements

A successful pedagogical hypothesis must: be logically consistent and conform to the fundamental scientific postulates; be clear and precise, avoiding ambiguity; allow for confirmation or refutation; possess predictive power, indicating the expected outcomes or consequences.

Experimental method: When formulating hypotheses, constructs such as «on the condition...», «if... then...», «affects...», «promotes...» are often used.

Example 1: «Schoolchildren who actively apply interactive models in physics education show higher performance in solving practical problems compared to those who learn the material using traditional methods.»

Control method: The application of a project-based approach to high school education not only enhances subject knowledge, but also fosters critical skills such as teamwork, critical thinking, and self-reliance, provided that there is regular feedback and clear evaluation criteria.

The conjecture acts as a guiding core for the entire research process, from selecting the methodology and tools to analyzing the resulting data and formulating final conclusions.

Origins of the hypothesis

The emergence of a hypothesis within the framework of pedagogical science is closely intertwined with the general progress of scientific knowledge and the development of pedagogy as a separate field. The term «hypothesis» itself is derived from the ancient Greek word «hypothesis», meaning «foundation» or «proposition». Already in the ancient works of Plato and Aristotle, the hypothesis served as a starting point for constructing reasoning and scientific research. The concept of a scientific hypothesis as a verified and potentially refutable assertion began to take on modern resonance in parallel with the development of empirical sciences and the philosophy of science, particularly through the works of F. Bacon and K. Popper. F. Bacon played a significant role in separating pedagogy from philosophy and shaping it as an independent direction in the early 17th century. As pedagogy has become a separate scientific discipline (one of whose founders is J. A. Komensky), existing scientific principles and methods have been adopted and adapted, including the application of hypotheses.

In the 20th century, especially after the 1960s, against the background of the active development of pedagogical technologies and methods, the use of hypotheses became an essential requirement for carrying out pedagogical research. In pedagogy, hypotheses are generally based on observations and practical experience (for example, the experience of teaching) and serve to explain educational phenomena, assess the effectiveness of different methods or predict possible outcomes. It determines the direction of further research and experimental work aimed at its confirmation or refutation.

Thus, the hypothesis in pedagogy is a reflection of the evolution of scientific thinking and methodological approaches adapted to the analysis of educational processes. The term «hypothesis» derives its origin from the ancient Greek word «hypothesis», which means «foundation» or «what is laid down». In other words, this can be understood as a «think tank» or a «preliminary judgment».

It is believed that the ancient Greek philosopher Plato was one of the first to apply this concept in a philosophical and methodological context. For him, the hypothesis served as a starting point for further reasoning and evidence-building. The meaning of this word has changed over time. In ancient times, conjecture could mean a brief description of the plot of classical theatrical plays. In the sixteenth century, this word came to denote a precondition, that is, an initial idea based on unproven provisions. The modern scientific meaning of the hypothesis was refined by the philosophers of science, particularly Karl Popper, who defined its differences from earlier philosophical interpretations.

Thus, although the current scientific understanding of the hypothesis developed gradually, the

origins of the term itself and its original use as a basis for reasoning can be traced back to ancient Greek philosophy, particularly Plato's work.

Initial hypothesis

The emergence of pedagogy as an autonomous academic field, and the emergence of formulated theses that are verifiable, occurred relatively recently - in the 17th century. Until then, problems of education and upbringing were analyzed within the framework of philosophy, theology and other fields of knowledge. Original hypothesis or postulate To problematically distinguish the «very first» hypothesis in modern scientific understanding, however, one of the fundamental concepts that became the foundation of scientific pedagogy is considered the idea of harmony with nature (the principle of conformity to nature), proposed by Jan Amos Komensky in the middle of the 17th century.

The essence of this principle, which can be considered as a kind of hypothetical basis of his educational theory, was as follows: Educational and educative processes will be most effective, if they are consistent with the natural patterns of development in children and the world around them. Komensky believed that educational approaches should take into account the age characteristics, inclination and ability of children, just as nature develops gradually and logically. This was a groundbreaking suggestion, which he sought to substantiate and implement in his work «Didactica Magna».

It is with the works of Francis Bacon (who separated pedagogy from philosophy) and Jan Amos Komensky (who systemized it as a science with specific principles and methods) that the birth of pedagogy as a scientific field is linked, applying certain hypothetical statements to create an educational system.

Types of hypotheses in educational science

In education, like other scientific disciplines, there are many ways to classify hypotheses. However, they are more often divided by two main features: their role in scientific research and the content of the assertion being made.

Division by functions within the study: Basic conjecture: Is the fundamental and most important assumption that determines the vector of all research work and predetermines its key conclusions. Her goal is to find an answer to the main problem posed in the study.

Auxiliary hypothesis: A more specific assumption that is used to confirm or refute the main hypothesis. Such hypotheses may relate to particular factors, conditions, or stages of the educational process and are usually formulated to solve specific problems.

Classification by subject:

Within the framework of pedagogical studies, the following hypotheses are typical: Typology of research assumptions in pedagogy: Constatory (existential) hypotheses: This type of hypothesis focuses on the fact that specific phenomena, relationships, or conditions exist or are present in the pedagogical sphere. The following statement can be cited as an illustration: «There is a relationship between the degree of motivation and academic performance of students in a particular subject.»

Explanatory (causal) hypotheses: This type of hypothesis aims to reveal cause-effect relationships, underlying mechanisms or patterns that operate within the framework of educational activity. It is such hypotheses that are most often used in educational experiments. An example is the conjecture: «The application of innovative teaching methods positively affects the increase in the degree of involvement of students in the educational process.»

Predictive hypotheses: These hypotheses represent reflections about the further development or state of educational systems, processes, or phenomena. As an illustration, the following assumption can be made: «Within a year, the implementation of the new educational program will lead to a reduction in the level of conflict among students.»

In empirical studies, hypotheses are often formulated as assumptions about the performance of specific conditions, techniques, technologies or tools used in teaching and education.

Examples of formulations: Hypothesis about conditions: «The effectiveness of developing cognitive activity in high school students will increase if a system of project assignments based on their personal interests is implemented in the educational process.» Method conjecture: «Students who eat breakfast regularly will do better than those who skip breakfast in the math exam.» Model hypothesis: «A specially designed model of inclusive learning would provide a higher level of social adaptation for children with special educational needs than the traditional model.»

The key requirement for any pedagogical hypothesis is that it can be verified by empirical methods (observation, experiment, testing, survey) and in accordance with fundamental scientific principles.

The creation of a working hypothesis is a creative act that underpins any meaningful scientific quest. This process requires from the scientist not only insights, but also a deep insight into the subject being studied, supported by clear conclusions. The following step-by-step instructions will help you create a convincing scientific guess: Before starting to form a hypothesis, it is crucial to define the object of scientific interest with crystal clarity: Formulate the central question: Clearly define which question you are looking for an answer to in your research. Study the available theories and facts: Conduct a thorough review of current scientific literature. What research has been undertaken before? What theoretical concepts already exist? Your hypothesis should be based on an existing knowledge base. Highlight variables: Define the main components of your research.

Discussion

Choose the type of hypothesis (for scientific research using statistics). Where the work involves statistical analysis, a clear definition of zero and alternative hypotheses is required. Design of the experimental test. At this stage, consider carefully how the hypothesis will be tested: What is the composition of the necessary data? Which analytical tools will be used? What measures will determine the validity of the assumptions made? The procedure for substantiating a hypothesis consists in presenting logically constructed arguments and supporting facts that demonstrate the plausibility of the original idea even before empirical verification. This justification is intended to confirm the scientific validity of the proposed concept, its relevance and its consistency with the existing body of knowledge.

Conclusion

This work is devoted to the role of the hypothesis as a cornerstone in scientific pedagogical research. The author deeply analyzes the essence of a hypothesis, defining it as an evidence-based assumption about mechanisms, relationships or patterns in the educational process that requires further verification. Retrospective analysis of the evolution of the concept of «hypothesis», from its philosophical origins in ancient Greece to modern scientific understanding, with particular attention to contributions by such eminent thinkers as Plato, Aristotle, F. Bacon, J. A. Komensky and K. Popper, had a significant influence on the formation and use of this term.

The following are different categories of hypotheses used in educational research: descriptive, explanatory, predictive, basic and auxiliary. It is emphasized that the choice of a specific type of hypothesis depends directly on the research objectives and structure of scientific analysis. Examples of pedagogical hypotheses are given, illustrating their significance in the identification of cause-effect relationships, determination of conditions of effectiveness of educational methods and prediction of learning outcomes.

A separate block of research is built around the methodology for forming a hypothesis. The author emphasizes the paramount importance of clearly posing a research question, comprehensively studying relevant scientific literature, identifying key variables and succinctly presenting the hypothesis to be tested. The main requirements of a hypothesis are formulated: its logical structure, unambiguity, possibility of empirical verification and conformity with generally accepted scientific postulates.

In the final part of the work, an analysis is presented of the methods used to substantiate

hypotheses: rational (deductive and inductive approaches), theoretical (based on the analysis of scientific literature) and empirical (based on preliminary data and observations), and the rationale for its relevance and verifiability. It is noted that a proper substantiation of the hypothesis increases the scientific value of the conducted research and guarantees methodological accuracy of the pedagogical analysis.

References

1. E.I. Torokhov Formation of a hypothesis in scientific research
2. Solnyshkov Maxim Evgenyevich Conjecture of scientific and pedagogical research
3. Aksutina Classification of hypotheses of pedagogical research
A total of 320 participants completed the survey: 198 students (62%), 86 faculty members (27%), and 36 administrators (11%). Among student respondents, 47 (23.7%) reported a documented disability. The sample was gender-balanced (52% female, 48% male), with participants ranging in age from 18 to 58 years (M = 27.4, SD = 8.6). Purposive sampling ensured representation from diverse faculties including engineering, social sciences, humanities, and natural sciences.

Quantitative survey data were analyzed using IBM SPSS Statistics (Version 27). Descriptive statistics were computed for all survey items. Independent samples t-tests and one-way ANOVAs were used to identify significant differences across subgroups (students with and without disabilities; faculty with and without inclusive pedagogy training). Qualitative interview data were analyzed using reflexive thematic analysis (Braun & Clarke, 2022), following a six-phase process: familiarization, generating initial codes, searching for themes, reviewing themes, defining and naming themes, and producing the report. Systematic literature review data were synthesized narratively by theme.

Results. The most prevalent finding across all data sources was the inadequacy of both physical and digital accessibility infrastructure. Survey results revealed that 78.3% of students with disabilities reported encountering at least one significant physical barrier on campus, including absence of ramps, inaccessible restrooms, and lack of tactile guidance systems. Among faculty respondents, 61.6% acknowledged awareness of physical barriers but reported uncertainty about institutional procedures for lodging accessibility complaints. Interview data confirmed these patterns; one student participant noted: «I have been in a wheelchair for six years, but I still cannot independently access half of the buildings on campus.»

Digital accessibility barriers were equally prominent. Of the 45 articles reviewed, 38 (84.4%) cited inaccessible e-learning platforms as a critical obstacle, particularly for students with visual impairments and dyslexia. Survey data corroborated this: 69.4% of students with disabilities reported that their university's learning management system was either partially or fully inaccessible using screen readers or other assistive software.

Despite national-level legislation mandating disability accommodations in all three countries studied, the translation of policy into institutional practice was deeply inconsistent. Only 34.2% of faculty and 41.7% of administrators could correctly identify their institution's official inclusive education policy. Among students with disabilities, 55.3% reported they had never been informed of their right to reasonable accommodation upon enrollment. Systematic review findings similarly highlighted that legal frameworks across Central Asia lack enforcement mechanisms, monitoring bodies, and adequate funding provisions (Silova & Steiner-Khamsi, 2018; UNESCO, 2020).

Faculty preparedness in inclusive pedagogy emerged as a critical gap. Quantitative analysis showed that only 30.9% of faculty participants had received formal professional development in inclusive teaching methods, UDL, or disability studies. An independent samples t-test revealed that faculty with inclusive pedagogy training reported significantly higher confidence in supporting students with disabilities (M = 4.12, SD = 0.67) compared to untrained colleagues (M = 2.48, SD = 0.89; $t(84) = 9.21$, $p < .001$, $d = 2.10$). Interview data illustrated the consequences of this gap: administrators reported increased student complaints related to assessment inflexibility and lack of lecture material in accessible formats.

A statistically significant disparity was observed between urban and rural student access to digital learning resources. Students from rural areas (n = 87) reported significantly lower access to reliable internet (M = 2.14, SD = 1.02) compared to urban counterparts (M = 3.89, SD = 0.91; $t(196) = -11.43$, $p < .001$). Moreover, 44.2% of students from lower-income families reported being unable to afford the assistive technologies recommended by their disabilities office. Thematic

analysis of interviews identified a recurring subtheme of «digital shame»—a reluctance to disclose technology-related difficulties to faculty or peers for fear of stigmatization.

Discussion. The results of this study paint a sobering yet instructive portrait of inclusive education practice in Central Asian higher education. The high prevalence of physical and digital accessibility barriers (78.3% and 69.4%, respectively) is consistent with international literature documenting systemic underinvestment in disability infrastructure at universities in low- and middle-income countries (Nguyen et al., 2020; OECD, 2021). These findings challenge assumptions that inclusive education is primarily a pedagogical challenge, underscoring the foundational importance of environmental and technological prerequisites.

The policy-practice gap identified in this study corroborates Armstrong and Barton's (2021) observation that inclusive education policies often remain «rhetorically progressive but operationally inert» (p. 112) without dedicated implementation structures. The finding that only one-third of faculty could accurately identify their institution's inclusive education policy suggests that policy dissemination strategies are inadequate and that middle management—department heads and programme coordinators—may represent a critical but underutilized conduit for policy communication.

The low rates of faculty training (30.9%) and its statistically significant association with inclusion confidence ($d = 2.10$) are particularly notable. This large effect size suggests that targeted professional development in UDL and inclusive pedagogy may be among the highest-leverage interventions available to university leadership. Rose and Meyer's (2002) UDL framework—which advocates for multiple means of representation, action and expression, and engagement—provides a theoretically robust and practically flexible scaffold for faculty development programs. This study's findings offer empirical support for accelerating UDL adoption across Central Asian university systems.

The digital divide findings extend the well-documented global concern about technology equity into the specific domain of disability inclusion. Selwyn (2022) cautions against the uncritical assumption that digital tools inherently democratize education, and this study's data—particularly the phenomenon of «digital shame»—highlight the psychosocial dimensions of technological exclusion that quantitative measures alone may fail to capture.

Several concrete implications emerge from this study. At the institutional level, universities must invest in comprehensive accessibility audits of both physical and digital infrastructure, with findings made publicly available and linked to binding remediation timelines. The adoption of the Web Content Accessibility Guidelines (WCAG 2.2) as a minimum standard for all institutional digital platforms is recommended.

With respect to pedagogy, all universities should establish mandatory and recurring professional development programs in UDL for academic staff, with particular emphasis on flexible assessment design, multi-modal content delivery, and assistive technology literacy. These programs should be co-designed with students with disabilities to ensure relevance and authenticity.

At the policy level, ministries of education in transition economies should introduce accreditation standards that include measurable inclusive education benchmarks, thereby creating systemic accountability for institutional performance. International development organizations and bilateral donors should prioritize assistive technology lending libraries and subsidized internet access programs to address equity disparities among low-income students.

This study is subject to several limitations. First, the purposive sampling strategy and regional focus on Central Asia limit the generalizability of findings to other geopolitical contexts. Second, the use of self-report survey instruments introduces the risk of social desirability bias, particularly among administrator respondents. Third, the cross-sectional design precludes causal inference: while significant associations were identified, the directionality of relationships (e.g., between training and confidence) cannot be established without longitudinal study. Finally, the systematic

review was limited to English, Russian, and Uzbek-language publications, potentially excluding relevant scholarship published in other Central Asian languages.

Future research should employ longitudinal designs to track the impact of inclusive education interventions over time. Comparative studies across diverse geopolitical regions—including Sub-Saharan Africa, South Asia, and Latin America—would contribute to a more globally nuanced evidence base. Researchers are also encouraged to adopt participatory action research methodologies that center the perspectives and agency of students with disabilities in the co-production of inclusive education solutions.

Conclusion. This study has demonstrated that inclusive education in Central Asian higher education is impeded by a confluence of structural, pedagogical, and technological barriers that require coordinated, multi-level responses. The findings affirm the centrality of physical and digital accessibility, policy enforcement, faculty professional development, and digital equity to meaningful inclusion. Universal Design for Learning offers a theoretically sound and empirically supported framework for driving institutional transformation. Ultimately, the realization of inclusive higher education is not merely a matter of legal compliance or institutional reputation—it is a moral and developmental imperative with far-reaching consequences for social equity and economic participation across the region and beyond.

REFERENCES

Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2019). Improving schools, developing inclusion. Routledge.

Armstrong, F., & Barton, L. (2021). Policy, experience and change: Cross-cultural reflections on inclusive education. Springer.

Braun, V., & Clarke, V. (2022). Thematic analysis: A practical guide. SAGE Publications.

Burgstahler, S. (2020). Universal design in higher education: From principles to practice (2nd ed.). Harvard Education Press.

Creswell, J. W., & Plano Clark, V. L. (2018). Designing and conducting mixed methods research (3rd ed.). SAGE Publications.

Hockings, C. (2010). Inclusive learning and teaching in higher education: A synthesis of research. Higher Education Academy.

Moher, D., Liberati, A., Tetzlaff, J., & Altman, D. G. (2009). Preferred reporting items for systematic reviews and meta-analyses: The PRISMA statement. PLOS Medicine, 6(7), e1000097. https://doi.org/10.1371/journal.pmed.1000097

Nguyen, M. H., Nguyen, T. T., & Tran, T. Q. (2020). Inclusive education in higher education: Barriers and facilitators in developing countries. International Journal of Inclusive Education, 24(9), 912–928. https://doi.org/10.1080/13603116.2020.1730245

OECD. (2021). Education at a glance 2021: OECD indicators. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/b35a14e5-en

Rose, D. H., & Meyer, A. (2002). Teaching every student in the digital age: Universal design for learning. Association for Supervision and Curriculum Development.

Selwyn, N. (2022). Education and technology: Key issues and debates (3rd ed.). Bloomsbury Academic.

Silova, I., & Steiner-Khamsi, G. (2018). How NGOs react: Globalization and education reform in the Caucasus, Central Asia and Mongolia. Kumarian Press.

Tomlinson, C. A. (2017). How to differentiate instruction in academically diverse classrooms (3rd ed.). ASCD.

UNESCO. (2020). Inclusion in education. UNESCO Publishing. https://en.unesco.org/themes/inclusion-in-education

United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 agenda for sustainable development. United Nations. https://sdgs.un.org/2030agenda

MILLIY TARBIYA METODLARI ASOSIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Nurmatova Nargiza Ulug‘bekovna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Profi University Nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy tarbiya metodlarining mazmun-mohiyati hamda ularning talaba qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Maqolada milliy tarbiya vositalari orqali yoshlarning tashabbuskorligi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy fazilatlarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonning ijtimoiy-pedagogik asoslari ochib beriladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg‘unligida talaba qizlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya metodlari, ijtimoiy faollik, talaba qizlar, ma’naviy tarbiya, qadriyatlar, ijtimoiy-pedagogik asoslar, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание и сущность методов национального воспитания, а также их роль в развитии социальной активности студенток. В работе анализируются вопросы формирования инициативности, социальной активности и нравственных качеств молодежи посредством средств национального воспитания, а также раскрываются социально-педагогические основы данного процесса. Кроме того, обосновываются возможности повышения социальной активности студенток в общественной жизни на основе сочетания национальных ценностей, традиционных и современных педагогических подходов.

Ключевые слова: методы национального воспитания, социальная активность, студентки, нравственное воспитание, ценности, социально-педагогические основы, воспитание молодежи.

Abstract: This article examines the essence and content of national education methods, as well as their role in developing the social activity of female students. The study analyzes the formation of initiative, social engagement, and moral qualities of young people through national education tools, and reveals the socio-pedagogical foundations of this process. In addition, it substantiates the opportunities for enhancing female students’ participation in public life based on the integration of national values, traditional and modern pedagogical approaches.

Keywords: national education methods, social activity, female students, moral education, values, socio-pedagogical foundations, youth education.

Rivojlanib borayotgan zamonaviy jamiyatda talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirsh muammosi ustuvor yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talaba qizlarda ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy axloq, ijtimoiy ong, ijtimoiy tashabbuskorlik va tashkilotchilik hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko’nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda milliy tarbiya muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Yoshlar tarbiyasida milliylik muhim ekanligini Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlab o’tganlar. “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur ”.

Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, xususan, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur konsepsiyada ta’lim va tarbiya jarayonining uzluksizligi, milliy va

umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda oila, ta’lim muassasalari va jamiyat hamkorligi asosida yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy tarbiya metodlari orqali talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish konsepsiyada ilgari surilgan maqsad va vazifalarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Talaba qizlarni faollashtirishda, kasbiy professionlallgini oshirishda va ijtimoiylashtirishda milliy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Miliiy tarbiya va ijtioiy faollik tushunchalari bir birini to’ldirib turuvchi va boyituvchi muhim ijtimoiy omillar hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan bu ikkita tushunchaga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Milliy tarbiya – bu shaxsdagi milliyligini, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarni va milliy odob axloqni, milliy o’zlikni hamda milliy ma’naviy mezonlarni shakllantirish jarayonidir.

Pedagog olim M.Quronov o’zining ilmiy tadqiqotlari jarayonida milliy tarbiya tushunchasining ko’p qirrali ekanligini asoslab bergan va milliy tarbiyani umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli ekanligini asoslab bergan .

Milliy tarbiya tushunchasiga F.O.Mirzayeva, N.X.Voxidova va B.N.Saidovalar quyidagicha ta’rif berishgan. Milliy tarbiya – bu asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan, yoshlarning mafkuraviy ongi va qadriyat yo’nalishlarini shakllantirish, ularning itimoiy tajribasini oshirish, milliy madaniy merosini o’zlashtirishga qaratilgan qarashlar, e’tiqodlar, g’oyalar. An’analar va urf-odatlar tizimidir .

Ijtimoiy faollik bu – shaxsdagi ijodkorlik, o‘z iroda kuchi asosida harakat qilib muloqotga kirishishi, jamiyatning etik-estetik, pedagogik-psixologik, madaniy, moddiy-ma’naviy qadriyat va boyliklarini o‘zlashtirish asosida faollashib borishi hisoblanadi.

Qizlarning ijtimoiy faolligi jamoada, guruhda, norasmiy birlashmada muloqot qilish va harakat qilish, boshqalar bilan samarali munosabatda bo‘lish, tengdoshlari, oilaning katta va kichik a’zolari, mahallalar oldidagi muayyan majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda faol bajarishlari, o‘zlarini rivojlantirishga, faollashtirishga qaratilgan ongli hamda tizimli faoliyatidir. Qizlar ijtimoiy faolligi bu nafaqat o‘zlari, balki boshqa o‘quvchi-qizlarni ham ijtimoiy faol bo‘lishga undovchi va o‘zining ortidan boshqa qizlarni ergashtira oluvchi ijtimoiy foydali faoliyatidir .

Talaba qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda, bu jarayonni tashkil qilish milliy tarbiya, milliy tarbiya metodlari bilan chambarchas bog’liq va katta strategik kuch hisoblanadi. Milliy tarbiya, milliylik talaba qizlarning ma’naviy olamini boyitish, ularda jamoatchilik ko’nikmalari, vatanparvarlik, mas’uliyatlilik, tegishlilik kabi hislatlar hamda avlod-ajdodlarimizdan qolgan meroslarimiz axloqiy hislatlar va ichki motivatsiyani shakllantirishga xizmat qilsa, ijyimoiy faollik esa talaba qizlarda mana shu ichki tutki, ichki olamidagi ichki salohiyatini amalga oshirishiga, jamiyatda faol harakat qilishiga yordam beradi. Milliy tarbiya asosida o’zligini anglagan talaba qizlar o’zini jamiyatning bir bo’lagi sifatida ko’radi va loqaydlik, mas’uliyatsizlik, beparvolikdan vos kechib, yurt ravnaqi yo’lida amalga oshirilayotgan faoliyatlarda volontyor sifatida faoliyat yuritishga, ekologik muammolarni hal qilishga va milliy, umummiliy, umuminsoniy muammolarni hal qilishga tomon faol faoliyat yuritadi. Shu sababdan, milliy qadriyatli, milliy tarbiya ko’rgan ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash yurtimizning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlovchi va kelajakdagi har qanday g’oyaviy hurujlarga qarshi mustahkam ma’naviy qalgon yaratuvchi eng afzal yo’ldir. Zero, milliy tarbiya ko’ragan ijtimoiy faol talabalar faoliyatining asosiy maqsadi milliy o’zlikni anglash va jamiyatni rivojlantirish hisoblanadi.

Talaba qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda milliy tarbiya metodlaridan foydalanish — bu ularning nafaqat bilimli, balki jamiyatda faol, mas’uliyatli va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy meros muhim o‘rin tutadi.

Avvalo, milliy tarbiya asosida qizlarda o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish zarur. Masalan, tarixiy siymolar, buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati bilan tanishtirish orqali ularda ibrat olish, faol bo‘lishga intilish kuchayadi.

A.Sh.Muxsiyevaning ilmiy tadqiqotida milliy tarbiya metodlari tizimli ravishda tahlil qilingan

bo‘lib, ular mazmuni va ta’sir darajasiga ko‘ra tasniflanadi. Xususan, olima milliy tarbiya metodlarini mazmuniga ko‘ra ijobiy va salbiy metodlarga ajratadi.

Ijobiy metodlar shaxs faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga xizmat qilsa, salbiy metodlar esa nomaqbul xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotda metodlar ta’sir darajasiga ko‘ra ham guruhlarga bo‘linadi: faoliyatdan norozilikni ifodalovchi metodlar, faoliyatni rag‘batlantiruvchi metodlar hamda faoliyatni taqiqlashga olib keluvchi metodlar.

A.Sh.Muxsiyeva ta’kidlaganidek, rag‘batlantiruvchi metodlarga maqtash, tashakkur bildirish, mukofotlash, ishonch bildirish kabi usullar kiradi. Norozilikni ifodalovchi metodlar esa tanbeh berish, ogohlantirish, tanqid qilish orqali amalga oshiriladi. Salbiy, ya’ni cheklovchi metodlar qatoriga esa jazolash, majburlash, taqiqlash kabi vositalar kiritiladi .

Mazkur yondashuv talaba qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki to‘g‘ri tanlangan milliy tarbiya metodlari ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

Shuningdek, an’anaviy tarbiya metodlari — suhbat, pand-nasihat, ibrat ko‘rsatish, jamoaviy tadbirlar orqali ijtimoiy faollikni oshirish mumkin. Milliy bayramlar, marosimlar va madaniy tadbirlar (masalan, Navro‘z, xalq sayillari)da faol ishtirok etish qizlarning tashabbuskorligini va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yana bir muhim omil bu — oila va ta’lim muassasasi hamkorligi. Ota-onalar, ustozlar va murabbiylar tomonidan berilayotgan milliy tarbiya elementlari uyg‘unlashganda, talaba qizlar o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, jamiyat muammolariga befarq bo‘lmagan faol shaxsga aylanadi.

Bundan tashqari, milliy san’at, adabiyot, hunarmandchilik bilan shug‘ullanish ham qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshiradi. Bu ularni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka va o‘z qobiliyatlarini namoyon etishga undaydi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida turli shakl va metodlar qo‘llanilmoqda. Xususan, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, madaniy kechalar orqali talaba qizlarda jamoatchilik faoliyatiga qiziqish uyg‘otilmoqda. Bunday tadbirlar ularning tashabbuskorligini oshirish, ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Milliy tarbiya metodlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilayotgani ham muhim jihatlardan biridir. Interaktiv metodlar, trening mashg‘ulotlari, loyihaviy faoliyat hamda volontyorlik ishlari orqali talaba qizlar bevosita ijtimoiy jarayonlarga jalb etilmoqda. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirmoqda.

Zamonaviy ta’lim muhitida asosan ijobiy metodlarga ustuvor ahamiyat berilayotgani kuzatiladi. Ammo mavjud holatni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ayrim muammolar ham mavjud. Ba’zi hollarda milliy tarbiya metodlari faqat tashkiliy tadbirlar doirasida qolib ketib, talaba qizlarning ichki motivatsiyasini shakllantirishga yetarlicha ta’sir ko‘rsatmayapti. Shuningdek, globallashuv jarayonlari va ommaviy madaniyat ta’siri natijasida yoshlarning qiziqishlari o‘zgarib borayotgani milliy tarbiya metodlarini yangicha yondashuv asosida takomillashtirishni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, milliy tarbiya metodlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda talaba qizlarning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu kabi yo’llar orqali ularning ijtimoiy faolligini barqaror va samarali rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Mazkur jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun milliy tarbiya metodlarini qo‘llashda uzluksizlik va tizimlilikni ta’minlash muhim hisoblanadi. Ya’ni, tarbiyaviy ishlar faqat ma’lum tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quv jarayoni, darsdan tashqari faoliyat hamda kundalik ijtimoiy munosabatlar bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim. Bunday yondashuv talaba

qizlarda barqaror ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda mentorlik va murabbiylik kurslarining ahamiyati ortib bormoqda. Tajribali ustozlar, faol talaba yetakchilari tomonidan olib boriladigan maqsadli ishlar yoshlarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga yordam beradi. Bu jarayonda milliy qadriyatlarga asoslangan shaxslararo munosabatlar — hurmat, mehr-oqibat, hamjihatlik kabi fazilatlar muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy loyihalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash ham samarali vositalardan biridir. Talaba qizlarni turli ijtimoiy, madaniy va xayriya loyihalariga jalb etish orqali ularda jamiyat muammolariga befarq bo‘lmaslik, tashabbus ko‘rsatish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, milliy an’analar bilan bog‘liq loyihalar (hunarmandchilik, milliy san’at, madaniy merosni asrash) ularning o‘zligini anglash va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy sharoitda raqamli muhitning ta’sirini ham inobatga olish zarur. Ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib etish, onlayn loyihalar va tashabbuslar tashkil etish talaba qizlarning faolligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shu bilan birga, ularni axborot madaniyatiga o‘rgatish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kelgusida milliy tarbiya metodlaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish hamda ta’lim tizimida innovatsion metodlarni qo‘llash zarur. Bu esa talaba qizlarning nafaqat ijtimoiy faolligini, balki ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda milliy tarbiya metodlari asosida talaba qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, u doimiy takomillashtirishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan izchil va maqsadli ishlar natijasida jamiyatda faol, tashabbuskor va yuksak ma’naviyatli ayollar qatlamini shakllantirish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiya metodlari orqali shakllantirilgan ijtimoiy faollik yoshlarning tashabbuskorligi, mas’uliyat hissi va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi. // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

Mirzayeva F.O., Vohidova N.X., Saidova B.N. Milliy tarbiya asoslari. Darslik. “NF MSH” nashriyoti. T.:2024. 7-b.

Nurmatova N.U. Oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o’quvchi qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori diss. PhD. T.:2023. 42-b.

Мухсиева А.Ш. Оилада миллий тарбия жараёнининг методик асослари. Пед. Фан. Номзоди дисс. Автореферати. Т.:2005. 12 б.

Қуронов М. Миллий тарбия. Монография. “Маънавият”. Т.:2007. 6 б.

https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang/

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTRISH

Nusratova Hamida Cho‘liboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
professori, PhD

Anvarova Durdona Toxir qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
1-bosqich magistri

Annotatsiya: Mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.Shu jumladan ta‘lim tizimini ham yangi bosqichlarga olib chiqish uchun keng islohatlar va izlanishlar olib borilmoqda.Ayniqsa yosh avlod ta‘lim tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilishi ,ilg‘or tajribalar asosida ta‘lim sifatini oshirishga bo‘lgan amaliy ishlar buning yaqqol namunasidir .Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsida kreativlikni rivojlantrishning metodik tizimi,o‘quvchilarning kreativ fikrlashini,tafakkurini rivojlanishi va ijodiy fikrlash qobilatlari shakillangan yuksak ma‘naviyatli, iqtidorli avlodlarni voyaga yetkazishni muhim omil sifatida boshlang‘ich ta‘lim tizimidan boshlab ilg’or pedagogic va innovatsin texnologiyalarni keng miqiyosda qo‘llash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili darsligi, kreativlik, ijodiy fikrlash, taffakurni rivojlanishi, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В нашей стране ведётся масштабная работа во всех сферах, включая обширные реформы и исследования, направленные на выведение системы образования на новый уровень. Особое внимание уделяется образованию молодого поколения, ярким примером чего является практическая работа по повышению качества образования на основе передового опыта. В данной статье рассматривается методическая система развития креативности на уроках родного языка в начальной школе, развитие творческого мышления учащихся, а также широкое использование передовых педагогических и инновационных технологий, начиная с системы начального образования, как важный фактор воспитания высокодуховного, талантливого поколения с сформированными способностями к творческому мышлению.

Ключевые слова: начальное образование, учебник родного языка, креативность, творческое мышление, развитие мышления, инновационные технологии.

Annotation: V nashey strane vedyotsya sshtabnaya bota vo sesh sferakh, vklyuchaya obshirnye reformy i ssledovaniya, napravlennye na vyvedenie systemy obrazovaniya na novyy uroven. Osoboe vnimanie udelyaetsya obrazovaniyu molodogo pokolenia, yarkim primerom chego yavlyaetsya prakticheskaya rabota po vysheniyu kachestva obrazovaniya na osnove peredovogo opyta. V dannoy state rassmatrivaetsya methodical system of creativity development na urokax native language in primary school, development of creative thinking, and also wide use of peredovyx pedagogicheskikh and innovative technology, nachinaya s systems of primary education, as an important factor of education of highly spiritual, talented generation with sformirovannymi k tvorcheskomu myshleniyu

Key words: elementary education, native language teacher, creativity, creative thinking, development of thinking, innovative technologies.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu davrda ona tili

fani o‘quvchilarning nafaqat savodxonligini, balki fikrlash madaniyatini ham rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida “shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish” belgilangan. Shuningdek, 2017–2023 yillarda qabul qilingan Prezident qarorlarida ta’lim jarayoniga innovatsion va interfaol metodlarni joriy etish alohida qayd etilgan . Shu jihatdan, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish bugungi pedagogikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biridir.

Birinchi bosqich: Kreativ fikrlashning nazariy asoslari. Kreativ fikrlash tushunchasi pedagogika va psixologiyada keng o‘rganilgan. “Kreativlik” atamasi lotincha “creare” — yaratmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yangi g‘oyalar yaratish, noodatiy yechim topish qobiliyatini bildiradi. Mashhur amerikalik psixolog J.P.Guilford kreativlikni divergent fikrlash bilan bog‘laydi. Uning fikricha, kreativ fikrlash — bu bir muammoga bir nechta yechim topish qobiliyatidir. Rus psixologi L.S.Vygotskiy esa bolaning ijodiy rivojlanishi ijtimoiy muhit va til bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchini yangi fikrlash darajasiga olib chiqishda muhim rol o‘ynaydi . Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun til darslari eng qulay maydon hisoblanadi, chunki ona tili tafakkur va nutqni birlashtiradi. Shuningdek, zamonaviy metodist olim E. I.Passov til o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishini qayd etadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslari aynan shu nazariyalar asosida tashkil etilsa, o‘quvchilarning fikrlash doirasi sezilarli darajada kengayadi.

Ikkinchi bosqich: Metodik yondashuvlar va innovatsion usullar. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Metodist olimlar quyidagi usullarni samarali deb hisoblaydilar:

1. Aqliy hujum metodi bu o‘quvchilar bir muammo yuzasidan tez va ko‘p g‘oya bildirishlari. Bu usul erkin fikrlashni rivojlantiradi. Aqliy hujum — bu o‘quvchilarga bir muammo yoki savol berilib, ular hech qanday cheklovsiz tez va erkin fikr bildirish jarayonidir. Bu metodda asosiy qoida — har qanday fikr qabul qilinadi, tanqid qilinmaydi. Masalan: “So‘z nima uchun muhim?”, “Gapni qanday qilib chiroyli qilish mumkin?”, “Agar til bo‘lmasa nima bo‘lardi?” kabi savollarni misol qilish mumkun.

Aqliy hujum metodining kreativlik bilan aloqasi bevosita va kuchli hisoblanadi. Chunki u o‘quvchining erkin fikrlashini rag‘batlantiradi, yangi g‘oyalar yaratishga undaydi, odatiy fikrlash chegarasidan chiqishga yordam beradi, muammoga ko‘p yechim topish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Psixolog J.P.Guilford kreativ fikrlashni “bir muammoga bir nechta yechim topish qobiliyati” sifatida ta’riflaydi. Aqliy hujum aynan shu jarayonni amalda rivojlantiradi. Aqliy hujum ona tili darslarida turli shakllarda qo‘llaniladi bular quydagilar:

So‘z ustida ishlash: “Kitob” so‘zi bilan bog‘liq barcha fikrlarni ayting?, “Ona” so‘zi sizda qanday tasavvur uyg‘otadi?, gap tuzish. Berilgan so‘zlardan ko‘p gap tuzish, gapni turli usulda ifodalash, matn ustida ishlash, matnga sarlavha topish, matnni davom ettirish kabilardir.

2. Klaster usuli: markaziy tushuncha atrofida bog‘langan g‘oyalarni tasvirlash orqali o‘quvchining tizimli fikrlashi shakllanadi. Klaster usulining asosiy maqsadi, o‘quvchilarda erkin fikrlashni rivojlantirish, bilimlarni tizimlashtirish mavzuni chuqur tushunish, ijodiy yondashuvni shakllantirish, yangi g‘oyalar yaratishga o‘rgatishdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu usul ayniqsa foydali, chunki ular tasvir va bog‘lanish orqali tezroq o‘rganadilar.

3. Muammoli ta’lim: O‘quvchilarga tayyor javob berilmaydi, ular o‘zlari yechim topadilar. Muammoli ta’limning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, bilim muammoli vaziyatdan boshlanadi. O‘qituvchi tayyor qoidani bermaydi, balki o‘quvchini savol yoki muammo oldiga qo‘yadi. Bundan tashqari muammoli ta’lim o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish,bilimni chuqur va ongli o‘zlashtirish, muammolarni hal qilish ko‘nikmasini

rivojlantirish, tadqiqot qilishga qiziqish uyg‘otish.

4. Ijodiy yozma ishlar: Ertak, hikoya, she’r tuzish orqali nutq va tasavvur rivojlanadi. Ijodiy yozma ishlar orqali kreativlik quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanadi: tasavvur kengayadi, erkin fikrlash shakllanadi, nutq boyligi oshadi, mantiqiy bog‘lash qobiliyati rivojlanadi, his-tuyg‘ularni ifodalash kuchayadi.

5. Rol o‘ynash: o‘quvchilar turli rollarni ijro etib, nutqiy va ijodiy ko‘nikmalarini oshiradilar. Rol o‘ynash — bu o‘quvchilarning ma’lum vaziyat, qahramon yoki hodisani sahnalashtirish orqali ijro etishiga asoslangan interfaol metoddir. Ona tili darslarida bu usul o‘quvchilarning kreativ fikrlashini, nutqiy faolligini va tasavvurini rivojlantirishda juda samarali vosita hisoblanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki rol o‘ynash quyidagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi: tasavvur va obrazli fikrlash,erkin nutq tuzish,vaziyatni tahlil qilish, yangi g‘oyalar yaratish,muammoli vaziyatni hal qilishdir. Rol o‘ynash jarayonida o‘quvchi faqat tinglovchi emas, balki qahramon obraziga kiruvchi ijrochi bo‘ladi. U berilgan vaziyatni tushunadi, fikr yuritadi va o‘z nutqi orqali ifodalaydi. Metodist N.I.Savinova fikricha, ijodiy topshiriqlar o‘quvchining mustaqil fikrlashini faollashtirib, darsga qiziqishni oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kompetensiyaviy yondashuv joriy etilib, o‘quvchining amaliy va ijodiy faoliyati birinchi o‘ringa qo‘yilmoqda.

Uchinchi bosqich: Amaliy jarayon va darsni tashkil etish texnologiyasi. Ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchi darsni to‘g‘ri loyihalashi lozim.

1. Darsning kirish qismi:

O‘qituvchi motivatsiya yaratadi: savol, rasm yoki qisqa hikoya orqali mavzuga qiziqish uyg‘otadi,

2. Asosiy qism:

Bu bosqichda interfaol metodlar qo‘llaniladi: so‘zlardan gap tuzish,rasm asosida hikoya yaratish ,berilgan so‘zlarni o‘zgartirib yangi ma’no hosil qilish.

3. Mustahkamlash bosqichi:

O‘quvchilar ijodiy topshiriqlar bajaradi: “Agar men sehrgar bo‘lsam…” mavzusida matn yozish, berilgan so‘zlardan ertak tuzish, kichik dialog yaratish.

4. Yakuniy bosqich

O‘qituvchi o‘quvchilar ishini tahlil qiladi, eng ijodiy ishlar rag‘batlantiriladi. Masalan, “bahor” mavzusi asosida o‘quvchilar tabiatni tasvirlab, his-tuyg‘ularini ifodalovchi matn yozadilar. Bu ularning tasavvurini kengaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limni rivojlantirishga oid qarorlarida ham o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga alohida urg‘u berilgan.

4-bosqich: natijalar, tahlil va xulosa. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ metodlar qo‘llanilgan darslarda: o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi, nutq boyligi oshadi , yozma va og‘zaki ijodiy ko‘nikmalar shakllanadi

darsga qiziqish ortadi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, bunday darslar o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki ijodkor shaxs sifatida ham shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolaning nutqi, tasavvuri, mantiqiy fikrlashi va ijodiy yondashuvi shakllanadi. Ta’lim jarayonida klaster, muammoli ta’lim, aqliy hujum, rol o‘ynash, ijodiy yozma ishlar kabi innovatsion metodlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni passiv tinglovchidan faol fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

O‘qituvchi dars jarayonida faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va ijodiy muhit yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Chunki ijodiy muhit o‘quvchilarda erkin fikrlash, o‘z fikrini bayon qilish va yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish nafaqat o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini

boyitadi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion metodlardan foydalanish esa zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘qituvchi innovatsion metodlardan foydalansa, o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va til ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
2.Guilford J. P. The Structure of Intellect, 1990.
3.Vygotskiy L. S. Myshlenie i rech, 1994.
4.Passov E. I. Kommunikativ metodika obucheniya inostrannym yazykam, 1991.
5.Savinova N. I. Metodika nachalnogo obrazovaniya, Moskva, 2018.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish” Qarorlari.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nusratova Hamida Cho‘liboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori, Phd

Oribxonova Durdona Odilxon qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sintaktik tushunchalarni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari va metodik modellarining nazariy hamda amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashini shakllantirish va kommunikativ faoliyatini takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi. Sintaktik tushunchalar - gap, so‘z birikmasi, gap bo‘laklari kabi birliklar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Maqolada interfaol metodlar, kognitiv yondashuv va modellashtirish texnologiyalarining sintaktik bilimlarni o‘zlashtirishdagi samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sintaktik tushunchalar, gap, so‘z birikmasi, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, metodik model, kognitiv yondashuv, nutq madaniyati, innovatsion texnologiyalar, modellashtirish.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОБУЧЕНИЯ СИНТАКСИЧЕСКИМ ПОНЯТИЯМ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

АННОТАЦИЯ: В данной статье подробно анализируются современные подходы и методические модели обучения синтаксическим понятиям на уроках родного языка в начальной школе с теоретической и практической точек зрения. Актуальность исследования определяется необходимостью развития речевой компетенции учащихся, формирования логического мышления и совершенствования их коммуникативной деятельности в образовательном процессе. Синтаксические понятия - предложение, словосочетание, члены предложения - являются одними из основных факторов развития речи учащихся в начальном образовании. В статье обоснована эффективность использования интерактивных методов, когнитивного подхода и технологий моделирования при усвоении синтаксических знаний.

Ключевые слова: синтаксические понятия, предложение, словосочетание, начальное образование, интерактивные методы, методическая модель, когнитивный подход, речевая культура, инновационные технологии, моделирование.

MODERN APPROACHES AND METHODOLOGICAL MODELS FOR TEACHING SYNTACTIC CONCEPTS IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE CLASSES

ABSTRACT: This article provides a comprehensive analysis of modern approaches and methodological models for teaching syntactic concepts in primary school native language classes from both theoretical and practical perspectives. The relevance of the study is determined by the need to develop students’ speech competence, enhance their logical thinking, and improve their communicative activity in the educational process. Syntactic concepts—such as sentences, phrases, and sentence parts—are among the key factors in developing students’ speech in primary education. The article substantiates the effectiveness of using interactive methods, cognitive approaches, and modeling technologies in mastering syntactic knowledge.

Keywords: syntactic concepts, sentence, phrase, primary education, interactive methods,

methodological model, cognitive approach, speech culture, innovative technologies, modeling

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilardan faqat bilim olishni emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘z fikrini aniq ifodalashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf ona tili darslari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu bosqichda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, til sezgisi va mantiqiy tafakkuri shakllanadi. Sintaktik tushunchalar o‘quvchilarning nutq faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Gap tuzish, fikrni izchil bayon qilish, so‘zlarni o‘zaro bog‘lash kabi ko‘nikmalar aynan sintaksis asosida shakllanadi. Biroq an’anaviy dars jarayonida bu tushunchalar ko‘pincha nazariy shaklda berilib, o‘quvchilarning faol ishtiroki yetarli darajada ta’minlanmaydi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada sintaktik tushunchalarni o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar va metodik modellar tahlil qilinadi.

METODLAR. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Avvalo, kuzatish metodi yordamida dars jarayonlari o‘rganildi va o‘quvchilarning sintaktik tushunchalarni o‘zlashtirish darajasi tahlil qilindi. Shuningdek, tajriba-sinov metodi qo‘llanilib, o‘quvchilar ikki guruhga — tajriba va nazorat sinflariga ajratildi.

Tajriba sinfida zamonaviy metodlar, ya’ni interfaol usullar, modellashtirish va kognitiv yondashuv asosida darslar tashkil etildi. Nazorat sinfida esa an’anaviy o‘qitish metodlari qo‘llanildi. O‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun test sinovlari o‘tkazildi va natijalar statistik tahlil qilindi. Tajriba jarayonida quyidagi interfaol metodlardan keng foydalanildi: Tajriba jarayonida an’anaviy interfaol metodlar o‘rniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan innovatsion metodlardan foydalanildi. Jumladan, “Flipped classroom” (teskari sinf) metodi qo‘llanilib, o‘quvchilar sintaktik tushunchalar bo‘yicha dastlabki bilimlarni darsdan oldin video va elektron materiallar orqali mustaqil o‘zlashtirdi, dars jarayonida esa ularni amaliy qo‘llash va tahlil qilishga e’tibor qaratildi. Shuningdek, “Case-study” (vaziyatli tahlil) metodi orqali o‘quvchilarga real nutqiy vaziyatlar taqdim etildi. Ular berilgan matn yoki nutqiy vaziyatdagi sintaktik birliklarni aniqlash, tahlil qilish va to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha mustaqil qaror qabul qildilar. Bu metod o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini va amaliy nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, “Scaffolding” (bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash) metodi asosida o‘quvchilarga sintaktik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida yordam beruvchi qo‘llanmalar, tayanch sxemalar va yo‘naltiruvchi savollar berildi. Ushbu metod orqali murakkab tushunchalar oddiydan murakkabga tamoyili asosida bosqichma-bosqich o‘zlashtirildi.

Tadqiqotda yana “Gamification” (o‘yinlashtirish) texnologiyasidan ham foydalanildi. Sintaktik tushunchalarni mustahkamlash uchun maxsus didaktik o‘yinlar, ball tizimi va reyting asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, faol ishtirokini ta’minladi. Shuningdek, “Mind mapping 2.0” (raqamli konseptual xaritalar) usuli orqali sintaktik tuzilmalar interaktiv platformalarda vizual tarzda ifodalandi. Bu o‘quvchilarga gap bo‘laklari va so‘z birikmalarini tizimli ravishda tushunishga yordam berdi. Yana bir samarali yondashuv sifatida “Peer instruction” (tengdoshlar orqali o‘rganish) metodi qo‘llanilib, o‘quvchilar kichik guruhlarda bir-biriga sintaktik tushunchalarni tushuntirish orqali bilimlarini mustahkamladi. Bu metod o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati va nutqiy faolligi rivojlantirildi. Ayniqsa, muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarni sintaktik birliklarni mustaqil aniqlash va tahlil qilishga yo‘naltirish samarali natija berdi.

Kognitiv yondashuv asosida darslar tashkil etilganda o‘quvchilarning bilimni faol o‘zlashtirishi, mavjud bilimlari bilan yangi bilimlar o‘rtasida bog‘lanish hosil qilishi ta’minlandi. Bu yondashuv o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirishga xizmat qildi. Modellashtirish metodi sintaktik tushunchalarni o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etdi. Gap tuzilishi, gap bo‘laklari va

so‘z birikmalari turli grafik sxemalar, diagrammalar va jadval ko‘rinishida ifodalandi. Bu esa o‘quvchilarda abstrakt tushunchalarni aniq va vizual tarzda anglash imkonini berdi. O‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari ishlab chiqildi. Testlar boshlang‘ich (diagnostik) va yakuniy (nazorat) bosqichlarda o‘tkazildi. Test topshiriqlari sintaktik bilimlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ular turli darajadagi savollarni o‘z ichiga oldi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda matematik-statistik tahlil metodidan foydalanildi. O‘quvchilarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi va tajriba hamda nazorat guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar jadval va diagrammalar orqali ifodalandi. Shuningdek, suhbat va so‘rovnoma metodlari yordamida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning fikrlari o‘rganildi. Bu metodlar orqali zamonaviy metodlarning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, tadqiqot natijalarini chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Qo‘llanilgan metodlar majmuasi sintaktik tushunchalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini kompleks ravishda o‘rganish va asoslash imkonini berdi.

Sintaktik tushunchalar tilshunoslikning muhim bo‘limi bo‘lgan sintaksisga oid bilimlar tizimini ifodalaydi. Sintaksis so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, gap tuzilishi hamda fikrning grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Shu bois sintaktik tushunchalar deganda, avvalo, gap, so‘z birikmasi, gap bo‘laklari va gap turlariga oid nazariy hamda amaliy bilimlar majmuasi tushuniladi. Bu tushunchalar tilning eng muhim vazifasi - fikrni aniq, izchil va ravon ifodalashni ta’minlashga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida sintaktik tushunchalar o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilar so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lash, oddiy va murakkab gaplar tuzish, fikrni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydi. Masalan, gap tushunchasi orqali o‘quvchilar tugallangan fikrni ifodalashni o‘rganadi, so‘z birikmasi orqali esa so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishni anglaydi. Gap bo‘laklari esa gapning ichki tuzilishini tushunishga yordam beradi va har bir so‘zning gapdagi vazifasini aniqlash imkonini yaratadi.

Sintaktik tushunchalar nafaqat grammatik bilimlarni egallashga, balki o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O‘quvchi gap tuzish jarayonida fikrni tartibga soladi, sabab-oqibat munosabatlarini anglaydi va o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkazishni o‘rganadi. Bu esa uning umumiy nutq madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, sintaktik tushunchalarni o‘rganish o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tuzilgan gaplar, izchil bayon etilgan fikrlar va mantiqan bog‘langan matnlar o‘quvchilarning savodxonligini oshiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bu tushunchalarni sodda, tushunarli va bosqichma-bosqich o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida ona tili darslari o‘quvchilarning nutqiy, mantiqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, sintaktik tushunchalarni o‘qitish o‘quvchilarning fikrni to‘g‘ri va izchil ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

1. “Flipped classroom” (teskari sinf) metodi asosida topshiriq. O‘qituvchi darsdan oldin o‘quvchilarga “Gap va uning bo‘laklari” mavzusida qisqa video yoki matn beradi. Dars jarayonida esa quyidagi topshiriq beriladi:

Topshiriq: Berilgan matnni o‘qing va undagi gaplarni aniqlang. Har bir gapdan ega va kesimni toping hamda ularni izohlang. So‘ngra shu gap asosida yangi gap tuzing.

Maqsad: O‘quvchilarning mustaqil tayyorgarligi va amaliy qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish.

2. “Case-study” (vaziyatli tahlil) metodi asosida topshiriq

Topshiriq: Sizga quyidagi matn berildi: “Ali maktabga bordi. U darsda faol qatnashdi”. Matndan gaplarni ajrating va har bir gapning tuzilishini tahlil qiling. Gap bo‘laklarini aniqlang va ularni qanday bog‘langanini tushuntiring. So‘ngra matnga yana 2 ta yangi gap qo‘shing.

Maqsad: Sintaktik tushunchalarni real nutqiy vaziyatda qo‘llash.

3. “Scaffolding” (bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash) metodi. Topshiriq: Quyidagi bosqichlar asosida ishlang:

1-bosqich: Gapni o‘qing – “Qushlar uchmoqda”.
2-bosqich: Ega va kesimni aniqlang.
3-bosqich: Gapni kengaytiring.
4-bosqich: Murakkabroq gap tuzing.
Maqsad: Oddiydan murakkabga tamoyili asosida bilimni mustahkamlash.

4. “Gamification” (o‘yinlashtirish) metodi. Topshiriq: “Eng to‘g‘ri gap tuzuvchi” o‘yini. O‘quvchilarga so‘zlar aralash holda beriladi:

kitob, o‘qidi, bola Vazifa: So‘zlardan to‘g‘ri gap tuzing va gap bo‘laklarini aniqlang. Har to‘g‘ri javob uchun ball beriladi.

Maqsad: Qiziqish orqali sintaktik bilimlarni mustahkamlash.

5. “Peer instruction” (tengdoshlar orqali o‘rganish) metodi. Topshiriq: Juftlikda ishlang. 1-o‘quvchi gap tuzadi, 2-o‘quvchi esa uni tahlil qiladi.

Masalan: “O‘quvchi kitob o‘qidi.” 2-o‘quvchi: ega, kesim, 2-darajali bo‘lakni aniqlaydi.

So‘ng rollar almashtiriladi.

Maqsad: O‘zaro o‘rganish va nutqiy faollikni oshirish.

6. “Mind mapping 2.0” (zamonaviy model) metodi. Topshiriq: “Gap bo‘laklari” mavzusida sxema tuzing. Markazga “Gap” so‘zini yozing va undan ega, kesim, 2-darajali bo‘lak kabi bo‘laklarni tarmoqlantiring.

Maqsad: Sintaktik tushunchalarni tizimli ravishda tushunish.

NATIJALAR VA MUHOKAMATadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sintaktik tushunchalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va metodik modellarni qo‘llash samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlab olindi. Tadqiqot ikki bosqichda — dastlabki (diagnostik) va yakuniy (nazorat) bosqichlarda amalga oshirildi. Har ikki bosqichda o‘quvchilarning sintaktik bilim darajasi maxsus ishlab chiqilgan test topshiriqlari yordamida baholandi.

Dastlabki natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba va nazorat sinflaridagi o‘quvchilarning bilim darajasi deyarli bir xil bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar mos ravishda 3.20 va 3.45 ballni tashkil etdi. Bu holat tajriba boshlanishida guruhlar o‘rtasida katta tafovut mavjud emasligini ko‘rsatadi va tajriba natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

Tajriba jarayonida tajriba sinfida darslar zamonaviy metodlar asosida tashkil etildi. Xususan, “flipped classroom”, “case-study”, “scaffolding”, “gamification” va “peer instruction” metodlari qo‘llanildi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va sintaktik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishga yo‘naltirildi. Nazorat sinfida esa an’anaviy o‘qitish metodlari saqlab qolindi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba sinfida o‘quvchilarning sintaktik bilim darajasi sezilarli darajada oshgan. Bu o‘zgarishlar zamonaviy metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, “flipped classroom” metodi o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik bilan kelishini ta’minlab, dars vaqtini amaliy mashg‘ulotlarga samarali yo‘naltirish imkonini berdi. “Case-study” metodi esa o‘quvchilarning real nutqiy vaziyatlarda sintaktik birliklardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. O‘quvchilar berilgan matnlarni tahlil qilish orqali gap tuzilishini chuqurroq anglay boshladilar. “Scaffolding” yondashuvi o‘quvchilarga murakkab sintaktik tushunchalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini berdi. Bu ayniqsa past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun samarali bo‘ldi, chunki ular tayanch sxemalar va yo‘naltiruvchi savollar orqali bilimni asta-sekin egalladilar. “Gamification” texnologiyasi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Ball tizimi, musobaqa elementlari va rag‘batlantirish vositalari orqali o‘quvchilar faol ishtirok etishga undaldi. Natijada ularning darsdagi ishtiroki va bilimni o‘zlashtirish darajasi oshdi. “Peer instruction” metodi esa o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va bilim almashuvini kuchaytirdi. O‘quvchilar bir-biriga tushuntirish jarayonida o‘z bilimlarini yanada mustahkamladi. Bu metod kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, tajriba sinfida o‘quvchilarning nutq madaniyati, fikrni

izchil bayon qilish va gap tuzish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlangan. Ular gap bo‘laklarini to‘g‘ri aniqlash, so‘z birikmalarini to‘g‘ri tuzish va murakkab gaplarni tahlil qilishda ancha yuqori natijalarga erishdilar. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, zamonaviy metodlar nafaqat bilimni o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini va nutqiy faolligini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ayrim o‘quvchilar yangi metodlarga moslashishda dastlab qiyinchiliklarga duch keldi. Bundan tashqari, o‘qituvchilardan zamonaviy metodlarni qo‘llash uchun yuqori metodik tayyorgarlik talab etiladi. Olib borilgan tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sintaktik tushunchalarni o‘qitish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni keng joriy etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, sintaktik tushunchalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar yuqori samaradorlikka ega. Ikkinchidan, interfaol metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, modellashtirish usuli sintaktik tushunchalarni oson va tushunarli shaklda o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Dars jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanish zarur. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish mumkin. O‘qituvchilar uchun zamonaviy metodlarga oid metodik qo‘llanmalar yaratish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Yo‘ldoshev, Q. (2020). Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti. – 240 b.

Nishonova, S. (2019). Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti. – 220 b.

Shodmonqulova, Sh. (2022). Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti. – 180 b.

Vygotsky, L.S. (2017). Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press. URL: http://hup.harvard.edu

Podlasiy, I.P. (2017). Pedagogika. Moskva: Vlados. URL: http://pedlib.ru

FUNKSIYANING LIMITINI HISOBLASHDA HOSIL BO'LADIGAN ANIQMAS IFODALAR VA ULARNI ELEMENTAR USULLARDA OCHISH

Ochilova Laylo Temirovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Funksiyalar chegaralarini hisoblashda ko'pincha x0 yoki ∞ qiymatini to'g'ridan-to'g'ri almashtirish orqali hisoblab bo'lmaydigan ifodalar paydo bo'ladi. Aniqmas ifodalar deb ataladigan bu holatlar chegarani aniqlashga xalaqit beradigan «cheksiz» yoki «nol» komponentlarni yo'q qiladigan identifikatsiya o'zgarishlari orqali osongina hal qilinadi.

Mazkur ishda funksiyaning limitini hisoblash jarayonida uchraydigan aniqmas ifodalar, ularning turlari hamda bu ifodalarni elementar usullar yordamida ochish yo'llari tahlil qilinadi. Jumladan, 0/0, ∞/∞, 0·∞, ∞−∞, 0^0, 1^{∞} ∞^0 ko'rinishdagi aniqmasliklar ko'rib chiqiladi. Ushbu ifodalarni yechishda algebraik o'zgartirishlar, ekvivalent infinitesimallar, ko'paytuvchilarga ajratish, ratsionallashtirish va boshqa usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari limitlarni hisoblashda o'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: limit, ajoyib limitlar, aniqmas ifoda, ekvivalent infinitesimal, algebraik o'zgartirish, ratsionallashtirish, limit hisoblash, analiz, matematik analiz, uzluksizlik, funksiya

НЕОПРЕДЕЛЕННЫЕ ВЫРАЖЕНИЯ, ВСТРЕЧАЮЩИЕСЯ ПРИ ВЫЧИСЛЕНИИ ПРЕДЕЛА ФУНКЦИИ, И ИХ РАЗВИТИЕ ЭЛЕМЕНТАРНЫМИ МЕТОДАМИ

Очилова Лайло Темировна,
Преподаватель, Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация. При вычислении пределов функций часто возникают выражения, которые нельзя вычислить непосредственной заменой значения x0 или ∞. Эти случаи, называемые неопределенными выражениями, легко решаются с помощью тождественных преобразований, которые устраняют «бесконечные» или «нулевые» компоненты, мешающие определению предела.

В данной работе анализируются неопределенные выражения, встречающиеся в процессе вычисления предела функции, их типы и способы решения этих выражений элементарными методами. В частности, рассматриваются неопределенности вида 0/0, ∞/∞, 0·∞, ∞−∞, 0^0, 1^{∞} ∞^0. При решении этих выражений большое значение имеют алгебраические преобразования, эквивалентные бесконечно малые величины, факторизация, рационализация и другие методы. Результаты исследования служат развитию аналитического мышления студентов при вычислении пределов.

Ключевые слова: предел, примечательные пределы, неопределенное выражение, эквивалентная бесконечно малая величина, алгебраическое преобразование, рационализация, вычисление пределов, анализ, математический анализ, непрерывность, функция

INDETERMINED EXPRESSIONS ENCOUNTERED IN CALCULATING THE LIMIT OF A FUNCTION AND THEIR DEVELOPMENT USING ELEMENTARY METHODS

Laylo Temirovna Ochilova
Lecturer, Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation. When calculating the limits of functions, expressions often arise that cannot be calculated by directly replacing the value of x0 or ∞. These cases, called indefinite expressions, are

easily resolved using identity transformations that eliminate the «infinite» or «zero» components that interfere with determining the limit.

This paper analyzes indefinite expressions encountered in calculating the limit of a function, their types, and methods for solving them using elementary methods. In particular, uncertainties of the form 0/0, ∞/∞, 0 ∞, ∞−∞, 0^0, $1^{\infty}\infty^0$ are considered. Algebraic transformations, equivalent infinitesimal quantities, factorization, rationalization, and other methods are of great importance when solving these expressions. The results of the study serve to develop students’ analytical thinking when calculating limits.

Keywords: limit, remarkable limits, indefinite expression, equivalent infinitesimal quantity, algebraic transformation, rationalization, limit calculation, analysis, mathematical analysis, continuity, function

KIRISH. Matematik analiz fanining eng muhim tushunchalaridan biri bu funksiyaning limiti hisoblanadi. Limit tushunchasi orqali funksiyaning ma’lum bir nuqtadagi yoki cheksizlikdagi xatti-harakati aniqlanadi. Ushbu tushuncha nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy masalalarni yechishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Limitlarni hisoblash jarayonida ko‘pincha aniqmas ifodalar yuzaga keladi. Bunday holatlar masalani oddiy yo‘l bilan yechish imkonini bermaydi va qo‘shimcha matematik usullarni qo‘llashni talab qiladi.

Aniqmas ifodalar deb, limitni hisoblashda argument o‘rniga qiymat qo‘yilganda aniq natija bermaydigan ifodalarga aytiladi. Eng ko‘p uchraydigan aniqmas ifodalar qatoriga nolning nolga nisbati, cheksizlikning cheksizlikka nisbati, nol bilan cheksizlikning ko‘paytmasi, cheksizlikdan cheksizlikni ayirish, nolning nol darajasi, birning cheksiz darajasi va cheksizlikning nol darajasi kiradi. Ushbu ifodalar aniq natijani bermaydi, chunki ular turli funksiyalar uchun turlicha qiymatlarga ega bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Aniqmas ifodalarni ochishda bir qator elementar usullar qo‘llaniladi. Eng sodda va keng tarqalgan usullardan biri bu algebraik o‘zgartirish hisoblanadi. Bu usulda ifoda ko‘paytuvchilarga ajratiladi yoki qisqartiriladi, natijada aniqmaslik bartaraf etiladi. Ayniqsa nolning nolga nisbati ko‘rinishidagi ifodalarda ushbu usul juda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, irratsional ifodalarda ratsionallashtirish usuli keng qo‘llaniladi. Bu usulda ifoda qo‘shma ko‘paytuvchi yordamida soddalashtiriladi va natijada aniqmaslik yo‘q qilinadi.

Nazariy jihatdan muhim usullardan biri bu ekvivalent infinitesimallar usulidir. Bu usulga ko‘ra, agar ikki funksiya nolga bir xil tezlikda intilsa va ularning nisbatining limiti birga teng bo‘lsa, ular ekvivalent deb qaraladi. Bunday hollarda limitni hisoblashda murakkab funksiyani oddiyroq funksiya bilan almashtirish mumkin bo‘ladi. Bu esa hisoblash jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Shuningdek, aniqmas ifodalarni yechishda keng qo‘llaniladigan usullardan biri Lopital qoidasi hisoblanadi. Ushbu qoida ayniqsa nolning nolga va cheksizlikning cheksizlikka nisbati ko‘rinishidagi ifodalarda samarali natija beradi. Bu usulda funksiyaning limiti uning hosilalari orqali aniqlanadi, bu esa murakkab ifodalarni oddiy shaklga keltirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy matematikada aniqmas ifodalar masalasi nafaqat nazariy, balki metodik jihatdan ham keng o‘rganilgan. Xususan, Valter Rudin o‘z asarlarida matematik analizni qat’iy nazariy asosda yoritib, limit va aniqmas ifodalarni chuqur ilmiy tahlil qiladi. Jaymes Styuart esa ushbu mavzuni sodda va tushunarli usullar orqali bayon qilib, o‘quvchilar uchun qulay metodikani taklif etadi. Gilbert Strang matematikani o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llab, limit tushunchasini intuitiv tarzda tushuntirishga e’tibor qaratadi.

Shu bilan birga, Vladimir Zorich analiz kurslarida aniqmas ifodalarni chuqur nazariy jihatdan asoslab beradi. Georg Tomas esa amaliy mashqlar orqali bu mavzuni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. David Tall esa matematik tushunchalarni o‘rganishning psixologik jihatlarini tahlil qilib, o‘quvchilarda limit tushunchasini shakllantirish muammolarini o‘rganadi.

Zamonaviy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, aniqmas ifodalarni o‘rganishda nazariy qat’iylik bilan bir qatorda amaliy va metodik tushuntirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu mavzuni o‘qitishda oddiy va tushunarli usullardan foydalanish o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

1 - Ta’rif. Agar har bir oldindan berilgan kichik >0 son uchun x ning shunday qiymatini topish mumkin bo‘lsaki, x ning keyingi qiymatlarida tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, o‘zgarmas «a» son o‘zgaruvchi x ning limiti (oxirgi marrasi) deyiladi. («lim» - qisqartirilgani, lotincha limes so‘zidan olingan bo‘lib, marra (chek) degan so‘zdir).

Agar a son o‘zgaruvchi x ning limiti bo‘lsa, u holda x o‘zgaruvchi a ga intiladi deyiladi va lim x=a ko‘rinishda yoziladi.

Geometrik nuqtai nazardan limit ta’rifini quyidagicha ifodalash mumkin: Markazi a nuqtada va radiusi bo‘lgan oldindan berilgan ixtiyoriy har qancha kichik atrof uchun x ning shunday qiymati topilsaki, o‘zgaruvchining keyingi qiymatlariga tegishli barcha nuqtalar shu atrofda bo‘lsa, o‘zgarmas a son o‘zgaruvchi x ning limiti bo‘ladi (1-chizma).

1-chizma.

Misol: o‘zgaruvchi miqdor x ketma - ket quyidagi qiymatlarni qabul qiladi:



1-chizma.

Bu o‘zgaruvchi miqdorning limiti 3 ga tengligini isbotlaymiz. Quyidagi tenglikni yozamiz:

Har qanday uchun o‘zgaruvchining n nomeridan boshlanadigan barcha keyingi qiymatlari (bu yerda yoki

tengsizlikni qanoatlantiradi. Bu esa talab qilingan isbotdir, ya’ni .

O‘zgarmas miqdorning limiti shu o‘zgarmas miqdorning o‘ziga teng, chunki har qanday bo‘lganda ham |x-c|=|c-c|=0< tengsizlik bajariladi. Limitning ta’rifidan o‘zgaruvchi x ikkita limitga ega bo‘la olmasligi kelib chiqadi. Haqiqatan ham, agar limx=a , limx=b(a<b) bo‘lsa, u holda ixtiyoriy kichik bo‘lgan holda x birdaniga ushbu ikkita tengsizlikni qanoatlantirishi lozim: bu esa bo‘lgan holda bo‘lishi mumkin, bu esa mumkin emas. (2-chizma).



2-chizma

2 - Ta’rif. Agar oldindan berilgan har bir M>0 son uchun x ning shunday qiymatini topish

mumkin bo‘lsaki, o‘zgaruvchining shu qiymatidan boshlab, barcha keyingi qiymatlari uchun |x| >M tengsizlik o‘rinli bo‘lsa o‘zgaruvchi x cheksizlikga intiladi deyiladi.

Agar o‘zgaruvchi x cheksizlikga intilsa, u cheksiz katta o‘zgaruvchi miqdor deyiladi va x→ ko‘rinishida yoziladi. Misol: o‘zgaruvchi miqdor x

qiymatlarni qabul qilsin. Bu cheksiz katta o‘zgaruvchi miqdor, chunki ixtiyoriy M>0 da o‘zgaruvchining biror qiymatidan boshlab, hamma keyingi qiymatlari absolyut miqdor bo‘yicha M dan katta bo‘ladi.

Funksiyaning nuqtadagi limiti.

Endi x argument biror a limitga yoki cheksizlikga intilganda funksiya o‘zgarishini qaraymiz.

1-Ta’rif. Agar, y=f(x) funksiya a nuqtaning biror atrofida aniqlangan bo‘lib (x=a nuqtaning o‘zida aniqlanmagan bo‘lishi mumkin) musbat son uchun shunday musbat b sonni ko‘rsatish mumkin bo‘lsaki, x ning a dan farqli va tengsizlikni qanoatlantiradigan barcha nuqtalar uchun tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, x argument a ga intilganda funksiya b limitga intiladi va b son funksiyaning x=a nuqtadagi limiti deyiladi.

Agar b son funksiyaning a nuqtadagi limiti bo‘lsa, quyidagicha yoziladi: yoki x→a da f(x)→b deb yoziladi. Agar x→a daf(x)→b bo‘lsa, u holda y=f(x) funksiyaning grafigida bu quyidagicha tasvirlanadi. tengsizlikdan tengsizlik chiqar ekan, u holda bu, a nuqtadan yiroq bo‘lgan masofada turuvchi barcha x nuqtalar uchun y=f(x) funksiya grafigining M nuqtalari va to‘g‘ri chiziqlar bilan chegaralangan, eni 2 bo‘lgan yo’l (polosa) ichida yotadi (3-chizma) .



3-chizma.



4-chizma.

1. Eslatma. Agar x biror a sondan kichik qiymatlarnigina qabul qilib, shu a songa intilganda f (x) funksiya b1 limitga intilsa, u holda deb yoziladi va b1 ga f (x) funksiyaning a nuqtadagi chap limiti deyiladi. Agar x funksiya a dan katta qiymatlarnigina qabul qilsa, u holda deb yoziladi va b2 funksiyaning a nuqtadagi o‘ng limiti deyiladi. (4-chizma).

Agar o‘ng va chap limitlar mavjud bo‘lib b1 = b2= b bo‘lsa, u holda limitning ta’rifiga ko‘ra a nuqtada limitning o‘zi bo‘ladi .

Misol: ekanini isbotlaymiz. Haqiqatan ixtiyoriy >0

berilgan bo‘lsin; ushbu tengsizlik bajarilishi uchun quyidagi tengsizliklarning bajarilishi zarur:

Shunday qilib, istalgan da x ning tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha qiymatlari uchun 3x+1 funksiya qiymatining 10 dan farqi dan kichik bo‘ladi. Bu esa x→3 da intilganda funksiyaning limiti 10 demakdir.

2.Eslatma. Funksiyaning limiti x→a da mavjud bo‘lishi uchun funksiya x=a nuqtada aniqlangan bo‘lishi talab qilinmaydi. Limitni topishda a nuqtaning a dan farqli atrofida funksiyaning qiymatlari qaraladi;

Misol: ekanini isbotlaymiz.

Bu yerda funksiya x=2 da aniqlanmagan. Ixtiyoriy da shunday topiladiki, agar bo‘lsa,

(1)

tengsizlik bajarilishini isbotlash kerak. Ammo da (1) tengsizlik

yoki (2) tengsizlikga ekvivalentdir.

Shunday qilib, ixtiyoriy da (2) tengsizlik bajarilsa, (1) tengsizlik bajariladi (bunda =). Buning o‘zi berilgan funksiya x→2 da 2 sonidan iborat limitga ega demakdir.

Cheksizlikka intiluvchi funksiyalar.

Endi argument o‘zgarganda y=f(x) funksiya cheksizlikka intilgan holni qaraymiz.

1-Ta’rif. Agar f(x) funksiya a nuqtaning biror atrofida aniqlangan va istalgan M>0 son uchun shunday son topish mumkin bo‘lsaki, x ning shartni qanoatlantiradigan barcha lar uchun tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, x→a da f(x) funksiya cheksizlikka intiladi deyiladi (ya’ni x→a da funksiya cheksiz katta miqdor bo‘ladi).

Agar da f(x) funksiya cheksizlikka intilsa va bunda faqat musbat yoki manfiy qiymatlar qabul

qilsa, mos ravishda bunday yoziladi:

Misol: ekanligini isbotlang.

Yechish. funksiyani qaraymiz.

Ixtiyoriy M>0 sonini olamiz. ni almashtiramiz. bo‘lsin. Bundan bo‘lishi kelib chiqadi. Agar deb olinsa, tengsizlikni qanoatlantiradigan x lar uchun quyidagi tengsizlik bajariladi:

Bundan esa x→-1 da bo‘lishi kelib chiqadi. Agar x→ da f(x) funksiya cheksizlikka intilsa, u holda bunday yoziladi: va jumladan bo‘lishi mumkin.

Masalan: va shunga o‘xshash.

Eslatma. x→a da yoki x→ da y=f(x) funksiya chekli limitga yoki cheksizlikka intilmasligi ham mumkin.

Ta’rif: Agar yoki bo‘lsa, x→ada yoki x→ da f(x) funksiya cheksiz kichik funksiya deyiladi.

Ta’rifdan ko‘rinadiki, ya’ni bo‘lsa, bu oldindan berilgan har qanday ixtiyoriy kichik son uchun shunday son topiladiki, x ning shartni qanoatlantiruvchi x ning barcha qiymatlari

uchun sharti o‘rinli bo‘ladi.

Misol:1. f(x)=(x-1)2 funksiya x→1da cheksiz kichikdir, chunki (5-chizma)



5-chizma.



6-chizma

2. funksiya x→ da cheksiz kichikdir. (6-chizma).

Limitlar haqida asosiy teoremalar.

1-Teorema. Chekli sondagi funksiyalar algebraik yig‘indisining limiti bu funksiyalar limitlarining algebraik yig‘indisiga teng.

Isboti: Isbotni ikki qo‘shiluvchi uchun keltiramiz, qo‘shiluvchilar soni har qancha bo‘lganda ham isbot o‘z kuchida qoladi.

Aytaylik, bo‘lsin. U holda 4.2.8 mavzudagi 1-teoremaga asosan lar cheksiz kichik miqdorlar. Demak, ; -o’zgarmas miqdor, esa cheksiz kichik miqdor.

Misol:

2-Teorema. Chekli sondagi funksiyalar ko‘paytmasining limiti bu funksiyalar limitlarining ko‘paytmasiga teng.

Isboti:

bo‘lsin. ko‘paytma o‘zgarmas miqdor.

Demak,

Natija: o‘zgarmas ko‘paytuvchini limit ishorasidan tashqariga chiqarish mumkin. Agar , c –o‘zgarmas. limc =c,

3-Teorema. Ikkita funksiya bo‘linmasining limiti, maxraj limiti noldan farqli bo‘lsa, bu funksiyalar limitlarining bo‘linmasiga teng.

Agar bo‘lsa,

Isboti:

Demak, U=a+α , V=b+β , bu yerda α va β cheksiz kichik miqdorlar.

4-Teorema (teorema isbotsiz keltiriladi) Agar uchtaf1(x), f2(x) va funksiyalarning qiymatlari orasida) tengsizliklar bajarilsa, bunda da (yoki da) f1(x), va f2(x) birgina b limitga intilsa, u holda da (yoki da) ham shu limitga intiladi, ya’ni bo‘ladi.

Bu teorema oraliq funksiyaning limiti haqidagi teorema deyiladi.

-birinchi ajoyib limit.

lim┬(n→∞)⁡(1+1/n)^n = e- ikkinchi ajoyib limit.

Misol.

Izoh. Asosi e bo‘lgan ko‘rsatkichli funksiya y=ex matematika kursida juda ko’p qo‘llaniladi. Bu funksiyani ko‘pincha eksponental funksiya deb yuritishadi.

Funksiyaning limitini hisoblashda hosil bo‘ladigan aniqmas ifodalar matematik analizning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularni yechish jarayonida turli usullar qo‘llanilib, bu usullar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va tahliliy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida ushbu mavzuni o‘qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy va metodik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro’yxati

Abdullayeva B.S., Rajabov F., Masharipova S. Oliy matematika asoslari. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2011. 392b

Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Muxitdinova M.N., ToshpoMatova M.I. Matematika. TDPU. (Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriyat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik). Toshkent-2014, 390 bet

Xamedova N.A, Ibragimova Z, Tasetov T. Matematika. Darslik. T.; Turon-iqbol, 2007. 363b.

Saxaev M Elementar matematika masalalari to‘plami” (2-qism) O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent.1970 y

Soatov Y.O.“ Matematika ” I , II qism,Toshkent, 1994 y.

KASBIY KOMPETENTLIK TUSHUNCHASI, TARKIBI VA BIOLOGIYA O‘QITUVCHISI FAOLIYATIDAGI O‘RNI

Shamsiyeva Shaxrizabonu Rustamovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari hamda biologiya o‘qituvchisi faoliyatidagi o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati yoritilib, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining bilimiy, metodik, kommunikativ, texnologik, tadqiqotchilik va refleksiv komponentlari tavsiflangan. Shuningdek, biologiya ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘rni ochib berilgan. Maqolada biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, vazifalari va pedagogik ahamiyati tizimli yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, biologiya ta’limi, biologiya o‘qituvchisi, pedagogik kompetentlik, tadqiqotchilik faoliyati, pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, refleksiv faoliyat, innovatsion ta’lim, metodik tayyorgarlik, ilmiy tafakkur.

ПОНЯТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ, ЕЁ СТРУКТУРА И РОЛЬ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ БИОЛОГИИ

Шамсиева Шахризабону Рустамовна,
Базовый докторант (PhD)
Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы понятия профессиональной компетентности, её структурные компоненты и роль в деятельности учителя биологии. Освещается значение компетентностного подхода в современной системе образования и обосновывается педагогическая необходимость развития профессиональной компетентности будущих учителей биологии. В исследовании охарактеризованы познавательный, методический, коммуникативный, технологический, исследовательский и рефлексивный компоненты профессиональной компетентности учителя биологии. Также раскрыта роль современных педагогических технологий, информационно-коммуникационных средств и научно-исследовательской деятельности в биологическом образовании. В статье на основе системного подхода освещены содержание, задачи и педагогическое значение развития профессиональной компетентности учителя биологии.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, компетентностный подход, биологическое образование, учитель биологии, педагогическая компетентность, исследовательская деятельность, педагогические технологии, информационно-коммуникационные технологии, рефлексивная деятельность, инновационное образование, методическая подготовка, научное мышление.

THE CONCEPT OF PROFESSIONAL COMPETENCE, ITS STRUCTURE, AND ITS ROLE IN THE ACTIVITIES OF BIOLOGY TEACHERS

Shamsiyeva Shaxrizabonu Rustamovna,
Doctoral Researcher (PhD Candidate) Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of professional competence,

its structural components, and its role in the professional activity of biology teachers. The significance of the competency-based approach in the modern education system is highlighted, and the pedagogical necessity of developing the professional competence of future biology teachers is substantiated. The study describes the cognitive, methodological, communicative, technological, research, and reflective components of biology teachers’ professional competence. In addition, the role of modern pedagogical technologies, information and communication tools, and research activities in biology education is revealed. The article systematically explains the content, objectives, and pedagogical significance of developing the professional competence of biology teachers.

Keywords: professional competence, competency-based approach, biology education, biology teacher, pedagogical competence, research activity, pedagogical technologies, information and communication technologies, reflective activity, innovative education, methodological training, scientific thinking.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ilm-fan taraqqiyoti hamda mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi ta’lim jarayonidan nafaqat bilim berishni, balki zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Endilikda ta’lim tizimining asosiy vazifasi shaxsni tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, muammolarni tahlil qila oluvchi, innovatsion qarorlar qabul qiluvchi hamda o‘z kasbiy faoliyatini samarali tashkil eta oladigan kompetent mutaxassis sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarda kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv ta’lim natijalarini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki shaxsning real faoliyatda ushbu bilimlarni qo‘llay olish qobiliyati bilan baholashni nazarda tutadi. Shu sababli pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ayniqsa, biologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘qituvchining kasbiy kompetentligi muhim ahamiyatga ega. Biologiya fani tabiiy fanlar tizimida yetakchi o‘rinlardan birini egallab, tirik organizmlar, ekologik tizimlar, irsiyat, evolyutsiya va inson salomatligi bilan bog‘liq murakkab jarayonlarni o‘rganadi. Mazkur fanni samarali o‘qitish biologiya o‘qituvchisidan chuqur nazariy bilim, ilmiy dunyoqarash, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish malakasi hamda innovatsion fikrlashni talab etadi.

Biologiya ta’limining zamonaviy rivojlanish bosqichida o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini loyihalovchi, o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiruvchi, ekologik madaniyatini shakllantiruvchi va tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu nuqtayi nazardan biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ko‘plab ilmiy ishlarda turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda kompetentlik faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida izohlansa, boshqa yondashuvlarda u shaxsning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv esa kompetentlikni bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba, qadriyat va shaxsiy sifatlarning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi sifatida ko‘rib chiqadi [1].

Biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi ayniqsa bugungi ekologik muammolar, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish zarurati, biotexnologiya va genetika sohalarining jadal rivojlanishi sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki biologiya o‘qituvchisi o‘quvchilarda nafaqat biologik bilimlarni, balki ekologik tafakkur, tabiatga ongli

munosabat, sog‘lom hayot tarzi madaniyati va ilmiy dunyoqarashni ham shakllantiradi.

Shu sababli mazkur maqolada kasbiy kompetentlik tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda biologiya o‘qituvchisi faoliyatidagi o‘rni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati va zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining nazariy asoslari

Xorijiy pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari Yevropa ta’lim tizimida keng rivojlangan bo‘lib, ayniqsa OECDning DeSeCo loyihasida kompetensiyalar insonning ijtimoiy va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi integrativ sifat sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kompetentlik faqat bilimlar majmui emas, balki bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni hal etish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: mazkur yondashuv biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini faqat biologik bilimlar bilan cheklamasdan, balki pedagogik, kommunikativ va tadqiqotchilik faoliyatini qamrab oluvchi integrativ sifat sifatida asoslash imkonini beradi.

Pedagogik kompetentlik va o‘qituvchi faoliyati

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda pedagog kompetentligi o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorligi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. A.V. Xutorskoy, E.F. Zeer, V.A. Slastenin kabi olimlar o‘qituvchi kompetentligining bilimiy, amaliy va shaxsiy komponentlarini ajratib ko‘rsatganlar. Ularning fikricha, pedagog kompetentligi o‘qituvchining nafaqat fanni bilishi, balki pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, kommunikativ munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi va innovatsion faoliyat olib borishi bilan ham belgilanadi [2].

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: ushbu yondashuv biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini ko‘p komponentli tizim sifatida ko‘rib chiqish hamda uning pedagogik faoliyatdagi o‘rnini aniqlash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biologiya ta’limi va kasbiy kompetentlik

Biologiya ta’limiga oid ilmiy ishlarda biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi ko‘pincha biologik bilimlar, ilmiy tafakkur va tadqiqotchilik faoliyati bilan bog‘liq holda yoritiladi. Biologiya fanining eksperimental xarakterga egaligi biologiya o‘qituvchisidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish, kuzatish va tajriba metodlarini qo‘llash, biologik obyektlar bilan ishlash hamda ekologik muammolarni tushuntirish ko‘nikmalarini talab qiladi.

Shuningdek, biologiya ta’limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari va raqamli resurslarni qo‘llash o‘qituvchining texnologik kompetentligini rivojlantirishni zaruriyatga aylantirmoqda [3].

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda biologik bilimlar bilan bir qatorda pedagogik, texnologik va tadqiqotchilik kompetensiyalarining integratsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlar tahlili

O‘zbek pedagogik adabiyotlarida kompetensiyaviy yondashuv masalalari so‘nggi yillarda keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, pedagogik kompetentlik, innovatsion faoliyat va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda o‘qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishi ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida baholanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ko‘proq metodik tayyorgarlik, ekologik ta’lim, laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq holda yoritilgan [4].

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: mavjud ilmiy ishlarda biologiya o‘qituvchisining kasbiy

kompetentligining ayrim jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning tarkibiy tuzilmasi va pedagogik faoliyatdagi integrativ o‘rni yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetentlik tushunchasi zamonaviy ta’limning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida qaralmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda kompetentlik ko‘proq integrativ yondashuv asosida izohlansa, mahalliy tadqiqotlarda uning metodik va amaliy jihatlariga urg‘u beriladi. Shu bilan birga, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda pedagogik faoliyatdagi o‘rnini asoslash zarurati saqlanib qolmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini yaxlit pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

I. Tadqiqot yondashuvlari

1. Kompetensiyaviy yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotning asosiy metodologik negizi sifatida tanlandi. Mazkur yondashuv ta’lim natijalarini faqat bilimlar tizimi bilan emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bilan baholashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining bilimiy, amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlari tahlil qilindi.

2. Tizimli yondashuv

Tizimli yondashuv biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuv asosida kompetentlikning tarkibiy elementlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va pedagogik faoliyatdagi funksiyalari aniqlashtirildi [5]. Tizimli yondashuv biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida o‘rganishga xizmat qiladi [6].

3. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv kompetentlikning real pedagogik faoliyat jarayonida shakllanishini asoslashga qaratilgan. Ushbu yondashuv biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini dars jarayoni, laboratoriya mashg‘ulotlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va tarbiyaviy ishlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot metodlari. Kasbiy kompetentlik tushunchasi, tarkibi va biologiya o‘qituvchisi faoliyatidagi o‘rnini chuqur tahlil qilish davomida Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, mantiqiy tahlil va umumlashtirish, taqqoslash va tasniflash metodlari, nazariy modellashtirish kabi metodlardan foydalanildi. Quyida har bir metodning nazariy tahlili hamda ushbu tadqiqotdagi o’rni tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi asosiy nazariy metodlardan biri sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod orqali kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik hamda biologiya ta’limining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o‘rganildi. Tadqiqot davomida pedagogika, psixologiya, biologiya ta’limi metodikasi hamda innovatsion ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va dissertatsiya ishlari tahlil qilindi.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida kompetentlik tushunchasining turli ilmiy maktablar tomonidan talqin qilinishi, uning tarkibiy komponentlari va kasbiy faoliyatdagi ahamiyati aniqlashtirildi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, biologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar hamda pedagogik texnologiyalarning biologiya ta’limidagi o‘rni ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Shuningdek, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi va mavzuning o‘rganilganlik darajasi aniqlab olindi.

Mantiqiy tahlil metodi tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu metod yordamida kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda biologiya o‘qituvchisi faoliyatidagi o‘rni tahlil qilindi. Mantiqiy tahlil jarayonida kompetentlikka oid turli ilmiy qarashlar o‘zaro solishtirilib, ular orasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

Mazkur metod orqali biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining bilimiy, metodik, kommunikativ, texnologik, tadqiqotchilik va refleksiv komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib berildi. Shuningdek, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodologik asoslari izohlandi.

Umumlashtirish metodi esa tahlil qilingan ilmiy manbalar va nazariy qarashlar asosida umumiy ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Ushbu metod yordamida biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, ta’lim sifatini oshirishdagi roli hamda zamonaviy biologiya ta’limidagi o‘rni yuzasidan nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida taqqoslash metodi kompetentlikka oid turli pedagogik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilishda qo‘llanildi. Mazkur metod yordamida xorijiy va mahalliy olimlarning kompetentlik tushunchasiga oid ilmiy qarashlari, biologiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar hamda kompetensiyaviy yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari o‘zaro solishtirildi.

Taqqoslash natijasida kompetentlik tushunchasining turli talqinlari o‘rtasidagi metodologik farqlar aniqlandi hamda biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini integrativ pedagogik sifat sifatida talqin qilish zarurligi asoslab berildi. Shu bilan birga, an’anaviy ta’lim yondashuvi bilan kompetensiyaviy yondashuv o‘rtasidagi farqli jihatlar ham tahlil qilindi. Tasniflash metodi esa biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining tarkibiy komponentlarini muayyan guruhlarga ajratish imkonini berdi. Ushbu metod asosida kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari tizimlashtirildi va ularning pedagogik faoliyatdagi funksional vazifalari tavsiflandi. Natijada biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining tarkibiy modeli ishlab chiqish uchun zarur nazariy asos yaratildi. Nazariy modellashtirish metodi biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining konseptual modelini ishlab chiqishda qo‘llanildi. Ushbu metod murakkab pedagogik hodisalarning tarkibiy tuzilmasini ilmiy jihatdan tizimlashtirish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotda nazariy modellashtirish orqali biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining asosiy komponentlari, ularning funksional vazifalari hamda rivojlanish mexanizmlari yagona tizim sifatida ifodalandi. Modelda biologik bilimlar, pedagogik tayyorgarlik, metodik mahorat, kommunikativ faoliyat, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va refleksiv faoliyatning o‘zaro integratsiyasi aks ettirildi. Shuningdek, nazariy model biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini tushuntirishga xizmat qildi. Ushbu model biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini tashkil etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Muhokama

Tadqiqot natijalari biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Biologiya fanining mazmuni, ilmiy xarakteri va amaliy yo‘naltirilganligi biologiya o‘qituvchisidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Aniqlanishicha, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi faqat biologik bilimlar bilan chegaralanmaydi. U pedagogik mahorat, kommunikativ qobiliyat, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish va refleksiv tahlil qilish kabi komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur.Tadqiqot davomida biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligida tadqiqotchilik faoliyati alohida o‘rin tutishi

aniqlandi. Chunki biologiya fani kuzatish, tajriba va ilmiy izlanishga asoslangan fan hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda biologik jarayonlarni tahlil qilish, tajribalar o‘tkazish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantira olishi lozim.

Shuningdek, zamonaviy biologiya ta’limida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi biologiya o‘qituvchisining texnologik kompetentligini ham muhim omilga aylantirmoqda [7]. Virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, multimedia vositalari va raqamli platformalardan foydalanish biologiya ta’limining samaradorligini oshiradi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ishlarda pedagogik kompetentlik umumiy tarzda o‘rganilgan bo‘lsa, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining o‘ziga xos jihatlari yetarli darajada ochib berilmagan. Mazkur maqolada esa biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi biologiya ta’limining mazmuni va zamonaviy talablar bilan bog‘liq holda integrativ tizim sifatida yoritildi. Umuman olganda, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va zamonaviy biologiya ta’limini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

Natija

Kasbiy kompetentlik biologiya o‘qituvchisining biologik, pedagogik, metodik va texnologik tayyorgarligini o‘zida mujassamlashtirgan integrativ sifat sifatida namoyon bo‘ladi [8].

Biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir necha muhim tarkibiy komponentlardan tashkil topadi. Avvalo, biologiya o‘qituvchisi chuqur biologik bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Bu uning tirik organizmlar, biologik jarayonlar, genetika, ekologiya, fiziologiya va boshqa biologik fanlarga oid nazariy hamda amaliy bilimlarni mukammal egallaganligini anglatadi. Shu bilan birga, biologiya o‘qituvchisi pedagogik va metodik tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi kerak. Mazkur komponent ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash, darslarni rejalashtirish hamda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri kommunikativ qobiliyat hisoblanadi. Biologiya o‘qituvchisi o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali pedagogik muloqot o‘rnata olishi, o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalay bilishi zarur. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli biologiya o‘qituvchisining texnologik kompetentligi ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu kompetentlik elektron ta’lim resurslari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va raqamli platformalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Biologiya fanining ilmiy va eksperimental xarakterga egaligi biologiya o‘qituvchisidan tadqiqotchilik faoliyatiga tayyor bo‘lishni ham talab qiladi. Bu esa kuzatish, tajriba o‘tkazish, ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, biologiya o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi, mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlay olishi ham muhimdir. Refleksiv tahlil qilish qobiliyati o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, kasbiy rivojlanishi va pedagogik mahoratini takomillashtirishiga xizmat qiladi.

Biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim vazifalarni bajaradi. Avvalo, biologiya o‘qituvchisi biologik bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi zarur. Bu nafaqat biologiya fanining nazariy asoslarini bilishni, balki biologik jarayonlarning mohiyatini ilmiy jihatdan tushuntira olishni ham nazarda tutadi. O‘qituvchining chuqur biologik bilimlarga ega bo‘lishi o‘quvchilarda fan bo‘yicha mustahkam bilim va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni ham talab etadi. Ta’lim jarayonida innovatsion metodlar, interfaol usullar, multimedia vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish biologiya fanini samarali o‘qitish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda ta’lim samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Biologiya fanining amaliy va eksperimental xarakterga egaligi laboratoriya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etishni ham muhim vazifa sifatida belgilaydi. Biologiya o‘qituvchisi laboratoriya ishlari, kuzatishlar va tajribalarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishi zarur. Ayniqsa, biologik obyektlar bilan ishlash, mikroskopik kuzatishlar olib borish va tajriba natijalarini tahlil qilish biologiya ta’limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlikning yana bir muhim vazifasi o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy ekologik muammolar sharoitida biologiya o‘qituvchisi o‘quvchilarda tabiatga ongli munosabat, ekologik madaniyat va atrof-muhitni muhofaza qilish mas’uliyatini rivojlantirishi lozim. Bu esa biologiya ta’limining tarbiyaviy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi o‘quvchilarning ilmiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biologik hodisalarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, ilmiy xulosalar chiqarish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari o‘quvchilarda ilmiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, biologiya o‘qituvchisi tadqiqotchilik faoliyatini tashkil eta olishi kerak. Bu o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishlari, ilmiy loyihalarda ishtirok etishlari va biologik tadqiqot metodlarini o‘rganishlariga sharoit yaratadi. Tadqiqotchilik faoliyati o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy kompetentlik biologiya o‘qituvchisining pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Eng avvalo, kasbiy kompetentlik ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Chuqur nazariy bilim, metodik tayyorgarlik va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali biologiya o‘qituvchisi ta’lim jarayonini samarali tashkil etishi mumkin. Shuningdek, kasbiy kompetentlik biologiya faniga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchining pedagogik mahorati, interfaol metodlardan foydalanishi hamda biologik jarayonlarni qiziqarli va tushunarli tarzda izohlashi o‘quvchilarning fan bo‘yicha motivatsiyasini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning biologiya fanini chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantiradi. Kasbiy kompetentlik o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Biologik hodisalarni ilmiy asosda tushuntirish, tajribalar va kuzatishlar orqali tabiat qonuniyatlarini ochib berish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar tabiat va jamiyatdagi jarayonlarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi ekologik madaniyatni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda tabiatni asrash, ekologik muammolarni anglash va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish biologiya ta’limining asosiy vazifalaridan biridir. Shuningdek, kasbiy kompetentlik innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, raqamli vositalarni qo‘llash va innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish biologiya ta’limining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muayyan pedagogik tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tamoyillar kasbiy tayyorgarlik jarayonining ilmiy va metodik asoslarini belgilab beradi. Avvalo, ilmiylik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyil biologiya ta’limining zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida tashkil etilishini nazarda tutadi. O‘qituvchi biologiya fanidagi yangi ilmiy ma’lumotlarni muntazam o‘rganib borishi va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishi lozim.

Tizimlilik va izchillik tamoyili biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirishni talab qiladi. Kasbiy tayyorgarlik jarayoni izchil tashkil etilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin.

Integrativlik tamoyili biologik, pedagogik, metodik va texnologik bilimlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan. Mazkur tamoyil biologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini kompleks yondashuv asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashni nazarda

tutadi. Laboratoriya mashg‘ulotlari, tajribalar va pedagogik amaliyot biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Innovatsionlik tamoyili esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion metodlarni qo‘llashni talab qiladi. Ushbu tamoyil biologiya ta’limini zamon talablariga mos ravishda tashkil etishga imkon beradi.

Shuningdek, uzluksizlik tamoyili biologiya o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishi doimiy davom etishi zarurligini anglatadi. O‘qituvchi o‘z ustida muntazam ishlashi, malakasini oshirib borishi va yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirib borishi lozim.

Xulosa

Biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik biologiya o‘qituvchisining biologik, pedagogik, metodik va texnologik tayyorgarligini o‘zida mujassamlashtirgan integrativ sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari biologiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish va biologiya ta’limini zamonaviy talablar asosida tashkil etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kelgusida biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari, diagnostika mezonlari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Зеер Э.Ф. Компетентностный подход в образовании. – М.: Академия, 2019. – 192 с.

OECD. Definition and Selection of Competencies (DeSeCo). – Paris: OECD Publishing, 2018.

Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования. – М.: Народное образование, 2016. – 287 с.

Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Академия, 2018. – 512 с.

Саидов С.С. Таълимда инновацион фаолият. – Тошкент: O‘qituvchi, 2019. – 180 б.

Қодиров А.А. Замонавий педагогик технологиялар. – Тошкент: Fan, 2020. – 212 б.

Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.

Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017. – 320 b.

ПРАКТИКА КАК КЛЮЧ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Естурлиева А.И.
ассоциированный профессор (доцент), профессор кафедры «Экономика и финансы»
КУТИ имени Ш.Есенова. г.Актау, январь 2026г

Аннотация: В статье раскрывается значимость производственной практики в системе подготовки студентов образовательных программ «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике» Каспийского университета технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова. Здесь рассматривается направления формирования профессиональных, аналитических, цифровых и управленческих компетенций, необходимых для успешной деятельности в условиях современной экономики. Особое внимание уделено взаимодействию университета с образовательными учреждениями, предприятиями, финансовыми организациями и государственными структурами региона. Показано, что практика выступает важнейшим инструментом профессионального становления будущих специалистов, повышения их конкурентоспособности и содействия трудоустройству.

В современных условиях развития экономики, характеризующихся высокой динамичностью рыночной среды, цифровизацией бизнес-процессов и возрастающими требованиями к качеству подготовки кадров, особую значимость приобретает практико-ориентированное обучение студентов. Одним из важнейших элементов профессиональной подготовки обучающихся по специальностям «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике» является производственная практика, которая выступает связующим звеном между теоретическим обучением в университете и будущей профессиональной деятельностью.

Производственная практика представляет собой неотъемлемую часть образовательного процесса, направленную на закрепление и углубление знаний, полученных студентами при изучении профильных дисциплин, таких как микроэкономика, макроэкономика, финансы, бухгалтерский учет, экономический анализ, статистика, бизнес-моделирование и цифровая аналитика. В ходе прохождения практики студенты получают возможность применять теоретические знания в реальных условиях функционирования предприятий, организаций, финансовых учреждений и государственных структур.

Особая роль производственной практики заключается в формировании у студентов профессиональных компетенций, необходимых для эффективной работы в сфере экономики и аналитики бизнеса. К таким компетенциям относятся навыки анализа финансово-хозяйственной деятельности, оценки экономической эффективности проектов, построения прогнозных моделей, обработки и интерпретации данных, подготовки аналитических отчетов, а также разработки рекомендаций для принятия управленческих решений.

Для студентов направления «Бизнес-аналитика в экономике» практика имеет особенно важное значение, поскольку современный рынок труда предъявляет высокие требования к владению цифровыми инструментами анализа данных, системами визуализации, методами оценки ключевых показателей эффективности и технологиями прогнозирования. В процессе практики обучающиеся осваивают работу с программными продуктами, такими как Microsoft Excel, Power BI, ERP- и CRM-системы, что позволяет им формировать прикладные навыки, востребованные работодателями.

Кроме того, производственная практика способствует развитию аналитического мышления, профессиональной ответственности, способности работать в команде и принимать обоснованные решения в условиях неопределенности. Полученный практический опыт повышает конкурентоспособность выпускников на рынке труда и способствует их успешному трудоустройству в финансовых организациях, аналитических отделах

предприятий, консалтинговых компаниях и государственных учреждениях.

Таким образом, производственная практика студентов специальностей «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике» является важнейшим этапом профессионального становления будущих специалистов и играет ключевую роль в подготовке квалифицированных кадров для современной экономики.

Ключевые слова: экономика, бизнес-аналитика, производственная практика, цифровая экономика, профессиональные компетенции, кадровый потенциал.

Введение. В условиях динамичного развития национальной и мировой экономики, ускоренной цифровизации хозяйственных процессов, глобализации рынков и постоянного обновления требований со стороны работодателей возрастает потребность в подготовке высококвалифицированных специалистов, обладающих не только фундаментальными теоретическими знаниями, но и практическими навыками принятия управленческих, аналитических и стратегических решений. Современный рынок труда предъявляет высокие требования к выпускникам экономических специальностей, включая способность работать с большими объемами данных, проводить комплексный экономический анализ, разрабатывать прогнозные модели и использовать цифровые инструменты для повышения эффективности бизнес-процессов.

Одним из ключевых компонентов подготовки студентов специальностей «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике» является прохождение педагогической и производственной практики, которая выступает важнейшим этапом профессионального становления будущих специалистов. Именно в период практики студенты получают возможность применить полученные в университете знания в реальных условиях функционирования предприятий, организаций и образовательных учреждений, а также закрепить навыки, необходимые для дальнейшей профессиональной деятельности.

Практика позволяет:

интегрировать теорию и практику;

развивать профессиональные компетенции;

формировать навыки анализа данных и экономического прогнозирования;

осваивать современные цифровые инструменты и аналитические платформы;

адаптироваться к требованиям современного рынка труда;

приобретать опыт командной и проектной работы;

развивать навыки подготовки аналитических отчетов и управленческих рекомендаций.

Особую значимость практика приобретает для студентов направления «Бизнес-аналитика в экономике», поскольку данная образовательная программа ориентирована на подготовку специалистов, способных проводить оценку финансово-хозяйственной деятельности организаций, анализировать ключевые показатели эффективности, выявлять тенденции развития бизнеса и разрабатывать обоснованные решения на основе данных.

Для Каспийского университета технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова особую значимость имеет подготовка конкурентоспособных кадров для социально-экономического развития региона. Университет активно взаимодействует с предприятиями, финансовыми учреждениями, государственными организациями и образовательными учреждениями Мангистауской области, что обеспечивает высокое качество практической подготовки студентов и способствует их успешному трудоустройству.

Таким образом, педагогическая и производственная практика является важнейшим инструментом формирования профессиональных, аналитических и цифровых компетенций, необходимых для подготовки специалистов нового поколения, востребованных в условиях современной экономики.

Для Каспийского университета технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова особую значимость имеет подготовка кадров для социально-экономического развития региона.

Роль производственной практики в подготовке экономистов и специалистов по бизнес-аналитике

Производственная практика является ключевым этапом профессиональной подготовки студентов специальностей «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике», обеспечивая интеграцию теоретических знаний с практическими навыками, необходимыми для успешной профессиональной деятельности в современном экономическом пространстве. В отличие от педагогической практики, которая ориентирована на формирование преподавательских компетенций, производственная практика направлена на освоение реальных инструментов экономического анализа, финансового планирования, управления бизнес-процессами и принятия стратегических решений.

Значение практики для студентов направления «Экономика»

Для студентов, обучающихся по направлению «Экономика», производственная практика является основным средством формирования профессиональных компетенций, включая:

Анализ финансово-хозяйственной деятельности организаций. Студенты изучают структуру доходов и расходов предприятий, оценивают рентабельность и эффективность использования ресурсов, анализируют показатели ликвидности и финансовой устойчивости.

Применение экономических моделей и инструментов прогнозирования. Практиканты используют методики оценки спроса и предложения, строят графические и математические модели, рассчитывают экономическую эффективность проектов.

Развитие навыков стратегического планирования и управления. На предприятиях студенты участвуют в подготовке аналитических отчетов, выявляют проблемные зоны в производственных и финансовых процессах, разрабатывают рекомендации по оптимизации.

Освоение цифровых инструментов анализа. Работа с электронными таблицами, ERP-системами, CRM-платформами и программами для обработки статистических данных позволяет экономистам формировать компетенции, востребованные в современном бизнесе и государственных структурах.

Пример практического задания: анализ прибыли предприятия и расчет рентабельности проекта, оценка влияния внешних факторов на доходы и расходы организации, разработка предложений по оптимизации затрат.

Значение практики для студентов направления «Бизнес-аналитика в экономике»

Для студентов «Бизнес-аналитика в экономике» производственная практика носит более специализированный характер и ориентирована на приобретение компетенций в области обработки данных, визуализации информации и построения аналитических моделей, включая:

Сбор, обработка и анализ больших данных. Студенты осваивают методы работы с корпоративной информацией, выявляют ключевые показатели эффективности (KPI) и оценивают динамику бизнес-процессов.

Построение и интерпретация аналитических моделей. Практиканты разрабатывают прогнозные модели, используют регрессионный и корреляционный анализ, создают сценарии развития бизнеса на основе количественных и качественных данных.

Визуализация информации и подготовка отчетов. Владение инструментами Power BI, Tableau, Excel позволяет студентам формировать наглядные dashboards и отчеты, используемые для принятия управленческих решений.

Разработка рекомендаций для повышения эффективности бизнеса. На основе анализа данных студенты могут предлагать оптимизацию бизнес-процессов, выявление новых рыночных возможностей и снижение финансовых рисков.

Пример практического задания: построение модели прогнозирования продаж в зависимости от сезонности и экономических факторов, анализ эффективности маркетинговых кампаний, разработка рекомендаций по улучшению финансовых показателей предприятия.

Практическая ценность и профессиональная значимость

Производственная практика выполняет несколько ключевых функций для обеих специальностей:

Закрепление теоретических знаний. Студенты применяют в реальных условиях принципы микро- и макроэкономики, финансового анализа, статистики и цифровой аналитики.

Развитие профессиональных компетенций. Практика формирует навыки работы с информацией, принятия решений, прогнозирования и планирования.

Формирование цифровой грамотности. Современные предприятия требуют владения IT-инструментами, обработки больших данных и визуализации результатов.

Подготовка к трудоустройству. Студенты приобретают практический опыт, который повышает их конкурентоспособность на рынке труда и способствует быстрому включению в профессиональную деятельность после окончания университета.

Социальная и организационная адаптация. Студенты учатся взаимодействовать с коллегами, руководителями и клиентами, развивают навыки командной работы и коммуникации.

Таким образом, производственная практика является не только средством закрепления знаний, но и основным фактором формирования профессиональной компетентности, критического мышления и практических навыков студентов специальностей «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике», что делает ее незаменимой частью образовательного процесса.

Практико-ориентированное обучение в области бизнес-аналитики

Для специальности «Бизнес-аналитика в экономике» практика является базой формирования прикладных аналитических компетенций.

Студенты активно осваивают:

сбор и обработку данных;

визуализацию информации;

построение экономических моделей;

анализ эффективности бизнес-процессов;

прогнозирование.

В рамках практики применяются инструменты:

Microsoft Excel

Power BI

SPSS

1C

ERP-системы

CRM-платформы

Это позволяет студентам работать с реальными массивами данных предприятий.

Производственная практика на предприятиях региона

Особое значение имеет прохождение практики на базе:

банков;

нефтегазовых компаний;

логистических предприятий;

торговых организаций;

финансовых служб государственных учреждений.

Студенты участвуют в:

анализе финансовой отчетности;

оценке ликвидности;

анализе рентабельности;

расчете KPI;

бюджетировании;
прогнозировании доходов и расходов.
Развитие цифровых компетенций
Современный экономист и бизнес-аналитик должен владеть цифровыми инструментами.
В процессе практики студенты развивают компетенции в области:
обработки больших данных;
BI-систем;
дашбордов;
автоматизации отчетности;
цифрового маркетинга;
финансового моделирования.
Особое внимание уделяется работе с:
базами данных;
SQL-запросами;
аналитическими панелями;
автоматизированными системами управления.
Формирование soft skills и управленческих навыков
Практика способствует развитию не только профессиональных, но и универсальных компетенций.
Формируются навыки:
деловой коммуникации;
командной работы;
презентации аналитических результатов;
критического мышления;
лидерства;
проектного управления.
Для бизнес-аналитика особенно важно умение переводить данные в управленческие решения.
Научно-исследовательская деятельность студентов
Практика становится основой для:
курсовых работ;
дипломных исследований;
научных статей;
стартап-проектов.
Студенты проводят исследования по темам:
цифровая трансформация бизнеса;
инвестиционная привлекательность региона;
развитие малого и среднего бизнеса;
анализ потребительского спроса;
прогнозирование макроэкономических показателей.
Вклад в имидж университета
Организация и проведение педагогической и производственной практики студентов специальностей «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике» оказывает непосредственное влияние на формирование имиджа университета как ведущего центра подготовки высококвалифицированных специалистов. Высокий уровень практической подготовки студентов подчеркивает профессиональную репутацию Каспийского университета технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова и формирует ряд значимых конкурентных преимуществ.
1. Укрепление партнерских связей
Эффективная организация практики способствует формированию прочных

и взаимовыгодных связей с образовательными учреждениями, предприятиями и государственными организациями региона. Университет становится надежным партнером для школ, колледжей, банковских и финансовых учреждений, аналитических центров и консалтинговых компаний. Такое сотрудничество обеспечивает обмен опытом, совместную разработку образовательных и аналитических проектов, проведение мастер-классов и деловых игр, что повышает авторитет университета на региональном и национальном уровнях.

2. Повышение качества подготовки кадров

Практика позволяет студентам интегрировать теоретические знания с практическими навыками, формируя профессиональные компетенции, востребованные на современном рынке труда. Благодаря тщательно спланированной программе практики студенты приобретают опыт анализа хозяйственной деятельности, финансового планирования, прогнозирования экономических показателей и применения цифровых инструментов бизнес-аналитики. Высокий уровень подготовки выпускников демонстрирует способность университета готовить специалистов, соответствующих стандартам современного экономического и цифрового пространства.

3. Рост трудоустройства выпускников

Практика напрямую повышает конкурентоспособность студентов на рынке труда. Выпускники, успешно прошедшие практику, получают возможность трудоустройства в банках, аналитических отделах компаний, государственных структурах и образовательных учреждениях. Признание работодателями качества подготовки студентов отражается на репутации университета как учреждения, формирующего квалифицированные и востребованные кадры, что способствует укреплению его статуса среди профильных вузов страны.

4. Развитие научного и методического потенциала

Совместная работа студентов, преподавателей и партнерских организаций в рамках практики способствует развитию исследовательской и методической деятельности университета. Создаются учебно-методические материалы, кейсы, аналитические отчеты и проекты по цифровой экономике, бизнес-аналитике и финансовому моделированию. Такие результаты повышают научный престиж кафедр, демонстрируют активное участие университета в развитии региональной экономики и формируют имидж центра компетенций нового поколения.

5. Формирование университета как центра подготовки специалистов нового поколения

Высокий уровень практической подготовки и успешное внедрение современных образовательных технологий позволяют университету позиционировать себя как передовой центр подготовки специалистов в области экономики и бизнес-аналитики. Каспийский университет технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова становится не просто образовательным учреждением, а платформой для профессионального и личностного роста студентов, внедрения инновационных методик, развития научного потенциала и формирования кадрового резерва, способного эффективно действовать в условиях цифровой экономики.

Взаимодействие с работодателями

Эффективное сотрудничество университета с предприятиями и организациями Мангистауской области, в частности города Актау, играет ключевую роль в подготовке студентов специальностей «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике». Такое взаимодействие обеспечивает реальное соответствие образовательных программ потребностям рынка труда и позволяет готовить специалистов, обладающих практическими навыками и актуальными компетенциями.

1. Актуализация образовательных программ

Регулярный диалог с работодателями позволяет университету своевременно обновлять

содержание учебных дисциплин, внедрять современные методы обучения и адаптировать программы под реальные запросы бизнеса. Это особенно важно для таких направлений, как финансовый анализ, управление бизнес-процессами и аналитика данных, где востребованы навыки работы с цифровыми инструментами, отчетностью и прогнозированием экономических показателей.

2. Внедрение практико-ориентированных кейсов

Благодаря партнёрству с компаниями и организациями региона студенты получают возможность работать с реальными кейсами из банковской сферы, промышленности, консалтинга и торговли. Анализ конкретных бизнес-ситуаций, подготовка стратегических и аналитических предложений, разработка проектов по оптимизации процессов помогают будущим специалистам формировать профессиональные компетенции и уверенно применять теорию на практике.

3. Повышение практической направленности обучения

Сотрудничество с работодателями позволяет интегрировать в образовательный процесс стажировки, практические занятия и мастер-классы, проводимые специалистами-практиками. Это формирует у студентов навыки принятия управленческих решений, анализа экономической информации и разработки рекомендаций для оптимизации деятельности предприятий.

4. Признание и положительные отзывы работодателей

Работодатели Мангистауской области, включая компании города Актау, регулярно отмечают высокий уровень подготовки студентов Каспийского университета технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова. Студенты демонстрируют компетенции в области:

экономики и макроэкономического анализа;

финансового и инвестиционного анализа;

бизнес-аналитики и работы с данными;

управления бизнес-процессами и стратегического планирования.

Благодаря тесной связи с работодателями студенты получают ценный опыт взаимодействия с реальным бизнесом, что повышает их конкурентоспособность на рынке труда, а университет — укрепляет свою репутацию как центр подготовки специалистов, полностью готовых к профессиональной деятельности в условиях современной экономики региона и страны.

Социально-экономический эффект

Практика способствует формированию кадрового потенциала региона.

Подготовленные специалисты востребованы в:

государственных органах;

банках;

бизнес-структурах;

образовательных учреждениях;

аналитических центрах.

Это усиливает вклад университета в развитие экономики Мангистауской области.

Таким образом, педагогическая и производственная практика студентов специальностей «Экономика» и «Бизнес-аналитика в экономике» является стратегически важным элементом образовательного процесса Каспийского университета технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова.

Она обеспечивает:

высокий уровень профессиональной подготовки и формирование практических навыков, необходимых для успешной работы в экономической и аналитической сферах;

развитие аналитических, цифровых и управленческих компетенций, включая владение современными инструментами бизнес-аналитики и финансового анализа;

повышение конкурентоспособности выпускников на рынке труда, благодаря тесной интеграции теории и практики;

укрепление имиджа университета как ведущего центра подготовки специалистов нового поколения, готовых к вызовам современной экономики.

Особое внимание заслуживает профессиональная поддержка и наставничество, предоставляемые студентам со стороны преподавателей и руководителей практик. Университет создает максимально комфортные условия для овладения практическими навыками, обеспечивает методическое сопровождение, консультирование и регулярную обратную связь. Благодаря этому студенты чувствуют уверенность в своих силах, получают возможность реализовать творческий потенциал и подготовиться к эффективной самостоятельной деятельности в профессиональной сфере.

Каспийский университет технологий и инжиниринга имени Ш. Есенова демонстрирует высокий уровень социальной ответственности и приверженности к развитию кадрового потенциала региона. Его системная поддержка, сотрудничество с предприятиями и образовательными организациями, а также внимание к индивидуальному профессиональному росту каждого студента делают учебное заведение надежной платформой для формирования компетентных, уверенных и востребованных специалистов в области экономики и бизнес-аналитики.

Практика в университете выступает не просто образовательной процедурой, а стратегическим инструментом, который помогает будущим экономистам и аналитикам успешно адаптироваться к реалиям цифровой экономики, эффективно принимать управленческие решения и вносить значимый вклад в развитие региона и страны в целом.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTYAL RIVOJLANTIRISHDA EVRISTIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Choriyeva Zebiniso Odilovna,
Buxoro shahar 76- maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilim olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil fikrlash va atrof-muhitni ongli idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. . Ushbu soha doirasida tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6–7 yoshli bolada bilish faoliyatiga nisbatan barqaror qiziqish shakllanishi kutiladi.Maqolada shu to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so`zlar: maktabgacha ta'lim, zamonaviy ta'lim,kompetensiya, nutqiy faollik, Bilish jarayoni, evristik metodlar, kognitiv faoliyat, evristik faoliyat.

Аннотация: Область «Развитие познавательного процесса» направлена на формирование у детей дошкольного возраста потребности в знаниях, развитие компетенций самостоятельного мышления и осознанного восприятия окружающей среды. По завершении образовательно-воспитательного процесса, организованного в рамках этой области, ожидается формирование у ребенка 6-7 лет устойчивого интереса к познавательной деятельности. В статье представлена информация по этому вопросу.

Ключевые слова: дошкольное образование, современное образование, компетентность, речевая деятельность, когнитивный процесс, эвристические методы, познавательная деятельность, эвристическая деятельность.

Abstract: The «Cognitive Development» area is aimed at developing preschool-aged children's need for knowledge, independent thinking skills, and conscious perception of the environment. Upon completion of the educational process organized within this area, a 6- to 7-year-old child is expected to develop a sustained interest in cognitive activity. This article provides information on this topic.

Key words: preschool education, modern education, competence, speech activity, cognitive process, heuristic methods, cognitive activity, heuristic activity

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tizimining pirovard maqsadi – bolani maktab ta'limiga tayyorlash bilan bir qatorda, uning shaxsiy-intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish, bilish jarayonlarini faollashtirish va mustaqil fikrlashga yo'naltirishdan iborat. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim talablari boladan tayyor bilimni qabul qilish emas, balki bilimni izlanish orqali egallash, muammoni ko'ra olish, taxmin qilish, solishtirish va xulosa chiqarish kabi kognitiv faoliyatlarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanish pedagogik jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limda "kompetensiya" tushunchasi bolada muayyan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan ko'ra kengroq mazmunni anglatadi. U bolaning o'z tajribasi asosida o'rganishi, vaziyatni tushunishi, muloqotga kirisha olishi, muammoni hal etishga urinishi, fikrni ifodalashi va ijtimoiy muhitga moslashishini o'z ichiga oladi. Shu bois evristik metodlar bolaning mustaqil fikrlash (o'ylash, izlash, topish), nutqiy faollik (savol berish, fikr bildirish), muloqot va hamkorlik (guruhda ishlash, kelishish), kognitiv jarayonlar (idrok–diqqat–xotira–tafakkur)ni

tabiiy tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilim olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil fikrlash va atrof-muhitni ongli idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu soha doirasida tashkil etilgan ta'lim

va tarbiya jarayoni yakunida 6–7 yoshli bolada bilish faoliyatiga nisbatan barqaror qiziqish shakllanishi kutiladi. Bola bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki ularni mustaqil izlab topishga va amaliy faoliyatda qo‘llashga intiluvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur soha kompetensiyalarining shakllanishi natijasida bola o‘quv va hayotiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan axborotni mustaqil ravishda izlab topish, tanlash va undan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Predmetlar, voqea-hodisalar va holatlar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash orqali ularni alohida elementlar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida idrok etish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa bolaning mantiqiy tafakkuri va tahliliy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi doirasida bolalarda elementar matematik tasavvurlar ham shakllantiriladi. Xususan, bola raqamlarni tanish, sanash va ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini egallaydi. Makon, shakl va vaqt tushunchalariga mos ravishda ish tutish, elementar matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish orqali bolaning fazoviy tasavvuri va matematik tafakkuri rivojlanadi. Ushbu jarayonlar bolalarning mantiqiy fikrlashini mustahkamlab, ularni keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlaydi.

Shuningdek, mazkur soha kompetensiyalarining muhim jihatlaridan biri bolaning atrof-muhitga ongli va mas’uliyatli munosabatini shakllantirishdan iborat. Bola tabiat va ijtimoiy muhitni bilish jarayonida uni asrab-avaylash zarurligini anglaydi hamda ekologik madaniyat elementlarini namoyon eta boshlaydi. Bu holat bilish jarayonining faqat intellektual emas, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlanishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari 6–7 yoshli bolalarda bilishga bo‘lgan qiziqish, mustaqil izlanish, mantiqiy fikrlash, elementar matematik savodxonlik va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qilib, ularni maktab ta’limiga puxta tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri (taxminan 3–6 yosh) bola psixik rivojlanishining eng intensiv bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda bilish jarayonlari tez sur’atda shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarda idrok ko‘proq ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega bo‘lib, bola predmet va hodisalarni avvalo tashqi belgilari (rang, shakl, hajm, harakat) orqali qabul qiladi. Evristik metodlar idrokni faollashtiradi, chunki bola “nega bunday?”, “qanday bo‘ldi?” kabi savollar orqali predmet mohiyatiga chuqurroq kirib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok (persepsiya) rivojlanishining psixologik xususiyatlari va evristik metodlar imkoniyatlari

№	Psixologik jihat	Mazmuni	Evristik metodlar orqali rivojlantirish
1	Yosh davrining xususiyati	Maktabgacha yosh (3–6 yosh) psixik rivojlanishning eng intensiv bosqichi bo‘lib, bilish jarayonlari tez shakllanadi	Evristik metodlar bolaning tabiiy qiziquvchanligiga tayanib, faol bilishni rag‘batlantiradi
2	Idrok turi	Idrok ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega	Ko‘rgazmali materiallar, tajriba va modellashtirish asosida idrok chuqurlashtiriladi
3	Idrokning asosiy belgisi	Predmet va hodisalar tashqi belgilar (rang, shakl, hajm, harakat) orqali qabul qilinadi	Taqqoslash, kuzatish, savol-zanjir yordamida tashqi belgilar mohiyat bilan bog‘lanadi
4	Idrokni faollashtiruvchi omil	Savol berish orqali predmet mohiyatini anglashga intilish	“Nega bunday?”, “Qanday bo‘ldi?” kabi evristik savollar orqali idrok faol holatga keltiriladi
5	Idrok va tafakkur bog‘liqligi	Idrok tafakkur bilan uyg‘un holda rivojlanadi	Muammoli vaziyat va taxmin (faraz) metodlari idrokni tafakkur bilan integratsiyalaydi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning asosiy xususiyati – uning beixtiyorligi (o‘z-o‘zidan jalb bo‘lishi)dir. Diqqat ko‘proq qiziqarli, emotsional va o‘yinli jarayonda barqarorlashadi. Shu sababli evristik metodlarni o‘yin, tajriba va muammoli vaziyat bilan uyg‘unlashtirish diqqatni uzoqroq ushlab turishga yordam beradi.

Bu yoshdagi bolalarda xotira asosan ko‘rgazmali-obrazli bo‘ladi, ya’ni bola ko‘rganini, eshitganini, boshidan kechirganini yaxshi eslab qoladi. Evristik mashg‘ulotlarda bola bilimni tayyor holda emas, “topib olgani” uchun xotira mustahkamroq bo‘ladi (kashf etilgan bilim barqarorroq saqlanadi).

Maktabgacha davr tafakkuri ko‘proq ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega. Bola qo‘li bilan ushlab ko‘rish, sinash, taqqoslash orqali fikr yuritadi. Evristik metodlar aynan shu jarayonni tabiiy kuchaytiradi: bola taxmin qiladi, sinaydi, solishtiradi, xulosa chiqaradi.

Nutq maktabgacha yoshda juda faol rivojlanadi va bilish jarayonlarining boshqaruvchisiga aylanib boradi. Evristik metodlar bolani savol berishga, fikrni ifodalashga, sababni tushuntirishga undagani uchun nutq rivoji tezlashadi.

Evristik ta’limning pedagogik mohiyati shundaki, u bolaga tayyor bilim bermaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi, bolani izlanishga undaydi, bilimni kashf ettiradi, jarayonni yo‘naltiruvchi savollar bilan boshqaradi, natijani refleksiya orqali mustahkamlaydi.

Bu jarayonda tarbiyachi “ma’lumot beruvchi” emas, balki fasilitator, ya’ni bolani izlanishga yo‘naltiruvchi, fikrini tartibga soluvchi, rag‘batlantiruvchi rolni bajaradi.

Evristik metodlar psixologik jihatdan ko’pgina imkoniyatlarni beradi. Evristik metodlar bolalarni faqat tayyor bilim olishga emas, balki o‘z o‘rganish jarayonini boshqarishga undaydi. Natijada bola ichki motivatsiyani his qiladi — “men o‘zim topdim” hissi shakllanadi, bu esa faol izlanish va qiziqishni kuchaytiradi. Bunday motivatsiya o‘rganishni uzoq muddatli jarayonga aylantiradi, chunki u tashqi baholashdan ko‘ra shaxsiy izlanishga asoslanadi.

O‘ziga ishonch va muvaffaqiyat hissini kuchaytiradi. Evristik yondashuvlar natijasida bolaning o‘z bilim va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi oshadi. U murakkab muammolarni mustaqil hal qilish orqali kichik g‘alabalarni his qiladi, bu esa o‘ziga bo‘lgan ishonch va muvaffaqiyat hissini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, evristik metodlar talabalarda o‘zini qadrlash va stressni boshqarish qobiliyatini oshiradi, bu esa psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Evristik jarayonlar bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, u turli yo‘nalishda yechimlar izlashga, yangi yondashuvlar topishga intiladi va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu metodlar orqali o‘rganganlar muammolarga boshqacha nuqtayi nazar bilan qarashni o‘rganadi, bu esa moslashuvchan fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Muammoga chidamlilik va “qiyinchilikni yengish” tajribasini hosil qiladi. Bolaning o‘rganish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni o‘z qo‘li bilan hal etishga undaydi. Bu esa psixologiyada muammoga chidamlilik (anti-frustration ability) deb ataladigan qobiliyatni shakllantiradi: bola muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqmaydi, xatolarni tahlil qiladi va ularni to‘g‘rilash yo‘llarini izlaydi. Bu psihologik jarayonlar bolaning sabr-toqati va mustaqil hal etish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Evristik metodlar ko‘pincha guruhda ishlash va hamkorlikni talab qiladi — bu ta’lim jarayonida bolalarni boshqalar bilan muloqot qilishga, fikrlarini bo‘lishishga, tinglash va birgalikda yechim topishga undaydi. Ijobiy o‘zaro bog‘liqlik (positive interdependence) g‘oyasi shuni ta’kidlaydiki, hamkorlik orqali bola nafaqat o‘z maqsadiga erishadi, balki boshqalar bilan o‘zaro ta’sirda o‘z psixologik ko‘nikmalarini ham kengaytiradi.

Evristik metodlar — bu bolani faqat bilim bilan ta’minlab qolmaydigan, balki uning ichki psixologik resurslarini faollashtiruvchi pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bu metodlar ichki motivatsiyani kuchaytiradi va qiziqishni oshiradi. O‘ziga bo‘lgan ishonch va stressni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ijodiy fikrlash va moslashuvchanlikni rag‘batlantiradi. Bardoshli fikrlashni mustahkamlaydi, ya’ni qiyinchiliklarga qarshi kurashishda bola mustaqil bo‘ladi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni — tinglash, fikr almashish, hamkorlik kabi — rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida evristik metodlardan samarali foydalanish bolalarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Evristik metodlar orqali ta’limni tashkil etish tasodifiy emas, balki aniq pedagogik va psixologik shart-sharoitlar asosida amalga oshirilgandagina kutilgan natijani beradi. Ushbu shart-sharoitlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari, ularning yetakchi faoliyati hamda bilish jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlariga mos bo‘lishi lozim.

Avvalo, evristik metodlarni qo‘llashda bolaga mos muammoli vaziyatlarni tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyatlar bolaning yoshiga, mavjud tajribasiga va qiziqishlariga mos, real hayot bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi zarur. Bunday vaziyatlar bolada bilishga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otadi, uni mustaqil izlanishga undaydi hamda “men o‘zim topdim” degan ichki qoniqish hissini shakllantiradi. Shu bilan birga, muammo darajasi bolaning imkoniyatlaridan ortiq bo‘lmasligi, aks holda u qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin.

Keyingi muhim shart – evristik metodlarning o‘yin va tajriba faoliyati bilan uyg‘un holda tashkil etilishidir. Maktabgacha yoshda o‘yin yetakchi faoliyat turi bo‘lgani sababli evristik topshiriqlar o‘yin syujeti, rolli o‘yinlar va tajribaviy mashg‘ulotlar orqali amalga oshirilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. O‘yin jarayonida bola erkin harakat qiladi, xato qilishdan cho‘chimaydi va faol bilish subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa evristik fikrlash mexanizmlarining tabiiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Evristik metodlardan samarali foydalanishda savol-javob madaniyatini shakllantirish ham muhim pedagogik shart hisoblanadi. Tarbiyachi bolaga tayyor bilimni beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, fikrlashga undovchi savollar tizimini ishlab chiqishi lozim. “Nega?”, “Qanday?”, “Agar boshqacha bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi savollar bolaning tahliliy fikrlashini, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Savollarning izchil va mantiqiy ketma-ketligi bolaning bilish jarayonini bosqichma-bosqich chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish evristik faoliyatning ajralmas sharti hisoblanadi. Turli didaktik materiallar, modellar, rasm-sxemalar, tabiiy materiallar va tajriba jihozlari bolalarning idrok jarayonlarini faollashtiradi hamda abstrakt tushunchalarni aniq obrazlar orqali anglashiga yordam beradi. Ko‘rgazmalilik evristik metodlarning amaliy va faol xarakterini kuchaytirib, bolalarning mustaqil tajriba o‘tkazish va kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Evristik metodlarni qo‘llash jarayonida refleksiya bosqichini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulot yakunida bolalar bilan “Nimani bildik?”, “Qanday topdik?”, “Qaysi yo‘l eng qulay bo‘ldi?” kabi savollar asosida suhbat o‘tkazish ularning o‘z bilish faoliyatini anglashiga yordam beradi. Refleksiya jarayoni bolaning o‘z fikrlash jarayonini baholash, natijani tushunish va kelgusida yanada murakkab muammolarni hal etishga tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Evristik metodlardan samarali foydalanish uchun rag‘batlantiruvchi va psixologik xavfsiz muhitni yaratish zarur. Bolaning xato qilishdan qo‘rqmasligi, o‘z fikrini erkin ifodalashi uchun tarbiyachi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi, ijobiy munosabat shakllantirilishi lozim. Har bir kichik yutuqni e’tirof etish, bolaning harakatini qadrlash unda o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi va bilish faoliyatiga bo‘lgan ichki motivatsiyani oshiradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida evristik metodlardan samarali foydalanish uchun muammoli vaziyatlarning to‘g‘ri tanlanishi, o‘yin va tajriba faoliyati bilan uyg‘unlik, savol-javob madaniyati, ko‘rgazmalilik, refleksiya hamda psixologik xavfsizlik muhitining ta’minlanishi zarur. Mazkur shart-sharoitlar majmuasi bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va faol bilish ko‘nikmalarining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanish pedagogik va psixologik jihatdan katta imkoniyatlarga ega. Ushbu metodlar bolaning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqini izchil faollashtirib, uni mustaqil fikrlashga, izlanishga, muammoga yechim topishga yo‘naltiradi. Shu bois evristik metodlardan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritish va amaliyotga

texnologik joriy etish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.(UNESCO, UNICEF, World Bank. MELQO: Measuring Early Learning Quality and Outcomes. – Washington, 2017.)

2. (UNICEF. Early Childhood Development and Learning Outcomes. – New York, 2019.)

3. (UNICEF. Early Childhood Development and Learning Outcomes. – New York, 2019.)

4. “ Ilk qadam ” davlat o‘quv dasturi. Toshkent 2022 y

5.O‘zbekiston Respublikasida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent.2018 y

AQLLI SENSORLAR YORDAMIDA YOSH TAEKVONDOCHILARNING ZARBA TEXNIKASIDAGI KAMCHILIKLARNI ERTA ANIQLASH VA KORREKSIYALASH METODIKASI

Kurbanova Shaxzoda Yunusovna
BuxDPI magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola yosh taekvondochilarning zarba texnikasini takomillashtirishda zamonaviy aqlli sensor tizimlaridan foydalanish metodikasini tadqiq etadi. Tadqiqotning dolzarbligi yosh sportchilarda texnik ko‘nikmalar shakllanayotgan davrda xatolarni aniq (obyektiv) diagnostika qilish va ularni bartaraf etishning raqamli usullarini joriy etish bilan belgilanadi. Maqolada sensorlar yordamida olingan ma’lumotlar asosida mashg‘ulot jarayonini korreksiyalash modeli taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: Taekvondo WT, aqlli sensorlar, IMU, zarba biomexanikasi, raqamli korreksiya.

Abstract. This article investigates the methodology of utilizing modern smart sensor systems to enhance the striking technique of young Taekwondo athletes. The relevance of the study is driven by the necessity for precise (objective) diagnostics and the implementation of digital correction methods during the critical period of technical skill acquisition in young athletes. Based on data collected via high-precision sensors, the study proposes a comprehensive training intervention model designed to identify and rectify biomechanical errors in real-time.
Keywords: Taekwondo WT, smart sensors, inertial measurement units (IMU), strike biomechanics, digital correction, athletic performance, sports technology.

Аннотация. В данной статье исследуется методика использования современных интеллектуальных сенсорных систем для совершенствования техники ударов юных тхэквондистов. Актуальность исследования обусловлена необходимостью точной (объективной) диагностики и внедрения цифровых методов устранения технических ошибок в период формирования базовых навыков у юных спортсменов. На основе данных, полученных с помощью датчиков, предложена модель коррекции тренировочного процесса, направленная на оптимизацию биомеханических параметров движений.
Ключевые слова: таэквондо WT, интеллектуальные сенсоры, инерциальные измерительные модули (IMU), биомеханика удара, цифровая коррекция, спортивные технологии, юношеский спорт.

Zamonaviy sport fani va amaliyotida yuqori natijalarga erishish nafaqat jismoniy tayyorgarlikka, balki texnik harakatlarning biomexanik mukammalligiga ham bog‘liqdir. Ayniqsa, Taekvondo (WT) kabi murakkab koordinatsiyali sport turlarida zarba texnikasini shakllantirish jarayoni o‘ta nozik yondashuvni talab etadi. So‘nggi yillarda sport sohasiga «Aqlli texnologiyalar» va «Narsalar interneti» tushunchalarining kirib kelishi, sportchilarning texnik imkoniyatlarini obyektiv va raqamli o‘lchovlar orqali baholash uchun yangi ufqlar ochdi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yosh taekvondochilar (9-12 yosh) o‘rtasida texnik ko‘nikmalarning poydevori aynan shu davrda shakllanadi. An’anaviy mashg‘ulot usullarida murabbiy sportchining xatolarini vizual kuzatish orqali aniqlaydi, biroq inson ko‘zi soniyaning ulushlarida sodir bo‘ladigan kinematik o‘zgarishlarni, masalan, zarba boshlanishidagi mikrosekundlik kechikishlar yoki oyoqning fazoviy burchak og‘ishlarini to‘liq ilg‘ay olmaydi. Bu esa kelajakda sportchining texnik «shift»ga (o‘sishning to‘xtashiga) urilishiga yoki noto‘g‘ri harakat stereotipi tufayli surunkali jarohatlar orttirishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Raqamli diagnostika usullari, xususan, kiyiladigan aqlli sensor tizimlari (akselerometr va giroskoplar) ushbu muammoning yagona obyektiv yechimi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday tizimlar zarbaning kuchi, tezligi va trayektoriyasini real vaqt rejimida (real-time) raqamlarga

aylantirib, sportchiga «raqamli teskari aloqa» berish imkonini yaratadi. Tadqiqotning maqsadi — yosh taekvondochilarning zarba texnikasidagi kamchiliklarni erta aniqlashda sensorli tizimlarning samaradorligini tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida mashg'ulot jarayonini korreksiyalashning innovatsion modelini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqolada yosh sportchilarning dinamik harakatlarini datchiklar yordamida monitoring qilish metodikasi bayon etiladi hamda texnik xatolarni bartaraf etishda raqamli o'lchovlarning pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Zamonaviy sport industriyasida texnologik innovatsiyalar, xususan, «aqlli» sensor tizimlarining joriy etilishi mashg'ulotlar metodikasini tubdan o'zgartirmoqda. Taekvondo (WT) kabi yuqori dinamikaga ega sport turlarida zarba tezligi gacha yetishi mumkin, bu esa inson ko'zi (murabbiy) uchun harakatning mikrosekundlik kinematik xatolarini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, subyektiv baholashdan voz kechib, obyektiv metrik ko'rsatkichlarga o'tish yosh sportchilarning texnik poydevorini to'g'ri shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, akselerometr va giroskoplar kabi inersial sensorlar (IMU) laboratoriya sharoitidan tashqarida, ya'ni real mashg'ulot muhitida sportchining harakatlarini aniqlikda qayd etish imkonini beradi. Xususan, Choi va Kim (2019) kabi olimlar avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari tezlik, kuch va harakat mexanikasi bo'yicha o'lchanadigan indikatorlarni taqdim etishi orqali subyektiv noaniqliklarni keskin kamaytirishini isbotlashgan. Yosh taekvondochilar (9–12 yosh) bilan ishlashda raqamli texnologiyalarning o'rni yanada ortadi. Isokova (2025) o'z tadqiqotlarida 11–12 yoshli sportchilarning texnik tayyorgarligini kinematik va kinetik ko'rsatkichlar asosida monitoring qilish, harakatlarni obyektiv baholashga va ilmiy asoslangan natijalarga erishishga xizmat qilishini ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, Cunha va boshqalar (2021) wearable (kiyiladigan) qurilmalar orqali real vaqt rejimida olinadigan teskari aloqa (real-time feedback) talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini va motivatsiyasini oshirishini ta'kidlaydilar. Biroq, an'anaviy taekvondo ta'limida hali ham ko'p hollarda manual (qo'lda) baholash usullari ustunlik qilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi — xorijiy tajribalarda o'z samaradorligini ko'rsatgan aqlli sensor tizimlarini yosh taekvondochilarning zarba texnikasidagi kamchiliklarini erta aniqlashga tatbiq etish va ushbu ma'lumotlar asosida individual korreksiyalash modelini taklif etishdan iborat. Bu nafaqat texnik mahoratni oshiradi, balki sportchining jismoniy imkoniyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy tushunchalar va iqtiboslar tahlili:

Obyektivlik: Sensorlar inson omili keltirib chiqaradigan xatoliklarni bartaraf etadi.

Erta diagnostika: Yosh davrida shakllangan noto'g'ri harakat stereotiplarini raqamli monitoring orqali vaqtida tuzatish mumkin.

Real-time Feedback: Mashg'ulot vaqtida olingan lahzali ma'lumot sportchining o'z xatosini darhol anglashiga yordam beradi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, taekvondo sportida yosh sportchilarning texnik mahoratini oshirishda zamonaviy aqlli sensor tizimlaridan foydalanish an'anaviy metodikaga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

Obyektiv diagnostika imkoniyati: Inersial datchiklar (IMU) yordamida olingan ko'rsatkichlar murabbiy ko'zi bilan ilg'ab bo'lmaydigan mikrosopik xatolarni, xususan, zarba kinematik zanjiridagi 0.1-0.2 soniyalik kechikishlarni hamda tana muvozanatining minimal og'ishlarini 90% dan yuqori aniqlikda qayd etish imkonini beradi.

Texnik xatolarni klassifikatsiyalash. Sensorli monitoring yordamida yosh taekvondochilar uchun xos bo'lgan tipik kamchiliklar (tizzani ko'tarish burchagi, tayanch oyog'i rotatsiyasi va zarba vektori nomutanosibligi) tizimlashtirildi. Bu esa har bir sportchi uchun individual «texnik xaritalar» yaratishga xizmat qiladi.Korreksiyalash metodikasining samaradorligi: Tadqiqot

davomida taklif etilgan «raqamli teskari aloqa» (digital feedback) modelini qo‘llash natijasida yosh sportchilarning zarba tezligi va aniqligi an’anaviy guruhga nisbatan 1.5 baravar tezroq o‘sishi kuzatildi. Sensorli ma’lumotlarni real vaqt rejimida ko‘rish sportchida harakatni ongli ravishda nazorat qilish (biofeedback) qobiliyatini shakllantiradi. Kelajakda ushbu tizimlarni Sun’iy intellekt (AI) algoritmlari bilan integratsiya qilish, sportchining charchoq darajasi va jarohat olish xavfini oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, aqlli sensor tizimlarini o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga joriy etish taekvondoda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi va yosh iste’dodlarni saralash hamda tayyorlashda xatoliklar koeffitsiyentini minimal darajaga tushiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI. (REFERENCES)

1. Dartfish va Kinovea dasturlari bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar. (2023).

2. Kurbanova, SH Y. (2025, 21-noyabr). Taekvondoda videoanaliz texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5E modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.

3. Lee, K., & Park, J. (2021). Video analysis in taekwondo: Performance optimization. Seoul.

4. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi. (2024). Materiallar.

5. Siev-Ner, I., et al. (2018). The use of inertial sensors for kick analysis in martial arts: Practical implications for training and rehabilitation. Biomedical Engineering Online, 17(1), 1–14.

ZAMONAVIY PEDOGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING JISMONIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNALOGIYALARI

Davronov Tolmas Toshtemirovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqang davlat universiteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedras o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola pedogogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning jismoniy samaradorligini oshirish texnologiyalariga bag‘ishlangan. Tadqiqodning maqsadi esa maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishida zamonaviy usullarni kreativlikni va nazariy asoslarni tahlil qilishdan iborat hisoblanadi. Aynan shu usullar yordamida muammolarni hal qilishga va bundan tashqari yani bir qancha metodlarni taklif etish va ularning natijasini yoritishga bag‘ishlangan.

Jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy texnologiyalar bilan ishlab, yangi metodlar tadqim etish va bu metodlar nafaqat o‘quvchilarning jismoniy samaradorligini oshirishi, balki fikrni jamlashga va intelektual salohiyatini oshirishga yordam berishini isbotlash, o‘quvchilarning to‘g‘ri ovqatlanish ratsioni ham bu borada juda muhum ekanligini nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy samaradorlik, boshlang‘ich sinflar, zamonaviy texnologik metodlar, jismoniy tarbiya, maxsus, sog‘lom turmush tarzi.

Abstract. This article is devoted to technologies for increasing the physical efficiency of students based on pedagogical approaches. The purpose of the study is to analyze the creativity and theoretical foundations of modern methods in the physical development of schoolchildren. It is devoted to solving problems using these methods, and in addition, to proposing a number of methods and highlighting their results.

It is considered theoretically and practically that it is necessary to work with modern technologies in physical education lessons, introduce new methods and prove that these methods not only increase the physical efficiency of students, but also help to concentrate and increase their intellectual potential, and that the proper diet of students is also very important in this regard.

Keywords: physical efficiency, primary grades, modern technological methods, physical education, special, healthy lifestyle.

Аннотация. Данная статья посвящена технологиям повышения физической работоспособности учащихся на основе педагогических подходов. Цель исследования – анализ креативности и теоретических основ современных методов в физическом развитии школьников. Статья посвящена решению проблем, возникающих при использовании этих методов, а также предложению ряда методов и освещению их результатов.

Теоретически и практически рассматривается необходимость работы с современными технологиями на уроках физкультуры, внедрения новых методов и доказательства того, что эти методы не только повышают физическую работоспособность учащихся, но и способствуют концентрации внимания и развитию их интеллектуального потенциала, а также что правильное питание учащихся играет в этом отношении важную роль.

Ключевые слова: физическая подготовка, начальная школа, современные технологические методы, физическое воспитание, специальное, здоровый образ жизни.

Kirish. XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri hisoblanadi. Hozirgi kunda texnika va texnologiyalar shu qadar bizni hayotimizga kirib kelganki, har bir sohada, har bir jabhada ularni ko‘rishimiz mumkin. Texnika va texnologiyalar taraqqiyoti insoniyat uchun juda ko‘p yengilliklar

olib keldi. Endilikda inson og‘ir mexnatdan va muttasil davom etadigan charchoqlardan ozod bo‘ldi. Bu esa inson tanasiga bo‘ladigan zo‘riqishlarni kamaytirdi ammo shu bilan birga insoniyat uchun yangi muammo kamharakatlikni keltirib chiqardi.

Kamharakatlik natijasida insonlarda:

-yurak qon-tomir kasalliklari

-ortiqcha vazn

-qandli diabet

-immunitet pasayishi kabi bir qancha kasallikar soni oshib ketdi.

Tadqiqodlar shuni korsatadiki 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha taxminan 1,8 milliard katta yoshdagi insonlar yetarlicha jismoniy faollik qilmaydi va kam harakatlilikdan aziyat chekadi.

Bu holat yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet va ruhiy salomatlik muammolari xavfini sezilarli darajada oshiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST/WHO) tadqiqotlariga ko‘ra, har yili global miqyosda kam harakatlilik sababli 3–5 million odam vafot etadi. Shu sababli kunlik jismoniy faoliyatni odat qilish va yetarli harakatni ta’minlash sog‘liqni saqlashda eng muhim choralaridan biridir.

Ammo maktab yoshidagi o‘quvchilar orasida ham kam harakatlik va jismoniy salomatlikni buzlishi ko‘p uchramoqda. Bugungi globallashgan zamonda yosh avlodning jismoniy salomatligi va faolligi masalari dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarga bog‘liqlik boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida qaddi qomat buzilish va ortiqcha vazn kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, butun dunyo bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining taxminan 80 % i kuniga tavsiya etilgan 60 daqiqa o‘rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy faollikni bajarmaydi. Bu holat ularning yurak-qon tomir tizimi, mushak-skelet rivojlanishi va umumiy sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu davrda jismoniy salomatlik bu nafaqat insonning hayot sifatiga balki uning intellektual salohiyatiga ham tasir ko‘rsatadi. Ayniqsa bu paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy harakatga ehtiyoji katta,buning sababi esa ularning jismoniy salomatligi o‘quvchilarning keyingi hayotida ham muhum o‘rin egallaydi. Shu sababli hozirgi kunda o‘zbekistondagi umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning jismoniy samaradorligini oshirish bir qadar jiddiy muammo sifatida ko‘rilmoqda va auni shu sohadagi tashabbuslar qo‘llab quvvatlanmoqda.

Tadqiqodning maqsadi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy samaradorligini oshirishning yangi pedogogik yondashuvlarini taklif etish va bu yangi pedogogik metodlarni zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq holda amaliyotga joriy etishdan iborat. Bu ilmiy tavsiyalar o‘quvchilarning jismoniy samaradorligini oshirishda bir qancha foydali bo‘lishi kutilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy samaradorlik bu bolaning turli jismoniy qobiliyatlarini, jumladan kuch, chidamlilik, tezlik, muvozanat, koordinatsiya va moslashuvchanlikni samarali ishlata olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda jismoniy samaradorlik ularning umumiy rivojlanishi va sog‘lig‘i uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi, chunki aynan shu davrda motor qobiliyatlar va mushak-skelet tizimi tez rivojlanadi. Yuqori darajadagi jismoniy samaradorlik bolaning nafaqat jismoniy faoliyatini oshiradi, balki uning kundalik faoliyatini bajarish qobiliyatini, o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirokini va ijtimoiy o‘zaro ta’sirini ham yaxshilaydi. Shu sababli jismoniy samaradorlikni rivojlantirish boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun maktab va uy sharoitida muntazam mashqlar va harakatli o‘yinlarni ta’minlash orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’limidagi jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida interaktiv, innovatsion va raqamli yondashuvlar dars jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarning jismoniy faolligini rag‘batlantiradi.

1. Interaktiv pedagogik metodlar — bu usul o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga

qaratilgan bo‘lib, dars davomida o‘yinlar, musobaqalar va guruhli faoliyatlar orqali harakatli mashg‘ulotlar tashkil etadi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning diqqatini jamlab, ularni jismoniy mashg‘ulotlarga qiziqtiradi va mustaqil harakat ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) — multimedia vositalari, mobil ilovalar va interfaol taqdimotlar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini yanada rang-barang va qiziqarli qiladi. Masalan, mobil ilovalar orqali motivatsiya, raqobat va o‘yinlashtirilgan mashqlarni tashkil etish jismoniy harakatni oshirishga yordam beradi.

3. Individual yondashuv — har bir o‘quvchining jismoniy tayyorgarlik darajasi, ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos mashqlarni tanlash orqali amalga oshiriladi. Bu metod o‘quvchilarning fiziki qobiliyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi, ularni salohiyatini maksimal darajada jalb qiladi.

4. Guruhlarga bo‘lish va turnir metodlari — mashg‘ulotlarni kichik guruhlarda o‘tkazish, turnirlar bilan birlashtirish maktab jismoniy tarbiyasida ijtimoiy ko‘nikmalar, hamkorlik va raqobat hissini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning jismoniy salohiyatini oshirish bilan birga, ular orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratadi.

5. Modul va blok metodlari — darsni qisqa logik bloklara bo‘lib, har bir blokda ma’lum jismoniy ko‘nikma va sifatlarni (chidamlilik, kuch, tezlik, koordinatsiya) rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu usul darsni rejalashtirish va uni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda olib borishga yordam beradi.

Ushbu pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiyaga tatbiq etilganda o‘quvchilar nafaqat jismoniy faolligini oshiradi, balki motivatsiya, ijtimoiy ko‘nikma va mustaqil harakat kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, AKT va interaktiv metodlar o‘quv jarayonini zamon talablariga moslashtirish, darsni qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ammo hozirgu kunda bundan ham samarali va o‘quvchilarni o‘ziga tez jalb qiladigan merodlarni joriy etish muammosi mavjud.Bundan tashqai jismoniy samaradorlikni oshirish faqat jismoniy tarbiya darslariga bog‘liq emasligini angkagan holda O‘quvchilarning maktabdan keyingi hayotida ham ularga amaliy foyda beradigan metodlarni joriy etish muhum hisoblamadi.

Jismoniy samaradorlikni oshirishga qaratilgan metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayoni bir qator fanlar bilan o‘zaro integratsiya va ilmiy hamkorlik asosida olib borildi. Xususan, mazkur yondashuv pedagogika, psixologiya, fiziologiya hamda sport fanlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etildi.

Avvalo, pedagogika fani jismoniy mashg‘ulotlarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish hamda zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik yondashuv orqali mashg‘ulotlar tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va o‘quvchilarning faolligini oshiradigan tarzda rejalashtiriladi.

Psixologiya fani esa o‘quvchilarning ruhiy holati, motivatsiyasi, irodasi va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida psixologik omillarni hisobga olish o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, liderlik sifatlarini shakllantirish hamda sog‘lom raqobat muhitini yaratishga yordam beradi.

Shuningdek, fiziologiya fani inson organizmining jismoniy yuklamalarga moslashuvi, mushaklar faoliyati, yurak-qon tomir tizimi va nafas olish jarayonlari haqidagi ilmiy bilimlar bilan ta’minlaydi. Bu bilimlar mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning organizmiga mos ravishda tashkil etish, ortiqcha yuklamaning oldini olish hamda jismoniy rivojlanishni ilmiy asosda nazorat qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sport fanlari jismoniy mashqlarni to‘g‘ri tanlash, mashg‘ulotlar metodikasini ishlab chiqish hamda o‘quvchilarning kuch, tezlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va sport fanlari bilan olib borilgan

ilmiy hamkorlik va integratsiya jismoniy samaradorlikni oshirishga qaratilgan metodlarning yanada mukammal va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki ularning intellektual salohiyati hamda shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning jismoniy samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy izlangan olimlar o‘z tadqiqotlari orqali ushbu yondashuvning samaradorligini ilmiy asosda isbotlagan.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy samaradorligini oshirish texnologiyalari o‘quv jarayonini interaktiv, individual va shaxsga moslashtirilgan shaklga olib keladi. Ushbu texnologiyalar, xususan, raqamli qurilmalar, interaktiv simulyatorlar, gamifikatsiya va o‘quvchi markazli metodlar, o‘quvchilarning jismoniy mashqlarni bajarishdagi motivatsiyasini oshiradi, faollik darajasini kuchaytiradi va mashqlarni to‘g‘ri anglab bajarish imkonini yaratadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar faqat jismoniy samaradorlik bilan cheklanmay, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi, tafakkur ko‘nikmalari, ijtimoiy ko‘nikmalar va liderlik sifatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Pedagogika, psixologiya, fiziologiya va sport fanlari bilan olib borilgan integratsiyalashgan yondashuvlar orqali o‘quvchilar mashg‘ulotlarni nafaqat faol va qiziqarli tarzda bajaradilar, balki ularning sog‘lom turmush tarzini qabul qilish va o‘z salomatligiga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Natijada, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamidagi texnologik yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy, intellektual va shaxsiy rivojlanishni uyg‘unlashtiruvchi samarali vosita sifatida qaraladi. Ularning qo‘llanilishi ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va ilmiy asoslangan qiladi, shuningdek o‘quvchilarda uzluksiz jismoniy faollik va mustaqil o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Fayziyev, Nozim, and Bakhtiyor Yallayev. «SOFTWARE CREATION TECHNOLOGY BASED ON A DIFFERENTIAL APPROACH IN THE SUBJECT OF» APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL ACTIVITY».» Journal of Technology and Innovative Research 1.3 (2026): 27-37.

2. Asfandiyorovich, Fayziev Nozim. «basics of programming from the textbook of informatics and information technologies chapter python programming language methodology of multimedia.» Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 778-781.

3. Nozim, Asfandiyorovich Fayziyev. «Tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusini doir kompyuter imitasion modeli asosida takomillashtirish.» Research and education 1 (2022): 273-278.

4. Asfandiyorovich, Fayziyev Nozim. «Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals.» Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 16 (2023): 42-45.

5. Xasanovich, Lutfillayev Mahmud, Ass Amrillayev Husniddin Ashrab O’g, and Ass Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. «Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student.» JournalNX 7.03 (2021): 167-171.

6. Asfandiyorovich, Fayziyev Nozim, and Toxirqulov Zufar Jurabek O‘g‘li. «ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA XORIJIY TILLARGA OID TAQDIMOTLAR YARATISH.» Science and innovation 3.Special Issue 19 (2024): 359-363.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI MEDIAVOSITALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Axadova Gulnoza Said qizi
Jizzax politexnika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini mediavositalar asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati fanini o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mediavositalardan samarali foydalanish o‘quv jarayonining sifatini oshirishi va pedagogik faoliyat samaradorligini kuchaytirishi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, mediavositalar, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya.

УЛУЧШЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МЕДИА

Ахадова Гульноза Саид кизи
Аспирант Джизакского политехнического института

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы развития критического мышления будущих учителей начального образования на основе медиа. В процессе обучения медиаграмотности и информационной культуре разработаны механизмы формирования у учащихся компетенций самостоятельного мышления, анализа информации и оценки посредством использования инновационных педагогических подходов. По результатам исследования доказано, что эффективное использование медиа повышает качество образовательного процесса и эффективность педагогической деятельности.

Ключевые слова: критическое мышление, медиа, медиаграмотность, информационная культура, педагогические технологии, компетенция.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS ON THE BASIS OF MEDIA

Akhadova Gulnoza
A doctoral student at the Jizzakh Polytechnic Institute

Annotation. This article covers the theoretical and methodological foundations of developing critical thinking of future primary education teachers on the basis of media. In the process of teaching media literacy and information culture, mechanisms for forming independent thinking, information analysis and evaluation competencies in students have been developed through the use of innovative pedagogical approaches. According to the results of the study, it has been proven that the effective use of media improves the quality of the educational process and enhances the effectiveness of pedagogical activities.

Keywords: critical thinking, media, media literacy, information culture, pedagogical technologies, competence.

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimining keskin ortib borishi

sharoitida talabalarning axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mediavositalar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi [1]. Zamonaviy globallashuv sharoitida axborot oqimining keskin ortishi natijasida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mediavositalar: internet platformalari, video darslar, interaktiv ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar, ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ammo muammo shundaki: talabalarning axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmasi yetarli emas, mediadan foydalanish ko‘proq passiv xarakterga ega metodik yondashuvlar tizimli emas. Kuzatishlar va sohaga doir ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarni

rivojlantirishga doir innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi ularda

mantiqiy, kreativ va tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda shaxsning kamol topishi uchun kerakli hayotiy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish

hisoblanadi. Innovatsion faoliyat – yangi mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlari majmuidan iborat bo‘lib, ulardan maqsad o‘zlashtirilgan bilim, egallangan ko‘nikma, malaka, texnologiya va ishlab chiqarishga tatbiq etish samaradorligini ta’minlashdir. ta’limdagi innovatsion

faoliyat – yangi kadrlarni yetishtirishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy moliyaviy, tijorat tadbirlari yig‘indisi bo‘lib, ulardan maqsad mana shu yig‘ilgan bilim, ko‘nikma, malaka, texnologiya va ishlab chiqarish jarayonining yangi kadrlarini keng miqyosida samarali tarzda mamlakat iqtisodiyoti uchun ko‘plab yetishtirib berishga yo‘naltirish va ta’minlashdan iboratdir [2].

Mazkur tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashini mediavositalar asosida rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Innovatsion faoliyat sifatida ta’lim muassasalari pedagogik jamoalarining ushbu jarayonga tayyorgarlik va kirishishini samarali ta’minlovchi aniq boshqaruv harakat tizimini belgilab olish imkonini ko‘rsatish mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishnig ijtimoiypsixologik, pedagogik xususiyatlarini yoritib berish, innovatsion yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlarini asoslash orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish modeli va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish va samaradorligini baholash masalalari G.Baxodirova tomonidan o‘rganilgan [3]. J.Mannopov tomonidan innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish holati, mazmun - mohiyatini tahlil qilish hamda kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmunini aniqlash, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy taqqoslash asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish, innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining, metodik kompetentligini rivojlantirishning faoliyatli modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalardan foydalanib ta’limning zamonaviy usullarini qo‘llash mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan [4].

“Innovatsiya” tushunchasi yangini, yangilikni, o‘zgarishni anglatadi. Shuningdek innovatsiya

ham vosita, ham jarayon sifatida biron-bir yangilikni kirib kelishini taqozo etadi. Pedagogik jarayonga nisbatan, bu yangi maqsadlarni, mazmunni, metodlarni, ta'lim-tarbiyaning yangi shakllarini kiritish, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Innovason jarayon – pedagogik yangilikni yaratish faoliyati bo'lib, undan ta'lim amaliyotida foydalaniladi hamda ushbu yangilik tarqatiladi. Innovatsion faoliyat ta'lim muassasalari tomonidan yangilikni o'zlashtirish bo'lib, u ta'lim tizimi holatining ijobiy o'zgarishini va takomillashtirilishini loyihalashga olib keladi.

Tanqidiy fikrlash muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, A.K.Markova fikricha, shaxsning kasbiy ijodi rivojlanishi uchun zarur sub'ektiv o'xshatish qobiliyati; umumqabul qilingan yangilikka kreativ va tanqidiy munosabat, ma'lum bo'lgan elementlardan yangi kombinatsiyalar tuza olish qobiliyati. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchuniqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi"[5].

J.Yo'ldoshev fikricha, "innovatsiya - tizim ichki tuzilishni o'zgartirish amaliyot

va nazariyaning asosiy qismi", innovatsion faoliyat esa, "yangi ijtimoiy talablar bilan a'nanaviy me'yorlarnning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me'yorlarni mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muommalarni yechishiga qaratilgan faoliyat" [6] deb ta'kidlaydi.J. Dewey tanqidiy fikrlashni reflektiv tafakkur sifatida talqin etgan bo'lsa, R. Ennis uni mantiqiy va asosli qaror qabul qilish jarayoni sifatida izohlaydi. Mediasavodxonlik sohasida esa D. Buckingham va L. Masterman tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Mahalliy olimlardan N. Saidahmedov, B. Xodjayev va boshqalar pedagogik texnologiyalar orqali fikrlashni rivojlantirish muammolarini o'rgangan. Biroq mediavositalar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini kompleks yoritish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tanqidiy fikrlash – pedagogik muammo sifatida tanqidiy fikrlash bu - axborotni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, mustaqil xulosa chiqarishdir [7].

1-jadval.

Tanqidiy fikrlash komponentlari

№	Komponent	Tavsif
1	Analiz	Axborotni qismlarga ajratish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini tushunish.
2	Sintez	Turli axborot elementlarini birlashtirib, yangi g'oya, tushuncha yoki yechim yaratish.
3	Baholash	Axborotning ishonchliligi, dolzarbligi va qiymatini mezonlar asosida tanqidiy ko'rib chiqish hamda qaror qabul qilish.
4	Refleksiya	O'z fikrini tahlil qilish, baholash va kelajakdagi faoliyatni yaxshilash uchun xulosalar chiqarish.

Mediavositalar — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda turli

shakldagi (matn, audio, video, grafika, interaktiv kontent) axborotni ishlab chiqish, uzatish va qabul qilishni ta’minlovchi integrativ didaktik va kommunikativ tizimlar yig‘indisidir. Ular shaxsning mediasavodxonligini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va bilimlarni samarali o‘zlashtirish jarayonida vositachi sifatida namoyon bo‘ladi [8]. Mediavositalar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Multimediaviylik – bir nechta axborot shakllarini birlashtiradi

Interaktivlik – foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi

Global qamrov – axborotni tez va keng tarqatadi

Didaktik imkoniyat – ta’lim samaradorligini oshiradi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

pedagogik kuzatish;

tajriba-sinov ishlari;

so‘rovnoma va testlar;

matematik-statistik tahlil [9].

1-rasm. Mediavositalarning pedagogik imkoniyatlari

Tajriba ishlari oliy ta’lim muassasalarida olib borildi. Talabalar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi hamda mediavositalar asosida maxsus ishlab chiqilgan metodika joriy etildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

mediavositalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning faolligini 30–35% ga oshirdi;

tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari tajriba guruhida sezilarli darajada yuqori bo‘ldi;

talabalar axborotni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishda yuqori natijalarga erishdi [11].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mediavositalar: o‘quv jarayonini interaktiv qiladi, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Biroq metodikani joriy etishda quyidagi muammolar kuzatildi: texnik vositalarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining pastligi. Shu sababli, pedagoglar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish zarur [12].

Pedagogik nuqtai nazardan ta’lim jarayonida mediavositalar: o‘quv materialini vizual va tushunarli qiladi, talabalarni faol o‘rganishga undaydi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi. Mediavositalar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

vizual o‘rganish

interaktivlik

mustaqil ta’lim

tezkor axborot olish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar yaratish, mediatahlil topshiriqlari, guruhli muhokamalar, refleksiya mashqlari zarur.

Ko‘pincha «innovatsiya» atamasi o‘rniga unga yaqin turdagi atamalar ham ishlatilmoqda. Masalan, isloh modernizatsiya, takomillashtirish, zamonaviylashtirish kabilar. Ular tahlil etilayotgan tushunchaning ma’nosini har doim ham to‘la ochib beravermasa-da, asosiy narsa – yangilikni, o‘zgarishlarni ifodalaydi [13].

Ushbu maqolada ta’limning innovatsion imkoniyatlari va uning shaxsni takomillashtirish, ijtimoiylashtirish hamda kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli ilmiy asosda tahlil qilingan [14]. Zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi shaxsni mustaqil fikrlovchi, kreativ va tanqidiy yondoshuvlarni o‘zida mujassamlashtirgan individuallarni tarbiyalashdan iboratdir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ular o‘zaro muloqot qilish, kreativ fikrlash va murakkab masalalarni tahlil qilish orqali professional vaziyatlarni hal qilishda o‘rgatishning ahamiyati katta. Shu bilan birga, bunday ta’lim metodikasi orqali o‘qituvchilarni faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ta’lim jarayonida innovatsion yechimlarni yaratish va amalga oshirishga qodir mutaxassislar sifatida tayyorlash mumkin [15]. Ta’limda innovatsion yondoshuvlar, nafaqat bilimlarning sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Mediavositalar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi, zamonaviy pedagogik talablarni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘raqulov N. Tanqidiy fikrlash: mohiyati, rivojlantirish usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 152 b.

2. Zagashev I. O., Zair-Bek S. I. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi. - Sankt-Peterburg: «Alyans» Delta «nashriyot uyi, 2003.- 284 b.

3. Zagashev I.O., “Savol berish qobiliyati”. - Sankt-Peterburg: «Alyans» Delta nashriyot uyi, 2005 yil.

4. Jo‘rayev M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 208 b. “A Brief History of the Idea of Critical Thinking”. Qaraldi: 2018yil 14-mart.

5. Xodjieva F.O. O‘quvchilarni kreativ va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim

jihatlari. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie 2017, №6. 43-47-b.

6. 6. Xudoyqulov J. “Kreativ va tanqidiy tafakkur” tushunchasi va uni ta’limdagi o‘rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7. (E)ISSN:2181-1784 / www.oriens.uz. 3(1), Jan., 2023. 35-39b

7. Xudoyqulov J. “Kreativ va tanqidiy tafakkur” tushunchasi va uning ta’lim jarayonidagi roli. Academic Research in Educational Sciences Vol. 1 No. 1, 2020 /ISSN 2181-1385. 339-347b.

8. Elkins, James R. “The Critical Thinking Movement: Alternating Currents in One Teacher’s Thinking”. 2018.

9. Yusufaliyeva, G. A. (2021). The role of the teacher in the development of creative abilities of primary school students. Innovative Technologica, 5, 54–59.

10. Yusufaliyeva, G. (2023). Technology in increasing the effectiveness of the integrated lesson in primary education. Modern Science and Research, 2(12), 761–763.

11. Ilm-fan va texnologiyalar. 2026 №2 (1) 20

12. Yeraliyevich, K. S. (2024). Development of models of communicative competence in higher education institutions. Xalqaro IlmiyAmaliy Konferensiyalar, 1(2), 497–502.

13. Eshonqulova, K. (2025). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali, 3(4).

14. Turg‘unov A. Raqamli ta’lim texnologiyalari va interaktiv metodlar. Toshkent: Ma’naviyat. 2018.

15. Ismoilov R. Innovatsion ta’lim metodlari: Raqamli vositalar va ularning ta’lim jarayonidagi roli. Samarqand: Ilm-fan. 2019.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA SAVODXONLIK DARSLARINING O‘QUV JARAYONIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Elmurodova Zulayxo Abduvaliyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida savodxonlik darslarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Savod o‘rgatish jarayonining nazariy asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda o‘quvchilarning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, savodxonlik darslarining o‘quv jarayonidagi samaradorligini oshirish omillari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, alifbo, o‘qish ko‘nikmasi, yozuv, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение уроков грамотности в системе начального образования. Освещаются теоретические основы обучения грамоте, современные педагогические подходы, а также их роль в формировании у учащихся навыков чтения и письма. Кроме того, рассматриваются факторы повышения эффективности уроков грамотности в учебном процессе.

Ключевые слова: грамотность, начальное образование, алфавит, навыки чтения, письмо, педагогические технологии, интерактивные методы.

Abstract. This article analyzes the role and importance of literacy lessons in the primary education system. It highlights the theoretical foundations of teaching literacy, modern pedagogical approaches, and their role in developing students’ reading and writing skills. Additionally, the factors for improving the effectiveness of literacy lessons in the educational process are discussed.

Keywords: literacy, primary education, alphabet, reading skills, writing, pedagogical technologies, interactive methods.

Boshlang‘ich ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning eng muhim bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan asosiy ko‘nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, savodxonlik darslari orqali o‘quvchilar o‘qish va yozishni o‘rganibgina qolmay, balki mustaqil fikrlash, nutq madaniyati va tafakkur rivojiga zamin yaratadi. Shu sababli savodxonlik darslarining o‘quv jarayonidagi o‘rni beqiyosdir.

Savod o‘rgatish davrining dastlabki birinchi haftasi o‘quvchilarni savod o‘rgatishga tayyorlash ushun ajratiladi, shuning uchun bu davrni alifbegacha bo‘lgan deb ataladi. Suhbatlarning jonli, ko‘rgazmali bo‘lishiga alohida e‘tibor berish zarur. Suhbat uchun faqat darslikdagi rasmlarning o‘zi kifoya qilmaydi, balki uning mazmunini to‘ldiruvchi boshqa rasmlardan yoki predmetlarning o‘zidan namuna ko‘rsatish o‘quvchilarning yana qiziqishini orttiradi. Masalan, “Bizning oila” mavzusida rasm berilgan. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘z oilalalari misolida gap tuzdirish mumkin. O‘quvchilar tomonidan gap tuzdirilganda, ularning nutqiga, tovushlarning qanday talaffuz qilishlariga ovozlarini boshqara olishlariga ham e‘tibor berish lozim. Alifbegacha bo‘lgan davrda o‘qituvchi bolalarni dastlab, maktab hayoti, uning ichki tartib qoidalari bilan tanishtiradi, o‘quvchilar maktabda, darsda, tanaffuz vaqtida maktabdan tashqari vaqtda o‘zlarini qanday tutishlari lozimligi o‘rgatiladi, shuningdek maktab va oilada kundalik rejimga ko‘nikma hosil qilib, unga odatlantirila boriladi. Bu davrda o‘qituvchilar o‘quvchilar jamoasini tashkil etishi va har bir o‘quvchi shu jamoaning a‘zosi ekanligini ular ongiga singdirish, bolalarga jamoa bo‘lib ishlashni asosiy tartib qoidalarini o‘rgatishi kabi vazifani bajaradilar: o‘quvchilarda dars jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, savol yoki javob berishdan oldin qo‘l ko‘tarish, hammaga eshitarli qilib, shoshmasdan, tutilmasdan gapirish kabi, kitob va daftarlarni, toptamaslik kabi

ko‘nikmalarni hosil qila boradi. Bolalar maktab binosi, tevarak atrof bilan tanishtiriladi. Ular o‘qituvchining aytganlarini diqqat bilan tinglash, topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish, savolga javob qaytarish va savol berishga, o‘rtoqlarining javobini tinglashga odatlantiriladi. Ayniqsa, o‘quvchilarni o‘z vazifalarini tushunib, uning o‘z vaqtida to‘liq tushunishga odatlanishi, har bir o‘quvchiga individual yondashib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini savod olishga qanchalik tayyor ekanligini vaqtida aniqlab olish savod o‘rgatish darslarining to‘g‘ri uyushtirilishiga yordam beradi.

Savodxonlik darslari o‘quvchilarga harf, tovush, bo‘g‘in va so‘zlarni o‘rgatish orqali ularni ongli o‘qish va yozishga tayyorlaydi. Bu jarayon Pedagogika va Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fanlari asosida tashkil etiladi. Savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Savodxonlik darslari boshlang‘ich ta’limda barcha fanlarni o‘zlashtirish uchun poydevor vazifasini bajaradi. O‘quvchi o‘qish va yozishni mukammal egallamas ekan, boshqa fanlarni chuqur o‘zlashtira olmaydi. Shu bois savodxonlik: bilim olishning asosiy vositasi, tafakkurni rivojlantirish omili, kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi vosita hisoblanadi.

Savodxonlik darslarida o‘quvchilar matn bilan ishlash, fikrni ifodalash, savollarga javob berish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa ularning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishiga xizmat qiladi.

Savodxonlik darslarining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Birinchidan, o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ikkinchidan, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantiradi.

Uchinchidan, mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

To‘rtinchidan, shaxsning ijtimoiylashuviga yordam beradi. Bu jarayonda Konstantin Ushinsky va Maria Montessori kabi olimlarning metodik qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular savod o‘rgatishda tovush asosida o‘qitish va amaliy faoliyatga tayangan yondashuvlarni ilgari surgan.

Savodxonlik — bu o‘quvchining: harflarni tanishi, o‘qiy olishi, yozishi, o‘qiganini tushunishi, fikrini yozma va og‘zaki ifoda eta olishi kabi ko‘nikmalarining yagona tizimidir. Bu jarayon pedagogika va psixologiya fanlari uyg‘unligida shakllanadi. Chunki bola nafaqat bilim oladi, balki tafakkur jihatdan rivojlanadi.

Ta’lim tizimida savodxonlik darslari quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

a) O‘qish va yozishga o‘rgatish. Bu — savodxonlikning eng asosiy bosqichi. O‘quvchi: tovushni eshitadi, uni harf bilan bog‘laydi, bo‘g‘in va so‘z hosil qiladi. Bu jarayon analitik-sintetik metod asosida olib boriladi.

b) Nutqni rivojlantirish. Savodxonlik darslari orqali: lug‘at boyligi oshadi, gap tuzish ko‘nikmasi shakllanadi, fikrni izchil ifodalash rivojlanadi. Bu jihat Lev Vygotsky ta’kidlagan nutq va tafakkur o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi.

c) Tafakkurni shakllantirish. Savod o‘rganish jarayonida o‘quvchi: tahlil qiladi, taqqoslaydi, umumlashtiradi. Bu esa mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

d) Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. O‘quvchi: o‘qiganini tushunadi, boshqalarga yetkaza oladi, muloqotga kirishadi. Bu zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biridir.

Savodxonlik darslari odatda quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Tovush bilan tanishtirish
2. Harfni o‘rgatish
3. Bo‘g‘in hosil qilish
4. So‘z va gap tuzish
5. Matn ustida ishlash

Bu bosqichlar ketma-ketligi o‘quvchining bilimini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Savodxonlik darslari bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. Bu borada: Jean Piaget – bolalar tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslagan. Maria Montessori – amaliy va

sezgi orqali o‘rganishni taklif etgan. Shu sababli savodxonlik darslari ko‘rgazmali, o‘yin asosida, faol ishtirok bilan tashkil etiladi. Bugungi kunda savodxonlik darslarining mohiyati yanada kengaygan. Endi u faqat o‘qish-yozish emas, balki funksional savodxonlik (hayotda qo‘llash), axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Savodxonlik darslarining mohiyati quyidagilarda mujassam: bu — ta’limning poydevori, shaxsni shakllantiruvchi jarayon, tafakkur va nutq rivojining asosiy vositasi, barcha fanlarni o‘zlashtirish uchun zarur kompetensiyalarni beruvchi bosqichdir. Hozirgi kunda savodxonlik darslarida quyidagi zamonaviy yondashuvlardan keng foydalanilmoqda: interfaol metodlar (aqliy hujum, klaster, rolli o‘yinlar), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, differensial va individual yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim tizimida savodxonlik darslari o‘quv jarayonining ajralmas va eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning bilim olishiga asos yaratib, ularning intellektual va kommunikativ rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash esa savodxonlik darslarining samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Ra’no Mavlonova. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Nodira Egamberdiyeva. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Kamil Yuldashev. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.

PEDAGOGIKADA INNOVATSION YONDASHUVLAR TAHLILI

Namozov Baxram Xudoyshukurovich,
Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o‘qituvchisi s.s.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarda pedagogik etakchilikni rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Shaxsiy yondashuv, murabbiylik yondashuvi va kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlar etakchilikni shakllantirishning asosiy strategiyalari sifatida ko‘rib chiqilgan. Etakchilik fazilatlarini rivojlantirish shaxsaro muloqot, nazorat va qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi va ta’lim sifatini oshirishga, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradi.

Tayanch so‘zlar: Pedagogik etakchilik, shaxsiy yondashuv, murabbiylik yondashuvi, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv, ta’lim samaradorligi, professor-o‘qituvchilar, innovatsion pedagogika.

АНАЛИЗ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Намозов Бахрам Худойшукурович,
старший преподаватель Национального института искусства и дизайна имени Камолиддина Бехзода

Аннотация: В статье исследуются вопросы развития педагогического лидерства среди преподавателей вузов. Личностный подход, наставничество и компетентностный подход рассматриваются как основные стратегии формирования лидерских качеств. Развитие лидерских способностей осуществляется через межличностное взаимодействие, контроль и поддержку, что способствует повышению качества образования и подготовке студентов к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Педагогическое лидерство, личностный подход, наставничество, компетентностный подход, эффективность обучения, преподаватели вузов, инновационная педагогика.

ANALYSIS OF INNOVATIVE APPROACHES IN PEDAGOGY

Namozov Bakhram Khudoyshukurovich,
Senior Lecturer at the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Bekhzod

Abstract: The article examines the development of pedagogical leadership among university lecturers. Personal approach, mentorship, and competence-based approach are considered as key strategies for shaping leadership qualities. Developing leadership skills is achieved through interpersonal interaction, monitoring, and support, which enhances educational effectiveness and prepares students for professional activity.

Keywords: Pedagogical leadership, personal approach, mentorship, competence-based approach, educational effectiveness, university lecturers, innovative pedagogy.

Kirish. Globallashuv natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar, raqamlashtirish va islohotlar, jumladan ta’lim sohasida ham, shaxsda yangi bilim, ko‘nikma va fazilatlarni shakllantirishni talab etadi. Bu bilim va ko‘nikmalar o‘zgaruvchan sharoitlarda muvaffaqiyatli moslashish, raqobatbardoshlik va o‘zini o‘zi anglash imkonini beradi.(1) Kasb-hunar ta’limida va malakasini oshirish sharoitida oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilariga nisbatan qat’iy talablar qo‘llaniladi. Ularning orasida o‘qituvchining etakchilik funksiyasi alohida ajralib turadi.(2)

Zamonaviy o‘qituvchilarda etakchilik funksiyalarini rivojlantirish uning kasbiy o‘sishiga va

ta’lim jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni birinchi navbatda yuqori ixtisoslashgan kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga qaratilganligicha qolmoqda. Kadrlar tayyorlash an’anaviy ta’lim muhitida amalga oshiriladi, bu muhitda o‘qituvchi asosiy bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Bunday sharoitlarda talabalar uchun etakchilik fazilatlarini rivojlantirish muvaffaqiyatli kasbiy rivojlanish uchun zarurdir. Shu sababli o‘qituvchilar o‘rtasida etakchilik salohiyatini rivojlantirish va ta’lim muassasalarida tegishli muhitini yaratishga e’tibor qaratish lozim.

Asosiy qism. Shaxsiy yondashuv pedagogik rahbarlikda o‘qituvchining individual fazilatlari va ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini ta’kidlaydi. Zamonaviy pedagogika kontseptsiyasiga ko‘ra, o‘qituvchi faqat bilimlarni uzatadigan shaxs emas, balki murabbiy sifatida faol ta’sir ko‘rsatadi va o‘quvchilarning shaxsiyatini shakllantiradi. (3) Bu yondashuv orqali o‘qituvchi empatiya, mas’uliyat va ijodkorlik kabi fazilatlarini talabalar o‘rtasida ishonchli muhit yaratishda qo‘llaydi. Shaxsiy yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: o‘qituvchi lider shaxs sifatida o‘z shaxsiy fazilatlarini — empatiya, mas’uliyat va ijodkorlikni — talabalar o‘rtasida ishonchli muhit yaratishda qo‘llaydi. U shogirdlari uchun obro‘-e’tibor manbai bo‘lib, ularni maqsad va rivojlanishga ilhomlantiradi. Rahbarning namunali kasbiy xulq-atvori talabalar va hamkasblarni ruhlantiradi.

Etakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi; u o‘quv jarayoni va atrofdagi shaxslar bilan o‘zaro ta’sir orqali shakllanadi. Asosiy etakchilik fazilatlari insonparvarlik, axloqiylik va ijodkorlikdir. Etakchilik qobiliyatlari o‘quv jarayoni va atrofdagi shaxslar bilan o‘zaro ta’sir orqali shakllanadi. Pedagogik etakchilikning asosiy fazilatlari insonparvarlik, axloqiylik va ijodkorlikdir (4). Adabiyotlarni o‘rganish oliy ta’limda pedagogik etakchilikni tadqiq etishda bir qator yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi: shaxsiy yondashuv, murabbiylik yondashuvi va malakaga asoslangan yondashuv. Talabalarga dars berish jarayonida o‘qituvchi rahbarlikni boshlaydi va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning maqsad va intilishlarini amalga oshirishga yordam beradi.(5) O‘quv jarayonida faol ishtirok etish uchun sharoit yaratadi va talabalar faoliyatini nazorat qiladi. Ishni nazorat qilish faqat baholash bosqichida cheklanmasligi lozim; doimiy monitoring o‘quvchilarning g‘ayratini oshiradi, ularning muvaffaqiyatini ta’minlaydi va o‘qituvchiga har bir bosqichdagi taraqqiyotdan xabardor bo‘lish imkonini beradi.

Muloqot va o‘zaro ta’sir samarali etakchilik uchun muhimdir. Bu shaxslararo muloqot qobiliyatlarini va talabalar bilan munosabatlarni o‘rnatishni talab qiladi. Pedagogik shart-sharoitlar, jumladan hamkasblar va rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlari, etakchilik fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik tasavvur ta’lim dinamikasini individual yo‘naltirilgan etakchilik prizmasi orqali ko‘rib chiqadi. Bu yondashuv an’anaviy ta’lim maydonlarini jonli va rag‘batlantiruvchi o‘quv muhitiga aylantiradi. Murabbiylik yondashuvi o‘qituvchini talabalar uchun murabbiy sifatida ko‘rsatadi. Shu orqali muvaffaqiyatli martaba va yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Murabbiylikka asoslangan ta’lim jarayoni tashkiliy madaniyatni o‘zgartirishni va boshqaruvning avtoritar usullaridan voz kechishni talab qiladi. Murabbiylik yondashuvi o‘qituvchini talabalar uchun murabbiy sifatida ko‘rsatadi. Murabbiy maxsus metodikalar yordamida talabalar ichki motivatsiyasini uyg‘otadi va ularni shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishga yo‘naltiradi(6).

Murabbiylik yondashuvining asosiy jihatlari va afzalliklari quyidagilardan iborat: professor-o‘qituvchilarning malakalarini va motivatsiyasini rivojlantirish, ularni shaxsiy va kasbiy rivojlanishga rag‘batlantirish, innovatsiyalarni qo‘llash imkoniyatini yaratish. Shuningdek, individual va guruhli yordam orqali talabalar kasbiy va hayotiy maqsadlarga erishadi, ularning salohiyati ochib beriladi. Talabalarning jamoada ishlash qobiliyatlari zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas komponenti bo‘lib, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv samaradorligini oshirish Ta’lim jarayonida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun operatsiyalarni optimallashtirish, o‘qituvchilar tarkibi va jamoa o‘zaro munosabatlarining darajasini hisobga olish muhimdir. O‘qituvchi jamoaning bir qismidir, shuning uchun u hamkasblar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Tashkil etilgan ta’lim hamjamiyati ta’lim resurslarini oqilona taqsimlashi va ish yukini o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida muvofiqlashtirishi mumkin. Muvaffaqiyatli tashkilot uchun psixologik xavfsizlikni ta’minlash va kasbiy qobiliyatlarni doimiy rivojlantirish muhimdir.

Jamoa munosabatlari murabbiylik vositasi sifatida yangi pedagogik o‘zaro munosabatlarni shakllantiradi. Bu muhit ishonch, ochiqlik, halollik va samimiylik tamoyillariga asoslanadi. Samarali jamoaviy faoliyat ta’lim jarayonining samaradorligi va muvaffaqiyatini oshiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim murabbiylik yondashuvi bilan uyg‘unlashadi va talabalarning mas’uliyati, ongliligi hamda mustaqilligini rivojlantiradi. Maxsus muloqot va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirish samarali jamoaviy munosabat va fikrlarni aniq ifodalashga yordam beradi. Talabalarning etakchilik salohiyati keng auditoriya oldida gapirishga tayyorlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va ishontirish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali shakllanadi.

Qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik talabalar uchun nazorat o‘rniga qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Bu o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini uyg‘otadi va ularning yutuqlariga hissa qo‘shadi.

Ta’lim samaradorligi murabbiylik orqali psixologik tamoyillarga asoslangan yondashuv bilan oshiriladi. Rahbarlar talabalarning taraqqiyoti va ehtiyojlarini hisobga olgan holda optimal o‘qitish usullarini tanlaydi(7). Har bir o‘quv bosqichi uchun aniq maqsadlarni belgilash o‘quv dasturining mantiqiy ketma-ketligini ta’minlaydi va talabalarning salohiyatini ochib beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar ham o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy ilmiy munozarada “kompetentlik” atamasi kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning asosiy tushunchasi sifatida ko‘riladi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv chuqur bilim, turli ko‘nikmalar, shaxsiy xususiyatlar va tizim qadriyatlarini o‘z ichiga oladi(8). Bu yondashuv etakchilik qobiliyatini mustahkamlashda muhim hisoblanadi. Bu nafaqat chuqur bilim va turli ko‘nikmalarni, balki to‘plangan tajriba, rivojlangan shaxsiy xususiyatlar va tizim qadriyatlarini ham o‘z ichiga oladi, bularning barchasi kasbiy faoliyatni yuqori darajada bajarilishini ta’minlaydi.

Ta’lim samaradorligi pedagogik etakchilik orqali psixologik tamoyillarga asoslangan yondashuv bilan oshiriladi. Rahbar talabalarning taraqqiyoti va ehtiyojlarini hisobga olgan holda optimal o‘qitish usullarini tanlaydi (9). YuNESKO standartlariga ko‘ra, kompetentsiya ijodiy bo‘lish qobiliyati va shaxslararo munosabatlarda bilim va malakalarni samarali qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Turli rasmiy hujjatlarda etakchilikning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ta’kidlangan. Qobiliyatga asoslangan yondashuv etakchilik fenomenini chuqur o‘rganish va tushunishga imkon beradi. Liderlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik kadrlar tayyorlashda ustuvor yo‘nalish hisoblanadi, chunki bu ko‘nikmalar keyingi kasbiy o‘sish uchun muhimdir. Etakchilik vakolatining ko‘p qirrali xususiyatini hisobga olgan holda, uni aniqlash va ta’lim jarayonida optimal usul va strategiyalarni qo‘llash lozim. O‘zbekiston pedagog olimlari fikricha, jamoaviy munosabatlar, samarali muloqot va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish etakchilik fazilatlarini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. (10)

Ijtimoiy muhitda rivojlangan muloqot qobiliyatlari rahbar uchun zarurdir. Samarali muloqot boshqaruv potentsialini amalga oshirish va malakani oshirishga xizmat qiladi. Boshqaruvda maxsus vazifalar va vakolatlarni bajarish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashish ta’lim sohasida muvaffaqiyatli etakchilikni ta’minlaydi. Xorijiy demokratik yondashuv qaror qabul qilish jarayoniga xodimlarni jalb qilish va ikki tomonlama aloqa orqali samaradorlikni oshiradi. Ta’lim sohasida xorijiy yondashuvlarni qo‘llash xodimlarning shaxsiy maydoniga hurmat bilan maqsadlarga erishishga yordam beradi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda boshqaruv amaliyoti sifatni oshirish va maqsadlarga erishishga qaratilgan.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarda pedagogik etakchilikni rivojlantirish masalalari o‘rganildi. Globallashuv, raqamlashtirish va ta’lim sohasidagi islohotlar shaxsda yangi bilim, ko‘nikma va fazilatlarni shakllantirishni talab qiladi, bu esa o‘qituvchilarning etakchilik qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshadi. Shaxsiy yondashuv, murabbiylik yondashuvi va kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlar oliy ta’limda etakchilikni shakllantirishning asosiy strategiyalari sifatida aniqlangan. Shaxsiy yondashuv o‘qituvchining empatiya, mas’uliyat va ijodkorlik kabi fazilatlarini talabalarga namuna sifatida ko‘rsatish orqali ishonchli va rag‘batlantiruvchi muhit yaratadi.

Murabbiylik yondashuvi esa talabalar ichki motivatsiyasini uyg‘otib, ularni shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo‘naltiradi, jamoaviy hamkorlik va innovatsiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv esa chuqur bilim, malaka, shaxsiy xususiyatlar va tizim qadriyatlarini o‘z ichiga oladi, bu esa etakchilik qobiliyatini yanada mustahkamlaydi. Maqolada ta’kidlanganidek, samarali pedagogik etakchilik shaxsaro muloqot, nazorat va qo‘llab-quvvatlash orqali shakllanadi. Etakchilik funksiyasini rivojlantirish professor-o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi, ta’lim jarayonining sifatini oshirish va talabalarni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, xorijiy demokratik yondashuvlarning joriy qilinishi o‘zaro hurmat va samarali muloqotni rag‘batlantirib, ta’lim jarayonida natijadorlikni oshiradi. Umuman olganda, etakchilik fazilatlarini rivojlantirish ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, o‘qituvchilar va talabalar salohiyatini maksimal darajada ochib berish hamda zamonaviy ta’limning talablariga moslashish uchun zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdullayeva Q., Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2018.
2. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Alimov N. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2019.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2015.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2016.
5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – T.: Fan, 2017.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – T.: Fan, 2014.
7. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017.
8. Raximov S., Karimov R. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
9. Hasanboyev J. Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish. – T.: O‘qituvchi, 2018.
10. Yo‘ldoshev J., Xoliqov A. Ta’lim menejmenti. – T.: Fan, 2019.

ELEKTRON TA’LIMIY VOSITALAR ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA“FONETIKA” BO‘LIMINI O‘QITISH

Boboqulova Venira Ne’matillayevna
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili fanining “Fonetika” bo‘limini o‘qitishda elektron ta’limiy vositalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqotda multimedia resurslari va interaktiv platformalarning o‘quvchilarning fonetik kompetensiyasini shakllantirishga ta’siri, kognitiv rivojlanish jarayonidagi roli hamda ularning didaktik samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Fonetika, boshlang‘ich ta’lim, elektron ta’limiy vositalar, multimedia, interaktiv metodlar, fonetik kompetensiya, raqamli pedagogika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-методические основы использования электронных образовательных средств при обучении разделу «Фонетика» в курсе родного языка в начальных классах. В исследовании анализируется влияние мультимедийных ресурсов и интерактивных платформ на формирование фонетической компетенции учащихся, их роль в процессе когнитивного развития, а также их дидактическая эффективность.

Ключевые слова. Фонетика, начальное образование, электронные образовательные средства, мультимедиа, интерактивные методы, фонетическая компетенция, цифровая педагогика.

Abstract. This article examines the scientific and methodological foundations of using electronic educational tools in teaching the “Phonetics” section of the native language subject in primary education. The study analyzes the impact of multimedia resources and interactive platforms on the development of students’ phonetic competence, their role in the cognitive development process, and their didactic effectiveness.

Keywords. Phonetics, primary education, electronic educational tools, multimedia, interactive methods, phonetic competence, digital pedagogy.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ta’lim tizimini raqamlashtirish boshlang‘ich sinflarda fonetika kabi murakkab bo‘limlarni o‘qitish metodikasiga ham yangiliklar olib kirmoqda. Fonetika bo‘limi o‘quvchilarda to‘g‘ri tovush talaffuzi, eshitish, ajratish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish va urg‘uni aniqlash kabi muhim fonetik-fonologik kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchida savodxonlik, shu jumladan, fonetik savodxonlik asoslarini shakllantiruvchi poydevordir. Ona tili darslarida fonetik bo‘limni o‘rganish – nutq tovushlari, harflar, bo‘g‘in, urg‘u kabi asosiy tushunchalarni o‘zlashtirish orqali to‘g‘ri o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr axborot texnologiyalari davrida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish elektron ta’limiy vositalarni joriy etishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda tilning fonetik tizimi haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarni shakllantirishda asosiy davr hisoblanadi. Ona tili fanining “Fonetika” bo‘limi tovush va harf munosabatini anglash, nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, eshitish orqali farqlash hamda yozma nutq bilan bog‘lash kabi muhim lingvistik kompetensiyalarni shakllantiradi. Fonetik eshitish va fonetik tahlil ko‘nikmasi yozma nutqni o‘zlashtirish uchun bevosita zaruriy shart hisoblanadi. Tovush va harf orasidagi munosabatni anglash, so‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajratish – o‘qish tezligi va tushunish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Bu borada ETV, ayniqsa, multimediya (ovoz, tasvir, matn) integratsiyasini ta’minlaydigan vositalar (PowerPoint, interfaol doska dasturlari, ta’limiy o‘yin ilovalari) o‘quv materialini idrok etishni osonlashtiradi:

Fonetik hodisalarni ko‘rsatish (artikulyatsiya sxemalari, tovush to‘lqinlari). Tovushning hosil bo‘lishi, unli va undoshlarning artikulyatsiyasi kabi jarayonlarni animatsiya yoki sxemalar orqali ko‘rsatish mumkin. Bu o‘quvchida mavzuni tez va aniq tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta’lim jarayoni o‘quvchining faol bilish faoliyatiga asoslanishi ta’kidlanadi. Konstruktivistik ta’lim nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda quruvchi subyekt hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, elektron ta’limiy vositalar fonetika o‘qitish jarayonini faollashtiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda multimodal idrok (eshitish, ko‘rish va amaliy faoliyat uyg‘unligi)ni rivojlantiradi. Ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilarda eshitish va vizual idrok ustun bo‘lganligi sababli, fonetik materialni multimedia asosida taqdim etish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqot boshlang‘ich sinflarda fonetika bo‘limini o‘qitishda elektron ta’limiy vositalardan foydalanish samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, quyidagi ilmiy metodlarga asoslandi:

Kuzatish metodi - dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi, tovushlarni idrok etish tezligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari kuzatildi.

Qiyosiy tahlil metodi - an’anaviy o‘qitish usuli va elektron ta’limiy vositalar qo‘llanilgan darslar natijalari o‘zaro solishtirildi.

Pedagogik eksperiment - tajriba-sinov ishlari ikki guruhda amalga oshirildi:

- nazorat guruhi (an’anaviy metod);
- tajriba guruhi (multimedia va interaktiv vositalar asosida o‘qitish).

Diagnostik baholash - o‘quvchilarning fonetik bilim darajasi testlar, og‘zaki so‘rovlar va amaliy mashqlar orqali baholanadi.

Qo‘llanilgan elektron vositalar: multimedia taqdimotlari (PowerPoint, Canva), audio materiallar (tovush yozuvlari), interaktiv platformalar (LearningApps, Kahoot), elektron darsliklar va raqamli mashqlar.

Elektron vositalar yordamida o‘qitilgan o‘quvchilarda unli va undosh tovushlarni farqlash tezligi sezilarli darajada oshdi. Audio materiallardan muntazam foydalanish natijasida o‘quvchilarning to‘g‘ri talaffuz qilish darajasi yaxshilandi. Multimedia va o‘yin texnologiyalari darsga qiziqishni oshirib, passiv o‘quvchilarni ham faol ishtirokchiga aylantirdi. Interaktiv mashqlar o‘quvchilarning mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, elektron ta’limiy vositalar fonetika o‘qitish jarayonida yuqori didaktik samaradorlikka ega. Bu holat bir nechta ilmiy asoslar bilan izohlanadi.

Birinchidan, kognitiv yuklama nazariyasiga ko‘ra, axborot multimodal (audio + vizual) shaklda taqdim etilganda, o‘quvchining idrok jarayoni yengillashadi va bilimni qayta ishlash samaradorligi ortadi.

Ikkinchidan, L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga muvofiq, interaktiv vositalar o‘quvchining mustaqil bajarish qobiliyati bilan pedagogik qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida optimal muvozanat yaratadi.

Uchinchidan, multimedia vositalari fonetik birliklarni abstrakt ko‘rinishdan konkret tasavvurga o‘tkazadi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ayniqsa muhim, chunki ular abstrakt lingvistik tushunchalarni hali to‘liq egallamagan bo‘ladi. Shu bilan birga, elektron vositalardan foydalanish faqat texnik jarayon emas, balki metodik jihatdan puxta rejalashtirilgan didaktik tizim bo‘lishi lozim. Aks holda, texnologik vositalar o‘quv maqsadidan chetga chiqib ketishi mumkin.

Elektron ta’limiy vositalarni fonetika darslariga samarali integratsiya qilish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Multimedia taqdimotlari: Tovush va harf, unli va undoshlar, bo‘g‘in, urg‘u kabi tushunchalarni yorqin rasmlar, animatsiyalar, audio namunalar bilan tushuntirish. Masalan, unli tovushlarni cho‘zish orqali talaffuz qilish va undosh tovushlarni to‘siq bilan talaffuz qilishni vizual

farqlash.

2.Video fragmentlar: Fonetik jarayonlar yoki talaffuz qoidalarini aniq namoyish etuvchi qisqa metrajli o‘quv videolari namoyish etish.

Quyida interfaol mashqlarga namuna keltiramiz:

Drag-and-Drop (Suratlab-joylashtirish): berilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish yoki tovushlarni tegishli harflarga moslash.

Ovozni tanib olish (Speech Recognition): o‘quvchining tovush talaffuzini dastur orqali yozib olish va namuna bilan solishtirib, xatolarni ko‘rsatish (agar mavjud bo‘lsa).

Test va viktorinalar: turli fonetik qoidalarni mustahkamlash uchun qisqa onlayn testlar o‘tkazish.

Raqamli lug‘atlar va ma’lumotnomalar: o‘quvchilar mustaqil ravishda noaniq so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini audio orqali tinglashlari mumkin.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda fonetika bo‘limini o‘rganishda elektron ta’limiy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning fonetik bilimlarini chuqurlashtiradi, balki talaffuz madaniyatini shakllantiradi va o‘quv jarayoniga qiziqishni oshiradi. O‘quvchilar bu ko‘nikmalar orqali fonetik kompitensiyasini oshiradi.hamda elektron vositalar yordamida dars samaradorligi ortadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda “Fonetika” bo‘limini o‘qitishda elektron ta’limiy vositalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari multimodal ta’lim yondashuvi o‘quvchilarda fonetik kompetensiyani shakllantirish, talaffuz madaniyatini rivojlantirish va o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishda muhim rol o‘ynashini tasdiqladi.

Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida elektron ta’limiy vositalarni metodik asosda integratsiya qilish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim strategik yo‘nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2017.
2. Vygotskiy L.S. — Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
3. G‘ulomov A., Ne’matov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Yuldashev U. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. til va adabiyot ta’limi. – 2021. – № 4. – B. 35-39.
7. Xasanova M. Ona tili darslarida multimediya vositalaridan foydalanish samaradorligi. Pedagogik mahorat. – 2019. – № 2. – B. 67-72.
8. Nurmatova D. J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik savodxonligini oshirishda axborot texnologiyalari. Xalq ta’limi. – 2020. – № 1. – B. 55-60.

XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK TILIDA YARATILGAN DARSLIKLARNING MAZMUNI VA SHAKLLARI

Sharopova Shaxnoza Sobirjon qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida o‘zbek tilida yaratilgan darsliklarning mazmuni va shakliy xususiyatlari tahlil qilinadi. Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan yaratilgan darsliklarning pedagogik ahamiyati, ularning yangi usul maktablari rivojidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, darsliklarda qo‘llanilgan metodlar, xususan tovush-harf usuli, qiyosiy yondashuv, ko‘rgazmalilik va tarbiyaviy yo‘nalishlar misollar asosida ochib berilgan. Darsliklarning o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, savodxonlikni oshirish va axloqiy tarbiya berishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, darslik, yangi usul maktablari, savtiya usuli, pedagogika, ma’rifatparvarlik, o‘qish kitoblari, axloqiy tarbiya, metodika.

Аннотация. В данной статье анализируются содержание и формы учебников, созданных на узбекском языке в начале XX века. Освещается педагогическое значение учебников, разработанных джадидскими просветителями, а также их роль в развитии школ нового метода. Рассматриваются используемые в учебниках методы обучения, такие как звуко-буквенный метод, сравнительный подход, наглядность и воспитательная направленность. Показано значение этих учебников в расширении мировоззрения учащихся, повышении грамотности и формировании нравственных качеств.

Ключевые слова: джадидизм, учебник, школы нового метода, звуко-буквенный метод, педагогика, просветительство, учебные пособия, нравственное воспитание, методика.

Annotation. This article analyzes the content and structural features of textbooks created in the Uzbek language at the beginning of the 20th century. It highlights the pedagogical significance of textbooks developed by Jadid enlighteners and their role in the development of new-method schools. The study examines teaching methods used in these textbooks, including the phonetic method, comparative approach, visual aids, and moral education. The importance of these textbooks in expanding students’ worldview, improving literacy, and fostering ethical values is also emphasized.

Keywords: Jadidism, textbook, new-method schools, phonetic method, pedagogy, enlightenment, teaching materials, moral education, methodology.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yuqorida aytilganidek, darsliklar yaratishga katta e’tibor berilgan. O‘sha davrda ziyolilarning aksariyati darslik yaratishga kirishgan edi. Buning asosiy sabablaridan biri yangi ochilgan maktablarda darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarga juda katta ijtimoiy-pedagogik ehtiyojning mavjudligida edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Elbek, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma’rifatparvarlar darsliklar va o‘quv adabiyotlari yaratish sohasida jonbozlik ko‘rsatdilar. Ular yangi usul maktablari ochish bilan bir qatorda, ushbu maktablar uchun darsliklar yaratdilar. Ularning yozgan darsliklari madrasa va maktabxonalar darsliklaridan farq qilib, ularda darslik yaratish tamoyillariga, darslikning muayyan metodik maqsadlarga xizmat qilishi, ko‘rgazmali bo‘lishi, o‘quvchilar yoshi va dunyoqarashiga mos bo‘lishi zarurligi kabilarga amal qilingan edi. Yangi usul maktablarining savod o‘rgatish davriga tovush-harf usuli kirib kelishi bilan hijja usuli inqirozga uchray boshladi. Rus-tuzem va yangi usul maktablarining ochilishi maktabxonalarning tugab borishiga, ularda yangicha ta’lim usullarining qo‘llanishi esa ta’lim islohotining tezlashishiga sabab bo‘ldi.

Yangi usul maktablaridagi o‘quv dasturi turkiy yoki forsiy tilda o‘qish, yozish, arifmetika,

tabiiyot, tarix, jo‘g‘rofiyani o‘z ichiga olardi. Mazkur o‘quv dasturi asosida o‘quvchilar nisatan ancha keng bilimlarni egallardilar. Toshkentdagi madrasalardan birida dars beruvchi Munavvarqori yangi dastur mualliflaridan biri bo‘lgan. Dastur quyidagi fanlardan iborat edi: 1) diniy ta’limot, 2) muqaddas an’analar, 3) islom ta’limoti tarixi, 4) arab grammatikasi, 5) meros huquqi, 6) arifmetika, 7) butunjahon jo‘g‘rofiyasi, 8) islom tarixi, 9) muqaddas tarix, 10) arabiy va turkiy imlo.

Oktyabr to‘ntarishidan keyingi ziddiyatlarga to‘la yillarda Munavvarqori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy kabi ma’rifatparvarlar o‘z pedagogik faoliyatlarini davom ettirib, darslik, risola va maqolalar chop ettirdilar. Maktablarda o‘quvchilar sonining ortib borishi bilan, darsliklarga bo‘lgan talab va ehtiyoj ham kuchayib bordi.

O‘zbekistonda o‘quv-metodik talablarga javob beradigan darslik yaratish sohasida ilk qadamni ilg‘or pedagog Saidrasul Aziziy qo‘ydi. U 1902 yilda o‘zbek tilida yangi «savtiya» usulida «Ustodi avval» alifbesini yaratdi. Albatta, birinchi darslik bo‘lganligi uchun unda bir qator kamchiliklar bo‘lishi tabiiydir. Shundan so‘ng Munavvarqori Abdurashidxonov 1907 yilda «Adibi avval» alifbe darsligini yaratdi. 1917 yilgacha Sayidrizo Alizodaning «Birinchi yil», Abdulvahob Ibodiyning «Tahsili alifbo», Rustambek Yusufbek o‘g‘lining «Ta’limi avval», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» kabi bir qator alifbe darsliklari nashr qilindi va maktablarda o‘qitildi. Bizgacha alifbe darsliklarining mazmuni va didaktik asoslari pedagogika fanlari nomzodi M.Inoyatovaning «O‘zbek alifbe darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida chuqur tahlil qilinganligi uchun alifbelarning didaktik qirralari haqida to‘xtalishni zarur deb topmadik.

Ta’kidlash joizki, ma’rifatparvarlarning maktablarni o‘quv qo‘llanma va darsliklar bilan ta’minlashga qaratilgan harakatlari ona tili, o‘qish, geografiya, tarix fanlaridan ilk darsliklar yaratishga ham qaratilgan edi.

O‘zbek ma’rifatparvari, savodsizlikni tugatishda faol ishtirok etgan o‘qituvchi Muhammadrasul Rasuliy (1884-1935) 1907 yil 1 oktyabrdan boshlab Beshyog‘och dahasidagi Arpapoya mahallasida 4-rus-tuzem maktabining o‘zbekcha sinfida muallimlik faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lib, 1917 yilgacha rus-tuzem maktablari, 1917 yildan keyin esa sovet maktablarida ishlagan. Uning bir qator darsliklari singari «Rahbari forsiy» darsligi ham Toshkentda bir necha marta (1911, 1914, 1917-yillarda) chop etilgan.

Darslikning birinchi nashrida ushbu kitob «Makotibi ibtidoiyaning 3-4-sinf shogirdlarina» mo‘ljallanganligi ko‘rsatilgan. Darslik o‘quvchilarga fors tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan bo‘lib, fors tili grammatikasiga oid bir qancha masalalar bayonida o‘zbek tili grammatikasiga doir masalalar ham yo‘l-yo‘lakay eslatib o‘tilgan. Muallif ushbu darslikni tuzishda qiyosiy metoddan foydalangan.

M.Rasuliyning «Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston», «Bolalar bog‘chasi» [94] nomli darsliklari ham mavjud. «Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston» darsligi 1916 yil Toshkentda nashr qilingan. Darslikdan forscha qisqa hikoya va she’rlar o‘rin olgan. Undagi mavzular 54 darsga taqsimlangan, ba’zi forscha so‘zlarga o‘zbekcha izoh berilgan. Darslikda ko‘rgazmalilik tamoyiliga amal qilinib, o‘quv materiali mazmuniga ko‘ra turli rasmlardan foydalanilgan. Undagi ba’zi hikoyalar ruschadan tarjima qilingan. Masalan: “Bobo ila nabira”, «Qo‘rqoq», «Aqlli qishloqi» va h.

Muhammad Rasul Rasuliyning “Bolalar bog‘chasi” darsligi ham mavjud bo‘lib, u eski o‘zbek yozuvida nashr etilgan. Darslik 1917 yil Toshkentda «Osiyo» nashriyotida chop qilingan bo‘lib, 48 betdan iborat. Darslikning birinchi betida dastlab muallifning ism-sharifi, kitobning nomi rus va eski o‘zbek yozuvida berilgan. Uning dastlabki sahifasida quyidagi gaplar mavjud: «Ibtidoiy maktablarning birinchi sinf shogirdlari uchun turli kitoblardin olinub, ochuq til va engil tartiblar ila yozilmish musavvar (rasmli) qiroat kitobidir. Noshiri Turkiston kutubxonasi. Takror tabaa noshirlar shirkatila murattabiga (tartibga keltirilgan) maxsus, ikkinchi ta’bi (nashri), 1336-hijriy-qamariy, 1917 melodiy-shamsiy».

Darslik boshlang‘ich sinflar uchun o‘qish kitobi hisoblangan. Ushbu rasmli darslikdagi

hikoyalar bir-birini mazmunan to‘ldirib, boyitib boradi. Darslikda Sharq an’anaviy uslubi qo‘llanilib, hikoyalar nihoyasida baytlar berilgan. Har bir hikoya tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar yoshi va dunyoqarashiga mos sodda bayon uslubida yozilgan. Darslikda integratsiya tamoyillaridan unumli foydalanilgan bo‘lib, unda bolalarni axloq-odobga o‘rgatish, turli fan sohalaridan boshlang‘ich ma’lumotlar berishga harakat qilingan. Ushbu darslik o‘quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini rivojlantirishga qaratilganligi bilan diqqatga molikdir.

Taniqli adib Sadriddin Ayniy «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan yangi milliy maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») o‘qish kitobini tuzgan bo‘lib, uning birinchi nashri 1909; ikkinchi nashri 1917 yilda chop etilgan. «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy-didaktik xarakterda ega bo‘lib, o‘quv materiallari bolalarga qiziqarli sodda tilda bayon etilgan, ular mazmuni o‘quvchilar yoshiga mos. O‘sha zamon sharoiti va talablariga ko‘ra, kitobda diniy ma’lumotlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» darsligida muallif, bolalarni rostgo‘y va vijdonli bo‘lishga da’vat etadi: «Axloqiy tarbiyalangan bola hech vaqt yolg‘on gapirmaydi. Hamma vaqt chin so‘z bo‘ladi...Rostgo‘y bola hech vaqt yolg‘on gapirmaydi. Hech kimga ziyon etkizmaydi... Maktabda yoki yo‘lda biron narsa topsa, uni albatta egasiga qaytarib beradi»,- deya bolalarni axloqli, rostgo‘y inson bo‘lishga undadi. Uning fikricha, rostgo‘y bola kishilar va o‘rtoqlari orasida katta obro‘ga ega bo‘lib, yolg‘onchi bola esa obro‘siz bo‘ladi. «Yo‘ldosh degan bola maktabga bordi, birinchi sinfda alifbe o‘qirdi. Lekin yolg‘onchi edi. O‘qituvchi nasihatlariga quloq solmadi. Natijada maktabdan haydaldi. Yolg‘onchi bo‘lganligi uchun hech kim uni hurmat qilmas edi», - deb yozadi muallif.

S.Ayniy darslikda: «O‘qish yo‘lida g‘ayrat qil! Odam bo‘l. Keyin kuching boricha o‘z Vataningga, o‘z xalqingga va o‘z millatingga xizmat qil» deb o‘quvchilarni ilmli bo‘lishga chaqirdi, shu bilan ularda milliy iftixorni shakllantirishga harakat qildi. Bolaning shakllanishida oila tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Muallif bir hikoyada namuna usulidan foydalanib, o‘quvchilar hayotida ro‘y bergan voqea misolida o‘quvchilarni halol bo‘lishga undash bilan birga, bunda oila tarbiyasi, onaning namunasi katta o‘rin tutishini ko‘rsatib beradi. Quyida ushbu hikoyadan parcha keltiramiz: «Bir kuni Tosh ismli bola maktabdan qaytayotganida o‘tkinchi kishi qopchig‘ini tushirganini ko‘rdi, uni olib uyiga keldi va onasiga ko‘rsatdi. Onasi achchiqlanib aytdi: «Buning egasini tezroq top va unga qopchiqni qaytar, aks holda o‘rtoqlaring orasida seni o‘g‘ri deb e’lon qilaman». Tosh qopchiq egasini topib, uni puli bilan qaytarib berdi».

XX asr boshida darslik yaratgan pedagoglar, ziyolilar darsliklardagi matnlarni o‘z hayotiy tajribalaridan olganlar. Hikoya, rivoyat singari she’r va to‘rtliklar ham bitib, darsliklarga kiritganlar. Jumladan, Sadriddin Ayniy ham «Tahzib us-sibyon» darsligining «Aqlli bola» bobida bolalarni sahiylik ruhida tarbiyalovchi she’r yozadi. Muallif «Tarbiya ko‘rgan bola», «Yaxshi, odobli bola» boblarida yoshlikdan o‘quvchilarda madaniy xulqni qaror toptirish, har bir o‘quvchining tozalikka rioya qilishi lozimligi haqida fikr yuritadi. Bundan tashqari, darslikda axloqiy tarbiya, ota-onani hurmatlash to‘g‘risida fikr yuritilib, ushbu yo‘nalishda yuksak badiiy saviyaga ega bo‘lgan savol-javob shaklidagi she’r taqdim etilgan. S.Ayniy oilada mehr-oqibat yuqori darajada bo‘lishini xohlaydi. Darslikda insonparvarlik ruhidagi hikoyalar bilan bir qatorda, estetik tarbiya va o‘yin faoliyati bilan bog‘liq qisqa-qisqa matnlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» keng qamrovli darslik hisoblanib, unda barcha fanlar, ularning inson hayotidagi o‘rni beqiyosligi haqida fikr bayon qilinadi. Muallif har bir bola o‘zi o‘qish va yozishni bilishi shart deb hisoblaydi. Darslikda bolalar hayoti, tabiat, maktab, uy hayvonlari va parrandalarga oid bolalarning yoshiga mos qiziqarli hikoyalar mavjud. Sadriddin Ayniy kitobda o‘qituvchilar uchun metodik yo‘l-yo‘riqlar ham taqdim etgan bo‘lib, darslikning ayrim boblari o‘qituvchi va uning vazifalariga bag‘ishlangan.

M.Hasaniy «S.Ayniy hayoti va ijodi» risolasida, S.Ayniyning «Tahzib us-sibyon» darsligidan tashqari, «Yoshlar tarbiyasi» darsligi mavjudligi haqida yozilgan bo‘lib, ushbu darslik 1909 yilda chop etilgan.

Ma’rifatparvar M.Behbudiy o‘zbek va tojik tillarida bir qator darsliklar yaratgan. U o‘zi

yaratgan darsliklarda didaktikaning eng muhim tamoyili bo‘lgan onglilikka alohida e’tibor qaratdi. U «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy», «Kitobat ul-atfol», «Muxtasari tarixi islom», «Madxali jug‘rofiyai umroniy», «Muxtasar jug‘rofiyai Rusiy» kabi darsliklar muallifidir. Shuningdek, O‘zbek pedagogikasi antologiyasi kitobida Behbudiyning «Hisob» nomli darsligi mavjudligi haqida ma’lumot berilgan. U «Kitobatul-atfol» darsligida o‘quv matnlari bayonida fors, arab va turk tilidagi so‘zlarning aralashtirib berilishi «bola zehnini ochmay, balki fikrining yo‘q bo‘lishiga sabab» bo‘lishini aytib, matn tuzdirishning grammatik, stilistik, tarbiyaviy jihatlarini yoritgan, xatlardan namunalar keltirgan.

Mahmujxo‘ja Behbudiyning «Kitobi muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiy», to‘liq nomi «Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya» («Umumiy jo‘g‘rofiyadan saylanma kitob, 1906») darsligida, «yangi ilmdan bexabar ulamolar»ni dunyoviy va diniy bilimlar o‘rtasiga sun’iy to‘siq qo‘yish, nodonliklari tufayli islom dinini obro‘sizlantirishda aybladi. Muallif ushbu darsligida: «Agarda jo‘g‘rofiya o‘qumasak, dunyog‘a taraqqiy qilolmaymiz», - deb ta’kidlaydi.

Muallif ushbu darsligini nashr ettirish uchun 1905 yil 24 avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906 yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop ettirgan. Darslik 106 sahifadan iborat. Uning dastlabki sahifalarida geografiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, ularning asarlaridan namunalar keltirilgan. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850-1904) 6 jildlik mashhur «Qomus ul-a’lom» va I.Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan. Muallif juda sodda qilib osmon jismlarining joylashishi va harakatini tushuntiradi. «Hukamo qavlicha, Erni(ng) yumaloqligi alomatlari» deb nomlangan matnda muallifning o‘z kuzatishlari ko‘proq seziladi. Unda Peterburg, Toshkent vaqti dunyoning boshqa shaharlariga qiyosan berilgan va ikkita jadval ilova qilingan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullarini uchga bo‘ladi: 1) Idorai mustaqalla (monarxiya); 2)Idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat); 3) Idorai jumhuriyat (Respublika). Shuningdek u odamlarni oq, qora, qizil va sariq tanlilar deb irqlarga ajratilishini qayd etadi. Yerning harakati, dunyoning qurilishi haqidagi geliotsentrik tuzilma va uning Evropa ilmidagi vakillari N.Kopernik, Kepler, G.Galileylar faoliyati haqida to‘xtalib o‘tadi.

Ushbu darslikda muallif: «...Asri hozirgi tashviqoti ila iste’dodi ojizonamizcha, bataqdiri hay, qadim fan jug‘rofiyaga taalluq ushbu kitobni tahrir va jam’ aylab, «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» yod qilib ba’zi mahalig‘a ta’rix, riyoziy, muhokamoti diniy, umroniy, siyosiy va andagi kutubi diniyadan bayon va iqtibos girma qildik. Fan to‘g‘risindagi ijmol xulosa va tafsilot turkiy, arabiy, forsiy, rus lug‘atlarig‘a tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid mo‘‘tabar nusxa va har guna mazkur lug‘atlardagi» gazit-jarida, atlas, xarita, kurrai mumuttaha, istaticheski majmuallardan jam’ va tartib qilingandur» deya ma’lumot bergan [47].

M.Behbudiy osmon jismlari, erning aylanishi haqidagi ma’lumotlarni bolalar yoshiga mos tilda bayon etishga harakat qilgan. Shuningdek, darslikda geografiyaga oid ko‘plab kitoblar yozilganligi, Abulqosim Ubaydullohning «Kitob al-masolik va-l-mamolik» va «Kitob as-samo» risolalari mavjudligi, ularning fransuz va nemis tillariga tarjima qilingani, geografiyaning rivojiga hissa qo‘shgan olimlar, ularning asarlari, amerika qit’asining kashf etilishi, dengizlar, bo‘g‘ozlar, Rusiya va Evropa mamlakatlari, geografiya fanining hamon rivojlanishda ekanligi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, millat kamoli yo‘lida jonbozlik ko‘rsatganlar. Biroq, ularning harakati mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifasi o‘sha davrda ham, sovet davrida ham g‘arazli maqsadda talqin qilindi. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri IX-XII asrlarda vujudga kelib, bu asr oralig‘idagi ilmiy-madaniy yuksalish Ma’mun Akademiyasi misolida namoyon bo‘lgan edi. Ikkinchi uyg‘onish davri Temur va temuriylar hukmronlik qilgan yillarga to‘g‘ri keladi, ushbu davrda buyuk davlat qurilishi (Amur Temur saltanati) amalga oshirildi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan XV asrning buyuk mo‘jizasi rasadxona yorqin yulduz bu davrning ilmiy tafakkurining yorqin namunasidir. Oradan IV asr o‘tgach, jadid

ziyolilari uchinchi Milliy uyg‘onish jarayonini vujudga keltirdilar. Ular boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar qatori hozirgi geografiya o‘quv fani zarurligini asoslab, bu sohada dastlabki darsliklarni yaratdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Avloniy A. Birinchi muallim. – Toshkent, 2017.
2. Aziziy S. Ustodi avval (alifbe). – Toshkent, 1902.
3. Abdurashidxonov M. Adibi avval. – Toshkent, 1997.
4. Behbudiy M. Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy. – Samarqand: G.I. Demurov matbaasi, 1996.
5. Ahrorova Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma’rifiy-amaliy faoliyati: Ped. Fan. Nomzodi…diss. – Toshkent: 1997. – 195 b.
6. Inoyatova M. O‘zbek alifbe darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari: Ped. fan. nomzodi... avtoref. –Toshkent: 2006. – 22 b.
7. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DARS MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA MA’NAVIY – AXLOQIY SIFATLARINI TARBIYALASHDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARDAN FOYDALANISH

Ergashova Gulzoda Baxtiyorovna
Buxoro pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars mashg‘ulotlari jarayonida ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda integratsiyalashgan darslardan foydalanish masalasi yoritilgan. Integratsiyalashgan darslarning mazmun-mohiyati, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlashdagi o‘rni, fanlararo aloqadorlik asosida o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida hurmat, mas’uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, hamkorlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda o‘qituvchining kasbiy mahorati muhim omil ekani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, integratsiyalashgan dars, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axloqiy sifatlar, fanlararo aloqadorlik, interfaol metodlar, o‘quvchi shaxsi, pedagogik mahorat, tarbiyaviy jarayon, hamkorlik, mas’uliyat, vatanparvarlik.

USING INTEGRATED LESSONS TO CULTIVATE THE SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS DURING LESSONS

Abstract: This article discusses the issue of using integrated lessons in the education of spiritual and moral qualities of primary school students in the process of lessons. This article analyzes the content of integrated lessons, their role in ensuring the harmony of education and upbringing, and the possibilities of forming moral qualities in students based on interdisciplinary connections. It is substantiated that modern pedagogical approaches, interactive methods, and the professional skills of the teacher are an important factor in the development of spiritual and moral qualities such as respect, responsibility, diligence, patriotism, cooperation in the process of primary education.

Keywords: primary education, integrated lesson, spiritual and moral education, moral qualities, interdisciplinary connections, interactive methods, student personality, pedagogical skills, educational process, cooperation, responsibility, patriotism.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ УРОКОВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНЫХ И НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос использования интегрированных уроков в воспитании духовно-нравственных качеств учащихся начальной школы в процессе обучения. Анализируется содержание интегрированных уроков, их роль в обеспечении гармонии обучения и воспитания, а также возможности формирования нравственных качеств учащихся на основе междисциплинарных связей. Обосновывается, что современные педагогические подходы, интерактивные методы и профессиональные навыки учителя являются важным фактором развития таких духовно-нравственных качеств, как уважение, ответственность, усердие, патриотизм, сотрудничество в процессе начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, интегрированный урок, духовно-нравственное воспитание, нравственные качества, междисциплинарные связи, интерактивные методы, личность ученика, педагогические навыки, образовательный процесс, сотрудничество,

ответственность, патриотизм.

Kirish. Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin kuchayishi va ijtimoiy munabatlarning murakkablashuvi sharoitida yosh avlodni nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega etib tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, xulq-atvori, odob-axloqi, atrofdagilarga munosabati, ijtimoiy faolligi va shaxsiy fazilatlari shakllanishining dastlabki poydevori yaratiladi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda hurmat, halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, hamkorlik, intizomlilik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish faqat alohida tarbiyaviy tadbirlar orqali emas, balki dars mashg'ulotlari jarayonida tizimli va maqsadli ravishda amalga oshirilishi lozim. Chunki dars ta'lim-tarbiyaning asosiy shakli bo'lib, unda o'quvchi ongiga bilim bilan bir qatorda ijtimoiy, axloqiy va estetik qadriyatlar ham singdirib boriladi. Mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, integratsiyalashgan darslardan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan darslar turli fanlar mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilimni yaxlit holda qabul qilishiga, mavzular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglashiga hamda olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishiga yordam beradi. Bunday yondashuv, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida samarali bo'lib, o'quvchilarda ezgulik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, tabiatga ehtiyotkor munosabat, mehnatga sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat kabi sifatlarni shakllantirishda keng imkoniyat yaratadi. Integratsiyalashgan darslar orqali o'quvchi bir vaqtning o'zida bir necha fan doirasidagi bilimlarni egallashi bilan birga, ulardan tarbiyaviy xulosa chiqarishga ham o'rganadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars mashg'ulotlari jarayonida ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu davrda o'quvchining yaxshilik va yomonlik, halollik va insofsizlik, mehr-oqibat va befarqlik, hurmat va mas'uliyatsizlik haqidagi dastlabki tasavvurlari yuzaga keladi. Shuning uchun ham dars jarayonini faqat bilim berish bilan cheklab qo'yish yetarli emas, balki unda tarbiyaviy maqsadni ham chuqur singdirish zarur. Shu nuqtayi nazardan integratsiyalashgan darslar boshlang'ich ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishning qulay va ta'sirchan shakllaridan biri hisoblanadi. Integratsiya turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lagan holda bolaga hayotni yaxlit holda anglash imkonini beradi. O'quvchi bilimni parchalanib qolgan holda emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar tizimi sifatida qabul qiladi. Natijada dars mazmuni hayotiylashadi, o'quvchi fikrlashi faollashadi, tarbiyaviy g'oyalar esa tabiiy ravishda uning ongiga singadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya deganda shaxsda jamiyat tomonidan e'tirof etilgan odob-axloq me'yorlarini, ezgu fazilatlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday sifatlar, avvalo, kattalarga hurmat, tengdoshlariga mehribonlik, rostgo'ylik, tartiblilik, mehnatsevarlik, Vatanga sadoqat, tabiatga ehtiyotkor munosabat, jamoada ishlash madaniyati, mas'uliyatlilik, sabr-toqat kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu fazilatlarni shakllantirishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini albatta hisobga olish lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq obrazli fikrlaydi, voqea-hodisalarni aniq misollar va jonli tasvirlar orqali tezroq qabul qiladi, taqlidchan bo'ladi, o'yin va qiziqarli mashg'ulotlarga moyilligi kuchli bo'ladi. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya quruq nasihat tarzida emas, balki dars mazmuniga singdirilgan, bolaga tushunarli va qiziqarli faoliyatlar vositasida olib borilishi zarur. Integratsiyalashgan dars aynan shu talabga javob beradi.

Integratsiyalashgan darslarning nazariy asosida fanlararo aloqadorlik, tizimlilik, izchillik, ongli o‘zlashtirish, tarbiya va ta’lim birligi kabi tamoyillar yotadi. Bunday darslarda bir mavzu bir nechta fan nuqtayi nazaridan ochib beriladi. Masalan, “Vatan”, “Tabiat”, “Non”, “Ona”, “Do‘stlik”, “Mehnat” kabi tushunchalarni o‘qish, ona tili, tarbiya, tasviriy san’at, musiqa, hatto matematika elementlari bilan bog‘lagan holda o‘rganish mumkin. Natijada o‘quvchi ushbu tushunchalarning faqat nazariy ma’nosini emas, balki ularning ma’naviy qiymatini ham anglay boshlaydi. Integratsiyalashgan darslarning asosiy maqsadi o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini bir butun holda rivojlantirish bilan birga, uning shaxsiy fazilatlarini boyitishdan iboratdir. Bu darslar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, munosabat bildirish, baholash kabi intellektual faoliyatlarni kuchaytiradi. Ayniqsa, ma’naviy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan matnlar, masalalar, hayotiy vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar orqali bolalar nafaqat eslab qoladi, balki his qiladi, tushunadi va o‘z xulqida qo‘llashga intiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Boshlang‘ich sinfda ona tili va o‘qish savodxonligi darslari ma’naviy-axloqiy tarbiya uchun eng katta imkoniyatga ega fanlar sirasiga kiradi. Chunki badiiy matnlar, she’rlar, hikoyalar, maqollar, topishmoqlar va ertaklarda xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy tajribasi mujassam bo‘ladi. Agar o‘qituvchi matn mazmunini shunchaki o‘qitib qo‘ymasdan, undagi qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning odobi, mehnati, o‘zaro munosabati, yaxshi va yomon fazilatlarini tahlil qildira olsa, o‘quvchi uchun tarbiyaviy samaradorlik ortadi. Masalan, do‘stlik haqidagi matnni o‘qish jarayonida ona tili bilan bog‘liq so‘z boyligini oshirish, gap tuzish, matnni qayta hikoyalash kabi vazifalar bajarilar ekan, bir vaqtning o‘zida “sodiq do‘st qanday bo‘ladi?”, “yolg‘on gapirish do‘stlikka qanday ta’sir qiladi?”, “boshqalarga yordam berish nimani anglatadi?” kabi savollar asosida axloqiy tushunchalar shakllantiriladi. Bunday uyg‘unlashuv o‘quvchining til rivoji bilan birga qalbiy tarbiyasini ham ta’minlaydi.

Matematika darslari ko‘pchilikka faqat son va amallar bilan bog‘liq fan bo‘lib tuyuladi. Aslida esa unda ham axloqiy tarbiya imkoniyatlari keng. Matematika topshiriqlarini hayotiy mazmun bilan boyitish orqali bolalarda aniqlik, tartiblilik, halollik, mehnatsevarlik, sabr, mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirish mumkin. Masalan, masalalarda oilaga yordam berish, mehnat natijasini qadrlash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, tejamkorlik, saxovat, navbat kutish, teng bo‘lishish kabi axloqiy mazmunlar ifodalansa, o‘quvchi hisob-kitob qilish barobarida tarbiyaviy xulosa ham chiqaradi. Guruh bo‘lib yechiladigan topshiriqlar esa hamkorlik, o‘zaro hurmat va bir-birini tinglash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Matematikaning o‘zi ham bolani izchillikka, masalaga mas’uliyat bilan yondashishga, xatoni tan olishga va to‘g‘rilashga o‘rgatadi. Bu esa axloqiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Tabiiy fanlar darslarida bolalarda tabiatga muhabbat, ekologik madaniyat, jonli va jonsiz borliqqa e’tibor, tozalik, tartib-intizom, tejamlilik, yurt boyliklarini asrash kabi sifatlarni shakllantirish mumkin. Masalan, daraxt, suv, havo, hayvonlar, qushlar, fasllar haqidagi mavzular boshqa fanlar bilan bog‘langanda o‘quvchi tabiatni oddiy o‘quv materiali sifatida emas, balki avaylab-asrash kerak bo‘lgan bebaho ne’mat sifatida qabul qiladi. Bunda rasm chizish, she’r yodlash, kuzatish, tajriba, suhbat va kichik loyihalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Tabiat haqidagi matnni o‘qib, undan grammatik topshiriq bajarib, keyin shu mavzu bo‘yicha rasm chizish va tabiatni asrash haqidagi xulosani aytish kabi integratsiya o‘quvchining aqliy, estetik va axloqiy rivojini bir vaqtda ta’minlaydi.

Tarbiya, musiqa, tasviriy san’at va texnologiya fanlari bilan uyg‘unlashtirilgan darslar ma’naviy-axloqiy tarbiyada ayniqsa ta’sirchan bo‘ladi. Musiqa darsida kuy va qo‘shiqlar orqali Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, mehnatga ehtirom, tinchlik va do‘stlik tuyg‘ulari shakllanadi. Tasviriy san’at orqali go‘zallikni his etish, ozodalikka intilish, estetik did, tabiat va inson mehnatiga mehr paydo bo‘ladi. Texnologiya mashg‘ulotlarida esa o‘quvchi ishni puxta bajarish, sabr qilish, jamoa bilan ishlash, boshlagan ishini oxiriga yetkazish kabi sifatlarni egallaydi. Agar bu fanlar boshqa darslar bilan uyg‘unlashtirilsa, masalan, “Non qadri” mavzusida she’r o‘qish, non haqidagi maqollarni tahlil qilish, bug‘doy haqida suhbat o‘tkazish, non rasmi

yoki maketini tayyorlash, mehnatkash dehqonlar haqida gapirish orqali o‘quvchida nafaqat mavzu tushunchasi, balki mehnatga hurmat, isrof qilmaslik, ne’matning qadriga yetish kabi axloqiy qarashlar ham shakllanadi. Integratsiyalashgan darslarda interfaol metodlardan foydalanish juda muhimdir. Aqliy hujum, klaster, rolga kirish, munozara, muammoli vaziyat, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, “fikrlar charxi”, “aqliy sayohat”, “konseptual xarita”, sahnalashtirish kabi metodlar bolani faol ishtirokchiga aylantiradi. Passiv tinglovchi o‘rniga o‘quvchi fikr bildiruvchi, xulosa chiqaruvchi, munosabat shakllantiruvchi shaxsga aylanadi. Masalan, biror axloqiy vaziyat asosida sahna ko‘rinishi tashkil qilinsa, bolalar “agar men uning o‘rnida bo‘lsam nima qilardim?” degan savolga ichki javob topadi. Bu esa tarbiyaning eng muhim bosqichi bo‘lgan ichki anglashni yuzaga keltiradi. Interfaol usullar orqali shakllangan fazilatlar ancha barqaror bo‘ladi, chunki bola ularni tayyor shaklda olmaydi, balki o‘zi kashf etadi.

Bu jarayonda o‘qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi integratsiyalashgan darsni rejalashtirishda qaysi mavzuga qaysi fan mazmuni mos kelishini, qaysi faoliyat turi bolalarda qanday axloqiy sifatni shakllantirishini oldindan aniqlab olishi kerak. U darsning maqsadini faqat “bilim berish” bilan cheklamasdan, “qaysi ma’naviy sifatni rivojlantirish” degan savolga ham javob topishi lozim. O‘qituvchi o‘zi ham odobli, adolatli, mehribon, talabchan va samimiy bo‘lsa, bu uning shaxsiy namunasida bolalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ko‘proq o‘qituvchining shaxsiga ergashadi. Shu bois tarbiyaviy ta’sirning asosiy qurollaridan biri o‘qituvchining muomalasi, munosabati, nutqi, baholashi va odobidir. Oila, maktab va mahalla hamkorligi ham bu jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Agar darsda singdirilgan axloqiy g‘oya oilada mustahkamlanmasa, uning samarasi yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli integratsiyalashgan darslarda ota-onalar bilan hamkorlikka oid topshiriqlar berish foydali. Masalan, “ota-onaga yordam berish”, “oila qadriyatlari”, “uydagi tozalik”, “mahalladagi kattalarga hurmat” kabi mavzularda kichik kuzatuvlar, suhbatlar, ijodiy topshiriqlar tashkil etilsa, darsda o‘rganilgan ma’naviy-axloqiy mazmun hayot bilan bog‘lanadi. Bola uchun tarbiya shunchaki maktabdagi talab emas, balki kundalik yashash mezoniga aylanadi.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda muayyan bosqichlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, mavzu tanlanadi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanadi. So‘ng mazkur mavzuga mos fanlararo bog‘lanishlar belgilanadi. Keyin maqsad, kutilayotgan natija, metodlar, vositalar, topshiriqlar va baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Dars davomida kirish qismida o‘quvchilar diqqati mavzuga jalb qilinadi, asosiy qismda fanlararo faoliyatlar uyg‘un holda olib boriladi, yakunda esa o‘quvchilarning bilim va axloqiy xulosalari umumlashtiriladi. Bunday darsda rasm, tarqatma material, maqol, hikmatli so‘z, audio material, videolavha, didaktik o‘yin, rolli topshiriq, hayotiy vaziyatlar kabi vositalardan foydalanish mumkin. Muhimi, ular bir-biridan uzilib qolmasdan, bitta markaziy g‘oyaga xizmat qilishi kerak. O‘quvchilarda hurmat, hamkorlik, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehnatsevarlik kabi sifatlarni shakllantirish integratsiyalashgan darslarning bosh natijalaridan biri hisoblanadi. Masalan, Vatan haqidagi mavzularda tarixiy timsollar, she’rlar, madhiyalar, xarita, tabiat manzaralari, qahramonlar hayoti, xalq og‘zaki ijodi namunalarini uyg‘unlashtirish orqali bolalarda yurtga sadoqat kuchayadi. Hamkorlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar bir-birini tinglash, navbat bilan ishlash, boshqalarning fikrini hurmat qilishga o‘rgatadi. Mas’uliyatli vazifalar esa topshiriqni vaqtida va sifatli bajarish odatini shakllantiradi. Shunday qilib, darsning har bir elementi tarbiyaviy maqsad bilan uyg‘unlashganda o‘quvchi shaxsida ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini baholash ham muhim masaladir. Uni faqat og‘zaki javob yoki test natijasi bilan aniqlab bo‘lmaydi. Bunda o‘quvchining xulqi, jamoada o‘zini tutishi, topshiriqlarga munosabati, tengdoshlari bilan muomalasi, kattalarga hurmati, tozalikka rioya qilishi, rostgo‘yligi, mas’uliyat hissi kabi ko‘rsatkichlar ham e’tiborga olinadi. O‘qituvchi kuzatish, suhbat, vaziyatli topshiriqlar, ijodiy ishlar, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash kabi usullardan foydalanib, o‘quvchida axloqiy sifatlarning shakllanish darajasini aniqlashi mumkin.

Bu jarayon muntazam bo‘lishi kerak, chunki tarbiya birdan ko‘rinadigan natija emas, balki asta-sekin rivojlanadigan ichki jarayondir. Amaliyotda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda ayrim muammolar ham uchraydi. Ba’zan o‘qituvchilar fanlararo bog‘lanishni yuzaki tashkil qiladi yoki tarbiyaviy maqsadni aniq belgilamaydi. Ayrim hollarda vaqt taqsimoti noto‘g‘ri bo‘lib, darsning asosiy mazmuni ochilmay qoladi. Shuningdek, ko‘rgazmali vositalarning yetishmasligi, metodik tayyorgarlikning sustligi, ota-onalar bilan hamkorlikning pastligi ham muammolar keltirib chiqaradi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish, dars ishlanmalarini boyitish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, tarbiyaviy maqsadni aniq qo‘yish va dars mazmunini hayot bilan bog‘lash zarur. Eng muhimi, integratsiya sun’iy emas, tabiiy va mantiqiy bo‘lishi lozim.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars mashg‘ulotlari jarayonida ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda integratsiyalashgan darslardan foydalanish ta’lim va tarbiyaning uzviy birligini ta’minlaydigan samarali pedagogik yondashuvdir. Bunday darslar o‘quvchini faqat bilimli emas, balki odobli, fikrlovchi, mehribon, mas’uliyatli, jamoaga foydali inson bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan yondashuv orqali fanlar mazmuni o‘zaro boyiydi, dars qiziqarli va mazmunli kechadi, o‘quvchi hayotni yaxlit holda idrok etadi, eng asosiysi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar uning qalbi va ongiga chuqur singadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim amaliyotida integratsiyalashgan darslarni keng qo‘llash, ularni zamonaviy metodlar bilan boyitish va tarbiyaviy yo‘nalishini kuchaytirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars mashg‘ulotlari jarayonida ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda integratsiyalashgan darslardan foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarga bilimlarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq, yaxlit tizim asosida o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida ularning tafakkur doirasini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda o‘quv materialining tarbiyaviy mohiyatini chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Integratsiyalashgan darslardan samarali foydalanish o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, ijodiy yondashuv va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Dars jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, hayotiy misollar, didaktik o‘yinlar va tarbiyaviy mazmundagi topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlashga undaydi va ma’naviy-axloqiy tushunchalarni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli integratsiyalashgan darslar nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni ham bir vaqtda amalga oshiradigan samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 47 b.
2. Ismatova N., Zokirova S. Tarbiya. 2-sinf. – Toshkent, 2020. Boshlang‘ich sinf darsliklari katalogida shu nashr ko‘rsatilgan.
3. Shermuhamedova S., Akkulova S. Tarbiya. 4-sinf. – Toshkent, 2020.
4. Azimova I., Mavlonova K. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf. 1-qism. – Toshkent, 2022.
5. Azimova I., Mavlonova K. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf. 2-qism. – Toshkent, 2022.
6. Aydarova U., Azizova N. O‘qish savodxonligi. 1-sinf. I qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.
7. Aydarova U. O‘qish savodxonligi. 2-sinf. II qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.
8. Repyova I.V. Matematika. 2-sinf. I qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
9. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. 3-sinf. I qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 120 b.
10. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. 3-sinf. II qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 120 b.Safarova R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
11. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlari. – Toshkent: RTM, 2017. – 215 b

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA GEOMETRIK MA'TERIALLARNI O'RGATISH

Qosimova Mavlyuda Muhammadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/0000-0002-2909-6216

Ergashova Gulizar Rafiqjon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Kalit so'zlar. Integrativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, geometrik materiallar, fazoviy tasavvur, fanlararo bog'liqlik, didaktik tamoyillar, mantiqiy tafakkur, vizuallashtirish, kompetentsiya.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida geometrik materiallarni o'rgatish jarayonida integrativ yondashuvni qo'llashning metodik asoslari, ahamiyati va samaradorligi tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi — o'quvchilarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va geometrik tushunchalarni boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqlikda o'zlashtirish mexanizmlarini yoritishdan iborat. Maqolada integratsiyaning turli shakllari (fanlararo va fan ichidagi), shuningdek, geometrik tushunchalarni tasviriy san'at, mehnat ta'limi va ona tili darslari bilan bog'lab o'tishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijada, integrativ yondashuv o'quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularda olamning yaxlit manzarasi haqidagi tasavvurlarni boyitishi ilmiy asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье исследуются методические основы, значение и эффективность применения интегративного подхода в процессе обучения геометрическому материалу на уроках математики в начальных классах. Цель исследования заключается в формировании у учащихся пространственных представлений, развитии логического мышления и раскрытии механизмов усвоения геометрических понятий во взаимосвязи с другими учебными предметами. В статье анализируются различные формы интеграции (межпредметная и внутрипредметная), а также педагогические возможности связывания геометрических понятий с уроками изобразительного искусства, трудового обучения и родного языка. В результате научно обосновано, что интегративный подход не только повышает уровень знаний учащихся, но и обогащает их представления о целостной картине мира.

Ключевые слова: Интегративный подход, начальное образование, геометрический материал, пространственные представления, межпредметные связи, дидактические принципы, логическое мышление, визуализация, компетентность.

Abstract: This article examines the methodological foundations, significance, and effectiveness of applying an integrative approach in the process of teaching geometric materials in primary school mathematics lessons. The aim of the study is to form students' spatial imagination, develop logical thinking, and reveal the mechanisms for mastering geometric concepts in close connection with other subjects. The article analyzes various forms of integration (interdisciplinary and intra-disciplinary), as well as the pedagogical potential of linking geometric concepts with visual arts, labor education, and mother tongue lessons. As a result, it is scientifically substantiated that the integrative approach not only enhances students' level of knowledge but also enriches their understanding of a holistic picture of the world.

Keywords: Integrative approach, primary education, geometric materials, spatial imagination, interdisciplinary connections, didactic principles, logical thinking, visualization, competence.

Zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularda hayotiy ko‘nikmalarni va dunyoqarashning yaxlitligini shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinf davri bolaning intellektual rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanib, aynan shu davrda asosiy matematik tushunchalar, jumladan, geometrik tasavvurlar poydevori qo‘yiladi. Geometriya o‘z mohiyatiga ko‘ra, mantiqiy izchillik va fazoviy tasavvurni talab qiluvchi fan bo‘lgani sababli, uni an’anaviy, faqat bir fan doirasidagi tor metodlar bilan o‘rgatish ko‘pincha kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun bugungi kunda ta’limga integrativ yondashuvni olib kirish dolzarb masalaga aylandi.

Pedagogika fanida integratsiya (lotincha «integratio» – tiklash, to‘ldirish, birlashtirish) deganda, ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘lash orqali yangi sifat bosqichiga ko‘tarish tushuniladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixofiziologik xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, ularda tahliliy fikrlashdan ko‘ra ko‘proq obrazli va yaxlit idrok etish qobiliyati kuchli bo‘ladi.

Integrativ yondashuv asosida geometrik materiallarni o‘rgatish – bu shunchaki geometrik shakllarning nomini yodlatish emas, balki ularni atrof-muhit, san’at, texnika va til bilan bog‘liq holda, yaxlit tizim sifatida tushuntirishdir. Bu yondashuv o‘quvchi ongida «matematika faqat raqamlardan iborat» degan noto‘g‘ri tasavvurni yo‘qotib, geometriyani hayotning ajralmas qismi sifatida ko‘rishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda geometrik materiallar (nuqta, chiziq, kesma, ko‘pburchak, aylana, hajmga ega shakllar) o‘quv rejasiga ko‘ra matematik kursining tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq, ularni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali o‘zlashtirish samaradorligini keskin oshirish mumkin.

Geometriya va Tasviriy san’at: Chizish va bo‘yash jarayonida o‘quvchilar geometrik shakllarning estetik xususiyatlarini anglaydilar. Masalan, simmetriya tushunchasini kapalak rasmini chizish yoki me’moriy obidalarning rasmini tahlil qilish orqali o‘rgatish o‘quvchida ham geometrik, ham badiiy didni shakllantiradi. Shakllarning proporsiyasi va kompozitsiyasi geometrik hisob-kitoblarga asoslanadi.

Geometriya va Texnologiya (Mehnat ta’limi): Qog‘ozdan turli shakllarni qirqish, origami usulida shakllar yasash, konstruksiyalash jarayonlari geometrik bilimlarni amaliyotga tatbiq etishning eng oliy ko‘rinishidir. O‘quvchi o‘zi yasagan kub yoki piramida orqali yoq, qirra va uchi tushunchalarini mavhumlikdan real ob’ektga ko‘chiradi.

Geometriya va ona tili: Geometrik terminologiyani o‘zlashtirish o‘quvchining nutq madaniyatini boyitadi. «To‘g‘ri», «egri», «parallel», «perpendikulyar» kabi so‘zlarning ma’nosini anglash va ularni o‘z o‘rnida qo‘llash til o‘rganishning mantiqiy tomonini kuchaytiradi.

Integrativ yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchida fazoviy tasavvurni shakllantirishdir. Fazoviy tasavvur – bu ob’ektlarning shakli, hajmi va ularning fazodagi o‘zaro joylashishini ko‘z oldiga keltira olish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga geometrik materiallarni o‘rgatishda quyidagi bosqichli integratsiyani qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. Idrok etish bosqichi: Atrofdagi predmetlarni (parta, kitob, to‘p, deraza) geometrik shakllar bilan qiyoslash.

2. Modellashtirish bosqichi: Tabiiy materiallar (cho‘plar, loy, plastilin) yordamida shakllar yasash.

3. Abstraksiyalash bosqichi: Real ob’ektlardan ularning sxematik tasviriga (chizmasiga) o‘tish.

Ushbu jarayonda mantiqiy amallar – tahlil, sintez, qiyoslash va umumlashtirish doimiy ravishda ishga solinadi. Masalan, kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchakni qiyoslash orqali o‘quvchi ularning o‘xshash va farqli tomonlarini topadi, bu esa uning klassifikatsiya qilish qobiliyatini o‘stiradi. Integrativ darslarni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat talab etiladi. Quyidagi metodlar geometrik materiallarni o‘rgatishda yuqori natija beradi:

“Hayotimda geometriya” metodi: Bunda 1-sinf matematika darsligidagi topshiriqlarni yechish orqali ularni hayotdagi predmatlar bilan moslashtiruv asosidagi topshiriqlarni bajarish orqali geometric tushunchalar shakllantiriladi.

Bu geometrik topshiriqlar 1-sinf matematika1-qism darsligining dastlabki darslarida berilgan.

«Geometrik sayohat» metodi: Sinf xonasi yoki maktab hovlisidagi ob’ektlarni geometrik tahlil qilish. Bu o‘quvchida tabiat va geometriya uyg‘unligi haqida tushuncha beradi.

AKTdan foydalanish: Interaktiv doska va maxsus dasturlar (masalan, GeoGebra kabi soddalashtirilgan platformalar) yordamida shakllarni dinamik tarzda o‘zgartirish, ularning yuzasi va perimetrini hisoblash jarayonini vizuallashtirish.

Loyiha ishlari: Masalan, «Mening orzuyimdagi uy» loyihasi. Bunda o‘quvchi uyning maketini chizadi (geometriya), uning devorlarini ranglaydi (tasviriy san’at) va hisob-kitob qiladi (matematika).Yoki o‘quvchining joyini topish uchun berilgan topshiriq asosida loyiha ishiga tayyorlash mumkin.



Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limda geometrik materiallarni o‘rgatishda ayrim muammolar mavjud. Bularga geometriya bo‘limiga ajratilgan soatlarning kamligi, darsliklardagi vazifalarning ko‘proq hisoblashga yo‘naltirilgani va amaliy mashg‘ulotlarning yetishmasligini keltirish mumkin.

Integrativ yondashuv ushbu muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Agar geometrik tushunchalar boshqa fanlar tarkibiga singdirib yuborilsa, o‘quvchi uni ortiqcha yuklama sifatida emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qiladi. Masalan, jismoniy tarbiya darsida «aylana bo‘ylab yugurish» yoki «to‘g‘ri chiziq bo‘ylab saf tortish» buyruqlari berilganda, o‘quvchi geometrik tushunchani harakat orqali his qiladi. Integrativ yondashuvni samarali qo‘llash uchun, avvalo, o‘quvchining geometrik tafakkuri qanday bosqichlardan o‘tishini ilmiy tahlil qilish lozim. Vengriyalik pedagoglar van Xiele (van Hiele) nazariyasiga ko‘ra, bolalarda geometrik tushunchalar shakllanishi bir necha darajani qamrab oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asosan birinchi (vizual) va ikkinchi (tahliliy) darajalarda bo‘ladilar.

Vizual darajada bola shaklni yaxlit holda idrok etadi. Masalan, u kvadratni «derazaga o‘xshagani uchun» kvadrat deb ataydi. Integrativ yondashuv bu yerda o‘quvchining vizual tajribasini boyitishga xizmat qiladi. San’at va tabiatshunoslik darslari bilan bog‘liqlikda bola tabiatdagi simmetriyani, asalarilar uyasidagi muntazam oltiburchaklarni yoki barglardagi geometrik chiziqlarni ko‘ra boshlaydi. Bu jarayon kognitiv psixologiyada «idrokning yaxlitligi» (gestalt) tamoyiliga tayanadi.

Tahliliy darajaga o‘tishda esa integratsiya mantiqiy vositaga aylanadi. O‘quvchi endi shaklning xossalarini (tomonlar tengligi, burchaklar turi) ajrata boshlaydi. Bu bosqichda til ta’limi bilan integratsiya muhim: geometrik tushunchalarni ta’riflashda aniq mantiqiy terminologiyadan foydalanish o‘quvchining nutqiy-mantiqiy tafakkurini (verbal-logical thinking) shakllantiradi.

Bugungi kunda xalqaro ta’lim standartlarida keng qo‘llanilayotgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi geometrik materiallarni o‘rgatishda integratsiyaning eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Geometriya bu zanjirda bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

Engineering (Muhandislik) va geometriya: O‘quvchilar qog‘oz yoki konstruktorlar yordamida ko‘priklar, minoralar yoki uylar modellarini yasash jarayonida shakllarning mustahkamligini (masalan, uchburchakning eng barqaror shakl ekanligini) amalda sinab ko‘radilar. Bu «amaliy geometriya» tushunchasini shakllantiradi.

Science (Tabiiy fanlar) va geometriya: Yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi,

soyalarning shakli va o‘lchami, o‘simliklar barglarining joylashuv tartibi — bularning barchasi geometrik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Integrativ darsda soya uzunligini o‘lchash orqali «kesma» va «proporsiya» tushunchalarini o‘rgatish o‘quvchida ilmiy dunyoqarashni uyg‘otadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga geometrik materiallarni o‘rgatishda milliy hunarmandchilik, naqshinkorlik va me’morchilik namunalaridan foydalanish ham integratsiyaning o‘ziga xos yo‘nalishidir. O‘zbekiston xalq amaliy san’ati (ganchkori, yog‘och o‘ymakorligi, zarduzlik) boy geometrik ornamentlarga ega.

Dars jarayonida milliy naqshlar tarkibidagi aylana, romb, kvadrat va ko‘pburchaklarni tahlil qilish o‘quvchida quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

1. Vizuallashtirish: Murakkab naqshlar ichidan sodda geometrik shakllarni ajratib olish.
2. Algoritmlash: Naqsh chizishdagi takrorlanish (periodiklik) orqali ketma-ketlik va simmetriya qonunlarini anglash.
3. Vatanparvarlik: Milliy merosimizning ilmiy asoslarini tushunish orqali faxrlanish hissini tuyish.

Bu turdagi integratsiya «Matematika — faqat quruq hisob-kitob» degan stereotipni sindirib, uni go‘zallik va san’at manbai sifatida ko‘rsatadi.

Integrativ yondashuvning metodik asosi — faoliyatli yondashuvdir (activity-based learning). Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun harakat va o‘yin — asosiy o‘rganish vositasi.

Geometrik dominolar va jumboqlar (Puzzles): Turli shakllardan yaxlit rasmlar yig‘ish (masalan, Tangram o‘yini) o‘quvchida kombinatorik fikrlashni rivojlantiradi. Bu jarayonda matematika va mantiqiy o‘yinlar integratsiyalanadi.

Dinamik modellashtirish: Egiluvchan tayoqchalar yoki simlardan shakllar yasash jarayonida o‘quvchi «shaklning transformatsiyasi» (o‘zgarishi) tushunchasi bilan tanishadi. Masalan, to‘g‘ri to‘rtburchakni qiya qilib, parallelogramm hosil qilish uning burchaklari haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Bunday amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar «Geometriya barmoqlar uchida» ekanligini his qiladilar, bu esa neyropedagogika nuqtayi nazaridan mayda motorika va miya faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Matematik til — bu o‘ziga xos mantiqiy struktura. Boshlang‘ich sinflarda ko‘pincha o‘quvchilar shaklni taniydilar, lekin uni ilmiy tilda ta’riflashga qiynaladilar. Ona tili va o‘qish darslari bilan integratsiya bu muammoni hal qiladi.

Masalan, «sifat» turkumini o‘rganishda predmetlarning shakli (dumaloq, uchburchaksimon, tekis) haqida gapirish, yoki matn tahlilida fazoviy nisbatlarni (o‘ngda, chapda, orasida, qarshisida) aniq ifodalash o‘quvchining kognitiv xaritasini shakllantiradi. Integrativ yondashuvda «Geometrik diktant» metodi samarali hisoblanadi: o‘qituvchi shaklning xossalarini aytadi, o‘quvchi esa uni tasavvur qilib chizadi yoki nomini yozadi. Bu eshitish, tasavvur qilish va tasvirlash kanallarini birlashtiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari integrativ yondashuvning texnik asosi hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida geometrik shakllarning 3D modellarini yaratish o‘quvchining fazoviy intellektini (spatial intelligence) rivojlantiradi. Virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchi shakllarni kesishi, birlashtirishi va ularning hajmini o‘zgartirishi mumkin. Bu yerda informatika va matematika elementlari uyg‘unlashadi. Masalan, oddiy «Paint» yoki maxsus pedagogik dasturlarda geometrik shakllardan kompozitsiya yaratish o‘quvchiga ham dizaynerlik, ham matematik aniqlik ko‘nikmalarini beradi. Raqamli vizuallashtirish mavhum tushunchalarni (masalan, cheksiz to‘g‘ri chiziq yoki nur) ko‘rgazmali va tushunarli qiladi.

Integrativ yondashuv asosida geometrik bilimlarni baholash an’anaviy testlardan farq qilishi kerak. Bu yerda kompetentsiyaviy baholash birinchi o‘ringa chiqadi. O‘quvchi nafaqat shaklni tanishi, balki:

Uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi (masalan, stol ustiga qog‘ozni qanday joylashtirishni bilishi);

Shakllarning o‘zaro bog‘liqligini tushuntira olishi;

Geometrik asboblar (chizg‘ich, sirkul, goniometr) bilan aniq ishlay olishi lozim.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish koeffitsiyenti an’anaviy darslarga nisbatan 25-30% yuqori bo‘ladi. Buning sababi, bilimlar o‘quvchi xotirasida alohida-alohida faktlar sifatida emas, balki bog‘langan assotsiatsiyalar tarmog‘i sifatida saqlanadi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchining roli tubdan o‘zgaradi. U endi faqat axborot beruvchi emas, balki «integrator» — turli fan sohalarini bog‘lovchi fasilitatorga aylanadi. O‘qituvchi geometriyani o‘rgatishda san’atdan, tarixdan, texnikadan va tabiatshunoslikdan misollar keltira olishi uchun o‘zi ham keng intellektual salohiyatga ega bo‘lishi shart.

Pedagogik ijodkorlik o‘qituvchiga darslikdagi quruq masalalarni hayotiy loyihalarga aylantirish imkonini beradi. Masalan, «Kvadratning perimetri» mavzusini «Maktab bog‘iga to‘siq qurish uchun qancha material ketadi?» degan amaliy muammo shaklida taqdim etish integrativ pedagogikaning yutug‘idir.

Geometrik materiallarni o‘rgatishda integrativ yondashuv — bu shunchaki metodik usul emas, balki boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishning zaruriy shartidir. Dunyoning barcha hodisalari geometrik shaklga va matematik mantiqqa ega. O‘quvchilarga buni erta yoshdan tushuntirish ularning intellektual salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Integratsiya orqali o‘quvchi geometriyani «qiyin fan» sifatida emas, balki o‘zini qurshab turgan dunyoni tushunish va tartibga solish kaliti sifatida qabul qiladi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, ijodiy xayolini va amaliy kompetentsiyalarini rivojlantirib, ularni kelajakdagi murakkab fanlarni o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Ilmiy asoslangan bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limning mazmunini tubdan yangilashga va ta’lim samaradorligini kafolatlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga geometrik materiallarni o‘rgatish ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Bu yondashuv:

1. O‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi va o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi.
2. Fazoviy tasavvur, mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni kompleks rivojlantiradi.
3. Bilimlarning tarqoq holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim holida o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.
4. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarni hayotga tayyorlaydi.

Pedagogik amaliyotda fanlararo integratsiyani keng joriy etish, darsliklar va metodik qo‘llanmalarni integrativ topshiriqlar bilan boyitish kelajakda intellektual salohiyati yuqori avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Geometrik materiallarni o‘rganish nafaqat matematika kursi, balki butun boshlang‘ich ta’lim mazmunini boyituvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Qosimova “Boshlang‘ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o‘rgatish”, B. 2022.

2. M.Qosimova K. Karimova “Problems of finding the sum cor differencej of tmo numbers and their” Актуалные вопросы современной науки и образования.

3. F.Qosimov, A.Qosimov, M.Qosimova “” To develop students’, skills of nature conservation and respect

for human labor by tefching them to solve environmental problems” Asian Journal of multidisciplinary

Research (AJMR), Januariry 2021

4. Qosimov, Fayzullo Muxammadovich, and Mavluda Muxammadovna Qosimova. «Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar.» Scientific progress2.6 (2021): 1138-1145.

5. Kasimov, Firdavs Fayzullo O‘G‘Li. «Masalani muhokama qilib yechish orqali o‘quvchilarda xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish.» Scientific progress2.7 (2021): 1038-1047.

6.Qosimova, M. M., & Usmonova, Z. U. (2022). Boshlang ‘ich sinfda matematika o ‘qitish jarayonida o ‘quvchilarda tejamkorlik ko ‘nikmasini tarkib toptirish. pedagogs jurnali, 1(1), 75-77.

7.Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). Matematikadan ijodiy o ‘quv topshiriqlarining metodik xususiyatlari. boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 2(2), 206-211.

8.Qosimov, M. F., & Kasimov, F. F. (2021). Methods of teaching to solve non-standard problems. Middle European Scientific Bulletin, 11.

ABU NASR FAROBIY ASARLARIDA BOSHQARUV MADANIYATI KONSEPSIYASI VA UNING ZAMONAVIY TALQINLARI

Baybayeva Muxayyo Xudaybergenovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

Shamsiyeva Mehriniso Rustam qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Nasr Farobiy asarlarida ilgari surilgan boshqaruv madaniyati konsepsiyasi hamda uning zamonaviy talqinlari tahlil qilingan. Maqola davomida Farobiy ta’limotida mukammal jamiyat, adolatli boshqaruv va yetuk rahbar shaxsiga qo‘yilgan talablar ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Maqolada boshqaruv madaniyatining asosiy elementlari sifatida axloqiylik, bilimdonlik, adolat va jamoaviy manfaatlarga xizmat qilish kabi tamoyillar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu qarashlarning zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan uyg‘un jihatlari ochib berilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Farobiy merosi bugungi kunda ham boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Maqolada ushbu g‘oyalarni zamonaviy boshqaruv amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha tegishli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Abu Nasr Farobiy, boshqaruv madaniyati, yetakchilik, mukammal jamiyat, axloqiy boshqaruv, falsafiy qarashlar, zamonaviy boshqaruv, liderlik

Kirish. Bugungi kunda jamiyat va tashkilotlarni samarali boshqarish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, qadimgi va o‘rta asr mutafakkirlarining ilmiy merosini o‘rganish, ularning boshqaruvga oid qarashlarini zamonaviy talqin qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Sharq mutafakkirlari orasida Abu Nasr Farobiy alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining falsafiy asarlarida mukammal jamiyat, adolatli davlat va yetuk rahbar shaxsiga oid chuqur ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Ayniqsa, uning “fozil jamiyat” haqidagi g‘oyalari boshqaruv madaniyatining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Farobiy ta’limotida boshqaruv madaniyati nafaqat tashkilotni boshqarish usullari bilan, balki rahbarning axloqiy fazilatlari, bilim darajasi va jamiyat oldidagi mas’uliyati bilan ham bevosita bog‘liq holda talqin etiladi. Bu esa zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan uyg‘unlashadigan muhim jihatlardan biridir.

Hozirgi globallashuv sharoitida boshqaruv jarayonlariga innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda, axloqiy va madaniy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, Farobiy merosini o‘rganish va uni zamonaviy boshqaruv tizimiga tatbiq etish dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Abu Nasr Farobiy asarlarida ilgari surilgan boshqaruv madaniyati konsepsiyasini tahlil qilish hamda uning zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan uyg‘un jihatlarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Boshqaruv madaniyati masalasi nafaqat zamonaviy boshqaruv nazariyasida, balki qadimgi falsafiy ta’limotlarda ham muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, Abu Nasr Farobiy asarlarida jamiyatni boshqarish, rahbar shaxsining fazilatlari va mukammal ijtimoiy tizimni tashkil etish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Farobiy o‘zining mashhur asarlarida, xususan “Fozil odamlar shahri” konsepsiyasida jamiyatni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillarni ilgari suradi. Uning fikricha, mukammal jamiyatni barpo etish uchun rahbar shaxs nafaqat bilimli, balki yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi zarur. Bu yondashuv boshqaruv madaniyatining asosiy elementlari — adolat, halollik va ijtimoiy mas’uliyat bilan bevosita bog‘liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda Farobiy qarashlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular uning boshqaruvga oid g‘oyalarini zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan uyg‘un holda talqin qilganlar. Xususan, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarida liderlik, etik boshqaruv va korporativ madaniyat masalalariga alohida e’tibor qaratilishi Farobiy ta’limoti bilan ma’lum darajada mushtarakdir.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy manbalarda boshqaruv madaniyati tashkilot samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Bu jarayonda rahbarning shaxsiy fazilatlari, jamoa bilan ishlash qobiliyati va strategik fikrlash darajasi asosiy rol o‘ynaydi. Mazkur jihatlar Farobiy tomonidan ilgari surilgan “yetuk rahbar” konsepsiyasiga mos keladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Abu Nasr Farobiy merosi nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirishda ham muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, uning qarashlarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Metodologiya va nazariy yondashuvlar

Mazkur maqola boshqaruv madaniyati masalasini Abu Nasr Farobiy asarlari asosida o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tarixiy-tahliliy yondashuv, mantiqiy tahlil, solishtirma tahlil hamda tizimli yondashuv usullari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali Farobiy qarashlarining mazmun-mohiyati va ularning zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan uyg‘un jihatlari aniqlashtirildi [4].

Maqolaning nazariy asosini Farobiy tomonidan ilgari surilgan mukammal jamiyat va yetuk rahbar konsepsiyalari tashkil etadi. Unga ko‘ra, boshqaruv jarayonining samaradorligi, avvalo, rahbarning axloqiy fazilatlari, bilim darajasi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish darajasi bilan belgilanadi. Bu yondashuv boshqaruv madaniyatining asosiy tamoyillarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

Farobiy ta’limotida boshqaruv madaniyati quyidagi asosiy elementlar orqali namoyon bo‘ladi:

axloqiylik – adolat, halollik va mas’uliyat;

bilim va tafakkur – rahbarning intellektual salohiyati;

ijtimoiy yo‘naltirilganlik – jamoa va jamiyat manfaatlarini ustuvor qo‘yish;

rahbarlik fazilatlari – yetakchilik, donolik va boshqaruv qobiliyati [5].

Mazkur elementlar zamonaviy boshqaruv nazariyalaridagi liderlik, etik boshqaruv va korporativ madaniyat tushunchalari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan, Farobiy konsepsiyasi boshqaruv madaniyatini tizimli ravishda o‘rganish uchun muhim nazariy model sifatida qaraladi.

Farobiy qarashlarini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan integratsiyalash asosida boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning nazariy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model rahbar shaxsining sifatlari va boshqaruv jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiradi.

Abu Nasr Farobiy tomonidan ilgari surilgan boshqaruvga oid g‘oyalar zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan solishtirilganda, ular o‘rtasida muhim o‘xshashliklar va ayrim farqli jihatlar mavjudligi aniqlanadi [3].

Avvalo, Farobiy ta’limotida rahbar shaxsiga qo‘yilgan talablar zamonaviy liderlik nazariyalari bilan uyg‘unlashadi. Unga ko‘ra, rahbar nafaqat boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, balki yuqori axloqiy fazilatlar, bilim va donolikka ega bo‘lishi zarur. Zamonaviy boshqaruvda ham samarali liderlikning asosiy omillari sifatida halollik, mas’uliyat va jamoa bilan ishlash qobiliyati e’tirof etiladi.

Ikkinchi muhim jihat — boshqaruvning ijtimoiy yo‘naltirilganligidir. Farobiy mukammal

jamiyatni barpo etishda umumiy manfaatlarni ustuvor qo‘yadi. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarida esa bu yondashuv “ijtimoiy mas’uliyat” va “barqaror rivojlanish” tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu esa Farobiy qarashlarining bugungi kunda ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi [2].

Shu bilan birga, Farobiy ta’limotida boshqaruv ko‘proq axloqiy-falsafiy asosda talqin etilgan bo‘lsa, zamonaviy boshqaruv tizimlari ko‘proq texnologik va amaliy vositalarga tayanadi. Masalan, bugungi kunda boshqaruv jarayonlarida raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili va samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) muhim o‘rin tutadi. Bu jihat Farobiy davrida mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning ilgari surgan axloqiy tamoyillari ushbu vositalarni samarali qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Farobiy qarashlarini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish orqali boshqaruv madaniyatini yanada takomillashtirish mumkin. Xususan, rahbar shaxsining axloqiy yetukligini zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bilan birlashtirish tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6].

Umuman olganda, Farobiy merosi boshqaruv madaniyatining falsafiy va axloqiy asoslarini belgilab beradi, zamonaviy boshqaruv esa uni amaliy jihatdan boyitadi. Ushbu ikki yondashuvning integratsiyasi samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Maqola Abu Nasr Farobiy asarlarida ilgari surilgan boshqaruv madaniyati konsepsiyasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolganligini ko‘rsatdi. Uning rahbar shaxsiga qo‘ygan axloqiy, intellektual va ijtimoiy talablari zamonaviy boshqaruv tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

O‘rganishlar shuni tasdiqladiki, boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda faqat texnologik va tashkiliy yondashuvlar emas, balki axloqiy qadriyatlarga asoslangan boshqaruv tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Farobiy merosi zamonaviy boshqaruv tizimlarini boyituvchi muhim nazariy manba hisoblanadi.

Shuningdek, Farobiy qarashlarini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish orqali tashkilotlarda samarali va barqaror boshqaruv tizimini shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Farobiy ta’limoti boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi va uni zamonaviy sharoitda qo‘llash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Abu Nasr Farobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. – Toshkent, 2020.
3. Abu Nasr Farobiy. Falsafiy risolalar. – Toshkent, 2022.
4. Northouse, P. G. Leadership: Theory and Practice. – 9-nashr, Sage Publications, 2021.
5. Robbins, S. P., Judge, T. A. Organizational Behavior. – 18-nashr, Pearson Education, 2022.
6. Cameron, K. S., Quinn, R. E. Diagnosing and Changing Organizational Culture. – Wiley, 2021.

КУРАШ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРОИТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Курбанов Ш.Н.
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, Международный институт Кураш

Аннотация:В данной статье представлены особенности педагогически условий в учебно-тренировочном процессе курашистов с учётом региональных условий Республики Узбекистан. А также даны практические рекомендации по профилактике некоторых видов травм, присущих борьбе Кураш.

Ключевые слова: учебно-тренировочный процесс, региональные условия, планирование, профилактика, функциональные возможности.

УЛУЧШЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ БОРЬБОЙ

Kurbanov Sh.N.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Xalqaro kurash inistituti, O‘zbekiston,Chirchiq

Аннотация:Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasining mintaqaviy sharoitlarini hisobga olgan holda kurashchilarning o’quv jarayonidagi sharoitlarning xususiyatlari keltirilgan. Shuningdek, Kurash kurashiga xos bo’lgan ayrim turdagi jarohatlarning oldini olish bo’yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: o’quv jarayoni, mintaqaviy sharoitlar, rejalashtirish, oldini olish, funktsionalxolat.

IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL CONDITIONS OF ORGANIZATION OF WRESTLING TRAINING

Kurbanov SH.N.
Uzbek State University of Physical Education and Sport, International Kurash Institute Uzbekistan

Annotation:This article presents the features of the conditions in the educational process of kurashists taking into account the regional conditions of the Republic of Uzbekistan. It also provides practical recommendations for the prevention of certain types of injuries inherent in the Kurash fight.

Key words: educational process, regional conditions, planning, prevention, functionality.

Ишнинг долзарблиги. Жахонда яккакураш турларининг шиддат билан ривожланиб бораётгани хеч кимга сир эмас. Сўнгги ёзги Олимпиада ўйинларида, бокс, оғир атлетика, курш тўрлари бўйича қўлга киритилган ғалабалар жахон хамжамияти спортчилари томонидан алохида эътироф этилмоқда. Айниқса ўзбек миллий Курашини ривожлантириш Давлат сиёсати даражасига кўтарганлиги 2 октябрь 2017 йил ПҚ-3306 Президент қарори, яъни “Кураш миллий спорт турини янада ривожлантириш тўғрисида” деб номланиши илмий мақоланинг қай даражада долзарб эканлигини англатади.

Бугунги кунга қадар маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан ишлаб чиқилган курашчиларни узоқ муддатли тайёрлаш, машғулотларни режалаштириш ва мусобақаларни ташкил этиш масалалари бўйича жуда катта тажриба материаллари тўпланган.

Кураш турлари жуда кўп, аммо уларнинг тайёргарлик жараёнида жуфтликни (пара) саралашнинг турли хил тусуллари борлигига қарамай, бир-бирига ўхшашликлари жуда

кўп. Курашдаги машғулот тананинг турли қисмларини қиздириш ва уларга бериладиган махсус жисмоний юкламаларга тайёрлашдан бошланади. Курашчиларга мусобақалашиш учун зарур бўлган ўз таналарини бошқариш, жисмоний фазилатларни ривожлантириш, ўзини ўзи жараҳатлардан сақлаш элементлари, турли хил техник харакат ва бошқа машғулот элементлари ўргатилиши керак.

К.Т.Юсупов орқа ўмиртқа жароҳатидан ўз-ўзини асрашнинг бир неча машқларини тавсия қилади булар хавфсизликни таъминлашбилим даражасида ўрганишга ёрдам берадиган аммо сохага хос ўз-ўзини сақлашга етарли бўлмайди.

Бир қатор олимлар жумладан Н.Г.Полко 2006 й ва П.Б.Подливаевнинг 2009й фикрича Кураш спорт турида жисмоний тайёргарлик муваффақиятларнинг энг асосий омили, яъни бу жараён икки умумий ва махсус йўналишларга бўлинган бўлиб булар машғулотнинг барча томонларини яхшилаш учун қулай пкдагогик шароитлар яратадиган жисмоний фазилатларни ва функсионал қобилиятларни ривожлантиришга қаратилган.

Машғулот ишларини ташкил қилишда курашчилар учун зарур бўлган фазилатларни ривожлантиришда педагогик шароитларнинг таъсирини ташкил этиш жараёни изчиллик ва босқичлиликни талаб қилиши курашдажисмониймашқларнитаснифлашбиланбоғлиқ услубий (методик) ишларда ўз аксини топган (К.Т.Юсупов, Н.Г.Полко, Д.Д. Донопой, В.П.Губавабошқалар. Таснифлашдамуаллифларқуйидагибўлимларниажратибкўрсатишади:умумий ривожланиш, махсусварақобатбардошмашғулотлар турлари (жиҳозлар ва барча керакли буюмлар, педагогик шароит).Ва хокозалар

Ишнинг мақсади. Иссиқ хароратли худудларда Кураш бўйича ўқув-машғулотларини ташкиллаштириш бўйича педагогик шароитларни оптималлаштириш.

Тадқиқот натижалари ва унинг мухокамаси. Умумий ривожланиш машқларидан фарқлиўлароқ, махсус машқлар курашчиларнинг ўзига хос худудларга яқинроқ.Уларўз навбатида махсус (етакчи) ва кондинцон (ривожланаётган) тайёргарликка бўлинган.

Қўллаш усулига кўра, ривожланиш ва кондитцон машқлар жисмоний куч, кучнинг ривожланиши, тезкор-кучга чидамлилик ва мослашувчанлик кабиларга бўлинади. Махсус тайёргарлик машқлари тренажорлардаги қуйидаги машқларни ўз ичига олади: мувазанат сақлаш ва ўзини ўзи сақлаш бўйича машқлар, кўприкдаги акробатик машқлар, шерик билан, манекен билан ишланадиган машқлар ва бошқалар.

Кураш турлари хусусан, миллий кураш бўйича илмий-услуби йадабиётларни, ўрганиш шуни кўрсатадики, курашчиларнинг танасига барча машғулот омилларини қамраб оладиган махсус тайёрланган ва айниқса мувофиқлаштирувчи машқларнинг педагогик шароитлари шаклланмаган мавжуд ҳаракатдаги усул эса жиддий ишлов беришни талаб қилади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда шуни таъкидлаш мумкинки, махсус тайёргарлик машқлари курашчиларга танага маълум таъсир кўрсатишга тайёргарлик кўриш, хавфсиз йиқилишни таъминлашга ва тузатувчи воситалар эса курашчиларни машқ қилишнинг «оғир» таъсирини юмшатишга ёрдамберади.

1 расм.

Курашчиларни тайёрлашда махсус тайёрлов машқларнинг қўлланилиш тартиби.



1 расмдаги машқлар алгаритимига қатиян риоя қилинади. Ўз-ўзини сақлаш ва хафсиз йиқилишга ва педагогик шароит яратишга ёрдам беради.

Педагогик шароитларни шакллантириш, махсус тайёргарлик ва тузатиш воситаларидан фойдаланиш методологиясини ишлаб чиқиш учун курашнинг жуфтликда ишлаш жараёнида юзберадиган таъсирини аниқлаш ва машғулот жараёнида курашчиларни тайёрлаш йўналишини белгилаб олиш мухум хисобланади.

Кўпгина муаллифларнинг фикрига кўра, машғулот пайтида курашчи танасининг турли қисмлари билан 110 дан 120 см баландликдан 40 дан 120 марталаб йиқилишни бажаришга , бу спортчиларнинг танасига сезиларли таъсир қилади.Ўз-ўзини сақлаш элементлари тўғрисида йтарли маълумотга эга бўлмаганда ҳар бир тушиш ҳалокатли бўлиши мумкин ва тўпланган таъсир мушак-скелеттизими ва ички органларнинг касалликларини келтириб чиқариши мумкин.

Шундай қилиб, машғулотнинг дастлабки босқичида орқа, ён ва кўкрак қисмлари учун ўзини ўзи сақлаш элементларини муваффақиятли эгаллаш учун қулай педагогик шарт-шароитларни яратиш керак. Уларга техник усулларни ўрганиш учун қулай шароитлар яратиш ва ўқувчиларни шикастловчи омиллардан ҳимоя қилиш мухум хисобланади.

Жароҳатларнингэнгкўпучрайдигансабаблари–бумашғулотуслубиётидагикамчиликлар, техник ҳаракатларни амалга оширишдаги хатолар, машғулотлар ва мусобақаларни ташкил этиш ва ўтказишдаги камчиликлар спортчи олган барча жароҳатларнинг 60 фоизини ташкил этади. Жароҳатларнинг асосий сабаби, тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, курашчиларнинг мушак-скелеттизимининг ҳолати ва машғулотлар ва мусобақалар учун яхши тайёрланмаган жойлардир. Муайян иш ҳажмининг кўпайиши билан, мусобақалашиш техник ҳаракатларнинг оптималлаштирилиши, машғулот юкламаларининг интенсивлиги, машғулотнинг тайёргарлик қисмида махсус тайёргарлик машқларининг ва якун қисмида тикловчи машқларнинг йўқлиги елка қўшилмасининг эластиклигини кучайтириш ва яхшилаш учун шароит яратилмаганлиги, шикастланишга олиб келиши мумкин.

Курашчи танасининг йтарли даражада тикланмаганлиги чарчоқнинг тўпланишига, эрта қаришга олиб келади ва елка-қамар тўқималарини қаритади, уларнинг функтцонал имкониятларини пасайтиради, сурункали касалликларга нисбатан патологик ҳодисаларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлади.

Тадқиқотларшуникўрсатадики,мураббийларваспортчиларумуртқапоғонасинингмахсус ривожланиши ва мустаҳкамланишига кам аҳамият берадилар. Машғулотнинг тайёргарлик қисмида махсус-тайёргарлов машқларидан йетарли даражада фойдаланилмайди ва якуний қисмда керакли восита кўникмаларини шакллантирадиган ва ўмуртқа жароҳатларга олиб

келмайдиган тикланиш машқлари деярли мавжуд эмас. Жароҳатларнинг олдини олиш учун бўйин соҳасини мустаҳкамланиши учун махсус тайёрлов машқларининг услубий мажмуалари киритилиши муҳим ҳисобланади.

Оёқ-қўлларнинг (айниқсаоёқларнинг) тез-тез шикастланиши боғловчи-мушак аппаратини чиниқтиришни талаб қилади ва махсус тайёрлов машқларнинг йетишмаслигидан далолат беради. 1 жадвалда вазин тоифасига кўра жарохатлар тавсифи келтирилган. Бир йил мабойнида кўзатилган курашчиларда умиртқа ва бўғимларда рўй берган жарохатлар шуни кўрсатадики вазин оғиршган сари жарохатлар тури ва қайтврилиши частотаси ошиб борганини кўрамиз. Бўйин ўмиртқаси 66 кг вазиндагиларда уртача 18.7±22 марта кўрсаткичга эга бўлган бўлса 90 ва ундан ортиқ вазинларда ўртача 23.2±3.7 марта кўрсаткичга эга бўлган. Турлик жарохатлари 66 кг вазиндагиарда ўртача бир йилда 20.9±2.3 марта кўзатилган бўлса 90 ва ўндан ортиқ вазнларда 23.4±3.2 марта кўзатилган. Бу кўрсаткичлар синовдан ўтаётган шуғилланувчиларнинг умумий сонига нисбатан берилган.

1-жадвал

Курашчиларнинг таянч-харакат аппаратида рўй берадиган жараёнлар тавсифи.

Вазн категориялари				
Буғимлар		60-66 n=27	73-81 n=25	90-100 +100 n=15
Умиртка	Бўйин	18,7=2,2	17,7± 2,4	23,2± 3,7
	Кўрак	17,8 ± 2,5	19,8 ± 2,4	22,5± 3,2
	Бел	21,7± 2,7	23,2± 3,2	30,2± 4,1
Буғинлар	Тирсак	20,9± 2,3	20,7± 2,7	23,4± 3,2
	Елка	21,0± 2,7	20,9± 2,7	23,4± 3,2
	Тизза	26,5± 2,7	25,4± 2,0	24,7± 3,0

Спорт жароҳатларининг таҳлили шуни кўрсатадики, машғулотлар давомида тайёргарлик услубидаги камчиликлар шикастланишга олиб келади ва барча жароҳатларнинг тахминан 25 фоизини ташкил қилади. Агар биз ушбу омиллар билан “Кураш” усулларининг хусусиятларидаги 16%, йиқилишдаги 14% га қўшсак, ундан кийин ҳосил бўлган шикастланишларнинг юқори фоизини ўқитиш ва машғулот усуллари нуқтаи назаридан кўриб чиқиш керак.

Машғулотлар жараёнида шикастланмаслик ёки уни олдини олиш учун тўғри педагогик шароитларни яратишга эътибор бериш керак бўлади.

Педагогик шароит фалсафий категория бўлиб, объектни унинг атрофидаги ҳодисалар билан муносабатларининг ифодаси сифатида талқин қилинади ва уларсиз мавжуд бўлолмайди. Шароит бу - ҳодисалар, жараёнлар вужудга келадиган, мавжуд бўлган ва ривожланадиган муҳит.

Замонавий педагогик адабиётларда «шароит» тушунчаси «атроф-муҳит», «вазиятлар», «ҳолатлар» деган тарифлар берилган, бу педагогик тизимнинг пайдо бўлиши, мавжудлиги, ўзгариши учун керак бўлган нарсаларнинг умумийлигини кенгайтиради.

Ушбу тоифанинг педагогик талқини дидактик мақсадларга эришиш учун шароитларни воситаларни мақсадли танлаш ва қўллаш, ўқитиш ва ривожлантириш усуллари сифатида ҳисобга олади.

Педагогик шароит деганда мураббий томонидан ташкиллаштирилган ва маълум бир натижага эришишни назарда тутувчи машғулот жараёнига сезиларли таъсир кўрсатадиган ташқи ҳолат (ўқитишнинг воситалари, усуллари ва ташкилий кўринишларини танлаш) тушунилади. Бўнда 2 расмда келтирилган кетма кетлик яққол мисол бўлаолади. Курашчиларни электро пунтив диогнотикаси (ЭПД) усули билан синовдан ўтказиш бўйича олинган

маълумотларнинг тахлили натижалари шқув машғулот жараёнини шуғилланувчиларнинг муаян модул хусусиятлари бўйича функсианал холат кўрсаткичларига йуналтириш ва умиртқа поғанасини машғулот пайтида кучайтириш ва нормастстик қийматга келтириш лозим бўлган қисмларини ажратиб кўрсатишимконини беради. (2 расм)



2-расм. Курашчиларни тайёрлашда қўлланадиган машғулот воситаларининг схемаси.

Курашчиларни тайёрлашда махсус тайёргарлик ва тузатиш машқларидан фойдаланишнинг педагогик шароити деганда ўқув жараёни самарадорлиги ва ўқувчилар хавфсизлигини белгилайдиган ўқув жараёнининг ташқи ва ички ҳолатлари йиғиндиси тушунилади.

Машғулот давомида хавфсиз созламаларни ўрганиш ва шакллантиришга сезиларли даражада таъсир қиладиган педагогик шароитларни аниқлаш ва яратиш ўқув жараёнини яхшилайдиган омилларга асосланади.

Курашда ўқув машғулотларини ўтказиш бўйича кўплаб ўқитиш принтцплари орасида энг оммабопи мунтазамлик принтцпи бўлиб, у юкламалар ва дам олишнинг мақбул алмашинишини ҳисобга олган ҳолда режали машғулотларни ўтказишни таъминлайди. Шунингдек, ушбу принципни амалга ошириш индивидуал машқларнинг такрорийлиги ва ўзгарувчанлиги ва уларнинг синфдаги кетма-кетлигига қаратилган.

Бажарилаётган юкламаларнинг ҳажми ва интенсивлигини босқичма-босқич оширишда тобора қийинлашиб бораётган вазифаларни шакллантириш ва амалга оширишга қўйиладиган талабларни босқичма-босқич ошириш тамойили муҳим аҳамиятга эга.

Ўқиш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатадиган педагогик шароитларни аниқлаш ва яратиш, ўқув жараёнида хавфсиз шароитларни шакллантириш ўқув жараёнини

яхшилайдиган омилларга асосланади.

Машғулотнинг тайёргарлик қисмида, махсус тайёргарлик машқлари қизиб олиш имконини беради, бу эса техникавий усуллар устида ишлашга ўтишга замин яратади.

- Машғулотнинг асосий қисмида ўзини ўзи сақлаш элементлари спортчиларнинг маҳоратларини ривожлантирадиган техник ҳаракатлар хавфсиз ва узоқ муддатли бажарилишини таъминлайди.
- Машғулотнинг якуний қисмида тикланиш машқлари мушак-скелет тизимидан, спортчилардан ортиқча юкламани олиб ташлашга ёрдам беради ва эрта тикланиш учун замин яратади.
- Шундай қилиб, қуйидаги педагогик шароитлар ўқув жараёнининг самарадорлигига таъсир қилади:

1) Моддий-техник (спорт зали, спорт формаси, жиҳозларвабошқалар);
2) Машғулот тамойилларига риоя қилиш;
3) Махсус тайёргарлик машқларини ўтказиш учун воситалар ва усулларни танлаш;
4) Ўқув машғулотларини ташкил этиш.

Сақлаш машғулотларини ўргатишда қуйидаги педагогик шароитлардан фойдаланиш керак:

-машғулотжараёнидабиргамашғулотолибборадиганшерикка ҳурматниривожлантириш;
- хавфсиз машғулот жойини ташкил қилиш;
- илмий асосланган ўқитиш методикаси;
- мусобақа қоидаларига аниқ риоя қилиш;
- йиқилиб тушаётган шерикга кўмак бериш;
- йиқилиб тушган шерикнинг ёнтомонига айланиш (тўқнашувни олдини олиш учун, ёқани тортиш ва бўйнини ушлаш орқали амалга оширилади);
- шерикнинг устига йиқилишни олдини олиш (биринчи ҳолат мувозанатга боғлиқ, таянч оёғини эгиб, танани ўз йўналиши бўйича ёки таянч оёқда мувозанатни йўқотиш томон буриш керак. Биринчисидаги мувозанатга боғлиқ, қўллаб-қувватловчи оёғини эгиб, танани ўз йўналиши бўйича ёки қўллаб-қувватловчи оёқда мувозанатни йўқотиш томон буриш керак.

Иккинчи ҳолда, бу йиқилаётган шерик томонидан ушланган қўлни бўшатиш ёки йиқилаётган шерик ушлабт урадиган танани эгиш орқали амалга оширилади.

Йиқилишни амалга оширишда жароҳатлардан сақланишнинг педагогик шароитлар қуйидагилардан иборат:

- Йиқитиш пайтида, йиқитувчи тик турганда, йиқилишни хавфсиз қилиш шеригининг йиқилиш ҳолатида унинг кийимларини ушлаб туриш йўли билан йенгиллаштиради ва баъзан унинг танасини ўрамга йўналтириш орқали амалга оширилади;
- Усуллар бажараётганда, ҳужум қилаётган оёқ рақиб оёғига яқинроқ жойлаштирилади, шундай иқитиш пайтида у ўз танаси билан шерикка зарар етқазмайди;
- Рақиб оёғингизга хужумга ўтганда, сиз ҳужум қилинган оёғингизни сиқиб чиқара олмайсиз, чунки бу ҳужум қилувчи ва ҳужум қилинган оёғингизни шикастланишига олиб келади;
- Ҳужум қилган киши химоядаги рақибни гиламчага тушадиган қилиб йиқитади, унинг йиқилишини йенгиллаштириш учун унинг танасини гиламга йўналтиради;
- Биргаликда йиқилиш пайтид абир-биримизга йерга йиқилиб тушмасликка ҳаракат қилишимиз керак. Агар йиқилганларнинг оёқлари бир-бириникига ўралган бўлса иккала курашчи ҳам йиқилиб тушганида уларни кўтаришлари керак;
- Агар иккала курашчи учун ҳам хавфли вазиятлар юзага келса, «тўхта» сўзини айтиш орқали белги бериш керак. Ушбу белги берилганда барча ҳаракатлартўхтатилади.

«Кураш» спорт тури ўқув жараёнини ташкил этишнинг асосий педагогик шароитлари:

- машқларнинг мураккаблигини босқичма-босқич ошириш ва юкламани кўпайтиришни;

- мунтазамлик, кундалик жисмоний машқлар;
- бўғимларнинг барча гуруҳларининг ягона ривожланишини ўз ичига олган комплекс ёндашув ва кураш усулини бажаришда иштирок этадиган барча мушаклар ва бўғимларнинг иштироки таъминланди.

Хулоса қилиб шуни такирорлаш керакки хар қандай ўқув жараёнларининг самараси унинг учун яратилган педагогик шароитларга боғлиқ.

Бунинг учун мураббий замонавий инаватсион методлар билан қўролланган бўлиши керак, машғулот ўтқазиладиган спорт-кураши зали талаб даражасида моддий-техник таъминоти билан шайланган, керакли жихоз ва асбоб-ускуналар билан тўлдирилган хамда техник шароитлари ўрганилган, мураббий ва шуғилланувчилар учун уқув-машғулот жараёни, спорт педагогикасига хос юқори савияда ташкиллаштириш асосий мақсадга айланиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Афонина И.П. Самбочиларни тайёрлашда махсус тайёргарлик машқларидан фойдаланишнинг педагогик шароитлари. Тула 2012 йил

2.Завялов, Д.А. Курашчиларнинг спорт маҳоратини оптималлаштириш омилларини таҳлил қилиш. Жисмоний тарбия 2012.-№4. 51-54 бетлар

3.Зякрин, Ф.К. Дзюдочиларнинг махсус машғулотларини ташкил этиш ва методикаси. Анотатсиядис. М., - 2007.134 бет

4. Таймуратов А.Р. “Курашнинг илмий асослари ” 2016 йил 128 бет

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI JISMONIY FAOLLIGINI OPTIMALLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Nuriddinov Baxtiyor Shovkat o‘gli
Qarshi davlat universiteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy faolligini optimallashtirishda pedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Jismoniy faollikni to‘g‘ri tashkil etishning ta’lim sifati, sog‘lom rivojlanish, harakat ko‘nikmalari, ijtimoiylashuv va o‘quv motivatsiyasiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida jismoniy faollikni optimallashtirishning asosiy pedagogik shartlari, innovatsion yondashuvlar, o‘yin texnologiyalari, individual yondashuv, sog‘lomlashtiruvchi muhit yaratish hamda o‘qituvchi faoliyatini takomillashtirishga oid tavsiyalar bayon etiladi. Maqolada jismoniy faollikni rivojlantirishning amaliy-uslubiy jihatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy faollik, optimallashtirish, pedagogik imkoniyatlar, boshlang‘ich ta’lim, harakatli o‘yinlar, sog‘lom turmush tarzi, ta’lim samaradorligi, individual yondashuv.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОПТИМИЗАЦИИ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Нуриддинов Бахтиёр Шовкат угли
Каршинский государственный университет,
Преподаватель кафедры физической культуры и спорта.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы эффективного использования педагогических возможностей в оптимизации двигательной активности учащихся младших классов. Выделено влияние правильной организации физической активности на качество обучения, здоровое развитие, двигательные навыки, социализацию и мотивацию обучения. Также описаны основные педагогические условия оптимизации двигательной активности в начальной школе, инновационные подходы, игровые технологии, индивидуальный подход, создание здоровой среды, а также рекомендации по совершенствованию деятельности учителя. Также в статье показаны практические и методические аспекты развития физической активности.

Ключевые слова: Двигательная активность, оптимизация, педагогические возможности, начальное образование, подвижные игры, здоровый образ жизни, эффективность обучения, индивидуальный подход.

IMPROVING PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR OPTIMIZING THE PHYSICAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Nuriddinov Bakhtiyor Shovkat ugli.
Karshi State University,
Lecturer at the Department of Physical Culture and Sports.

Abstract. This article analyzes the issues of effective use of pedagogical opportunities in optimizing the physical activity of elementary school students. The impact of the proper organization of physical activity on the quality of education, healthy development, movement skills, socialization and learning motivation is highlighted. Also, the main pedagogical conditions for optimizing physical activity in primary education, innovative approaches, game technologies, individual approach, creating a healthy environment, and recommendations for improving teacher

activity are described. Practical and methodological aspects of physical activity development are also shown in the article

Keywords: Physical activity, optimization, pedagogical possibilities, primary education, action games, healthy lifestyle, educational efficiency, individual approach.

Kirish.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash masalasi muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Boshlang‘ich sinf yoshi bolaning nafaqat intellektual, balki jismoniy, emotsional va ijtimoiy shakllanishida ham eng muhim davr hisoblanadi. Shu bois bu bosqichda jismoniy faollikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, uni pedagogik jihatdan optimallashtirish hamda mavjud imkoniyatlarni yanada takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

Ma’lumki, jismoniy faollik bolaning sog‘lig‘ini mustahkamlaydi, organizmning to‘g‘ri o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydi, diqqat va xotirani yaxshilaydi, darsdagi faol ishtirokini oshiradi. Ayni paytda yetarli darajada tashkil etilmagan jismoniy faollik bolalarda charchoq, harakatsizlik, qiziqishning pasayishi va turli sog‘liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy faolligini optimallashtirishning pedagogik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining maktabda ta’lim olish davomida shaxsini har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu to‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg‘uloti hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya jismoniy faollikning dastlabki bo‘g‘ini va ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, bolaning har tomonlama, yani jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik va ruhiy rivojlanishida ularning faolligi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetishlarining poydevori bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy faollik deganda bolaning harakatga asoslangan faoliyati, ya’ni yurish, yugurish, sakrash, egilish, cho‘zilish, o‘yin va mashqlar orqali organizm faoliyatini faollashtiruvchi harakatlar tizimi tushuniladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bunday faollik tabiiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik nuqtayi nazardan jismoniy faollik faqat jismoniy mashg‘ulotlar bilan cheklanmaydi, balki ta’lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida ham qaraladi.

Jismoniy faollikning pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, u sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, o‘quvchining darsga layoqatini oshiradi, chunki harakat jarayonida qon aylanishi, nafas olish va miya faoliyati yaxshilanadi. Uchinchidan, bolalarda tartib-intizom, jamoa bilan ishlash, o‘zaro hurmat, qat’iyatlilik kabi ijtimoiy sifatlar rivojlanadi. To‘rtinchidan, o‘yin va harakat elementlari ta’lim motivatsiyasini kuchaytiradi.

Shu jihatdan qaraganda, jismoniy faollikni optimallashtirish masalasi faqat sport yoki jismoniy tarbiya doirasidagi masala emas, balki kompleks pedagogik muammo hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yuqori harakatchanlik, qiziquvchanlik, taqlidchanlik va tez ta’sirchanlik bilan ajralib turadi. Ular uzoq vaqt bir xil holatda o‘tirib qolishga qiynaladilar. Shu sababli ularning dars va tanaffus jarayonidagi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish alohida e’tibor talab qiladi.

Bu yoshdagi bolalarga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat. Birinchidan, ularning organizmi hali to‘liq shakllanib ulgurmagan bo‘ladi. Shuning uchun og‘ir va murakkab yuklamalardan ko‘ra yengil, qiziqarli va xavfsiz mashqlar samaraliroq bo‘ladi. Ikkinchidan, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin faoliyati yetakchi ahamiyatga ega. Demak, jismoniy mashg‘ulotlar o‘yin shaklida tashkil etilganda ularning qiziqishi va ishtiroki ortadi. Uchinchidan, bu yoshdagi bolalarda tez zerikish kuzatiladi. Shu sababli faoliyat turlarini tez-tez almashtirib turish, mashqlarni rang-barang shaklda berish muhimdir. To‘rtinchidan, har bir bolaning jismoniy

tayyorgarligi, sog‘lig‘i, xarakteri va qiziqishi turlicha bo‘ladi. Shu bois individual yondashuv zarur.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy faolligini optimallashtirish uchun ta’lim tizimida bir qator pedagogik imkoniyatlar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan oqilona va tizimli foydalanish jismoniy faollik samaradorligini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun harakatli o‘yinlar eng samarali vositalardan biridir. O‘yin bolani erkin harakatga undaydi, unda musobaqalashish, yutishga intilish, faol ishtirok etish hissini uyg‘otadi. Harakatli o‘yinlar yordamida nafaqat jismoniy sifatlar, balki diqqat, tez fikrlash, jamoada harakat qilish, qoidalarga bo‘ysunish ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Masalan, estafeta, “kim chaqqon?”, “topib yugur”, “to‘g‘ri harakat qil”, “rangga qarab yur” kabi o‘yinlar jismoniy faollikni oshirish bilan birga ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda jismoniy faollikni faqat jismoniy tarbiya darsi bilan cheklab qo‘yish to‘g‘ri emas. Uni boshqa darslarga ham integratsiya qilish mumkin. Masalan, matematika darsida sonlarga mos harakatlar bajarish, ona tili darsida harf yoki so‘zlarni harakat bilan ifodalash, tabiatshunoslik darsida kuzatuv va yurish elementlarini qo‘llash mumkin.

Bunday yondashuv o‘quvchilar charchashining oldini oladi, diqqatni tiklaydi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Jismoniy faollikni optimallashtirish uchun maktabda sog‘lom va qulay muhit yaratilishi zarur. Bunda sinf xonasining gigiyenik holati, toza havo, harakatlanish uchun yetarli joy, xavfsiz mashqlar maydoni, tanaffuslarni mazmunli tashkil etish muhim o‘rin tutadi.

Sinf va maktab muhitida bolani harakatga undovchi sharoitlar bo‘lsa, u tabiiy ravishda faol bo‘lib boradi. Shu ma’noda pedagog, maktab ma’muriyati va ota-onalar hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlari bir xil bo‘lmaydi. Ba’zi bolalar juda chaqqon va harakatchan bo‘lsa, boshqalari tortinchoq yoki jismonan sustroq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi har bir bolaning imkoniyatini hisobga olib, unga mos yuklama va topshiriqlarni tanlashi lozim.

Individual yondashuv o‘quvchida o‘ziga ishonchni oshiradi, muvaffaqiyat hissini uyg‘otadi va jismoniy mashg‘ulotlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Jismoniy faollikni optimallashtirishda rag‘batlantirish muhim vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maqtov, e’tirof, kichik sovrin, ramziy baholash kabi vositalardan kuchli motivatsiya oladilar. Shuning uchun pedagog o‘quvchining har qanday kichik yutug‘ini ham e’tiborsiz qoldirmasligi kerak.

Motivatsion yondashuv o‘quvchini mashg‘ulotlarga qiziqtiradi, faol qatnashishga undaydi va muntazamlikni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy faolligini optimallashtirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur.

Birinchidan, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish lozim. Pedagog jismoniy faollikni tashkil etishning zamonaviy usullari, harakatli o‘yinlar, sog‘lomlashtiruvchi texnologiyalar va integrativ yondashuvlarni yaxshi bilishi kerak. Ikkinchidan, darslik va metodik qo‘llanmalarda jismoniy faollikni oshirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar salmog‘ini ko‘paytirish kerak. Ayniqsa, fanlararo integratsiyalashgan mashqlarni ko‘paytirish foydali bo‘ladi. Uchinchidan, maktab va oila hamkorligini mustahkamlash zarur. Ota-onalar bolalarning faolligini faqat maktab zimmasiga yuklab qo‘ymasdan, uy sharoitida ham harakatli o‘yinlar, sayr, jismoniy mashqlarni tashkil etishlari lozim. To‘rtinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish mumkin. Masalan, bolalar uchun mos interaktiv jismoniy mashq videolari, raqamli o‘yinli topshiriqlar va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi vositalar ijobiy natija beradi. Beshinchidan, jismoniy faollikni baholash va monitoring qilish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu orqali o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish va zarur hollarda pedagogik choralarni qayta ko‘rib chiqish

mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar.

-Har bir darsda kamida 2-3 daqiqalik harakatli daqiqalar tashkil etish;

-tanaffuslarda passiv emas, faol o‘yinlarni yo‘lga qo‘yish;

-jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini bolalar qiziqishiga mos ravishda o‘yinli shaklda o‘tkazish;

-sinfda jismoniy jihatdan sust bolalarni ham faol qatnashishga undash;

-mashg‘ulotlarda xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilish;

-o‘quvchi yoshiga mos, sodda va qiziqarli topshiriqlardan foydalanish;

-ota-onalar bilan jismoniy faollik bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy faolligini optimallashtirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Jismoniy faollik bolalarning sog‘lom o‘sishi, aqliy faolligi, ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois uni to‘g‘ri tashkil etish, o‘yin texnologiyalari, integrativ yondashuv, individual ishlash, rag‘batlantirish va sog‘lomlashtiruvchi muhit orqali yanada rivojlantirish zarur.

Pedagogik imkoniyatlarni takomillashtirish natijasida boshlang‘ich ta’lim jarayonida bolalarning jismoniy faolligi ortadi, darsga qiziqishi kuchayadi, sog‘lig‘i mustahkamlanadi va ta’lim sifati yaxshilanadi. Demak, ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy va amaliy ishlar kelajak avlodni har tomonlama barkamol tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Nihol, 2016.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2014.

3. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2013.

4. Mahkamov K. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

5. Usmonxo‘jayev T., Xo‘jayev F. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.

6. Ortiqov A. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

7. Xasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. - Toshkent: Fan, 2018.

8. Abdullayeva Q. Boshlang‘ich ta’limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. - Toshkent: Tafakkur, 2020.

9. Sharipov Sh. Bolalar fiziologiyasi va gigiyenasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

10. Raximov A. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Muhammadiyev Shohboz Bo‘ron o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedrasi Assistant o‘qituvchisi va mustaqil izlanuvchi.
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-6244-5089

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim sohasining asosiy vazifalaridan biri shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiq ta’limning zamonaviy sifatini ta’minlashdan iborat. Shunday ekan hozirgi kunda ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlarini amalga oshirishga qaratilgan zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jadal sur’atlarda amalga oshirilishida pedagogik texnologiyalar va “texnologiya” atamasi nimani anglatishi hamda ulardan ta’lim jarayonlarida samarali foydalanish orqali ta’lim sifatini oshishi haqidagi nazariy va amaliy fikrlar atroflicha keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, vositalar, shakllar, metodlar, usullar, mezonlar, ko‘rgazmalilik, uyg‘unlik, jarayon, individuallashtirish, differensiallashtirish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Мухаммадиев Шохбоз Бурон угли.
Государственный педагогический институт им. Шахрисабза,
Ассистент преподавателя и независимый исследователь, кафедра географии.

Аннотация. В данной статье подробно изложены теоретические и практические идеи о значении педагогических технологий и термина «технология», а также о том, как повысить качество образования за счет их эффективного использования в образовательных процессах, учитывая быстрое внедрение современных инновационных педагогических технологий в учебных заведениях, направленных на реализацию государственных образовательных стандартов.

Ключевые слова: технология, инструменты, формы, методы, приемы, критерии, демонстрация, гармония, процесс, индивидуализация, дифференциация.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Muhammadiyev Shohboz Buron ugli.
Shahrisabz State Pedagogical Institute,
Assistant teacher and independent researcher, Department of Geography.

Abstract. This article presents in detail theoretical and practical ideas about what pedagogical technologies and the term «technology» mean and how to increase the quality of education through their effective use in educational processes, in the context of the rapid implementation of modern innovative pedagogical technologies aimed at implementing state educational standards in educational institutions, and the effective use of them in educational processes.

Keywords: technology, tools, forms, methods, techniques, criteria, demonstrativeness, harmony, process, individualization, differentiation.

Kirish. Hozirgi davr ta’limidagi tez rivojlanish ta’lim texnologiyalarining dars jarayonlarida keng qo‘llanilishi jarayonida talabalarning aqliy qobiliyatlarini oshirish, tez charchashning oldini olish va ularda mushaklarning statik zo‘riqishini bartaraf etish uchun jismoniy harakatlar, hissiy tetiklik, ko‘z mashg‘ulotlari, hazil-mutoyiba daqiqalari, refleksiya, talabalarning to‘g‘ri tana

tuzilishini saqlash kabi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’limning sog‘liqni saqlash texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ixtisoslashtirilgan maktablardagi talabalarning salomatlik darajasini saqlab qolish, balki o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Pedagogik texnologiyalarning ta’rifi N.A.Muslimov, Sh.Sharipov, O.Qo‘ysinov, X.Qodirov, B.T.Lixachev kabi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, texnologiya - bu biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar yig‘indisi ekanligi ularning tadqiqot ishlarida keltirib o‘tilgan. Jumladan, B.T.Lixachev tomonidan berilgan ta’rifni ko‘raylik: “Pedagogik texnologiya - bu o‘qitish shakllari, metodlari, usullari, tarbiya vositalarining maxsus to‘plami va jamlanmasini belgilaydigan psixologik-pedagogik jihozlar to‘plami; bu pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik vositalaridir.” Umuman, “texnologiya” so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, san’at, mahorat va ta’lim degan ma’nolarni anglatadi. Shuning uchun “pedagogik texnologiya” atamasi tarjimada pedagogik san’at, mahorat haqidagi ta’limotni anglatadi. Bugungi kunda yuzlab ta’lim texnologiyalari mavjud va biz o‘zimizga kerak bo‘lgan, ta’lim jarayonimizga mos keladigan va talabalarimiz o‘rganishi uchun qo‘llaniladigan texnologiyalarni ko‘rib chiqamiz.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Pedagogik texnologiyalar asosan ikkita turga bo‘linadi:

1. An’anaviy texnologiyalar.
2. Innovatsion texnologiyalar.

An’anaviy o‘qitish texnologiyasi - bu tushuntirish-illyustrativ o‘qitish. Ushbu ta’limning asosiy usullari ko‘rgazmalilik bilan uyg‘unlikda tushuntirish, talabalarning faoliyat turlari esa tinglash va eslab qolishdir. Bu ta’limning qadimiy shakli bo‘lsa-da, hozirgi kunda maktablarda ham yuqori ahamiyatga ega, chunki unga bilimlarni bayon etishning yangi usullari va yangi ko‘rgazmalilik turlari o‘z uyg‘unligini topdi. Izohli-illyustrativ ta’lim bir qator muhim afzalliklarga ega. U vaqtni tejaydi, o‘qituvchilar va talabalarning kuchini jamlaydi, so‘nggi murakkab bilimlarni tushunishni osonlashtiradi, jarayonni samarali boshqarishni ta’minlaydi. Biroq, bir qator kamchiliklar ham mavjud, xususan, tayyor bilimlarni berish va talabalarni o‘zlashtirishda mustaqil va samarali fikrlash zaruratidan ozod qilish, shuningdek, o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish uchun juda kam imkoniyatlar mavjud (1-rasm).

Innovatsion texnologiyalar bir qator mezonlar bo‘yicha tasniflanadi:

Talabalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni quyidagi turlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

-o‘yin texnologiyalari;
-muammoli ta’lim texnologiyasi;
-tadqiqotchi o‘qitish texnologiyasi;
-darajali saralash texnologiyasi;
-ta’limni individuallashtirish texnologiyasi;
-dasturiy ta’lim texnologiyasi;
-ta’limning axborot texnologiyalari.
-interaktiv texnologiyalar;
-muqobil texnologiyalar;
-loyihaviy o‘qitish texnologiyasi;
-dalton texnologiyasi;
-keys texnologiyasi;
-rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi;
-shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;
-o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi.

An’anaviy o‘qitish texnologiyasi

An’anaviy o‘qitish texnologiyasi	
An’anaviy o‘qitishning mazmuni	**An’anaviy o‘qitishdagi kamchiliklar**
An’anaviy o‘qitish texnologiyasi - bu tushuntirish-illyustrativ o‘qitish. Ushbu ta’limning asosiy usullari ko‘rgazmalilik bilan uyg‘unlikda tushuntirish, talabalarning faoliyat turlari esa tinglash va eslab qolishdir. Bu ta’limning qadimiy shakli bo‘lsa-da, hozirgi kunda maktablarda ham yuqori ahamiyatga ega, chunki unga bilimlarni bayon etishning yangi usullari va yangi ko‘rgazmalilik turlari o‘z uyg‘unligini topdi. Izohli-illyustrativ ta’lim bir qator muhim afzalliklarga ega. U vaqtni tejaydi, o‘qituvchilar va talabalarning kuchini jamlaydi, so‘nggi murakkab bilimlarni tushunishni osonlashtiradi, jarayonni samarali boshqarishni ta’minlaydi.	Biroq, bir qator kamchiliklar ham mavjud, xususan, tayyor bilimlarni berish va talabalarni o‘zlashtirishda mustaqil va samarali fikrlash imkoniyatining kamligi va o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish uchun juda kam imkoniyatlar mavjud.

1.rasm. An’anaviy o‘qitish texnologiyasining mazmuni va kamchiliklari

Yuqorida keltirilgan turli texnologiyalarni tahlil qilib, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar alohida ta’limga muhtoj talabalarning hayotiy kompetentligini oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga va ulardan o‘z faoliyatida foydalanishga yordam beradigan ruhiy va jismoniy kamchiliklarini rivojlantirish va tuzatishga qaratilgan.

1. Differensial (turli darajali) o‘qitish texnologiyasi.
2. Ta’limni individuallashtirish texnologiyasi.
3. Muammoli o‘qitish texnologiyasi.
4. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish.
5. O‘yinli o‘qitish texnologiyasi.
6. Axborot texnologiyalari.
7. Axloqiy tarbiya texnologiyasi.

8. Sog‘liqni saqlash texnologiyalari.
9. Differensial (turli darajadagi) o‘qitish texnologiyasi.

Differensial (har xil darajali) o‘qitish texnologiyasi o‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi bo‘lib, uning doirasida har bir talabaning individual xususiyatlari va qobiliyatlariga qarab o‘quv materialini o‘zlashtirishning turli darajalari ko‘zda tutiladi.

Ushbu texnologiyaning maqsadi barcha talabalarning bilim va malakalarning boshlang‘ich darajasini egallashi va o‘zining keyingi rivojlanishi uchun imkoniyatlarga ega bo‘lishidir. Ushbu metodika bo‘yicha ishlash talabalarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy va ijtimoiy o‘z-o‘zini aniqlashga ongli ravishda yondashish imkonini beradi.

Murakkab mavzular va bo‘limlarni o‘rganishda darajaviy tabaqalashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiq va talabaning qiziqishi va moyilligi hisobga olinadi. O‘yin talabani o‘rgatadi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi, ijtimoiylashtiradi, ko‘ngil ochadi va dam oladi. Ammo uning asosiy vazifalaridan biri o‘rgatishga qitishdir. O‘yin texnologiyasi paydo bo‘lishining dastlabki lahzalaridan zarur insoniy fazilatlar, ko‘nikmalar va odatlarni shakllantirish, qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ularni o‘zlashtirishda aniq amaliy harakatlar, ta’lim shakli sifatida harakat qilishiga shubha tug‘dirmaydi.

Axborot texnologiyasi – bu usullar yig‘indisidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi talabalar o‘rtasida ta’limning eng yangi sifatiga erishish bilan birga, talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, talabalarning yangi bilimlarni olishga qiziqishini oshiradi, talabalarni ijtimoiy dunyo bilan tanishtiradi, tarbiyaviy ta’sirning yangi vositalarini yaratadi. Maxsus (korreksion) maktablarda AKTni joriy etish, birinchi navbatda, o‘qitish sifatini yaxshilash, imkoniyati cheklangan talabalarning yangi bilimlarni olishi va o‘zlashtirishiga rag‘batni oshirish imkonini beradi. Eng keng tarqalgan turi multimedia taqdimotlaridir. Taqdimotlarni tayyorlash muhim, ijodiy jarayon bo‘lib, uning har bir elementi talaba idroki nuqtayi nazaridan o‘ylangan bo‘lishi kerak. Dars-taqdimotlarni yaratish o‘qituvchiga faol, harakatli o‘qitish usullarini qo‘llash imkonini beradi. Bunday darslarni o‘tkazish o‘qituvchidan maxsus tayyorgarlik ishlarini talab qiladi. Darslar qiziqarli, emotsional bo‘lib, ular talabalarga idrok jarayonida ko‘rish, eshitish, tasavvurni ishga solish imkonini beradi, bu esa o‘rganilayotgan materialga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Multimediali taqdimot axborotni eng ko‘rgazmali va oson qabul qilinadigan shaklda taqdim etish imkonini beradi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talabalarning aqliy qobiliyatlarini oshirish, tez charchashning oldini olish va ularda mushaklarning statik zo‘riqishini bartaraf etish uchun jismoniy tarbiya, hissiy tetiklik, ko‘z mashg‘ulotlari, hazil-mutoyiba daqiqalari, refleksiya, talabalarning to‘g‘ri tana tuzilishini saqlash kabi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’limning sog‘liqni saqlash texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ixtisoslashtirilgan maktablardagi talabalarning salomatlik darajasini saqlab qolish, balki o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Turli korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalangan holda, pedagoglar talabalarga asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradilar. Bir texnologiya turli ijrochilar qo‘lida har doim boshqacha ko‘rinishi mumkin. Bitta texnologiyadan foydalanadigan har bir o‘qituvchida erishilgan natijalar turlicha bo‘ladi, chunki dars jarayonida u yoki bu texnologiyani tanlash ko‘plab quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi (2-rasm): o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari mavjudligi, talabalar tarkibining xususiyatlari, ularning yoshi, ularning umumiy kayfiyati va auditoriyadagi psixologik tayorligi, ularning tayyorgarlik darajasi, dars mavzusi va boshqalar.



2-rasm. Dars jarayonida texnologiylarni tanlash omillarga.

Pedagogik texnologiyalarni tanlashda o‘qituvchining metodik uslublari, pedagogik xohish-istaklari, shuningdek, talabaning ehtiyojlari hisobga olinadi. Pedagogik materially tanlovda amaliy ahamiyati va ijtimoiy moslashuv tamoyillari hisobga olinadi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kun ta’lim jarayonlarida an’anaviy va innovatsion o‘qitishning ko‘plab pedagogik texnologiyalari mavjud bo‘lib ulardan biri yaxshi, ikkinchisi yomon deb bo‘lmaydi, shuning uchun eng maqbul variant bu texnologiyalarning itegratsiyasidan foydalanishdir.

Ta’limning samaradorligi birinchi navbatda talabaning olgan bilimlarining asosiy natijasi jamiyatiga qanchalik osonlik bilan qo‘shilishi va kundalik hayotning eng oddiy muammolarini hal qila olishi bilan baholanadi.

Yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ta’lim jarayonining sifatini oshirishni ta’minlashi kerak. Talabalarning turli xil faoliyat turlarini bajarishning umumlashtirilgan usullarini o‘zlashtirish, korreksion-rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etish, talabalarning maishiy ko‘nikmalarni va uy xo‘jaligini yuritishning foydali tajribasini o‘zlashtirish, ta’lim muassasasi sharoitida faol va qiziqarli hayot kechirishga yordam beradi va talabalarga ushbu ijtimoiy integratsiya yo‘lida birinchi qadamlarni qo‘yishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari/ Darslik – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

2.Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metedik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

3.Aripov M.M va boshq. Informatika va axborot texnologiyalari. – T, Universitet, 2007 yil. – 264 b.

4.O‘.Muxamedov, M.H.Usmanboev, S.S.Rustamov., Ta’limni tashkil etishda interfaol metodlar: O‘quv-uslubiy tavsiyalar -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,2016.- 4 bet.

5.Вердербер.Р, Вердербер.К. Психологияобщения. – СПб.:прайм-ЕВРОЗНАК, 2003

6.Turdiyev S. R. Didactic principles of guiding theoretical knowledge from steam science into practice //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1597-1601.

7.Турдиев Ш. Р., Кельдиярова М. Г. Организация в процессе обучения учебно-исследовательской работы студентов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83). – С. 21-25.

BOSHLANG’ICH SINF ONA TILI DARSLIGIDAGI MATN VA RASMLAR ORQALI O’QUVCHI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Nusratova Hamida Cho‘liboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
professori, PhD

Rahimjonova Mohinur Bahodir qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsligidagi matn va rasmlarning o‘quvchi nutqini rivojlantirishdagi o‘rni, imkoniyatlari va samarali usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda darslikdagi matnlar (badiiy, ilmiy-ommabop, amaliy) va ularga ilova qilingan rasmlar (syujetli, mavzuli, tushuntiruvchi) nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim vositalari ekanligi asoslanadi. Maqolada matn va rasmni kompleks ishlatishga asoslangan metodik tavsiyalar, jumladan, rasm asosida hikoya tuzish, matnni tasvirlash, dialog tuzish va ijodiy topshiriqlar berish kabi usullar taklif etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, matn va rasmning uyg‘unligi o‘quvchilarning izchil, mantiqiy, ijodiy va kommunikativ nutqini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili darsligi, matn, rasm, nutq o‘stirish, kommunikativ kompetensiya, pedagogik usullar.

Bugungi kunda ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi . Chunki maktabga qadam qo‘ygan bola nutqiy faoliyatning barcha turlarini gapirish, tinglab tushunish, o‘qish, yozishni endi tizimli o‘rgana boshlaydi. Ona tili darsligi esa bu jarayonning asosiy qurolidir. Darslikdagi matnlar va rasmlar bir-birini to‘ldiruvchi, o‘quvchi nutqini boyitishga xizmat qiluvchi muhim vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf darsliklaridagi matnlar turlari, ularning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Biroq, matn va rasmni o‘zaro bog‘liq holda nutq o‘stirish vositasi sifatida kompleks o‘rganish yetarlicha yoritilmagan. Amaliyotda ko‘pincha rasm faqatgina ko‘rgazmali vosita sifatida qaralib, matn bilan aloqasi zaiflashtiriladi yoki matn yuzaki tahlil qilinadi. Natijada o‘quvchilarda matn mazmunini chuqur anglamaslik, o‘z fikrini izchil ifodalashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang‘ich sinf ona tili darsligidagi matn va rasmlarning o‘quvchi nutqini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ochib berish va bu jarayonni samarali tashkil etishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Maqolada quyidagi vazifalar ko‘zda tutilgan:

1. Darslikdagi matn va rasmlarning turlarini va ularning nutqiy ahamiyatini tahlil qilish.
2. Matn va rasm asosida nutq o‘stirish usullarini aniqlashtirish.
3. Ushbu vositalardan foydalanish samaradorligini oshiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni belgilash.

Tadqiqotda tahlil, kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darsligidagi matn va rasmlarning tahlili, boshlang‘ich sinf ona tili darsligi 1-4-sinflar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslab, asta-sekin murakkablashib boruvchi matnlar tizimiga ega . Darslikdagi matnlar asosan quyidagi turlarga bo‘linadi: Badiiy matnlar (hikoya, ertak, she’r): o‘quvchilarning hissiy-emosional sohasini rivojlantiradi, obrazli fikrlashni, ifodali o‘qish va hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.Ilmiy-ommabop matnlar,tabiat, texnika, jamiyat haqida bular o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, atamalarni to‘g‘ri qo‘llash, mantiqiy fikrlash va asosli javob berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Amaliy matnlar ko‘rsatma, qoida, xat,o‘quvchilarda funksional savodxonlikni, aniq va lo‘nda

ifodalash malakasini shakllantiradi.

Darslikdagi rasmlar esa quyidagi vazifalarni bajaradi: Syujetli rasmlar: matn mazmunini ochib beradi, voqea-hodisalarni tasavvur qilishga yordam beradi. Bunday rasmlar asosida o‘quvchilar matnni qayta hikoya qilish, mazmunni kengaytirish, qahramonlarga tavsif berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mavzuli rasmlar: biror mavzu (masalan, “Kuz”, “Bozor”, “Maktab”) doirasida so‘z boyligini oshirish, tematik guruhlar asosida gap tuzishga xizmat qiladi. Tushuntiruvchi rasmlar: yangi tushuncha, qoida yoki jarayonni vizual tarzda izohlaydi. Bu nutqning tushunarli va asosli bo‘lishiga zamin yaratadi. Biroq ba’zi darsliklarda rasm matnga faqatgina illyustratsiya sifatida qaralib, ularni mustaqil nutqiy faoliyat vositasi sifatida ishlatish imkoniyatlari to‘liq ochilmagan. Yana bir misol, “Bozor” mavzusidagi ilmiy-ommabop matn va unga ilova qilingan mavzuli rasm. Rasmda sabzavotlar, mevalar, kiyim-kechak, idish-tovoq kabi turli guruhlarga oid buyumlar ko‘rsatilgan. Matnda esa “Bozorda odamlar narsalarni sotib oladilar, savdo qiladilar” degan umumiy ma’lumot berilgan. Bu yerda rasm matn mazmunini ancha boyitadi: o‘quvchi rasm orqali mahsulotlarning nomlarini, ularning rang-tusini, miqdorini ifodalashga, “Kim qayerda turibdi? U nima sotib olmoqchi? Nima uchun?” kabi savollar asosida dialoglar qurishga o‘rganadi.

Matn va rasm asosida o‘quvchi nutqini rivojlantirish metodikasi:Nutq o‘stirish – bu o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri va uslub jihatdan aniq gapira olish, fikrni izchil va mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Darslikdagi matn va rasmlarni samarali ishlatish orqali bu jarayonni quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

Birinchi bosqich: Kuzatish va tasvirlash.Bunda rasm diqqat bilan o‘rganiladi. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar beradi: “Rasmda kim(lar)ni ko‘ryapsan? Ular qayerda? Nima qilayotgan? Ularning kayfiyati qanday?” Savollar o‘quvchilarni rasm tafsilotlarini payqashga, sodda gaplar tuzishga undaydi. Keyinchalik bu gaplar matn bilan taqqoslanadi. Matnda rasmda ko‘rsatilmagan qanday tafsilotlar bor? Rasm matnni to‘ldiradimi? – kabi savollar o‘quvchilarda tahliliy fikrni o‘stiradi. Bu bosqichda “Kim ko‘proq?” o‘yini samarali hisoblanadi. O‘qituvchi rasmni ko‘rsatadi va “Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?” deydi. O‘quvchilar navbatma-navbat bitta narsani nomlaydi: “Men bir daraxtni ko‘ryapman”, “Men bir qizchani ko‘ryapman”, “Men uning qo‘lidagi gulni ko‘ryapman”. So‘ng matn o‘qiladi va “Matnda qaysi tafsilotlar bor, lekin rasmda yo‘q?” yoki “Rasmda qaysi tafsilotlar bor, lekin matnda aytilmagan?” degan savol bilan taqqoslash o‘tkaziladi. Bu o‘yin o‘quvchilarni diqqatli bo‘lishga, tafsilotlarni payqashga, sodda va aniq gaplar tuzishga o‘rgatadi.

Ikkinchi bosqich: Dialog va bahs-munozara.Matn va rasm asosida qisqa dialoglar tashkil etiladi. Masalan, matn qahramonlarining o‘zaro suhbati, rasmda tasvirlangan vaziyat yuzasidan ikki o‘quvchining bahsi tashkil qilinadi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, tinglovchini ishontirish, so‘roq va javob shakllaridan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadi.

Dialoglar turlicha bo‘lishi mumkin: 1. Rol o‘ynash dialoglari: O‘quvchilar matn qahramonlariga aylanadi. Masalan, “Do‘stlik” matnidagi bolalar o‘rtasidagi suhbatni o‘zlari davom ettiradi. “Agar sen uning o‘rnida bo‘lsang, nima deysan?” kabi topshiriqlar beriladi.

2. Bahs-munozara: Rasmda tasvirlangan vaziyat yuzasidan ikki o‘quvchi turli nuqtai nazarni ifodalaydi. Masalan, bir o‘quvchi “Bu rasmda qahramonlar xursand, chunki ular do‘st”, deydi. Ikkinchi o‘quvchi “Menimcha, ular biroz xafa, chunki ikkalasi ham qo‘lini cho‘zgan, lekin bir-biriga yetib bormayapti”, deydi. Har bir o‘z fikrini rasm tafsilotlari bilan asoslashi kerak.

3. Savol-javob dialoglari: Bir o‘quvchi rasm yoki matn yuzasidan sinfdoshiga savollar beradi. Savollar matn mazmunini tushunishga, rasm tafsilotlarini payqashga qaratilgan bo‘ladi. Javob beruvchi esa to‘liq, asosli javob qaytaradi.

Uchinchi bosqich: Ijodiy qayta hikoya va matn tuzish.O‘quvchilarga rasm asosida matndagidan farqli yangi hikoya tuzish, matn voqealarini davom ettirish, matn mazmuniga mos yangi rasm chizish yoki aksincha, rasm asosida matn yozish kabi ijodiy topshiriqlar beriladi. Bu bosqich nutqning ijodiy tomonini, tasavvur va mantiqiy bog‘lanishni rivojlantiradi. Ijodiy topshiriqlar

turlari:Rasm asosida matn yozish: O‘qituvchi matnsiz faqat rasmni ko‘rsatadi. O‘quvchilar rasmda tasvirlangan voqeani hikoya qilib beradi. Dastlab og‘zaki, so‘ng yozma shaklda. Bu topshiriq tasavvur va yozma nutqni bir vaqtda rivojlantiradi.Matn asosida rasm chizish: O‘quvchilar matnni o‘qib, uning mazmuniga mos yangi rasm chizadi. Chizilgan rasmlar sinfda ko‘rgazma qilinadi va har bir o‘quvchi o‘z rasmi haqida, nima uchun aynan shu tafsilotlarni chizgani haqida gapirib beradi. Bu nutqni mantiqiy asoslashga o‘rgatadi.Matnni davom ettirish: Matnning so‘nggi qismi o‘chiriladi yoki “Bundan keyin nima bo‘ldi?” degan ochiq topshiriq beriladi. O‘quvchilar matn mazmuni, rasmda ko‘rsatilgan voqea-hodisalar asosida matnni davom ettiradi.Matn mazmuniga mos yangi rasm yaratish: O‘quvchilar matn mazmunini to‘liq ochib beruvchi, ammo darslikdagidan farqli yangi rasm chizadi. Bu ularning matnni chuqur tahlil qilish va uni vizual tarzda ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

To‘rtinchi bosqich: Tahlil va umumlashtirish.Matn va rasm vositalaridan qanday foydalanganliklari tahlil qilinadi. O‘quvchilar o‘z hikoyalarini sinfdoshlariga taqdim etadi, eng yaxshi ifoda, eng qiziqarli mazmun, eng aniq tasvirlar baholanadi. Bu o‘z-o‘zini baholash va nutqiy faoliyatni takomillashtirishga turtki beradi. Baholash mezonlari o‘quvchilarga oldindan aytiladi.Mazmun: Hikoya yoki matn mazmunli, voqealar mantiqiy ketma-ketlikda joylashganmi? Gaplar to‘g‘ri tuzilganmi, yangi so‘zlar ishlatilganmi?Rasm yoki og‘zaki tasvirda tafsilotlar aniq ko‘rsatilganmi? Ijodkorlik: O‘ziga xos qiyoslar, obrazlar, kutilmagan voqealar bormi? Nutq tushunarli bo‘lganmi?

Baholash jarayonida o‘qituvchi birinchi navbatda o‘quvchilarning ijobiy tomonlarini ta’kidlaydi, so‘ngra rivojlantirishga muhtoj jihatlarini muloyim shaklda aytadi. Sinfdoshlar ham bir-birini baholashda ishtirok etadi. Bu esa o‘quvchilarda o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va boshqalarning nutqini tinglash, baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalari:Tadqiqot doirasida 2-sinf o‘quvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba guruhida darslar yuqorida bayon etilgan metodika asosida, ya’ni matn va rasmni kompleks ishlatish, ijodiy va kommunikativ topshiriqlar ko‘p qo‘llangan holda tashkil etildi. Nazorat guruhida esa darslikdagi topshiriqlar standart shaklda, rasm asosan ko‘rgazma sifatida qo‘llanildi.

Sinov yakunlarida quyidagi natijalar qayd etildi: Tajriba guruhi o‘quvchilarining izchil matn tuzish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 23 foizga yuqori bo‘ldi. Rasm asosida matn mazmunini kengaytirib hikoya qilishda tajriba guruhi o‘quvchilari 2-3 barobar ko‘proq jumla va yangi so‘zlardan foydalandi.Dialog qurish, o‘z fikrini asoslash va jamoa oldida nutq so‘zlashda tajriba guruhi o‘quvchilarida ishonch va faollik sezilarli darajada oshdi. Lug‘at boyligini aniqlash testlarida tajriba guruhi o‘quvchilarining natijalari nazorat guruhidan yuqori bo‘ldi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, matn va rasmni uyg‘un ishlatish o‘quvchilarning: · kuzatish va tahlil qilish,rasm tafsilotlarini payqash, matn bilan bog‘lash,tasavvur qilish,matn asosida rasmni, rasm asosida voqeani tasavvur etish,mantiqiy fikrlash (voqea-hodisalar ketma-ketligini belgilash, sabab-oqibat bog‘lash),ijodiy ifodalash o‘ziga xos gaplar, qiyoslar, obrazlar yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Matn va rasm asosida nutq o‘stirish samaradorligini oshiruvchi omillar-tahlil va tajriba natijalariga asoslanib, quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni belgilash mumkin: Darslik matn va rasmlarining mazmuniy uyg‘unligi: Rasm matnni oddiygina takrorlamasdan, uni to‘ldirishi, kengaytirishi yoki muammoli vaziyat yaratishi kerak. Savol va topshiriqlarning tizimliligi: “Rasmda nimani ko‘ryapsan?” tipidagi oddiy savollardan “Nima uchun? Qanday qilib? Agar sen o‘rnida bo‘lsang?” kabi muammoli va ijodiy savollarga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. O‘quvchilarning nutqiy faolligini rag‘batlantirish: Har bir o‘quvchining fikri tinglanishi, xatolar to‘g‘rilanishi, ammo tanqidiy muhit yaratilmasligi kerak. Zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya: Rasmlarni interaktiv doskada kattalashtirish, matnni audio shaklda tinglash, o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan rasmlar yoki taqdimotlarni darsga olib kelish nutqiy faollikni oshiradi. Darsdan tashqari ishlar bilan bog‘liqlik: Kitobxonlik darslari, insho tanlovlari,

teatrlashtirilgan sahnalar orqali matn va rasm asosidagi nutqiy tajribani mustahkamlash

1. Darslik matn va rasmlarining mazmuniy uyg‘unligi:Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi darsliklarda rasm matnga rasmiy ilova sifatida berilgan. Masalan, “Oila” mavzusidagi matnda oila a’zolarining o‘zaro hurmati haqida gapiriladi, rasmda esa oddiygina stol atrofida o‘tirgan odamlar tasvirlangan. Bunday rasm o‘quvchiga matn mazmunini chuqurlashtirish, hissiyotlarni anglash imkonini bermaydi. Samarali darsliklarda esa rasm matn mazmunidagi asosiy g‘oyani ochib beruvchi, undagi muhim tafsilotlarni vizual aks ettiruvchi, o‘quvchini fikrlashga, taqqoslashga undovchi bo‘lishi kerak. Muammoli vaziyat yaratuvchi rasmlar masalan, rasmda qahramonlarning bir-biriga qarama-qarshi harakatlari, noaniq holat tasvirlangan bo’lsa ayniqsa samarali hisoblanadi.

2. Savol va topshiriqlarning tizimliligi:O‘qituvchi savollarini quyidagi darajalarga ajratish mumkin: Birinchi daraja (aniqlovchi): “Rasmda kim bor?”, “U nima kiygan?” – bu savollar kuzatishni o‘stiradi. Ikkinchi daraja (tahliliy): “Nima uchun u xursand?”, “Ular qayerga ketayotgan?” – bu savollar sabab-oqibat bog‘lashni o‘rgatadi.Uchinchi daraja (muammoli): “Agar sen uning o‘rnida bo‘lsang, nima qilgan bo‘larding?”, “Nima uchun muallif aynan shu ranglarni tanlagan?” – bu savollar o‘quvchini o‘z fikrini asoslashga, ijodiy yondashishga undaydi. To‘rtinchi daraja (ijodiy): “Bu voqeadan keyin nima bo‘lishi mumkin?”, “Rasmga qarab qanday she’r yozish mumkin?” – bu savollar tasavvur va ijodiy nutqni rivojlantiradi. Savollar berishda oddiy darajadan murakkab darajaga o‘tish bosqichma-bosqich bo‘lishi lozim. Har bir o‘quvchining imkoniyatidan kelib chiqib, turli darajadagi savollar berilishi kerak.

3. O‘quvchilarning nutqiy faolligini rag‘batlantirish:O‘qituvchining nutqiy muhitni shakllantirishdagi roli katta. O‘quvchi xato gapirsa, uni to‘xtatib, “Noto‘g‘ri, yana ayt” deyish o‘rniga, “Yaxshi, bu fikring. Kim boshqacha fikrda?” deb boshqa o‘quvchilarni mulohazaga undash, so‘ng to‘g‘ri variantni o‘zi aytib berish, “Endi shunday deyish yanada chiroyli bo‘lardi” deb takrorlash samarali usul hisoblanadi. O‘quvchilarning har bir to‘g‘ri fikri, yangi so‘z ishlatishi, chiroyli gap tuzishi maqtalishi, rag‘batlantirilishi kerak. Bu bolada o‘z qobiliyatiga ishonch, nutqiy faollikni oshiradi.

4. Zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya:Bugungi kunda ko‘pgina maktablar interaktiv doskalar, proyektorlar bilan jihozlangan. Darsda quyidagi imkoniyatlardan foydalanish mumkin: Rasmni kattalashtirib, uning har bir tafsilotini sinfga ko‘rsatish; Matnni audio yoki video shaklda (ovozli she’rlar, qisqa animatsion hikoyalar) tinglash;O‘quvchilarning o‘zlari chizgan rasmlarini telefonga suratga olib, doskada namoyish etish va ular asosida hikoya tuzish;Tayyor elektron resurslardan (masalan, rasmlar to‘plami, interaktiv topshiriqlar) foydalanish. Texnologiyalar darsni jonlantiradi, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va nutqiy faollikni rag‘batlantiradi.

5. Darsdan tashqari ishlar bilan bog‘liqlik:Darsda olingan ko‘nikmalar darsdan tashqari faoliyatda mustahkamlanmasa, tez so‘nadi. Shu sababli: Kitobxonlik darslari (maktab kutubxonasida) – o‘qilgan ertak yoki hikoya asosida rasm chizish va uni og‘zaki taqdim etish; Insho tanlovlari – “Mening sevimli rasmim” mavzusida insho yozish;Teatrlashtirilgan sahnalar – matn yoki rasm asosida kichik sahna ko‘rinishini tayyorlash va uni sinf oldida ko‘rsatish; Oilaviy loyihalar – ota-onalar bilan birgalikda rasm asosida hikoya yozish yoki matn asosida rasm chizish. Bu kabi ishlar o‘quvchilarning nutqiy tajribasini kengaytiradi, o‘rganilgan usullarni turli vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darsligidagi matn va rasmlar o‘quvchi nutqini rivojlantirishning samarali va qulay vositasidir. Ushbu vositalardan kompleks foydalanish, ularni nafaqat ko‘rgazma, balki mustaqil nutqiy faoliyat manbai sifatida qarash, o‘quvchilarda izchil, mantiqiy, ijodiy va kommunikativ nutqni shakllantirish imkonini beradi.Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, matn va rasm asosida nutq o‘stirishning taklif etilayotgan metodikasi kuzatish va tasvirlash, dialog va munozara, ijodiy qayta hikoya, tahlil va umumlashtirish,an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqori samara beradi. O‘quvchilarning lug‘at boyligi, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyati, jamoa oldida erkin nutq so‘zlash malakasi sezilarli darajada rivojlanadi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

1. Darsliklarni takomillashtirishda matn va rasmni mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi va muammoli vaziyat yaratuvchi tarzda loyihalashtirish.

2. O‘qituvchilar uchun matn va rasm asosida nutq o‘stirish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.

3. Dars jarayonida rasm va matn bilan ishlashning interfaol usullarini aylanma hikoya, rasm galereyasi, matnni jonlantirish keng qo‘llash.

4. Ushbu yo‘nalishda keyingi tadqiqotlarni turli yosh bosqichlari (1-4-sinflar) va turli darsliklar (turli mualliflik jamoalari) misolida qiyosiy o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva Q., Qurbonova M. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 312 b.

2. Karimova N. Boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirishning psixologik-pedagogik asoslari // Pedagogika fanlari doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 48 b.

3. Ro‘ziyeva D. Matn va rasm vositasida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirish // Boshlang‘ich ta’lim, 2022, №4. – B. 23-26.

4. To‘xliyeva M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda ko‘rgazmalilikning o‘rni // Ta’lim va innovatsiyalar, 2023, №1. – B. 15-19.

5. Qodirova D. Ona tili darslarida matn tahlili asosida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – 184 b.

6. Ziyodullayeva M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini o‘stirishda rasmli materiallardan foydalanish metodikasi // Pedagogik mahorat, 2023, №2. – B. 45-49.

7. Davlatov I., Jo‘rayeva N. Boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuv asosida nutq o‘stirish. – Samarqand: SamDU nashri, 2022. – 156 b.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.

9. Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. – T.: 2020.

10. G‘afforova T., Shodmonov E., Jo‘rayeva O. Ona tili (2-sinf uchun darslik). – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 160 b.

11. H.Nusratova. Boshlang’ich sinf O’qish savodxonligi kitobidagi ilmiy ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2023/12 son. – B.150-154.

12.H.Nusratova. BOLALAR PUBLITSISTIKASI RIVOJIDA SAFAR BARNOYEVNING O‘RNI. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024 yil. – B.213-216.

8.H.Nusratova. BOLALIKKA OSHUFTA QALB EGASI... “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024 yil. – B.84-86.

9.H.Nusratova. O’zbek bolalar adabiyoti tadrijida qissa janrining o’rni (S.Barnoyev asarlari misolida). Education human life ilmiy jurnal 2023/1-son. – B.8-18.

10.H.Nusratova. O’zbek bolalar adabiyoti tadrijida qissa janrining o’rni (S.Barnoyev asarlari misolida). Education human life ilmiy jurnal 2023/1-son. – B.8-18.

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MORFOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI

Nusratova Hamida Cho'liboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
professori, Phd

Abdug'apporova Dinora Abduxalil qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
1-bosqich magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida morfologik tushunchalarni o'qitilishini takomillashtirish masalalari, tilshunoslikning eng katta bo'limlaridan biri bo'lgan morfologiyani o'rgatilish jarayonlari va uni o'qitishdagi o'rni, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarda nafaqat so'z turkumlari, balki so'zning grammatik shakllari va kategoriyalarini o'rgatilishi yoritilgan. Bundan tashqari lingvistik va nutqiy kompetensiyalar orqali dastlabki morfologik bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish va nutqiy faoliyatda qo'llay olish, shuningdek, innovatsion metodlardan foydalanish usullari tahlil qilinadi. Maqolada morfologik tushunchalarning o'qitilishi natijasida o'quvchilarda so'zlarni grammatik jihatdan muayyan vaziyatga moslab to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularda tafakkurini o'stirish, til kompetensiyalari orqali esa nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali va izchil yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: morfologiya, so'z turkumlari, grammatik ma'no, interfaol usullar, boshlang'ich ta'lim, nutqiy va lingvistik kompetensiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования преподавания морфологических понятий на уроках родного языка в начальных классах. Освещаются процессы изучения морфологии как одного из крупнейших разделов языкознания, а также ее роль в обучении. В системе начального образования учащимся преподаются не только части речи, но и грамматические формы и категории слов. Кроме того, анализируются способы поэтапного формирования первоначальных морфологических знаний через лингвистические и речевые компетенции, их применение в речевой деятельности, а также использование инновационных методов обучения морфологическим понятиям у учащихся формируются навыки грамматически правильного использования слов в соответствии с конкретной ситуацией, развивается мышление, а также совершенствуются речевые навыки через развитие языковых компетенций.

Ключевые слова: морфология, части речи, грамматическое значение, интерактивные методы, начальное образование, речевая и лингвистическая компетенция.

Annotation. This article discusses the issues of improving the teaching of morphological concepts in native language lessons in primary school. It highlights the process of teaching morphology as one of the largest branches of linguistics and its role in the educational process. In the primary education system, students are taught not only parts of speech but also the grammatical forms and categories of words. In addition, the article analyzes methods of gradually forming initial morphological knowledge through linguistic and communicative competencies, applying them in speech activities, and using innovative teaching methods. The article also demonstrates that teaching morphological concepts helps develop students' ability to use words grammatically correctly according to specific situations, enhances their thinking skills, and their speech abilities through the development of language competencies.

Keywords: morphology, parts of speech, grammatical meaning, interactive methods, primary

education, linguistic and communicative competence.

Bugungi kunda mamlakatimiz miqyosida ta’lim tizimini rivojlantirish va tubdan modernizatsiya qilish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda malakali kadrlarni tayyorlash, o’quv dasturlarini ishlab chiqish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad esa jamiyatimizda yoshlarni har tomonlama bilimli, barkamol, komil va intellektual salohiyatli shaxs sifatida kamol toptirish va kelgusida ta’lim tizimida istiqbolli natijalarga erishishni nazarda tutadi. Jumladan, bu bo’yicha tizimli islohotlar izchil amalga oshirilishi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlarini ko’rsatish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-76-sonli Farmonida o’z tasdig’ini topgan. Mazkur Farmonga muvofiq, ta’lim mazmunini yangilash, o’quvchilarda bilim, ko’nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish sifatini oshirish muhim vazifalardan biri etib belgilangan.

Ma’lumki, davlatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng, davlat tiliga bo’lgan e’tibor ham sezilarli darajada taraqqiy etayotganligini guvohi bo’lamiz. Har bir millatning o’zligini bildirib turadigan, milliy qadriyatlarini, an’analarini tanitadigan, ma’naviyatini, qolaversa, madaniyatini ham yuksaltiruvchi vosita bu ona tilidir. Shu o’rinda, davlat dasturiga kiritilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o’zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6084-sonli Farmonida davlat tilini rivojlantirish, ona tili ta’limining sifatini oshirish, lingvistik bilimlarni chuqurlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa o’z navbatida, boshlang’ich sinf ona tili darslarida tilning asosiy bo’limlaridan biri bo’lgan morfologiyani o’qitishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Morfologiya grekcha morphe - shakl, logos – ta’limot ya’ni so’z shakli haqida ta’limot demakdir. Morfologiyaning asosiy tarkibiy qismini grammatik ma’no tushunchasi tashkil etadi. Grammatik ma’no lug’aviy ma’nodan (so’zning atash ma’nosi) farqli ravishda obyektiv borliqni emas, balki tilimizda so’zlar o’rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “kutubxonamizning” so’zidagi –miz va –ning qo’shimchalari kutubxona so’zining mazmuniga hech qanday o’zgartirish kiritmaydi. Grammatik ma’noning vazifasi so’zga I shaxs ko’plik shaxsiga tegishlilik ma’nosini va qaratqich munosabatini berish vazifasini yuklash hisoblanadi. So’zlarning shunday grammatik ma’no ifodalovchi barcha shakllari majmui paradigmasini ya’ni so’zlarning shakllari tizimini hosil qiladi. Morfologiya aynan so’zlarning paradigmasini ya’ni otlarning kelishik va egalik bo’yicha turlanishini, fe’llarning shaxs-son, zamon va mayl kategoriyalari asosida tuslanishini belgilovchi grammatik shakllarni ham o’rganadi.

Demak, morfologiyada o’rganiladigan so’z grammatik birlik bo’lishi kerak. Grammatik ma’no deganda, yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, qaysi so’z turkumiga tegishli deb izohladik. Quyida qaysi so’z turkumi grammatik ma’no ifodalashini ko’rib chiqamiz:

1.Ot. Ot so’z turkumi umumiy grammatik ma’noni ifodalashi uchun unga xos bo’lgan egalik, kelishik va ko’plik shakllari mavjud bo’lib ot so’z turkumining umumiy grammatik ma’nosini hosil qiladi.

2.Sifat. Sifat so’z turkumida shu so’z turkumiga xos bo’lgan grammatik ma’nosini darajalari yuzaga keltiradi.

3.Ravish va son. Ravish va son so’z turkumlarida ma’no turlari shu so’z turkumining grammatik ma’nosini ifodalaydi.

4.Fe’l. Fe’l so’z turkumi o’zbek adabiy tilida mavjudki, bu so’z turkumi o’zining grammatik ma’nosini bo’lishli va bo’lishsizlik, nisbat, mayl, zamon hamda shaxs-son grammatik shakllari orqali ifodalaydi.

Ma’lumki, fan olamida qadimdan so’z va unga xos bo’lgan xususiyatlar insonlarni, ayniqsa, olimlarni juda ham qiziqtirib kelgan. Shu xususda dunyo tilshunosligining asosiy

hisoblangan hind tilshunosligi so’zlarni turkumlarga bo’lish, ularning o’ziga xos xususiyatlarini qat’iy shunday xulosaga kelingan, dastlab tilshunoslikda so’zlarni turkumlarga bo’lish hind tilshunosligida boshlangan bo’lib, ular ot, fe’l hamda yordamchi so’z turkumlariga bo’lib o’rganilgan. Hozirgi o’zbek tilshunosligida so’zlarni turkumlarga bo’lishdan oldin o’ziga xos bo’lgan quyidagi xususiyatlariga e’tibor qaratib o’tamiz:

1.Mustaqil ma’nosiga egaligi yoki ega emasligi;
2.Mustaqil holda so’roqqa javob bera olishi;
3.Mustaqil sintaktik vazifasi mavjudligi.

O’zbek tilshunosligining morfologiya bo’limida so’z turkumlari 3 guruhga bo’lib o’rganiladi, bular mustaqil so’z turkumlari, yordamchi so’z turkumlari va oraliqdagi (alohida olingan guruh so’zlari) so’z turkumlariga bo’lib o’rgatiladi.

Mustaqil so’zlar va yordamchi so’zlar quyidagi xususiyatlariga ko’ra bir-biridan farq qiladi:

a) atash ma’nosiga ega yoki ega emasligiga ko’ra;
b) gap bo’lagi vazifasida kelish yoki kelmasligiga ko’ra;
c) ma’lum so’roqqa javob bo’lishi yoki bo’lmasligiga ko’ra.

Boshlang’ich ta’lim tizimida morfologik tushunchalarni nutqiy va lingvistik kompetensiyalar orqali o’rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang’ich ta’lim bosqichi o’quvchilarning ta’lim jarayonida til kompetensiyalarining shakllanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda o’quvchilarda ona tiliga oid dastlabki morfologik tushunchalar, xususan, so’z turkumlari, so’zlarning grammatik shakllari va ularning nutqdagi vazifalari haqidagi morfologik bilimlar shakllanadi. Aynan morfologik bilimlarning puxta egallanishi o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini rivojlantirish, savodxonlik darajasini oshirish hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o’stirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi boshlang’ich sinf ona tili darslarida morfologik tushunchalarni faqat qoidalarni yod oldirishga qaratilgan usullardan voz kechilib, uning o’rniga o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarish ko’nikmalarini rivojlantirishga asoslangan innovatsion metodlarni qo’llashni taqozo etmoqda. Shu boisdan morfologiyani o’qitishda nazariy bilimlarni amaliy nutq bilan uzviy bog’lash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang’ich sinflarda morfologik tushunchalarni o’rgatishda mustaqil so’z turkumlari doirasida quyidagi asosiy jihatlariga e’tibor berish talab etiladi. Bular:

1.So’z turkumlarining so’rog’i aniqlanadi, gapda qanday vazifani bajaryapti va bir so’z turkumining boshqasidan ham farqli jihatlari o’rgatilishi lozim;

2.O’quvchilarga morfologik tushunchalar haqida nazariy jihatdan qoidalar asosida asosiy tushunchalar berilgandan so’ng nazariy olgan bilimlarini amaliy mashg’ulotlarga bevosita bog’lab morfologik tahlil o’tkazib borishni dars jarayonlarida tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o’quvchilarda morfologik bilimlar yuzasidan tushuncha hosil bo’lishiga, qay tartibda va qaysi vaziyatlarda foydalana olish bo’yicha bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang’ich sinflarda morfologik tushunchalarni o’qitilishini takomillashtirish bir qancha innovatsion metodlardan foydalanish eng samarali usullardan hisoblanadi. Jumladan, “Anogramma” mashqi misolida ko’rib chiqish mumkin.

Mazkur metodda o’quvchiga berilayotgan so’zlar faqat biror hodisa, mavzu asosida bo’ladi, ya’ni umumiy xususiyatga ega bo’ladi va ular orasida bittasi shu hodisaga aloqador bo’lmaydi. O’quvchi ana shu ortiqcha so’zni aniqlay olishi va javobni izohlay olishi kerak.

“Anogramma” mashqiga misollar

1.Ot, sifat, son, fe’l, aniqlovchi.
Javob: Aniqlovchi so’zi, chunki berilgan misollar so’z turkumlari bo’yicha berilgan.
2.Toshkent, Samarqand, Navoiy, Qoraqalpog’iston, Farg’ona.
Javob: Qoraqalpog’iston so’zi, chunki u viloyat emas.
3.Shifokor, o’qituvchi, qo’shiqchi, quruvchi, bog’.

Javob: bog’ so’zi, chunki u shaxs oti emas.

4.O’zbek, qirg’iz, qozoq, tojik, turkman.

Javob: tojik tili, chunki u turkiy tillar oilasiga mansub emas.

5.Kishilik, o’zlik, ko’rsatish, belgilash, holat.

Javob: holat so’zi, chunki berilgan misollar olmoshning ma’no turlari bo’yicha berilgan.

Mazkur tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1.Tahlil va taqqoslash metodi dasturda belgilangan amaldagi darsliklar tahlil qilindi;

2.Pedagogik kuzatish metodi boshlang’ich sinf ona tili darslarida morfologik tushunchalarning qay tartibda o’qitilish jarayoni kuzatildi;

3.Pedagogik tajriba metodi morfologik tushunchalarni o’qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish natijasida o’qitish samaradorligiga erishish uchun sinovdan o’tkazildi.

Tadqiqot jarayonida boshlang’ich sinflarda so’z turkumlarini o’qitish uchun mashqlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, morfologik tushunchalarni o’qitish jarayonida innovatsion usullarni qo’llash o’quvchilarning bilimlarni egallashdagi potensialini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

O’quv jarayonida quyidagi metodlar samarali natija berdi:

-Anogramma mashqi – so’z turkumlari va boshqa mavzudagi bilimlarni o’zlashtirishga yordam beradi.

-Sinkveyn metodi – so’z turkumlari doirasida tushunchalarini shakllantiradi, o’quvchilarning mantiqiy tafakkurini o’stiradi, og’zaki nutqini rivojlantiradi.

-Didaktik o’yinlar – o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini oshiradi.

Boshlang’ich ta’lim tizimida o’quvchilarga morfologik tushunchalarni o’rgatishda nafaqat nazariy jihatdan ma’lumotlar berish balki amaliy mashqlar orqali ham bilimlarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari morfologik tushunchalarni o’rganishda ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. Shu boisdan ham nazariy jihatdan o’rgangan bilimlarini amaliy mashqlar orqali uyg’unlashtirishni taqozo etadi.

Tilshunoslik va ona tili o’qitish metodikasi sohasida morfologiya bilan bog’liq masalalar keng o’rganilgan. O’zbek tilshunos olimlari A.G’ulomov, N.Mahmudov, Sh.Rahmatullayevlarning “Hozirgi o’zbek tili morfologik kategoriyalar va so’z turkumlariga oid masalalari bo’yicha nazariy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang’ich ta’lim metodikasi sohasida R.Yo’ldosheva, M.Qurbonova, D.Xudayberganova kabi olimlar tomonidan ona tili darslarini tashkil etish, grammatik tushunchalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Biroq, mavjud tadqiqot ishlarida boshlang’ich sinf ona tili darslarida morfologik tushunchalarni rivojlantirishning tizimli modeli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullar asosida takomillashtirish masalalari yetarlicha kompleks o’rganilmagan. Shuning uchun ham hozirgi davr tilshunosligida til birliklarining shakllanishi, o’quvchilarning nutqiy faoliyatida morfologiyaning o’rni muhim ahamiyatga ega.

Boshlang’ich sinflar kesimida morfologik tushunchalar soddaroq shaklda va qisqa mazmunda o’qitiladi. Boshlang’ich ta’lim ona tili darslarida morfologik bilimlar sinflar kesimida so’z turkumlari doirasida belgilar asosida quyidagicha o’qitiladi:

Ot. 1-2-sinflarda o’quvchilar ot so’z turkumi sifatida uning belgilarini, ya’ni qanday so’roqqa javob bo’lishini va nimani bildirishini o’rganadilar.

3-sinfda otga atama beriladi, otning birlik va ko’plik shakllarini o’rganishadi.

4-sinfga kelib esa dasturga muvofiq otning egalik va kelishik qo’shimchalarini, ya’ni turlanishini o’rganadi.

Sifat. 1-2-sinflarda o’quvchilar sifatning leksik ma’nosini hamda sifatga qanday? qanaqa? so’roqlar berishni o’rganadi.

3-sinfda sifat turkum ekanligi haqida tushunchalar beriladi.

4-sinfda grammatik materiallar bilan bog'lagan holda orttirma darajadagi masalan, ko'm-ko'k, qop-qora, qip-qizil kabi shakllardagi ko'rinishini va ishlatilishini o'rganadi.

Demak, boshlang'ich sinflarda sifat quyidagi tartibda o'rgatiladi:

1.Sifat bilan dastlab belgilar asosida tanishtiriladi masalan, nimaligi, so'rog'i aniqlanadi va o'rgatiladi (1-2-sinf);

2.Sifat haqida tushuncha beriladi ya'ni so'z turkumi deb o'rgatiladi (3-sinf);

3.Sifatning darajalarini gramsinflar atik materiallar bilan bog'lashni, qay tartibda ishlatilishini va yozilishini o'rganadi (4-sinf).

Son. 1-2-sinflar kesimida nechta? qancha? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsaning sanog'ini, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lib shaxs va narsaning tartibini bildiradi deb o'rgatiladi.

3-sinfda son o'quvchilarga turkum sifatida tanishtiriladi, ya'ni narsa, predmetning miqdorini bildirib otga bog'lanib ifodalanishini o'rganadi.

4-sinfda sonning turlari, sanoq va tartib sonlarni tartib sonlarning rim, arab raqamlari bilan qolaversa, harflar bilan ifodalanishini ham o'rganadi.

Olmosh. Boshlang'ich sinflarda olmoshning faqat kishilik olmoshlari o'rgatiladi. Agar o'quv dasturi va darsliklarni tahlil qiladigan bo'lsak, boshlang'ich sinf ona tili darslarida olmosh so'z turkumi haqida ma'lumotlarni boshqa so'z turkumlariga nisbatan kamroq bo'lganini ko'rish mumkin. 4-sinfda o'quvchilarga

faqat olmoshning ma'no turlaridan kishilik olmoshlari (men, sen, u, biz, siz, ular) I, II va III shaxslarda birlik va ko'plik shakllarda ifodalanishini o'rganishadi.

Fe'l. Boshlang'ich ta'lim tizimida 1-sinfda fe'l so'z turkumining leksik-grammatik ma'nosi, ya'ni o'quvchilar predmetning harakatni bildirishini, qanday so'roqqa javob bo'lishini, shuningdek, rasmlar asosida matn tuzish orqali ham o'rganib borishadi.

2-sinfda fe'l so'z turkumi deb tanishtiriladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilardan o'zlari bajarayotgan ish-harakatlarini aytishini so'raydi, masalan, "O'quvchilar nima qildilar", "Yozdilar", "Kitob o'qidilar" kabi javob berishni o'rganadilar.

3-sinfda o'quvchilarga dasturga muvofiq fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari va ularning qanday farqlanishi haqida tushunchalar o'rgatiladi. Aytaylik, o'qituvchi o'quvchilarga fe'l so'z turkumiga oid biror bir matnni o'qib berishi orqali yoki o'quvchilarga o'qitish orqali matnda ishtirok etgan fe'llarni toping deydi, agar ish-harakat bajarilganligini bildirsa demak, u bo'lishli fe'l shaklini, ish-harakat bajarilmaganligini bildirsa, bo'lishsiz fe'l ekanligini tushunadi va farqlarini bir-biridan ajratishni o'rganib oladi.

4-sinfda esa o'quvchilarga fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini, 3xil zamon: hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlarning ishlatilishini, farqlari haqida aynan fe'lning shu xususiyatlariga doir tushunchalar beriladi va fe'l turkumi bo'yicha bilimlari mustahkamlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda morfologik tushunchalarning o'qitilishi o'quvchilarda ta'limning dastlabki bosqichidanoq grammatik tushunchalarni, nutqiy ko'nikmlarini, til birliklaridan ongli ravishda foydalanish hamda nutqiy faoliyatda to'g'ri foydalana olish kabi ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Morfologik tushunchalarni boshlang'ich ta'lim tizimida rivojlantirish uchun amaliy mashqlar, innovatsion usullar va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Shunda o'quvchilar morfologiyaga oid qoidalarni faqat yodlab emas, balki nutqda muayyan vaziyatga mos holatda to'g'ri foydalanishni ham o'rganadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning til kompetensiyalarining shakllanishida asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-76-sonli Farmoni. -05.05.2025-y.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada

rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6084-sonli Farmoni. -20.10.2020-y.

3.B.To’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova “O’zbek tili o’qitish metodikasi” -86-b.

4. Qosimova K., Matchonov S., G’ulomova X., Yo’ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi. - Toshkent: “Noshir” – 2009, 352-bet.

5. Nusratova, K. (2025). THE ROLE OF INTEGRATED EDUCATION IN PRIMARY SCHOOLS. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 350-352.

6. H.Nusratova. Boshlang’ich sinf O’qish savodxonligi kitobidagi ilmiy ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2023/12 son. – B.150-154.

7.H.Nusratova. BOLALAR PUBLITSISTIKASI RIVOJIDA SAFAR BARNOYEVNING O‘RNI. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024 yil. – B.213-216.

8.H.Nusratova. BOLALIKKA OSHUFTA QALB EGASI... “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024 yil. – B.84-86.

9.H.Nusratova. O’zbek bolalar adabiyoti tadrijida qissa janrining o’rni (S.Barnoyev asarlari misolida). Education human life ilmiy jurnal 2023/1-son. – B.8-18.

10.H.Nusratova. O’zbek bolalar adabiyoti tadrijida qissa janrining o’rni (S.Barnoyev asarlari misolida). Education human life ilmiy jurnal 2023/1-son. – B.8-18.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

MA’NAVIYATGA TAHDIDLAR: GLOBALLASHUV DAVRIDA DOLZARB MASALA

Latipov Ravshanbek Abdurashid o‘g‘li,
Milliy universitet erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida ma’naviyatga tahdid soluvchi omillar, ularning kelib chiqish sabablari hamda jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Zamonaviy axborot makonining kengayishi, ommaviy madaniyatning kirib kelishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri natijasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy merosga nisbatan yuzaga kelayotgan xavflar yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi g‘oyalar, madaniyatsizlik unsurlari hamda axborot xurujlari masalalari alohida e’tibor markazida bo‘ladi. Muallif tomonidan ma’naviy tahdidlarning oldini olish, milliy o‘zlikni asrash, ma’naviy immunitetni mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, globallashuv, ma’naviy tahdidlar, axborot makoni, ommaviy madaniyat, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy xavfsizlik, madaniy meros, axborot xurujlari

УГРОЗЫ ДУХОВНОСТИ: АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Латипов Равшанбек Абдурашид угли,
Независимый исследователь Национального университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы, представляющие угрозу духовности в условиях глобализации, их причины возникновения и негативное влияние на общество с научно-теоретической точки зрения. Особое внимание уделяется расширению современного информационного пространства, влиянию массовой культуры, интернета и социальных сетей на национальные ценности, традиции и духовное наследие. Также анализируются вопросы воздействия деструктивных идей на сознание молодежи, элементы безнравственности и информационные атаки. Автор предлагает научно обоснованные рекомендации по предотвращению духовных угроз, сохранению национальной идентичности и укреплению духовного иммунитета общества.

Ключевые слова: духовность, глобализация, духовные угрозы, информационное пространство, массовая культура, национальные ценности, воспитание молодежи, духовная безопасность, культурное наследие, информационные атаки

THREATS TO SPIRITUALITY: A PRESSING ISSUE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Latipov Ravshanbek Abdurashid o‘g‘li,
Independent researcher at the National University

Abstract. This article examines the factors threatening spirituality in the context of globalization, their underlying causes, and their negative impact on society from a scientific and theoretical perspective. Particular attention is paid to the expansion of the modern information space, the influence of mass culture, the internet, and social networks on national values, traditions, and spiritual heritage. The paper also highlights the impact of destructive ideas on the minds of young people, elements of moral degradation, and information attacks. The author proposes scientifically

grounded recommendations for preventing spiritual threats, preserving national identity, and strengthening the spiritual immunity of society.

Keywords: spirituality, globalization, spiritual threats, information space, mass culture, national values, youth education, spiritual security, cultural heritage, information attacks

KIRISH. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning muhim xususiyatlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan globallashuv jarayoni jahon hamjamiyatining barcha sohalarida chuqur tizimli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayon iqtisodiy integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji hamda madaniy aloqalarning kengayishi bilan bir qatorda, jamiyat ma’naviy hayotiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, globallashuv sharoitida turli madaniyatlar, qadriyatlar va g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib, bu holat milliy ma’naviy tizimlarning barqarorligiga nisbatan yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan ma’naviy tahdidlar ko‘p qirrali va murakkab xarakterga ega bo‘lib, ular bevosita va bilvosita omillar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday tahdidlar qatoriga ommaviy madaniyat ekspansiyasi, axborot makonida destruktiv g‘oyalar tarqalishi, milliy qadriyatlarning transformatsiyaga uchrashi hamda ijtimoiy ongda iste’molchilik psixologiyasining kuchayishi kabi holatlar kiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va global axborot tarmoqlarining kengayishi natijasida ma’naviy makonda yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar an’anaviy ijtimoiy institutlar faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur muammo doirasida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri — yosh avlod ongiga ta’sir etuvchi omillarning ortib borayotganidir. Chunki yoshlar ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar jarayonida eng sezgir qatlam hisoblanib, ularning ma’naviy dunyoqarashi turli tashqi ta’sirlar ostida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy tahdidlarni ilmiy asosda o‘rganish, ularning kelib chiqish mexanizmlarini aniqlash hamda profilaktik choralarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI. Avvalo, ma’naviyat tushunchasining mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda shaxs kamolotidagi ahamiyati bir qator mahalliy olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyayev asarlarida ma’naviyat jamiyatning mustahkam tayanchi, milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin etilib, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi ta’kidlanadi. Uning ilmiy-ijtimoiy qarashlarida globallashuv sharoitida yoshlar ongini turli zararli g‘oyalardan himoya qilish, milliy qadriyatlarni asrash zarurligi alohida qayd etiladi.

Shuningdek, o‘zbek olimlari tomonidan globallashuv jarayonining ma’naviy hayotga ta’siri keng tahlil qilingan. Ular globallashuvni ikki tomonlama jarayon sifatida baholab, bir tomondan taraqqiyot omili, ikkinchi tomondan esa ma’naviy tahdidlar manbai sifatida ko‘rsatadilar. Bu borada milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va ma’naviy immunitetni shakllantirish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida ajralib turadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida globallashuv nazariyasi va uning ijtimoiy-madaniy oqibatlarini o‘rganishga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, Anthony Giddens globallashuvni zamonaviy jamiyatning asosiy xususiyati sifatida izohlab, uning ijtimoiy institutlar va inson ongiga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, globallashuv natijasida makon va vaqt chegaralari qisqarib, turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayadi, bu esa an’anaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib keladi.

Bundan tashqari, Samuel P.Huntington tomonidan ilgari surilgan sivilizatsiyalar to‘qnashuvi konsepsiyasida globallashuv sharoitida madaniy va diniy farqlar asosiy ziddiyat manbai sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv ma’naviy tahdidlarni tushunishda muhim nazariy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi, chunki u global miqyosda qadriyatlar qarama-qarshiligining kuchayishini ko‘rsatadi.

Axborot makoni va ommaviy madaniyatning jamiyatga ta’siri masalalari ham zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Tadqiqotchilar ommaviy madaniyatning standartlashuv va

iste’molchilik qadriyatlarini targ‘ib etishi, milliy madaniy identifikatsiyaning zaiflashishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborot oqimlarining nazoratsizligi ma’naviy tahdidlarning yangi shakllarini yuzaga keltirayotganligi qayd etiladi.

Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy tahdidlar muammosi kompleks yondashuvni talab etadi. Ya’ni, ushbu masalani faqat madaniy yoki mafkuraviy jihatdan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, psixologik va axborot texnologiyalari nuqtai nazaridan ham o‘rganish zarur. Umuman olganda, tahlil etilgan ilmiy manbalar globallashuv jarayonida ma’naviyatga tahdidlar masalasi dolzarb va ko‘p qirrali muammo ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur maqolada mavjud ilmiy yondashuvlar asosida muammoning mohiyati yanada chuqurroq ochib beriladi hamda uni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODLARI. Mazkur tadqiqotni olib borishda ijtimoiy-gumanitar fanlarga xos ilmiy metodlardan kompleks foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez metodlari orqali globallashuv va ma’naviy tahdidlar masalasiga oid ilmiy manbalar o‘rganilib, umumlashtirildi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli yondashuvlar va tajribalar solishtirildi, tarixiylik va mantiqiylik metodlari asosida esa ma’naviy jarayonlarning rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi.

Shuningdek, induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali nazariy xulosalar shakllantirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

ASOSIY QISM. Globallashuv jarayoni XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon taraqqiyotining eng muhim tendensiyalaridan biriga aylandi. 1990-yillardan boshlab internet tarmog‘ining keng ommalashuvi (1991-yilda World Wide Web tizimining joriy etilishi) axborot almashinuvini misli ko‘rilmagan darajada tezlashtirdi. Bugungi kunga kelib, dunyo aholisining 5,3 milliarddan ortig‘i internetdan foydalanadi (2024–2025 yillarga oid xalqaro statistik ma’lumotlarga ko‘ra), bu esa axborot makonining global tus olganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu ochiqlik ma’naviy tahdidlarning ham keng tarqalishiga zamin yaratmoqda.

Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarning eng keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri — ommaviy madaniyatning (mass culture) kuchayishidir. Xususan, G‘arb media mahsulotlarining global bozorda ustunlik qilishi natijasida mahalliy madaniyat va an’anaviy qadriyatlar ayrim hollarda ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. YuNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda 40% dan ortiq kichik tillardagi madaniy kontentlar yo‘qolish xavfi ostida qolmoqda. Bu esa madaniy diversitetning kamayishi va ma’naviy bir xillashuv (homogenizatsiya) jarayonining kuchayishini anglatadi.

Ma’naviy tahdidlar, ayniqsa, yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, o‘smirlar va yoshlar kuniga o‘rtacha 6–8 soat vaqtini raqamli qurilmalarda o‘tkazadi. Bu holat ularning qadriyatlar tizimi shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. 2019–2023 yillarda o‘tkazilgan ayrim sotsiologik so‘rovlarda yoshlarning 60% dan ortig‘i axborot manbalarini tanlashda tanqidiy fikrlashdan yetarli darajada foydalanmasligi aniqlangan. Bu esa ularni turli manipulyativ axborotlarga nisbatan zaif qilib qo‘yadi.

Ma’naviyat masalasi har doim jamiyat taraqqiyotining markaziy omili bo‘lib kelgan. Alisher Navoiy “Ko‘ngil ko‘zi ochiq bo‘lmasa, ko‘z ko‘rgan narsa ham foyda bermas” degan mazmundagi fikrlari orqali inson ma’naviyati moddiy boylikdan ustun ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir” deb, ma’naviy tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi o‘rnini asoslab bergan. Bu fikrlar bugungi globallashuv davrida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashuvning salbiy ta’sirlarini tahlil qilar ekanmiz, axborot urushlari va g‘oyaviy kurashlar ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. 2020-yildan keyin dunyo bo‘yicha kiberhujumlar soni 2 baravardan ko‘proqqa oshgani qayd etilgan. Bu esa axborot xavfsizligi bilan bir qatorda ma’naviy xavfsizlik masalasining ham dolzarbligini kuchaytiradi. Chunki axborot oqimi faqat texnik vosita emas, balki g‘oyaviy ta’sir quroli ham hisoblanadi.

Shu o‘rinda, ma’naviy tahdidlar faqat tashqi omillar bilan emas, balki ichki ijtimoiy muammolar bilan ham bog‘liq ekanini ta’kidlash lozim. Iste’molchilik psixologiyasi, individualizmning keskin kuchayishi hamda “tezkor foyda” tamoyilining ustunlashuvi jamiyat ma’naviy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Natija va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayoni jamiyat ma’naviy hayotiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda: bir tomondan ilm-fan, texnologiya va axborot almashinuvini jadallashtirsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlar tizimiga nisbatan turli ma’naviy tahdidlarni kuchaytirmoqda. Xususan, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, axborot oqimlarining nazoratsizligi hamda ayrim destruktiv g‘oyalarning internet tarmoqlari orqali yoyilishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bu esa ma’naviy immunitetni shakllantirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ma’naviy tahdidlarning oldini olishda eng muhim omil – ta’lim-tarbiya tizimining samaradorligini oshirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashdir. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini rivojlantirish, media savodxonlikni kuchaytirish va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari va jamiyat institutlarining hamkorligi asosiy o‘rin tutadi.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli ravishda kuchaytirish; ikkinchidan, yoshlar uchun milliy qadriyatlar va madaniyatni targ‘ib etuvchi kontentlarni ko‘paytirish; uchinchidan, raqamli muhitda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha targ‘ibot va profilaktik ishlarni kengaytirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar globallashuv sharoitida ma’naviy barqarorlikni saqlash va jamiyatning ma’naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA. Globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, milliy ma’naviyatga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot oqimining keskin ortishi yoshlar ongiga turli xil, ba’zan esa qarama-qarshi g‘oyalar kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa milliy qadriyatlar va an’anaviy dunyoqarashning zaiflashish xavfini yuzaga keltiradi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, ma’naviyatga tahdidlarning asosiy manbalari sifatida ommaviy madaniyat, internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan zararli kontent, hamda iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi tilga olinadi. Ayniqsa, yosh avlodning axborotni tanlab qabul qilish ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmaganligi bu tahdidlarni yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, globallashuvni faqat salbiy hodisa sifatida baholash to‘g‘ri emas. Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, agar to‘g‘ri yondashuv va samarali ma’naviy siyosat olib borilsa, globallashuv milliy ma’naviyatni boyitish, uni yangi bosqichga olib chiqish imkonini ham beradi. Masalan, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib etish bunga misol bo‘la oladi. Natijalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, ma’naviyatni himoya qilishda ta’lim tizimi, oila instituti va jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yoshlar ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining obyektiv va muqarrar bosqichi sifatida namoyon bo‘lib, u ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, xususan, ma’naviy-madaniy sohaga ham chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, milliy ma’naviyat, an’anaviy qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy ongga nisbatan turli shakldagi tahdidlarni yuzaga keltirayotgani ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, axborot makonining globallashuvi, ommaviy madaniyat ta’sirining kuchayishi va destruktiv g‘oyalarning tez tarqalishi ma’naviy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida e’tirof etildi.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, jamiyatda barqaror ma’naviy muhitni shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish,

media savodxonlikni oshirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etish hamda axborot xavfsizligini mustahkamlash muhim strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018

3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1991.

4. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Stanford University Press, 1990.

5. Huntington S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.

6. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.

7. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Globallashuv va madaniy jarayonlar bo‘yicha ilmiy ishlanmalar. 2009.

8. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar: globallashuv, ma’naviyat va jamiyat. – Ilmiy to‘plam. Toshkent, turli yillar.